

B. M. Gulimetova
E. Xudayberganova

O'lkashunoslik terminlarining
FRANSUZCHA-O'ZBEKCHA
IZOHLI LUG'ATI

DICTIONNAIRE RAISONNÉ
FRANÇAIS-OUZBEK
de la civilisation française

B. M. GULIMETOVA, E. XUDAYBERGANOVA

**DICTIONNAIRE
RAISONNÉ FRANÇAIS-OUZBEK
DE LA CIVILISATION
FRANÇAISE**



**O‘LKASHUNOSLIK
TERMINLARINING
FRANSUZCHA-O‘ZBEKCHA
IZOHLI LUG‘ATI**

**„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT – 2016**

**DICTIONNAIRE RAISONNÉ
DE CIVILISATION FRANÇAIS-OUZBEK**

**OʻLKASHUNOSLIK
TERMINLARINING
FRANSUZCHA-OʻZBEKCHA
IZOHLI LUGʻATI**

FRANCE

FRANSIYA

UO'K: 811.133.1:908(038)

811.512.133:908(038)

KBK 26.89ya2

81.2Fr-4

G95

Ushbu lug'atda Fransiya tabiati, uning ma'muriy bo'linishi (dengiz-orti departamentlari va hududlarini o'z ichiga olgan holda), davlat tuzilishi, ta'lim tizimi; metropoliyaning 22 ta iqtisodiy regioniga xarakteristika, Fransiyaning arxitektura yodgorliklari, muzeylari, teatrlari va Fransiya paydo bo'lgan tasviriy san'at yo'nalishlari haqida izohlar berilgan.

Lug'at nafaqat fransuz tilini o'rganuvchi o'quvchilar, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalari, balki shu tilni mustaqil o'rganuvchilar va Fransiya davlati bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar uchun juda foydalidir.

Tuzuvchilar:

Gulimetova Bozorgul Matkarimovna –

Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti o'qituvchisi;

Xudayberganova Erkinoy –

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Mas'ul muharrir

Mamatov Abdimurod Eshonqulovich –

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori

Taqrizchilar:

Ro'zmetov Hamid Qalandarovich –

Urganch davlat universiteti dotsenti;

Hojiyev Saidjon Kazakovich –

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti

ISBN 978-9943-02-940-8

© „O'qituvchi“ NMIU, 2016

AZIZ OʻQUVCHILAR !

Fransuz tilida erkin soʻzlashish, muloqot qilish uchun bu tilning grammatik, fonetik va leksik jihatlarini bilish bilan bir qatorda, Fransiya madaniyatini keng oʻrganish zarur: uning tarixi, geografiyasi, davlat tizimi, siyosiy hayoti, sanʼati, adabiyoti, fransuz xalqining kundalik turmush tarzi, ularning bayramlari, odat va anʼanalari bilan chuqur tanishish lozim boʻladi. Bu jihatlarining barchasi fransuz tilining oʻlkashunoslik fani sohasida-predmetlar, tushunchalar, hodisalarni anglatuvchi maxsus leksikalar, bizning mamlakatimizdagidan farq qiluvchi yoki boʻlmasa, umuman boʻlmagan, ishlatilmaydigan soʻzlar orqali beriladi. Oʻlkashunoslikka oid atamalarni odatdagi fransuzcha – oʻzbekcha lugʻatlardan topish mushkul boʻlganligi tufayli maxsus fransuzcha-oʻzbekcha oʻlkashunoslik oʻquv - izohli lugʻatini yaratish zaruriyati tugʻildi. Bu lugʻat yordamida oʻquvchi oʻzining oʻlkashunoslik boʻyicha bilimlarini chuqurlashtirishi va kengaytirishi, hozirgi Fransiyaning yaxshiroq bilishi mumkin boʻladi. Oʻlkashunoslik atamalarining tez-tez oʻzgarishini inobatga olgan holda, lugʻatni tuzishda asosan, fransuz adabiyoti asl nusxasining 1990-yillardan keyingi manbalaridan foydalanilgan.

Lugʻat oʻrta taʼlim muassasalari oʻquvchilari, oliy oʻquv yurtlari talabalari va fransuz tilini mustaqil oʻrganuvchilar uchun moʻljallangan. Bu lugʻat sizlarda Fransiya bilan chuqurroq tanishish istagini va fransuz tilini chuqurroq oʻrganish hohishini uygʻotishiga ishonamiz.

Shuni alohida taʼkidlash joizki, mazkur kitobda ayrim kamchilik va nuqsonlar boʻlishi tabiiy. Shu boradagi tanqidiy fikr va mulohazalaringizni bajonudil qabul qilamiz va kelgusidagi ishlarda, albatta inobatga olamiz.

Ushbu lugʻatni tayyorlash moboyinida oʻzlarining qimmatli fikr va mulohazalarini bildirgan insonlarga samimiy minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Sizga omadlar tilaymiz!

Mualliflar

SOʻZBOSHI

Lugʻatning maqsad va vazifalari:

Hozirgi paytda xorijiy tilni oʻrganishda koʻp eʼtibor mazkur tilda soʻzlashuvchi xalq madaniyatini oʻrganishi, shu mamlakatning oʻziga xos jihatlarini bilishga qaratiladi. Bu oʻziga xos xususiyatlar, geografik nomlanishlar, muhim tarixiy voqealar nomi, anʼanalar, marosimlar, bayramlar, madaniy meroslar, buyuk shaxslar nomlari, ijtimoiy-siyosiy jabhalarda va hokozolarda oʻz aksini topgan. Bu atamalarni bilmay yoki oʻrganmay turib, mazkur tilda erkin muloqot qilish, xorijiy gazetadagi maʼlumotni aniq tarjima qilish, kino va videofilmlar tomosha qilish, qoʻshiq tinglash va nihoyat asl nusxadagi adabiyot matnlarini chuqur anglash mumkin emas. Shuning uchun xorijiy tilni oʻrganishning birinchi qadamlaridanoq, oʻquvchilar bir vaqtning oʻzida zarur boʻlgan oʻlkashunoslik maʼlumotlariga ham ega boʻlganlari maqsadga muvofiq boʻladi. Maxsus oʻlkashunoslik lugʻatining yaratilishi bu talabga javob beradi degan umiddamiz.

Lugʻatdan oʻrta maktablarning yuqori sinflarida, litsey va gimnaziyalarda shuningdek, oliy va oʻrta taʼlim muassasalarida foydalanish mumkin:

- Fransuz tili darslarida darslikdagi maʼlumotlarga qoʻshimcha maʼlumot sifatida, maʼruza va mavzuga oid axborotlar tayyorlashda;
- Ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda;
- Fransiya oʻlkashunosligiga oid mashgʻulotlarda;
- Fakultativ mashgʻulotlarda va mazkur tildan sinfdan tashqari ishlarda (kechalar tayyorlash va devoriy gazetalar chiqarishda).

Bundan tashqari, bu lugʻat keng kitobxonlar ommasiga - Fransiya va uning madaniyati bilan qiziquvchilarga, bu mamlakatga safar qiluvchilar uchun, fransuz tilida shu millat vakillari kabi erkin, bemalol soʻzlashishni oʻrganuvchilar uchun juda ham foydali.

Lugʻatning mazmuni

Lugʻatga quyidagi oʻlkashunoslik mavzulari kiritilgan:

1. Tabiiy shart-sharoitlari
2. Aholisi
3. Dini
4. Tillari (davlat tili va shevalari)
5. Davlat ramzlari
6. Maʼmuriy, boshqaruv boʻlimlari
7. Maʼmuriy hududlar va okruglar
8. Davlat tizimi
9. Ijtimoiy-siyosiy hayoti
10. Davlat va siyosiy arboblari
11. Fransiya tarixidagi muhim davrlar
12. Iqtisodiyot (22 ta mustamlakalarga ega boʻlgan regionlarga tavsifnomalar)
13. Taʼlim tizimi
14. Bayramlar, anʼanalar, fransuz xalqining turmush tarzi
15. Sport oʻyinlari va musobaqalar
16. Sanʼat sohasidagi asosiy yoʻnalishlar (rassomchilik, haykaltaroshlik, meʼmorchilik, musiqa, teatr)
17. Meʼmoriy yodgorliklar va muzeylar.

Lugʻatni tayyorlashda Fransiya tarixi va geografiyasiga oid maxsus adabiyotlardan, madaniy hayotning turli jabhalari toʻgʻrisidagi Fransiyaning ijtimoiy-siyosiy hayoti haqidagi gazeta va jurnal maqolalaridan olindi. Shuni taʼkidlash joizki, oʻlkashunoslikka oid maʼlumotlarning tez eskirib qolayotgani uchun asosan eng soʻnggi yillarda chiqqan fransuz adabiyotlari va OAV maʼlumotlaridan (1990-yildan keyin) foydalanildi.

Material tanlashda sof fransuz lahjasida, boshqa tilda maʼnodosh boʻlmagan (**Hexagone, Marianne, conseil de mercredi, óCohabitationô, Palais Bourbon, cadre, pétanque, fête des Rois**, etc) soʻzlardan foydalanishni lozim topildi. Shu

bilan bir qatorda lugʻatga lingvistik birliklar (baccalauréat, pervenche, périodes rouges, périodes bleues, etc.), shuningdek, sanʼatdagi yoʻnalishlar va falsafiy qarashlar bilan bogʻliq boʻlgan realiyalar kiritilgan. Shuni alohida taʼkidlash joizki, lugʻatda ishlatilgan ibora va atamalar faqat Fransiyada qabul qilingan soʻz va atamalar bilan izohlangan. Masalan, “1789-1794-yillardagi Buyuk Fransuz Revolyutsiyasi” koʻpincha oʻzbek tilidan fransuz tiliga (“La grande Révolution française”) aynan oʻgirilgan boʻlib, fransuzlar –“La Révolution française”ga koʻnikib qolishgan (*Révolution* soʻzining bosh harflar bilan yozilishining oʻziyoq uning buyukligini ifodalaydi).

Lugʻatga kiritilgan buyuk shaxslarga bagʻishlangan maqolalarda ularning Fransiya tarixidagi muhim voqealarda tutgan oʻrni, shuningdek, turli siyosiy partiya va harakatlarning vujudga kelishi va rivojlanishi toʻgʻrisida soʻz yuritilgan.

Lugʻatning tuzilishi

Lugʻat quyidagicha tuzilgan: soʻzboshi, fransuz va oʻzbek alifbosi, qisqartmalar roʻyxati, lugʻat maqolalari, shuningdek, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va mundarija.

Lugʻatda baʼzi soʻz va iboralar bosh harflar bilan berilgan. Masalan: maʼmuriy hududlar (Limousin, Auvergne, Basse-Normandie, Lorraine), qirollar va cherkov nomlari (Madeleine), teatr nomlari (Maison de Molière, Comédie Française), Vazirlar Kengashi (Conseil des ministres), Davlat Kengashi (Conseil d'Etat), Fransiyaning eng katta kutubxonalari nomlari (Bibliothèque Nationale de France, Bibliothèque Nationale), Fransiya tarixidagi mashhur janglar nomlari (Batail de Verdun, Batail de Poitiers, Batail de Moscou), ibodatxonalar (Notre Dâme de Paris, Basilique du Sacré-Coeur), okeanlar, Milliy Majlis (Assemblée Nationale), qonun chiqaruvchi majlis (Assemblée législative), departamentlar, togʻ nomlari, fransuz akademiyalari va oʻquv okruglari.

Lugʻatdan foydalanish tartibi

Anʼanaviy tarzda lugʻat alfavit tarzida tuzilgan. Tez-tez uchraydigan abbreviaturalar lugʻat tarkibiga kiritilgan. Tarjima qilinayotgan soʻz fransuz tilida nomlangan boʻlib, undan keyin shu soʻzning oʻzbek tiliga tarjimasi, // belgisidan keyin esa shu soʻzning qanday maʼnolarda ishlatilishi, shuningdek tushuntirish izohlari berilgan.

Lugʻatning har ikkala tili: fransuz tili ham oʻzbek tili ham lotin alifbosida boʻlganligi sababli, foydalanish oson boʻlishini koʻzlagan holda fransuzcha matn (bosh soʻz) toʻq rangda, bosh soʻz tarjimasi qiya harflar bilan, oʻzbekcha matn esa och rangda berildi. Lugʻatning bosh soʻzlari matnda farqlanib turishi uchun biroz kattaroq (16) shriftida berildi. Masalan:

Autoroute *f – avtomagistral* // Yuqori sifatli yoʻllar avtomobillarning 130 km/s gacha boʻlgan tezlikdagi xavfsiz harakatini taʼminlaydi. Bir yoʻnalishda soatiga 3600 tagacha mashina yurishi mumkin. Fransiya avtomagistralining umumiy uzunligi 5500 km.

Rod va sonlar faqat bosh soʻzlardagina koʻrsatilgan va ular qiya harflar bilan och rangda berildi (*m, f, pl.*). Masalan:

académie *f*

encyclopédistes *m, pl*

néo- classicisme *m*

Soʻz birikmasida artiklsiz ishlatish hollari uchrasa, artikl koʻrsatiladi. Masalan,

Sainte-chapelle (*la*)

Atelier (*lō*)

Verts (*les*)

Réunion (*la*)

Avent (*lō*)

Valois (*les*)

Bourbons (*les*)

Koʻplab leksik birikmalar stilistik jihatdan betaraf. Ayrim hollarda qaysi sohada ishlatilishiga ishoralar qilinadi.

« **baba** » *m soʻzl.*

taupe *f maktab jargoni*

«**branché**» *m soʻzl.*

Puy *m hud.*

Jongleur *m tar.*

BCBG (*qisq.*) - *qisqartma soʻz*

Calanque *f hud.*

Alphabet français

Aa [ɑ]	Nn [ɛn]
Bb [be]	Oo [o]
Cc [se]	Pp [pɛ]
Dd [de]	Qq [ku]
Ee [œ]	Rr [ɛr]
Ff [ɛf]	Ss [ɛs]
Gg [je]	Tt [te]
Hh [aʃ]	Uu [uy]
Ii [i]	Vv [ve]
Jj [ji]	Ww [dubløve]
Kk [ka]	Xx [iks]
Ll [ɛl]	Yy [igrek]
Mm [ɛm]	Zz [zɛd]

Oʻzbek lotin alifbosi

Aa	Mm	Yy
Bb	Nn	Zz
Dd	Oo	O‘o‘
Ee	Pp	G‘g‘
Ff	Qq	Sh sh
Gg	Rr	Ch ch
Hh	Ss	ng
Ii	Tt	
Jj	Uu	
Kk	Vv	
Ll	Xx	

SHARTLI QISQARTMA VA BELGILAR

ABREVIATIONS

va hk. - va hakozi

sh. - shahar

Depart. - departament

va boshq. –va boshqalar

ga - gektar

kv. km. - kvadrat kilometr

km/s - kilometr soat

so‘zl. - so‘zlashuv uslubida, og‘zaki nutqda ishlatiladigan

reg. - regional

hud. - hududiy

tar. - tarixiy

q.- qarang

qisq. - qisqartma so‘z

q/x - qishloq xo‘jaligi

y.yy. - yillar

FRANSUZCHA QISQARTMALAR

f - féminin – jenskiy rod

m - masculin – mujskoy rod

pl. ñ pluriel – ko‘plik

CHERS LECTEURS!

Pour converser librement en français il faut apprendre largement la culture de la France et aussi les côtés grammairaux, phonétique et lexiques de cette langue: il est nécessaire de connaître son histoire, sa géographie, son régime d'Etat, sa vie politique, son art, sa littérature, le mode de vie quotidienne du peuple français, leurs fêtes, leurs coutumes et traditions. Toutes ces côtés sont données par les mots qui distinguent de ceux de notre pays ou bien qui n'existent pas, qui ne s'emploient pas, par les lexiques spéciaux signifiant les choses, les notions, les événements dans le domaine de l'ethnographie française. A cause de la difficulté de trouver les termes ethnographiques dans les dictionnaires français-ouzbek a été apparu le besoin de créer un dictionnaire raisonné français-ouzbek. A l'aide de ce dictionnaire l'élève peut savoir mieux la France moderne, perfectionner et élargir ses connaissances d'après l'ethnographie. On a utilisé les sources de la copie de la littérature française suivantes de 1990 pour former un dictionnaire en prenant en compte le changement des termes ethnographique.

Le dictionnaire est destiné aux élèves des établissements, aux étudiants des écoles supérieures et aux gens apprenant individuellement cette langue. Nous sommes sûrs qu'il réveillera le désir d'apprendre profondément le français et la volonté de faire connaissance avec la France.

Bonne chance !

Auteurs

Avant-propos

Les fonctions et les buts du dictionnaire :

Actuellement en apprenant une langue étrangère on fait une grande attention à apprendre la culture du peuple parlant cette langue, à savoir les aspects particuliers de ce pays. Ces aspects particuliers sont reflétés aux noms géographiques, aux noms d'importants événements historiques, aux traditions, aux cérémonies, aux fêtes, aux héritages culturels, aux noms des gens éminents, aux domaines socio-politiques et aux autres. Il est impossible de converser librement à cette langue, de traduire correctement les informations des journaux étrangers, de regarder les vidéofilms, d'écouter la musique et enfin de comprendre profondément les textes originaux de la littérature. C'est pourquoi premièrement, les élèves doivent avoir des renseignements ethnographiques.

On peut utiliser ce dictionnaire aux classes supérieures des écoles, aux lycées et aux gymnases, aux établissements supérieurs et professionnels:

- pour préparer les informations sur le thème et le discours en qualité d'ajouter quelques informations aux manuels de français;
- pour traduire les textes sociopolitiques et économiques;
- pour des occupations sur l'ethnographie de la France;
- pour l'étude individuelle et pour des cours facultatifs.

Outre cela, ce dictionnaire est très utile pour la masse des lecteurs - pour ceux qui s'intéressent à la France et sa culture, pour les visiteurs, pour apprendre à parler facilement comme les Français.

Contenu du dictionnaire

Dans le dictionnaire sont entrés les thèmes ethnographiques ci-dessous :

1. Ses conditions naturelles
2. Sa population
3. Sa religion
4. Ses langues (langue d'Etat et dialectes)
5. Ses attributs d'Etat
6. Ses divisions administratives et directives

- 7.Ses districts et territoires administratifs
- 8.Son régime d'Etat
- 9.Sa vie sociopolitique
- 10.Ses hommes d'Etat et politique
- 11.Les époques importantes de l'histoire de la France
- 12.L'économie (caractéristique aux 22 régions ayant des colonies)
- 13.Son système éducatif
- 14.Les fêtes, les traditions, le mode de vie du peuple français
- 15.Les jeux sportifs et compétitions
- 16.Les directions principales dans le domaine d'art (peinture, sculpture, architecture, musique, théâtre)
- 17.Les monuments architecturaux et musées

A la préparation du dictionnaire sont pris les renseignements des littératures spéciales sur l'histoire et la géographie de la France, des articles des journaux et revues sur la vie sociopolitique de la France. Il est important de confirmer qu'on a profité des informations des mass-médias et des littératures françaises publiées dans les années dernières (après 1990).

Pour le choix du matériel on trouve nécessaire d'utiliser les mots qui ne sont pas synonymes au dialecte propre français, à l'autre langue (Hexagone, Marianne, conseil de mercredi, Coabitation, Palais Bourbon, cadre, pétanque, fêtes des Rois, etc.). En même temps au dictionnaire sont entrés les unités linguistiques, c'est-à-dire la lexique konnotative (baccalauréat, pervenche, périodes rouges, périodes bleues, etc.) des Français, y compris, les réalités dépendant des orientations de l'art et des attitudes philosophiques. Il faut constituer que les expressions et termes employées dans le dictionnaire ne raisonnent qu'avec les mots et les expressions adoptés en France. Par exemple, la phrase «Buyuk Fransuz Revolyutsiyasi» est traduite de même (La Grande Révolution française) en français. Les Français se sont habitués à «La Révolution française» le mot «Révolution» écrit avec majuscule signifie sa grandeur.

Dans les articles consacrés aux grands hommes sont évoqués sur leur place aux événements importants dans l'histoire de la France, y compris, sur l'apparition de différents partis et mouvements et sur leur développement.

Structure du dictionnaire de l'ordre suivant :

Le dictionnaire est composé comme ci-dessous: avant-propos, alphabet français et alphabet ouzbek, liste des abréviations, articles du dictionnaire, y compris, liste de la bibliographie sélective et table des matières.

Dans les dictionnaires certains mots et phrases sont donnés à la lettre majuscule. Par exemple: territoires administratifs (Limousin, Auvergne, Basse Normandie, Lorraine), noms des rois et des églises (Madeleine), théâtre (Maison de Molière, Comédie Française), Conseil des Ministres (Conseil des Ministres), Conseil d'Etat, noms des grandes bibliothèques de la France (Bibliothèque Nationale de la France, Bibliothèque Nationale), célèbres batailles dans l'histoire de la France (Bataille de Verdun, Bataille de Poitiers, Bataille de Moscou), les cathédrales (Notre Dame de Paris, Basilique du Sacré-Coeur), océans, Assemblée Nationale (Assemblée Nationale), Assemblée législative (Assemblée Législative), les départements, les noms des montagnes, académie française et les districts d'études.

Ordre d'utilisation du dictionnaire

Les abréviations trouvées souvent sont entrées dans le dictionnaires. Le mot qui est traduit est nommé en français. Après ce mot est donnée la traduction en ouzbek. Après le signe // sont donnés les variantes des correspondances de ce mot, en même temps les explications.

Les deux langues du dictionnaire : français et ouzbek sont en latin. Pour faciliter d'utilisation du dictionnaire les mots capitales sont en couleur foncée et en forme plus grande que les autres. Par exemple :

autoroute *f –avtomagistral* // Yuqori sifatli yo'llar avtomobillarning 130 km/s gacha bo'lgan tezlikdagi xavfsiz harakatini ta'minlaydi. Bir yo'nalishda soatiga 3600 gacha mashina yurishi mumkin. Fransiya avtomagistralining umumiy uzunligi 5500 km.

Les genres et les nombres ne sont que montrés aux mots principaux et ils sont donnés avec des lettres obliques en couleur beige (*m, f, pl.*). Par exemple :

académie *f*

encyclopédistes *m,pl*

néo-classicisme *m*

Si les cas d'utiliser sans article au groupe de mot, est montré l'article. Par exemple :

Sainte-Shapelle (**la**)

Atelier (**lō**)

Verts (**les**)

Réunion (**la**)

Avent (**lō**)

Valois (**les**)

Bourbons (**les**)

Plusieurs groupes de mots s'abstiennent d'après la stilistique :

« **baba** » *m soǿl.*

taupe *f maktab jargoni*


«**branché**» *m soǿl.*

puy *m hud.*

jongleur *m tar.*

BCBG (*qisq.*) - *qisqartma soǿ*

calanque *f hud.*



La Marseillaise

Allons enfants de la Patrie,
Le jour de gloire est arrivé !
Contre nous de la tyrannie,
L'étendard sanglant est levé, *(bis)*
Entendez-vous dans les campagnes
Mugir ces féroces soldats ?
Ils viennent jusque dans vos bras
Égorger vos fils, vos compagnes !

Refrain :

Aux armes, citoyens
Formez vos bataillons
Marchons, marchons !
Qu'un sang impur
Abreuve nos sillons !
Que veut cette horde d'esclaves,
De traîtres, de rois conjurés ?
Pour qui ces ignobles entraves,
Ces fers dès longtemps préparés ? *(bis)*
Français, pour nous, ah ! quel outrage
Quels transports il doit exciter !
C'est nous qu'on ose méditer
De rendre à l'antique esclavage !

Refrain

Tremblez, tyrans et vous perfides
L'opprobre de tous les partis,
Tremblez ! vos projets parricides
Vont enfin recevoir leurs prix ! *(bis)*
Tout est soldat pour vous combattre,
S'ils tombent, nos jeunes héros,
La terre en produit de nouveaux,
Contre vous tout prêts à se battre !

Refrain

Français, en guerriers magnanimes,
Portez ou retenez vos coups !

Épargnez ces tristes victimes,
À regret s'armant contre nous.
(bis)

Mais ces despotes sanguinaires,
Mais ces complices de Bouillé,
Tous ces tigres qui, sans pitié,
Déchirent le sein de leur mère !

Refrain

Amour sacré de la Patrie,
Conduis, soutiens nos bras vengeurs
Liberté, Liberté chérie,
Combats avec tes défenseurs !
(bis)

Sous nos drapeaux que la
victoire

Accoure à tes mâles accents,
Que tes ennemis expirants
Voient ton triomphe et notre
gloire !

Refrain

Nous entrerons dans la carrière
Quand nos aînés n'y seront plus,
Nous y trouverons leur
poussière

Et la trace de leurs vertus *(bis)*

Bien moins jaloux de leur
survivre

Que de partager leur cercueil,
Nous aurons le sublime orgueil
De les venger ou de les suivre

A

abstrait (art) – *abstrakt san'at* // XX asr san'atida aniq hayotni rassomchilikda, haykaltaroshlik va grafikada ko'rsatishdan bosh tortgan yo'nalish. «Abstractionisme», «art nonfiguratif», «art non-objectif», «art informel» deb ham nomlanadi. Buning asoschilari deb (1879-1953-y.) rassom va yozuvchi F.Pikabiy va Fransiyada yashagan Rossiyalik fuqaro V.Kandinskiy (1866-1944 - yillarda yashagan) hisoblanadi. Ularning «Kauchuk» (Pikabiy) va «Birinchi abstrakt akvarel - bo'yoq» (Kandinskiy) nomli kartinalari tasviriy san'atda 1909-yilda revolyutsiyani boshlab bergan deb hisoblanadi. 1941- yilda Parijda yetakchi rassomlarning birinchi ko'rgazmasi bo'lib o'tdi va bunda abstrakt san'atini N.de Stal (1914-1955), G.Xartung (1904-1989), S.Polekov (1906-1969), O.Debre (1920-y.) va boshqalar namoyish qilishdi. 50-60-yillarda abstraksionizmning yangi yo'nalishi - kinetik san'at rivojlandi.

Académie *f* - *o'quv okrug*i // Fransiyada ta'lim tizimi markazlashtirilgan va bosqichma - bosqich tuzilishga ega. Fransiya metropoliyasi va uning atrofi hududlari 28 ta o'quv okrugiga bo'lingan; bu okruglar milliy ta'lim davlat xizmatiga bo'ysunadi. O'quv okrugining boshlig'i rektor hisoblanadi (q.recteur). Rektor universitet va boshqa muxtor tashkilotlar faoliyatini nazorat qiladi va kansler maqomiga ega. O'quv okrug i ma'muriyatiga kanslerdan tashqari inspektor (nazoratchi)lar kiradi (inspecteur de l'académie). Har bir o'quv okrug i (Parijdan tashqari) bir qancha departamentlarni o'z ichiga oladi, bularning har birini departamentning xalq ta'limi xizmati direktori boshqaradi. Rektor va o'quv okrug i nazoratchilari, shuningdek, xalq ta'limi xizmati direktorlari respublika prezidenti farmoyishiga asoslanib tayinlanadi.

Académie des Beaux-Arts - *Nafis san'at akademiyasi* // Fransiya Instituti 5 ta akademiyasidan bittasi (q.Institut de France) bo'lib, kardinal Mazarini 1648-yilda asos solgan “Rassomchilik va haykaltaroshlik” akademiyasi va 1671-

yilda Lyudovik XIV va uning moliya vaziri Kolber tomonidan asos solingan “Me’morchilik” akademiyalarining birlashishi natijasida 1816-yilda tashkil topgan. Uning vazifalari - badiiy ijodga yordam ko’rsatish va Fransiya madaniy merosini saqlash. Uning 7 ta bo‘limi bor: rassomchilik, haykaltaroshlik, me’morchilik, gravyura, musiqa, kino va audiovizual san’at, san’atshunoslar va metsenatlar. 50 nafar a’zo, 15 nafar uyushgan chet ellik a’zolar va 50 nafar muxbir - a’zolaridan tashkil topgan.

Académie des Inscriptions et Belles-Lettres - *Yozuv va adabiyot akademiyasi* // Fransiya instituti 5 ta akademiyasining bittasi (q.institut de France). 1663- yilda Lyudovik XIV davrida moliya vaziri Kolber tomonidan Fransiya akademiyasining filiali sifatida tashkil qilingan (q.Académie française). 1793 - yilda Konvent tomonidan tarqatib yuborilgan (q.Convention). 1803-yilda Napoleon I tomonidan qayta tiklangan. Davlat muassasalariga tarix, arxeologiya, falsafa va lingvistika bo’yicha maslahat beradi va arxeologik qazishmalarni mablag‘ bilan ta’minlaydi, yozuvlar, shiorlar va medallar ustida ishlaydi. Yirik ilmiy tashkilotlar ishini nazorat qiladi, tarixiy-arxiv maktabining ishlarida qatnashadi va hk. Uning tarkibiga 45 nafar doimiy, 10 nafar erkin, 20 nafar chet el uyushgan a’zolar va 70 nafar muxbir - a’zolar kiradi.

Académie des sciences - *Fanlar akademiyasi* // 1666 - yilda Kolber tomonidan tashkil qilingan Fransiya institutining 5 ta akademiyasidan biri (q.institut de France). Akademiyaning vazifalari: ilmiy izlanishlar saviyasini ko‘tarish va ularni rivojlantirishning 2 ta bo‘limini o‘z ichiga olgan: fundamental, amaliy matematika va fizika; fundamental va amaliy tabiiy fanlar (kimyo, biologiya, tibbiyot). Uning a’zolari orasida Nobel mukofoti sovrindorlari: fiziklar G.Sharpak, P.J.de Jenn, bioximik F.Jakob va boshqalar bor. ”Akademiya xizmatlari”da kimyogarlar Lavuaze, Bertole, biolog Lamark, fizik Pier Kyuri va boshqalar o‘z asarlarini chop qildirishgan.

Académie des sciences morales et politiques ñ *Odob - axloq va siyosiy fanlar akademiyasi* // Fransiya instituti 5 ta akademiyasidan bittasi (q.institut de France). 1832-yilda tashkil qilingan. Ilmiy kollokvium (talabalarning bilimini aniqlash va oshirish maqsadida o‘tkaziladigan suhbat)lar tashkil qilish va metsenatlik ishlari bilan shug‘ullanadi. Oltita bo‘limdan iborat: falsafa; odob-axloq va sotsiologiya; qonunchilik, ijtimoiy huquq va yurisprudensiya; tarix va geografiya; siyosiy iqtisod, statistika va moliya; umumiy bo‘lim. Uning tarkibida 50 nafar asosiy, 10 nafar erkin, 12 nafar uyushgan chet ellik vakil a’zolar va 60 nafar muxbir a’zolar mavjud.

Académie française - *Fransiya akademyasi* // Fransiya instituti 5 ta akademiyasining eng «keksa» akademiyasi (q.institut de France). 1635-yilda Lyudovik XIII tomonidan kardinal Rishel’ening fransuz tilini tartibga solish va takomillashtirish uchun qilgan tashabbusi tufayli tashkil qilingan. Uning vazifasiga lug‘at tuzish va grammatika yaratish kirgan. 1647-yilda akademik Vojlning «Fransuz tili haqida belgilar» kitobi, 1694-yilda esa «Akademik lug‘at» (Dictionnaire de l’Académie) dunyoga keldi. Fransuz akademiyasi grammatikasi esa 1932-yilda dunyo yuzini ko‘rdi, shunda ham ko‘pgina a’zolar bu grammatikani qo‘llab-quvvatlamadilar. 1793-yilda mazkur akademiya tarqatib yuborilgan. 1803-yilda Napoleon tomonidan qayta tiklangan, 4 millat Kolleji binosida boshpana topgan (q.institut de France) va hozir ham shu yerda joylashgan. An’anaga ko‘ra 40 nafar a’zo-«boqiy o‘lmaslar» (q.immortel) lug‘atlar ustida ish olib boradilar, adabiyot va tarix bo‘yicha alohida xizmat ko‘rsatganlar uchun mukofotlar ta’sis qiladilar. Birinchi ayol-akademik nomiga 1980-yili yozuvchi Margarita Yursenar (1903-1987) musharraf bo‘ldi. Mashhur "xo‘rlanganlar" (refusés) orasida Balzak, Zola, Stendal, Flober, Prustlar bo‘lgan.

affaire Dreyfus - *Dreyfus ishi* // 1894-yilda millati yahudiy bo‘lgan Fransiya Bosh shtabi ofitseri A. Dreyfusning Germaniya foydasiga qilgan josusligi bo‘yicha sud ishi uyushtirilgan. Hech qanday isbot-dalilga ega bo‘lmagan bu

ayblov natijasida ayblanuvchini umrlik surgun jazosiga mahkum etildi. Bu ish yuzasidan bo'lgan kurash siyosiy inqirozni yuzaga keltirdi: mamlakat Dreyfus himoyachilariga (dreyfusards) va dushmanlariga (antidreyfusards) bo'lindi. Jamoatchilik fikrining vujudga kelishida yozuvchi Emil Zolaning prezidentga yozgan ochiq xati katta o'rin tutdi. Bu ochiq xat "Men ayblayman" ("j'accuse") deb nomlangan bo'lib, bunda yozuvchi bir begunoh insonni himoyalab qolmay, balki Fransiya hukumatini millatchilikda, antisemitizm (sun'iy ravishda yuzaga keltiriladigan milliy dushmanlik siyosati) da va xalq oldidagi boshqa jinoyatlar ustida ayblaydi. Xalq talabi bilan 1899 - yil Dreyfus avf qilingan, 1906-yilda esa ilgari obro'- e'tibori, huquqlari tiklangan.

agrégation f ñ *agreje unvonining ta'asisi uchun bellashuv* (q.agrégé) // Umummilliy tanlov. Mazkur bellashuvdan o'tilsa nomzod davlat o'qituvchilik korpusi a'zosi bo'ladi va ta'lim tizimidagi nufuzli mansablarga da'vogarlik qila oladi. Ushbu bellashuvning 2 ta ko'rinishi mavjud bo'lib, bular quyidagicha: 1) o'rta ta'lim tizimida (litsey) o'qituvchilik lavozimini egallashi; 2) oliy ta'lim tizimida ta'lim berish huquqi. Bu bellashuv 1808-yildan beri o'tkazib kelinadi, unga o'rta maktab o'qituvchisi diplomiga ega bo'lgan o'qituvchilarga (q.certificat d'aptitude au professorat de l'enseignement du second degré), texnika fanlari o'qituvchisi diplomantlari (q.Certificat d'aptitude au professorat de l'enseignement technique) yoki magistr diplomiga ega bo'lganlar (q.maitrise)ga ruxsat beriladi. Bellashuv o'qitiladigan fanlar bo'yicha tashkil qilinib, 2 bosqichda o'tkaziladi: 1. (admissibilité) 3-5 ta yozma imtihon (preuves). 2. (admission) 3 ta og'zaki imtihon. Bellashuvni tayyorlash ishlari bilan Oliy maktablar (q.grandes écoles) shug'ullanadi. Oliy ta'lim tizimidagi lavozimlarga tanlov faqat iqtisod, yurisprudensiya, boshqaruvchilik fani, farmatsevtika fanlari uchungina o'tkaziladi. Tanlov komissiyalari a'zolari ta'lim vaziri tomonidan tayinlanadi. Imtihon topshirganlar imtihon natijasiga ko'ra va o'z istaklariga binoan butun Fransiya universitetlaridagi bo'sh lavozimlarga tayinlanadilar.

agrégé *m ñ agreje* // Yuqori malakali o'qituvchi unvoni. Tanlov imtihonlari (q. agrégation) natijasiga ko'ra beriladi. Litsey o'qituvchisi, shuningdek, oliy maktablar o'qituvchilariga bir qator maxsus fanlarni o'qitish huquqini beradi. O'qitish tugatilgandan keyin ham bu unvon saqlanib qoladi.

albigois *m pl ñ albigoylar* // XII-XIII asrlarda Fransiya janubida yashagan "bid'at ixlosmandlari"ga, katarlarga berilgan nom. Albi (Albi) shahar nomidan kelib chiqqan. Albigoylar harakati boshida Roje Trankavel, Vikont de Beze di Raymon IV, graf Tuluzskiylar turishgan. 1208-yilda Rim papasi Innokentiy III albigoylarga qarshi salb yurishi e'lon qildi; bu yurishning boshlovchisi Simon de Monfor (1150-1218) bo'ldi. «Albigoylar janggi» 20 yilga cho'zildi. Faqat 1229 - yilda Parij shartnomasiga (traité de Paris) ko'ra yakunlandi, unga ko'ra Janubiy Fransiyaning katta qismi qirol mulkiga aylandi. Albigoylar qarshiligi 1244 - yilgacha – Monsegyur qal'asining qulashigacha davom qildi.

Alpes *f pl - Alp tog'dari* // G'arbiy Yevropaning Fransiya, Shveytsariya, Italiya, Germaniya, Avstraliya, Sloveniya va Lixtenshteyn hududlaridagi baland tog' tizmasi. 1000 km masofaga cho'zilgan. Yosh tog'lar turkumiga kiradi. Fransiya Alplari Rona daryosidan (q. Rhône) sharqgacha bo'lgan hududni egallaydi. Tog'ning g'arbiy qismi - Alp oldi (Préalpes) – cho'kindi jinslardan, asosan ohaklardan tuzilgan; sharqiy balandroq qismi – kristalli jinslardan iborat. Italiya bilan chegarada G'arbiy Yevropaning eng baland tog'i Mon Blan (4807 m) mavjud. Tog'lar, katta cho'qqilar, tik nishabli vodiylar ko'p. Yirik Alp daryolari Izer va Dyurans soyliklari katta tizmalardan muvaffaqiyatli o'tish imkonini ta'minlaydi. Alpda xushmanzara muzlikdan hosil bo'lgan ko'llar mavjud bo'lib, ulardan eng kattasi - Jeneva ko'li. U orqali Fransiya va Shveytsariya chegarasi o'tgan. Bu hudud gidroenergetik resurslarga boy. Turizm, alpinizm va qishki sport o'yin turlari rivojlangan. Alp hududida 3 ta milliy-tabiiy park bo'lib, ajoyib flora va faunasiga ega: Parc du Mercantour, Primore Alpi va Yuqori Provans Alp departamentidan 2150 km² maydonda; Parc des Ecrins, Yuqori Alp va Izer

departamentidan 2228 km² da; Parc de la Vanoise, Savoyya departamentidan 1993 km² maydonga ega.

Alsace *f* ñ *Elzas* // Fransiya sharqida Germaniya bilan chegaradosh bo'lgan ma'muriy hudud (q.région). Ikkita departamentdan iborat: Quyi Reyn (Bas -Rhin) va Yuqori Reyn (Haut-Rhin). Maydoni 8280 km². (1,5% hududi metropoliyada). 1990-yilgi ro'yxat bo'yicha Elzas aholisi 1 624 204 kishi (Fransiya aholisining 2,9 foizi). Bu hududning ma'muriy markazi –Strasburg. Asosiy shaharlari - Myuluz, Kolmar, Senlun, Savern. Elzas Yuqori Reyn vodiysining so'l qirg'oq qismida va Sharqiy Vogezi tog'oldi qiyaliklarida joylashgan. Yumshoq iqlim, hosildor yerlar, Reyn savdo yo'lidagi qulay joylashganlik mazkur hududda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarilishi (uzumchilik, tamakichilik, go'sht-sut yetishtirilishi, don, sabzavotchilik), savdo-sotiq va an'anaviy sanoat (kaliy tuzi qazib olish, to'qimachilik, terichilik, poyafzalchilik va boshq.)ning rivojlanishiga imkon berdi. Rivojlangan sanoat tizimi "Pejo" va "Sitroyen" avtomobil zavodlarini (Myuluz shahri yonida), Shalampda "Ron pulenk" firmasi kimyo zavodini o'z ichiga oladi. Mazkur hudud sanoatda chet el investitsiyasi sohasida yetakchilik qiladi. Iqtisodiy yuksalishga G'arbiy Yevropa integratsiyasi ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Strasburgda Yevroparlament va Yevropa Ittifoqi rezidensiyasi joylashgan. Shuning bilan bir qatorda bu hududda elzas etnik guruhiga mansublik hissi yuqori bo'lib, elzas lahjasida so'zlashiladi, qadimgi provinsiyaning ko'pgina an'analari, elzas oshxonasi hamon tirik. 1871-yildan to 1918-yilgacha Elzas Germaniya tarkibida bo'lgan va endilikda bu yerda nemis va fransuz madaniyatining chatishib ketganligini ko'plab me'morchilik obidalarini va san'at asarlari tasdiqlab turibdi. Bu yerda ko'pgina mashhur insonlar tavallud topgan: Napoleon generali Kleber, haykaltarosh, Nyu-Yorkdagi ozodlik haykali muallifi A.Bartoldi, Nobel mukofoti laureati vrach A.Shvetser, fizika bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori A.Kastler va boshqalar.

ancien régime - *eski tuzum* // 1789-yilgi Fransuz Revolyutsiyasiga qadar (Révolution française) hukm surgan, qirollik hukumatida avloddan-avlodga meros

bo‘lib kelayotgan absolyut monarxiya tuzumi. Bu tuzumda qonun chiqarish, ijrosini ta‘minlash va sud hukumati monarx qo‘lida bo‘lgan. Oliy hukm sudsiz va tekshiruvlarsiz qirol farmoni bilan hal qilinardi. Qirol hukumatni vazirlar yordamida boshqarardi, vazirlarni o‘zi tayinlar yoki ishdan ozod qilar edi. XIV asr boshlariga kelib imtiyozli tabaqalar hokimiyati vujudga keldi va uchta sotsial guruhga tayandi: dvoryanlar, ruhoniylar va shaharliklar. Mamlakatning barcha viloyatlarida yuqoridagi uchta tabaqa vakillari Bosh shtatlar hosil qildilar (Etats généraux). Bu shtatlarning vazifasi qirolning hududlar bilan aloqasini ta‘minlash va qirollikning soliq muammolarini hal qilishdan iborat bo‘lgan. XIII asrdan boshlab Fransiyada parlamentlar - oliy sud ma‘muriy tashkilotlari faoliyat yuritib boshladi. Ular qirol qonunlarini va dekretlarini (ordonnances) qayd qilish va ularni tanqid qilish huquqiga ega. Hukumatning mustaqil oppozitsiyasi sifatida ular 1789-yilgi voqealarni tayyorlashdi.

années folles - «besaranjom yillar» (1918-1933) // Birinchi Jahon urushi tugagan davr bilan 1929-1933 - yillardagi dunyo iqtisodiy inqirozi yakunlanishi orasidagi davr. Bu vaqt ichida Fransiya xalqaro maydonda o‘zining o‘rnini mustahkamladi, yirik sanoat mamlakatiga aylandi. Fransiya iqtisodining pasayib ketishiga va ko‘pgina insonlarning yo‘qolishiga olib kelgan urush an‘anaviy burjuaning „ajoyib davr“ deb nomlangan (q.Belle époque) qadriyatlarining yo‘qolishiga ham sabab bo‘ldi. Adabiyotda „dadaizm“ deb nomlangan yangi oqim, rassomchilikda- abstraksionizm (q.art abstrait) keng tarqaldi. Burjuaziya orasida maishatparastlikka, aysh-u ishratga berilish paydo bo‘ldi. Myuzik - hollar Amerika jazidagi dansinglar juda ommalashib ketdi. Sodda kiyimlar urfga aylandi.

appellations d’origine contrôlée (AOC) ñ (soñma-soñ) nazorat ostida tayyorlangan vino nomi // Markali vinolar ma‘lum bir joylarda tayyorlanadi. Ularning sifati iqlim, ob-havo, yetishtirilgan joyi va tayyorlanishiga (q.millésime) bog‘liq va aniq mezon belgilariga mos keladi (uzum navi, uzumzor hududi, ishlab chiqarilgan vino miqdori, uning quvvati). 1000 navdagi fansuz vinosidan 250 ga yaqini (hosilning 10 foizi) markali vino hisoblanadi. Yevroittifoq ko‘rsatmasiga

binoan fransuz markali vinosini ishlab-chiqarish 20 yil maboynida 70 % ga ko‘paydi, oddiylari qisqartirildi. Eng yaxshi vinolar „yuqori navdagi markali vinolar“ (q.Grands crus) va „1-navli markali vinolar“ (q.Premiers crus) deb nomlanadi. Markali vinolarga, shuningdek yuqori sifatli vinolar (q.Vins délimités qualité supérieure) va mahalliy vinolar (q. Vins de pays) ham kiradi.

Aquitaine f ñ Akvitaniya // 5 ta departament: Dordon, Jironda, Land, Lo-i-Garonna va Atlantik Pireneyalarni o‘z ichiga olgan Fransiya Janubiy - G‘arbidagi ma‘muriy hudud (q.Région). Uning maydoni 41407 km² (metropoliya hududi 7,6 foizi) bo‘lib, mamlakatda kattaligi bo‘yicha uchinchi o‘rinda turadi. Aholisi 2 826 900 (mamlakat aholisining 4,9 foizi). Ma‘muriy markazi –Bordo, asosiy yirik shaharlari Beyon, Merinyak, Po, Pessak, Perigiyo va boshqalar. Bu hududning katta qismini Akvitan pasttekisliklari (q.Bassin, Aquitain), janubda Pireney (q.Pyrénées) shimoli - sharqda Markaziy massivlari (tog‘li joy) (q.Massif central) egallagan. Markaziy qismda Garonna daryosi (q. La Garonne) irmoqlari bilan oqib o‘tadi. Atlantika okeanining qumli qirg‘oqlari - Landa (q. Landes) 200 kmga yaqin qirg‘oq bo‘ylagan maydonni egallaydi. Hudud tabiiy resurslarga: gaz, neft, gidroenergiyasi, hosildor yerlarga ega. Qishloq xo‘jaligida boy tajribasi bilan shuhrat qozongan. Bular vinochilik (markali bordo vinosi), ustritsa yetishtirish (dengiz molyuskasi), fua-gra (q.foie gras), qora olxo‘ri kabilar yetishtirish bo‘yicha shuhrat qozongan. Daryo soyliklarida sabzavotchilik bilan bog‘dorchilik rivojlangan. Bug‘doy, makkajo‘xori, tamaki va boshqa ekinlar ham yetishtiriladi. Chorvachilik rivojlangan. Ishlab chiqarish sanoati yuqori texnologiyaga ega va aviatsion – kosmik tarmog‘iga yo‘naltirilgan. Bu tarmoq mahsulotlari dunyoda nufuzli o‘rinda turadi. Bordo ma‘muriy markazi neftni qayta ishlash, avia va kemasozlik qurilishiga ixtisoslashtirilgan. Mazkur hudud o‘zining oziq-ovqat mahsulotlari va oshpazlik san‘ati bilan minglab sayyoh va dam oluvchilarni (dengiz vannalari, okean qirg‘og‘ida davolanish) o‘ziga jalb qiladi. Madaniy merosi esa tarixiy obidalar (q.France préhistorique), gallo-rim davri yodgorliklarini qamrab olgan. Bu yerda faylasuf Montel, faylasuf va yozuvchi Monteske,

yoʻzuvchilar F.Mornak va J.Anuy, bastakor M.Ravel (q.romantique (art)), birinchi fransuz kinokomik Maks Linder, kinorejissor R.Kleman, kinoaktrisa D.Dare va boshqa mashhur insonlar tavallud topganlar.

Arc de Triomphe de l'Étoile ñ *Yulduz maydonidagi Zafar arki darvozasi* // (1810-1836-y.y.) Napoleon buyrugʻiga binoan fransuz armiyasi sharafiga meʼmor -Shalgren (1739-1811) tomonidan qurilgan. Darvoza balandligi - 50 metr, eni - 40 metr; ustunlar F.Ryudning „Marselʼeza“, J.P.Kortoning „1810 - yil Triumfi“ va A.Eteksning „Qarshilik“ va boshqa mashhur baʼrilyef (boʻrtma naqshlar)lari bilan bezatilgan. Ichki devorlarda Imperiya va Respublikaning buyuk gʻalabalari oʻyib yozilgan, hamda 558 nafar general-jang qatnashchilari nomi yozilgan. Birinchi Jahon urushida halok boʻlganlar xotirasiga bagʻishlab 1920-yil 11-noyabrda Nomaʼlum soldat qabri darvoza gumbazi tagida qurilgan va mangu olov yoqib qoʻyilgan. Darvoza (ark) – Karusel maydonidagi Tylleri bogʻi (q.Jardin de Tuilleries), Totuvlik maydonidan (q.place de la Concorde) to Defans (q.Grande Arc Défense) Katta arkigacha boʻlgan arkning qismi hisoblanadi.

Arc de triomphe du Carrousel - *Karusel maydoni Zafar Arki* // Luvr bilan Tyulleri saroyi oʻrtasida 1806 -1808 - yillarda meʼmorlar Perse va Fonten (Luvr proyeksi mualliflari) tomonidan imperator Napoleon I gʻalabasi sharafiga qurilgan Karusel maydonidagi Zafar arki. Bu ark, yaʼni darvoza Tylleri saroyi – Napoleon qarorgohiga kiriladigan asosiy darvoza sifatida rejalashtirilgan, ammo 1871-yil saroy yonib kul boʻladi. Darvoza balandligi 14,6 m va eni 19,5 metr boʻlgan. Dastlab uni Venetsiyalik otliqlar guruhi qurgan;1815 - yili u haykaltarosh Bozorning bronza kvadrati bilan almashtirilgan. Darvoza oʻyma naqshlar bilan Napoleon armiyasi sharafiga bezatilgan.

Ardenne f pl - *Ardenna*// Fransiya, Belgiya va Lyuksemburg hududida joylashgan Qadimiy slonetsli yassi togʻ. Fransiya hududida balandligi 500 metr yassi togʻning kichkina qismi Maas-daryosi (q.Maase) vodiysidan Mezer va

Jivagacha bo'lgan uchburchak yassi tog'ligi kiradi. O'lka boy emas. O'rmon kam yog'och-taxta beradi. Butun xo'jalik faoliyati Maas vodiysida umumlashgan.

„Arianeö ñ “Arianô // Uchiruvchi - raketa, Yevropa kosmik agentligi patronajligida (European Space Agency, E S A). Fransuz kosmik tadqiqotlar milliy markazida yaratilgan (q.Centre nationale d'études spatiales). Yunon mifologiyasi qahramoni Ariadna nomi bilan atalgan. Uch pog'onali raketa ilk bor 1979-yilda Kuru kosmodromidan (q.Centre spatial guyanais) uchirilgan. Keyinchalik ko'p yuk ko'tarishga moslashgan turdagi Ariane 5 kabi koinotga 6 tonna yuk tashiy oladigan turlari yaratildi (1996-yil uchirilgan). Raketaning birinchi pog'onasi “Aerospatiale” firmasi tomonidan loyihalangan va ishlab chiqarilgan. 2002 - yilda yangi «Ariane 5 Evolution» raketa 7,4 tonna geostatsionar orbitali 2 yo'ldoshni koinotga chiqarish rejalashtirildi.

Arrondissement *m – okrug* // 1) Kantondan (q.canton) (Fransiya va Belgiyada : kichik ma'muriy teritorial bo'linma, o'lka) kattaroq va departamentdan (q.Département) (Fransiyada 2 departament-ma'muriy territoryal okrug) kichikroq hudud. Fransiya maydoni 341 okrugga bo'lingan. Okrugda davlat ishlari bilan suprefekt shug'ullanadi va prefekt (q.préfet - departament boshlig'i)ga bo'ysunadi. 2) *Shahar okrug*i // eng yirik shaharlar (Parij, Marsel , Lion) okruglarga bo'lingan. Parijda 20 ta okrug bor.

art classique – *san'atda mumtoz uslub* // Fransiyada XVII asrda paydo bo'ldi (q.classicisme). Fransiya san'atida klassisizm rivojlanishini ikki davrga - XVII asrning birinchi va ikkinchi yarmiga bo'lish mumkin. Birinchi yarmida rassomlar va me'morlar tafakkur ilmining yetuk bo'lmagan voqelik ustidan g'alabasini, hayotni aql - idrok bilan his qilish (q.nationalisme), yuksak ideal, qahramonona obrazlar, taqlid qilishga arziydigan obrazlar yaratishga intilishgan. Birinchi davr namoyondalari: rassom N. Pussen (1594-1665), Q.Lorren (1600-1682), F. de Shampen (1602 - 1674); me'mor F.Mansar (1598-1666) Parij yaqinidagi "Maison sur la Seine" saroyi muallifi; L.Levo (1612-1670), rassom

Sh.Lebren(1619-1690) hamda manzara me'mori A.Lenotr (1613-1700) bilan hamkorlikda Versal timsoli – Vo-le – Vikont (Vaux-le Vicomte) ni yaratishgan. Ikkinchi davr Lyudovik XIV (q.Style Louis XIV) hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Bu davr me'morchiligiga quyidagi obidalar mansub: me'mor Q.Perroning Luvr sharqona fasadi Rim kolonnalari bilan (16130-1688) va Versal ansambli (q.Versailles), tasviriy san'at sohasida esa P.Minniyyar (1612-1695) suratlari va haykaltaroshlar F.Jirardon (1628-1715) bilan A.Kuazevoks (1640-1720). Klassitsizmning ikkinchi davri XVII asr ikkinchi yarmi san'atiga kuchli ta'sir ko'rsatdi, bu vaqtda antik san'atga ham qiziqish uyg'ongan edi. Parijda Lyudovik XV maydonidagi (hozirga Totuvlik maydoni – Place de la Concorde) ansambl, Versaldagi me'mor J.A.Gabriyel (1698-1782) „Kichik Trianon“ binosi, muqaddas Jeneveva cherkovi 1789-yil Panteonga aylantirilgan, J.Sufflo (1713-1780) ishlari me'morchilikdagi yangi g'oyalarga misol bo'la oladi.

art de la Renaissance - *Renessans san'ati* // Roman va gotik uslublari bilan ibodatxona me'morchiligida foydalanilgan bo'lsa, Renessans davri me'morchilik uslubi shahar tashqarisidagi qarorgohlar, qasr, saroylar, aholi turar joylari qurishda foydalanilgan. Fransuz ustalari o'z milliylik ruhiyatidan kelib chiqqan holda, o'z uslubini yaratishdi. Bunga misol qilib Luara qasri (q.Châteaux de la Loire), Parijdagi Karnavale saroyi (l'hotel Carnavalet.) va Pyer Lesko (1515-1578 y.) ning Luvr binolarini misol qilib keltirish mumkin. Ilk bor Renessans uslubi 1526-yilda Fransisk I ning Fonteneblodagi qirol qarorgohini qurishda qo'llanilgan. Qurilish ishlarini fransuz usta J.Lebreton va ikki italiyalik ustalar Rosso (1494-1540) bilan Primachitto (1504-1570)lar bajargan. Aynan shu yerda fransuz Renessansining poydevori bo'lgan Fonteneblo maktabi (q.école de Fontainebleau) yaratildi. Ane qasri va Tyulleri saroyi me'mori F.Delorm (1510-1569), me'morchilik nazariyasi bo'yicha asarlar muallifi va Montarji qasri ustasi A.Dyusero (1510-1585)lar uyg'onish davrining buyuk fransuz me'morlari hisoblanadi. Buyuk haykaltaroshlar: J.Gujon (1500-1569), J.Pilon (1537-1590), P.Lesko (1515-1578)lar Luvr va Fonteneblodagi ko'pgina haykallarni yaratishgan.

Rassomchilikda Renessans, ya'ni uyg'onish davri uslubi A.Karon (1521-1599), J.Kuzen (1490-1561) va F.Klue (1515-1572) asarlarida namoyon bo'lgan. Bu uslubni 2 davrga bo'lish mumkin: birlamchi Renessans - turli-tuman, dabdabali va ikkinchi – vazminroq, ilmiy va texnik asoslangan. Va aynan ikkinchi davr Renessans uslubi - XVII asr klassik uslubi (q.Classisme)ning nishonasi bo'lgan.

Ascension f - (lotin tilida ascendere - ko'tarilmoq) *Meroj (Isoning Arshi aloga ko'tarilishi va xristianlarning shunga bag'ashlangan bayrami)* // Diniy bayram, Pasxadan keyin 40 kun o'tgach payshanba kuni nishonlanadi (q.Pâques). Dam olish kuni.

Assemblée constituante - *Ta'asis Majlisi* (9.07.1789-30.09.1791) // 1789-yil 9- iyulda Milliy Majlis (q.Assemblée nationale) yangi jamoat tuzumi – konstitutsion monarxiyaning Konstitutsiyasini ishlab chiqish maqsadida Ta'sis Majlisiga aylantirildi. Absolyutizm ustidan g'alaba ramzi bo'lgan Bastilya qo'lga olingandan keyin (q.Fête nationale) 1789-yil 4-avgustda Ta'sis Majlisi feodal qaramligi va imtiyozlarini bekor qildi. Konstitutsiyani tayyorlash jarayonida 1789-yil 28-avgustda davlatning yangi hujjati – Fuqaro va inson huquqlari deklaratsiyasi (q.Deklaration des droits l'homme et du citoyen) qabul qilindi. 1789-1790-yillarda Ta'sis Majlisi burjuaziya foydasiga bir qator reformalar o'tkazdi: tabaqaga bo'linish dvoryan titullari bekor qilindi, cherkov yeri va mol-mulki tortib olindi, mol-mulkdan foydalanishda cheklov va to'sqinliklar belgilandi. Ilgarigi ma'muriy bo'linish 1791-yil 3-sentabrda 83 ta departament bilan almashtirdi. Ta'sis Majlisi Konstitutsiya qabul qildi va qonun chiqaruvchi organlarga saylovlar tashkil qilindi (q.Assemblée législative).

Assemblée législative - *Qonun chiqaruvchi Majlis* (1.10.1791-29.09.1792) // 1791- yilgi Konstitutsiya bo'yicha, asosan burjuaziya vakillaridan tuzilgan. Uning o'ng qanoti feyanlar (q.feullants), konstitutsion monarxistlar bo'lgan bo'lsa, so'l qanoti montanyerlar (q.montagnards) - yakobinsk klubi (q.Club des jacobins) bilan bog'liq partiya bloki edi. Ularning ko'pchiligi

brissotenlar (Brissot-yo'lboshchisi nomidan) bo'lib keyinchalik ular jirondistlar (q.girondins) deb atala boshlandi. Radikalchilar orasida markazchi guruhlar ham bo'lib, ular goh o'ng, goh so'l qanotdagilarga ovoz berar edilar. 1792-yil 10-avgustdagi qo'zg'olondan keyin qonun chiqaruvchi Majlis tarqatib yuborilgan. Yangi saylov tarkibida Konvent (q.Convention nationale) saylangan.

Assemblée nationale - *Milliy Majlis // 1) 1789-yil 17-iyunda Bosh shtatlar o'zlarini Milliy Majlis - mamlakatning qonun chiqaruvchi va oliy vakili deb e'lon qildilar. Milliy Majlis uch tabaqa vakillari (q.Tiers état)dan iborat bo'lib, ularga ruxoniy va dvoryanlardan ham deputatlar bor bo'lgan. 3-tabaqa Millat degan yangi tushunchani federal bo'linishga qarshi qo'yadi. 1789-yil 9-iyulda Milliy Majlis Ta'sis Majlisiga aylantirildi (q.Assemblée constituante). 2. Hozirgi vaqtda asosiy vazifasi qonunlar qabul qilish, moliyani tasdiqlash va hukumat ishlarini nazorat qilishdan iborat bo'lgan Fransiya parlamentining quyi palatasi // 577 nafar deputatdan iborat (q.élection l'Assemblée nationale). Qonun qabul qilinishi uchun ikkita palata ham rozi bo'lishi darkor (q.navette), mabodo norozilik yuzaga kelib qolguday bo'lsa, oxirgi so'z Milliy Assambleyada bo'ladi. Hukumat ishlarini nazorat qilish uchun maxsus komissiyalar tuziladi va o'z vazirlari hisobot berib turishadi. Deputatlar hukumatni norozilik ovozlari berib iste'foga chiqarish huquqiga ega (q.motion de censure). Milliy Assambleyani vakolat bo'yicha saylangan byuro palata raisi rahbarlarida (prezident va Senat raisidan keyin hukumatda 3-o'rinda turadi) boshqaradi (q.législature). 6 ta doimiy komissiya faoliyat yuritadi. Bular: madaniyat, oila va ijtimoiy masalalar bo'yicha; xalqaro masalalar; mudofaa va qurolli kuchlar; moliya, iqtisod va rejalashtirish ishlari; qonunchilik va jamoat boshqaruvi; ishlab chiqarish va savdo-sotiq ishlari bo'yicha. Milliy Majlis ishlari rejasi "raislar kengashi" (conférence des Présidents)da tasdiqlandi. Bunda palata raisi 6 nafar o'rinbosarlari, 6 nafar komissiya rahbari, siyosiy fraksiya va hukumat vakili qatnashadi. Milliy Majlis yig'ilishi Burbon saroyida (q.Palais Bourbon) bo'lib o'tadi.*

assistant(e) social(e), A.S. *m f - ijtimoiy savollar boʻyicha yordamchi //*

Oʻrta maktabda, universitetda turli qiyinchiliklar (oilaviy, moliyaviy, giyohvandlik, ichkilikbozlik kabi)ga duch kelayotgan oʻsmir yoshlar, oʻquvchilar va talabalarga yordam koʻrsatuvchi ijtimoiy xodim, odatda bir xodim bir qancha oʻrta oʻquv muassasalariga xizmat koʻrsatadi. (2000 oʻquvchiga - 1 nafar ijtimoiy xodim). Maktablardagi ijtimoiy xodimlarning 98 foizini ayollar tashkil etadi.

Assomption *f - Bibi maryam //* Diniy bayram. Bibi Maryamning arshi-aʼloga meʼroj qilgani sharafiga oʻtkaziladi. 15-avgustda hosildorlik bayrami bilan, port shaharlarda - dengiz bayrami bilan birga nishonlanadi. Dam olish kuni.

Asterix *ñ Asterix //* Yozuvchi F.Gossini (1926-1977) va rassom A.Yuderzo (1927-yil tugʻilgan)lar tomonidan yaratilgan fransuz milliy-xarakterini qamrab olgan taniqli masxaraboz, komik personaj. Ilk bor «Pilot» (Pilote) gazetasida 1959-yilda paydo boʻldi. Bu Galliyada istiqomat qiluvchi yosh, jasur va ayyor odamcha boʻlib, oʻzining basavlat doʻsti Obeliks bilan birga rimliklar bilan kurashadi. U koʻpgina multfilmlar qahramoniga aylandi. 80-yillarda Parij yaqinida «Gall» qishlogʻida Disneylendga oʻxshagan bolalar uchun koʻngilochar kompleks qurilgan. U yerda Gossini va Yuderzo qahramonlari yashashadi (q.parc Asterix).

Atelier (lō) *m - Atele //* Sh.Dyullen (1885-1949)ning Parij «Monmartre teatri»da 1921-yilda tashkil qilingan truppa. 1922-yilda teatr "Theatre de l'Atelier" deb nomlana boshlandi. 20-30-yillarda fransuz tomoshabinlarini L.Pirandello, A.Salakru, J.Romen kabi mashhur dramaturglar bilan tanishtirishda katta roʻl oʻynadi. 1940-yildan 1973-yillargacha teatrnı Dyullenning shogirdi rejissor va tarjimon A.Barsan (1920-1973) boshqardi. U «Revizor» va «Aka-uka Karamozovlar» «Qishloqdagi oy» kabi rus yozuvchilarining pyesalarini sahnalashtirgan.

Atlantique (océan) - *Atlantika okeani //* Tinch okeanidan keyin kattaligi boʻyicha ikkinchi oʻrinda turadi (dengizlar bilan birga umumiy maydoni 106 mln. km²). Yevropa va Afrikani Amerikadan ajratib turadi. Fransiyanı shimoliy-

g'arbdan, g'arb va janubdan o'rab turadi. Suvi goh ko'payib, goh pasayib turadi. Insoniyat tarixida uning Shimoliy va O'rta Yer dengizi (q. mer au Nord, Méditerranée), Biskay (golf de Bascogne) va Lion (golf du Lion) ko'rfazlari katta o'rin tutdi. Hozirgi davrda bu yerdan Yevropa va Amerikaning yirik iqtisodiy markazlarini bog'lovchi savdo- passajir yo'llari o'tgan.

autoroute *f* – *avtomagistral* // Yuqori sifatli yo'llar avtomobillarning 130 km/s gacha bo'lgan tezlikdagi xavfsiz harakatini ta'minlaydi. Bir yo'nalishda soatiga 3600 gacha mashina yurishi mumkin. Fransiya avtomagistralining umumiy uzunligi 5500 km.

Auvergne *f* ñ *Overn* // Markaziy massivda (q. Massif central) joylashgan va 4 ta departamentni o'z ichiga olgan (Ale Kantal, Yuqori Luara va Pyui –de- Dom) ma'muriy région (q. région). Maydoni - 26 013 km² (metropoliyaning 4,7 foizi). Aholisi - Overnliklar (Auvergnats), 1.01.1992-yil hisob-kitobiga ko'ra - 1 317 100 kishi (yoki Fransiyaning 2,3 foizi)ni tashkil etadi. Ma'muriy markazi – Kler- mon- Ferran. Asosiy shaharlari: Montlyuson, Vishi, Le Pyui. Markaziy massivning baland bo'lmagan tog'lari orasida joylashgan Overn turli- tuman relyef va mo'tadil iqlimga ega. 1886-1954-yillarda aholi migratsiyasi (boshqa joyga ketishi) uning sezilarli darajada kamayishiga olib keldi. Aholining 45 foizi Pyu-de-Dom departamentiga jalb qilingan. Tog'li hududlarda va dehqonchilikka moslashgan yerlarda aholi qisqarishi kuzatiladi. Kantal departamentida aholi zichligi 1 km² ga 28 kishi to'g'ri keladi. Qishloq xo'jaligi-go'sht, sut mahsulotlariga ixtisoslashgan; uning asosida go'sht mahsulotlari va pishloqning mashhur turlari - kantal, sep- nekter, furm d'Amber blyod Overnlar yetishtiriladi. Asosiy sanoat markazi Klemon-Ferraneda dunyoda 2 -o'rinda bo'lgan "Mishlen" avtomobil shina zavodi joylashgan. Bu yerda yana samolyotsozlik, elektronika va avtomobilsozlik korxonalari mavjud. Ajoyib yo'llar, mineral suvli kurortlar (Vichy, la Bourboule), rivojlangan qishki sport o'yinlari (le Mont -Dore) va tabiiy xiyobonlar (Overn ulkan parki va Livradua - Fore tog' massivi parki) o'ziga sayohatlarni jalb qilib, turizm rivojlanishida asosiy omil bo'lmoqda. Klermon-Ferrandan 6 km masofada

Overn qadimiy aholisi (arvern)-Jergova, Gall madaniyati beshigi joylashgan. Klermon-Ferran, Oreval, Sen-Nekter, Briud shaharlarida roman me'morchiligining ajoyib namunalari saqlangan. Bu yerda gall yo'lboshchisi Versenjetoriks, faylasuf, fizik, matematik Blez Paskal, general Lafayet, III Respublika prezidenti P.Dumer, yozuvchi Jyul Valles va V Respublika prezidentlari Jorj Pompidu va Valeriy Jiskar – D'Estenlar tavallud topganlar.

Avent (lò) m - *Rojdestvodan oldingi davr, arafa* (q.Noël) // Lotincha adventus so'zidan olingan. 4 hafta davomida fransuzlar Rojdestvoga tayyorgarlik ko'rishadi: sovg'alar, archa o'yinchoqlari olishadi. Shaharlarda illyuminatorlar (yonib turuvchi chiroqlar) yoqilib, magazin peshtaxtalari bayramona bezatiladi. Posyolka va qishloqlarda odamlar uylarini omela (buta nomi) va ignabargli daraxt novdalarini su'niy gullar va mevalar (couronne de l'Avent) bilan bezatishadi. Yangi yil kechasi omela buta yonida o'pishish odat tusiga kirgan (s'embrasser sous le gui) va baxtli yangi yil tilaklari bildirishadi: "Au guil'an neuf !"

Avignon, captivité des Papes - *Avinon papasi asirligi (1309-1377)* // Papalik tarixi davri, Filipp IV Sarvqomat (1268-1314-1258-yillardan boshqargan)ning rim papasi Bonifatsiy (1235- 1303) ruhoniylar hokimiyatini aslzodalardan ustun qo'yimoqchi bo'lganligi uchun kelishmovchiligi. Cherkov yerlariga soliq belgilagani uchun Bonifatsiy Filippga cherkovdan ajralib chiqishini va o'ziga bo'ysundirishi bilan qo'rqitdi. Qirol Bosh shtatlar qo'llab-quvvatlash uchun (q.états généraux) to'la g'alabaga erishib, papa qarorgohini Avinon shahriga ko'chirishga erishdi (bu yerda ular 70 yil maboynida fransuz monarxlari asiri sifatida bo'lishdi). Avinon papaligi taxtida birinchi bo'lib oldin Bordo arxiyyepiskopi bo'lgan Kliment V (1314-yil vafot etgan) o'tirgan. Undan keyin yana bir qancha fransuz kardinallari taxtga o'tirishgan. Oxirgi Avinon papasi Greguar XI (1329-1378) 1377-yilda papa taxtini Rimga qaytarishga erishdi. Adabiyotda Avinonda papalikning bo'linishi «ikkinchi vavilion asirligi» deb nomlanadi.

B

«**baba**» *m soʻzl.*- «*baba*» «*ayol*» // Yoshlarning xippi- pop modasi oʻrniga kelgan zamonaviy urf (modalar) yoʻnalishlaridan biri. Bunda «sokin» (cool) va «vazmin» (hard) turlari mavjud. «Sokin»iga «ekologik» turdagi kiyimlar, yogʻochdan ishlangan sabo yoʻsinidagi oyoq kiyimlari kiradi. Ikkinchisiga – qora charm kurtkalar kiradi. Cool vakillari atrof-muhitni himoya qilishga intiladilar; hard namoyondalari esa - motosikllarda yurishadi va ogʻir rok bilan qiziqishadi.

baccalauréat *m* - 1) *Bakalavr darajasi* // Universitetga kirish imtihonlarisiz kirish huquqini beradi. Atama XV asrdan buyon mavjud. 2) «*Milliy*» yoki «*tarixiy*» *deb nomlangan mashhur fransuz diplomi.*

3) *Bakalavr darjasiga erishish uchun yozma va ogʻzaki imtihonlar toʻplami* // Oʻzaro suhbatda “bac“,“bachot” Napoleon I ning 1808-yil 17-martdagi dekretiga muvofiq bunday imtihonlar oʻtkazish huquqiga litseylar ega boʻlgan. Hozirgi vaqtda fransuz tilidan boshqa hamma imtihonlar (épreuves) litseyning bitiruvchi sinfini tugatayotganda (classe terminale) oʻquv okrugi masshtabida (q.académie) universitet va litsey oʻqituvchilaridan iborat boʻlgan maxsus komissiyasi tomonidan oʻtkaziladi.Imtihon topshiriqlari litseyning bitiruvchi sinf oʻquv rejalariga mos keladi. Bakalavr darajasi uchun imtihonlarning 3 turi mavjud: umumiy taʼlim, texnologik va kasb hunar fanlaridan. Har bir tur qismlarga boʻlinadi. (masalan, bac **L** - adabiyot, bac **ES** - ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va h.k) (q.lycée d’enseignement général et technologique).

ballon *m (hudud.)* -Vogezdagi sharsimon choʻqqili togʻ.

bande dessinée *ñ komiks* // Umumiy mazmun bilan bogʻlangan, har biriga qisqa-qisqa matn berilgan rasmlar turkumi. AQShda XIX asr oxirida paydo boʻlgan. XX asr oʻrtalarida madaniyatning mashhur janriga aylandi. Fransiyada XX asrning 60-yillarida keng tarqalgan, 90-yillarda Fransiya akademiyasi tomonidan (q.Académie française) sanʼat janri deb qabul qilingan. Komiks anʼanalari taxta klishedan bosilgan rasmlarga taqaladi. Asoschisi – Shveytsariyalik

rassom R.Topfer (1799-1846). Oldin faqat bolalar uchun, keyinchalik detektiv mavzular, sarguzasht romanlar, fantastika va kundalik turmush voqealariga boy mavzular bilan kattalar uchun chiqarila boshlandi. Ayrim kitobcha yoki jurnal shaklida, axborot nashrlarida (Le Point, L'Express, Le Nouvel Observateur) chop qilinadi. Eng mashhur personaj – Asteriks (q.Astérix) 1973-yildan Angulema shahrida komikslarning Xalqaro ko'rgazmasi bo'lib o'tadi. 1983- yil shu yerda maxsus muzey-kutubxona ochildi.

Basilique du Sacré-Coeur - *Sakr-Kyor bazilikasi (binosi)* // Parijda Monmartr adirida Xudoning muqaddas yuragi ibodatxonasi, arxitektor P.Abadi (1812-1884) chizmasiga ko'ra 1876-1910-yillarda xalq to'plagan mablag' hisobiga qurilgan. Roman-Vizantiya uslubida qurilgan binolar o'zining nur sochuvchi oq - beg'uborligi bilan ajralib turadi, chunki yomg'ir ta'sirida oq kalsiy ajralib turadi. Markaziy Gumbazning balandligi 83-metr bo'lib, shakliga ko'ra hazilona „limon“ (sitron) nomini olgan. Qo'ng'iroq balandligi - 100 metr. Bino ichkarisi mozaika va vitraj, frontonning eng balandi Olloh muqaddas yuragi haykaltaroshlik tasviri bilan bezatilgan. Cherkov eshigi ikkala tomonidan – Muqaddas Janna d'Ark bilan muqaddas Lyudovik otliq haykalchalari qo'yilgan.

Basse-Normandie f - *Quyí Normandiya* // Mamlakat g'arbidagi ma'muriy hudud. La-Mansh bo'g'oziga chiqadi va uchta departamentdan iborat: Kalvados, Mansh, Orn. Maydoni 17589 km² (metropoliyaning 3,25%) aholisi 1 398400 kishi (1992-yil 1-yanvar hisobiga ko'ra) - Fransiyaning 2,4 % aholisi. Ma'muriy markazi - Kan. Asosiy shaharlari – Sherbur, Alanson, Lise, Sen-Lo, Fler. Turli-tuman Relyef (q.Bassin Parisien), ko'plab suv yo'llari, nam iqlim va boy o'simliklar ko'p uchraydigan bokaj (q.bocage)ga boy. Janubda o'rmonlar bilan qoplangan (Normandiya-Men-Normandie-Maine tabiiy parki). Ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi – bog'dorchilik va unumli sut, chorvachilikdir. Mamlakatda sut va sut mahsulotlari yetishtirish bo'yicha (12,6 %) birinchi o'rinni egallaydi; oziq-ovqat mahsulotlari (kamamber, livaro, pon-levek pishloqlari) va kalvados, sidr spirtli ichimliklari bilan dong taratgan. An'anaviy sanoat turlari – oziq-ovqat va

metallurgiyadan boshqa avtomobilsozlik („Renault’’ firmasi), elektrotexnika va yadro texnikasi ham rivojlangan. Sherburda kemasozlik yuksak darajada. Quyi Normandiyada tabiat husunkorligi sayyohlarni jalb qiladi. Bu yerda Mon-Sen-Mishel (q.Mont-Saint-Michel) va mashhur plyajlar (Calvados et Côtentin) mavjud. Bu yerda astronom, matematik va fizik P.S.Laplas, rassomlar J.F.Miller va F.Leje, sayyoh J.D.Dyurvil, yozuvchi A.Breton, aktyor Jan-Mare, modelyer Kristian Dior va boshqa mashhur kishilar tavallud topganlar.

Bassin Aquitain - *Akvitaniya (Garonna) pasttekisligi* // Choʻkindi natijasida hosil boʻlgan pasttekislik shimoliy-sharqdan Markaziy-Massiv (q.Massif central), janubda Pireneya (q.Pyrénées) va Atlantika okeani qirgʻoqlari (q.Atlantique océan), gʻarbda tarmoqlari boʻylab uchburchak hosil qiladi. Sohil boʻylab botqoqlikka aylangan Landa (q.Landes Côte d’Argent) qum tekisligini okeandan qumtepaliklar ajratib turadi.

Bassin parisien - *Parij havzasi* // Choʻkindi natijasida hosil boʻlgan pasttekislik, Armorikan tepaligi (q.Massif armoricain), Markaziy massiv (q.Massif central) va Reyn slanets togʻlari (Massif Schisteux Rhéna) orasida joylashgan. Tarelkasimon shaklga ega. Hosildor yeri bilan ajralib turadi.

Bataille de Moscou - *Moskva uchun jang* // (rus anʼanasida-Borodino jangi). Rus qoʻshinlari M.I.Kutozov qoʻmondonligida Napoleon armiyasi oʻrtasidagi jang (7-sentabr) 1812-yil 26-avgustda Borodino qishlogʻi yonida Moskvadan gʻarbga 124 km masofada boʻlgan. Shiddatli jangdan keyin fransuzlar uchun Moskvaga yoʻl ochildi. Ular 58 ming kishi, ruslar - 44 ming kishi yoʻqotdi.

Bataille de Poitiers ñ *Puate yaqinidagi jang* // Puate togʻi yonida 1732-yil 4 - oktabrda franklar bilan arablar orasidagi jang („sarrasins’’). Bu vaqtga kelib arablar Pireney yarim orolining katta qismini bosib oldilar. Merovinglar dinastiyasi (q.Merovingiens) vakili Karl Martel qoʻmondonligida franklar gʻalaba qozondi va arablarning Gʻarbiy Yevropaga yurishini toʻxtatdi. Bu gʻalaba qirollikda hokimiyatning Merovinglar dinastiyasidan Karolinglar dinastiyasiga oʻtdi.

Bataille de Valmy - 1792-y 20 sentabrda Valma janggi // Mazkur jangda fransuz revolyutsion qo'shinlari interventlar - Prussiya armiyasi ustidan g'alabaga erishdi va Parijga bostirib kirishlarining oldini oldi. Bu g'alabadan so'ng fransuzlar o'zi hujumga o'tdi.

Bataille de Verdun - Verden janggi // Birinchi jahon urushi davrida (q.guerre mondiale (Première) 1916-yil fevraldan-dekabrgacha 5-Germaniya armiyasi fransuz qo'shinlarining Verden shahri (Verdun – sur - Mense) Maas daryosi yaqinida frontni yorib o'tishga urinishdi, lekin qahramonona qarshilikka duch kelishdi. Uzoq davom etgan ayovsiz jangda ikkala tomon ham ko'p talofatlar ko'rdi: fransuzlardan 360 ming kishi, nemislardan - 335 ming kishi halok bo'ldi. 1916-yil dekabrgacha fransuzlar nemislar hujumidan oldingi mavqeyini deyarli tiklab oldi, 1816 - yil 9-10-aprel va 24-iyundagi janglarda g'alabaga erishdi.

Bataille de Waterloo - Vaterloo janggi // 1815-yil 18 iyunda Vaterloo yaqinida (Bryussel janubida) Napoleon armiyasi (q.Napoléon I) ittifoqdoshlari ingliz-golland A.Vellington boshchiligida va G.A.Blyuxer qo'mondonligidagi prussiya qo'shinlari tomonidan tor-mor etildi. Bu esa imperatorning ikkinchi marta taxtdan voz kechishga olib keldi (q.Cent Jours (les)).

BCBG (qisq.) „bon chic bon genre“dan soʻzma-soʻz tarj.m „chiroyli kiyim- yaxshi muomala“ qisq. BCBJ // Yoshlar modasining bir turi: klassik uslubdagi qimmatbaho jiddiy kiyim. Eng sara o'quv yurtlari, universitetning ayrim fakultetlari (masalan, Institut d'études politiques) talabalariga xos kiyimlar.

„Belle époque“ - „Ajoyib davr“ (1896-1914) // „Buyuk turg'unlik“ (1882-1896) bilan Birinchi Jahon urushi orasidagi davr. Kuchli iqtisodiy o'sish, dunyo moliya tizimida frankning qiymati qadrlanishi, banklarning mustahkamlanishi. Jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish ko'paydi: yirik burjuaning boyishi bilan aholining asosiy qismi kambag'allasha boshladi. Fanda, san'at va adabiyotda katta yuksaklikka erishildi. Gi de Mopassan (1850-1893), Viktor Gyugo (1802-1855), Emil Zolya (1840-1902), Anatol Frans (1844-1924), Marsel

Prust (1871-1922) va boshqa yozuvchilar o'zlarining birinchi asarlarini chop qildira boshlashdi. Aka-uka Lyumer (Lui Jan, 1864-1948); (Ogyust, 1862-1954)lar kinoni kashf qildilar. Rassomchilikda yangi yo'nalishlar – impressyionizm (q.Impressionnisme), fovizm, kubizmlar yaratildi. Buyuk Fransuz revolyutsiyasining 100 yilligiga bag'ishlab A.G.Eyffel loyihasiga ko'ra dunyoga mashhur Eyffel minorasi qurildi.

Bibliothèque nationale (Bn) -*Milliy kutubxona* // Qadimiy fransuz kutubxonasi. Parijda kardinal Rishelye (1585-1642)ning sobiq saroyi binosida joylashgan. Kutubxonaga qirollik majmuasi: Karl V qiroatxonasi (1338-1380), Lyudovik XI kutubxonasi (1423-1483) xizmat qilgan. 1537-yilda Fransisk I (q.Valois) har bir nashr qildirilgan asardan qirollik kutubxonasiga bir nusxa topshirish to'g'risida farmoyish berdi. Buyuk Fransuz Revolyutsiyasi (q.Révolution Française) davrida kutubxona hammabop bo'lib, ruhoniylar va aristokratlardan tortib olingan nashrlar bilan boyitildi. XIX asrda kutubxona me'mor G.Labrust (1801-1875) loyihasiga ko'ra qayta qurildi. Hozirgi vaqtda kitobxonlarning va yangi kitoblarning ortib ketganligi bois kutubxona yangi binoga (q.Bibliothèque Nationale de France) ko'chib o'tdi, Rishelye saroyida esa qo'lyozmalar, xarita, estamp, tanga, qadimgi medal kabi nodir buyumlar ko'rgazmasi tashkil qilingan.

Bibliothèque Nationale de France (BNF) - *Fransiya Milliy Kutubxonasi* // 1988-1993-yillarda (me'mor D.Perro loyihasiga ko'ra) Parijning Tolbiyak rayonida prezident F.Mitteran tashabbusi bilan qurildi. 1995- yil tantanali ochilish marosimi bo'ldi. To'rtta bino oyna va temirdan bo'lgan 80 metrli minora ochiq kitobni anglatadi. Bu dunyoda AQSH Kongressi kutubxonasidan keyin ikkinchi o'rinni (400 km uzunlikdagi javonda 120 million tom va 300 ming vaqtli nashr) egallaydi. Zamonaviy audovizual va kompyuter uskunalari bilan ta'minlangan. Jamg'armaning asosini sobiq Milliy Kutubxona tashkil etgan (q.Bibliothèque Nationale).

bocage *m* – *bokaj* // Gʻarbiy Fransiyaning oʻziga xos manzarasi (q.Normandie, Bretagne): butalar, daraxt qatorlari, unda-bunda joylashgan fermalari bilan oʻralgan (*haies vives*) uncha katta boʻlmagan dala va oʻtloqlar.

Bois de Boulogne - *Bulon oʻrmoni* // Maydoni 900 ga boʻlgan Parij gʻarbida XVI okrugda joylashgan oʻrmon parki. Shaharliklarning sevimli dam olish maskani. Oʻrmonning nomi Bulon –Syur–Mer shaharchasining nomidan kelib chiqqan. Filipp IV u yerga *Muqaddas Ona* cherkoviga ibodat qilish uchun borgan va ibodatdan qaytgach, qirol Parij yonidagi oʻrmonda xuddi shunday cherkov qurishni buyuradi. Margarita Valua (q.Valois) buyrugʻiga asosan bu yerda „Qirolicha Margarita xiyoboni“ tashkil qilindi. Baron Osman Bulonskiy Parijni taʼmirlash jarayonida oʻrmonni ikkita sunʼiy koʻli bor ingliz parkiga aylantirdi. 1867-yilda parkda Lonshan otchopari ochildi. Parkning bezaklaridan yana biri arxitektor F.J.Belanjning klassik uslubdagi Bagatel saroyi hamdir. Park hududida sport klublar, ikkita otchopar, mashhur restoranlar, bolalar ijodi Markazi mavjud.

bonnet phrygien *ñ Frigiy qalpogʻi* // Qizil rangdagi bosh kiyimi (le bonnet rouge), Buyuk Fransuz Revolyutsiyasi davrida ozodlik ramzi boʻlgan. Qadimgi Frigiya - Kichik Osiyo mamlakatida paydo boʻlgan. Qadimgi Rimda uni ozodlikka chiqarilgan qullar kiyib yurishgan.

Bourbons (les) - *Burbon-johil amaldorlar* // Qirollik dinastiyasi. Uning namoyondalari - Navarra, Fransiya va Ispaniya qirollari, Kapeting avlodlari (orqa avloddan) Luara daryosi yonidagi tarixiy Burbonne (Bourbonnais) provinsiyalari. Fransiya 1589-1791-y.y., Buyuk Fransuz revolyutsiyasiga (q.Révolution française) qadar, qayta tiklashdan (q.Réstauration) keyin 1814-yildan 1846-yilgacha dinastiya boshqardi. Fransiya taxtida ilk burbon – Genrix IV (1589-1610-yillar idora qilgan), oxirgisi - Lui Filipp Orleanskiy (1830-1848 yillar boshqargan) 1848- yil burjua – demokratik revolyutsiyasi paytida agʻdarilgan (q.Révolution de février 1848).

Bourgogne *f* – *Burgundiya* // Kot d'or, Nev, Sona va Luara, Yonna, departamentlaridan iborat bo'lgan Fransiyaning markaziy-sharqiy qismida joylashgan ma'muriy hudud (q.région). Maydoni - 31582 km² (metropoliyaning 5,8 % maydoni). 1992-yil 1 yanvardagi ma'lumotga ko'ra, 1 612200 kishi (mamlakat aholisining 2,8 foizi). Ma'muriy markazi - Dijon. Asosiy shaharlari: Shalon-syur-son, Never, Oser, Le-Krezo. Parij basseyni va Rona vodiysi orasida joylashgan, Sona daryosi vodiysi, Sona va Sena daryosini bo'lib turgan tepalik va yassi tog'larni o'z ichiga oladi. Shimoliy Yevropa bilan O'rta Yer dengizi savdo-sotiq yo'lida joylashgan juda foydali bo'lib, mamlakatda yo'llar va savdo-sotiq rivojlanishida asosiy manbadir. Ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi: don mahsulotlaridan g'allachilik, uzumchilik, vinochilik (markali burgund vinolari) va go'sht-sut chorvachilik mahsulotlari. Oziq-ovqat sanoati, metallurgiya (Le-Krezo zavodlari), mashinasozlik (lokomotiv va AES uchun uskunalar ishlab chiqarish). Ko'plab tarixiy va madaniy yodgorliklar (qasr, saroy, cherkov, monastirlar) ko'pgina sayyohlarni o'ziga jalb qiladi. Mazkur hududda tavallud topgan buyuk shaxslar: siyosatchi va olim L.Karno, bastakor J.F.Ramo, shoir A.de Lamartin, pedagog va noshir P.Laruss, yozuvchi S.T. Kolett, muhandis A.G. Eyfel va boshqalar.

«**branché**» *m soʻzl.* - «*branshe*» modaga muvofiq kiyinuvchi // Zamonaviy yoshlar modasida yo'nalish – vakillari odamlar orasida o'zining tashqi ko'rinishi, kiyinishi bilan ajralib turishga harakat qilishadi. 50-yillarda kichkina shlyapalar, yirik kletkali kurtka, keng palto, tor va kalta shim urf bo'lgan. «Branshe» o'rniga «fun» (*ingl.* xursandchilik, hazil) – qaroqchilar, ritsar, amerika va lotin amerika uslubidagi g'ayrioddiy kiyimlar.

Bretagne *f* - *Bretan* // Fransiya g'arbidagi ma'muriy hudud (q.région). Bretan yarim orolida joylashgan, La-Manche ko'rfazi va Atlantika okeani o'rab olgan. Bretanni 2 xil ifodalashadi: dengiz ("Ar mor") va ichki ("Ar coat"- o'rmonlar o'lkasi). Lingvistik jihatdan – fransuz tilida so'zlashadigan Yuqori,

fransuz va breton tilida soʻzlashadigan Quyi Bretanga ajratishadi. Toʻrtta departamentdan iborat: Kot-Darmor, Finister, Il-e-Vilen, Morbian. Maydoni 27000 kv. km (metropoliyaning 5 % maydoni). 1992-yil 1 yanvar hisobiga koʻra aholisi 2 815900 kishi yoki mamlakat aholisining 4,9 foizi. Maʼmuriy hududi – Renn (Rennes). Asosiy shaharlari: Brest, Lorian, Sen-Briyek, Kempe, Sen-Malo, Van. XIX asrda Bretan - dengizchi va dehqonlar vatani - eng kambagʻal oʻlkalardan biri boʻlgan, hozirgi vaqtda esa bu ilgʻor hudud, choʻchqa goʻshti, kolbasa va broyler joʻjalar yetishtirishda yetakchilik qiladi. Sabzavotchilik (gulkaram, artishok (gulsimon poliz oʻsimligi), koʻknoʻxat, loviya), gʻallachilik rivojlangan. Baliqchilik mamlakatda ovlanadigan narsalarning uchdan bir qismini tashkil etadi. Sanoatda asosiy ishlab- chiqarish: oziq-ovqat, kemasozlik, elektronika, avtoqurilish, qora metallurgiya, oʻrmon va mebel sanoati. Telekommunikatsion uskunalarni «Alkatel Alstom» Lannion shahrida, Finisterda - ”Matra Kommyunikason”, Fajerda - ”Sajem” firmalari ishlab chiqaradi. “Iv Roshe” guruhi mashhur pardozi ashyolarini chiqaradi. Iqtisodning 4 ta asosiy sohasi: qishloq xoʻjaligi, kemasozlik, avtomobilsozlik va telekommunikatsiyada 60 % ishchi ish bilan taʼminlangan. Hudud dengiz kurortlari, diniy va xalq bayramlari, festivallar va breton oshxonasi bilan mashhur. Bu yerda: ritsar romanlari muallifi va shoir Kreten de Trua, Kanadani kashf qilgan Jak Karte, yozuvchi Fransua Rene de Shatobrian, dengizchi - suzuvchi I.J.de Kergelan de Tremarek, Kargelan va Fortuna orollarini kashf qilgan, stetoskop (yurak urushi va oʻpkani eshitib koʻradigan asbob) kashfiyotchisi vrach Layenek, shoir Maks Jakob, kinomatograf Alen Rene va boshqa mashhur insonlar tavallud topganlar.

brevet d’études professionnelles (B.E.P) - *Kasb taʼlimi toʻgʻrisida guvohnoma* // Kasb-hunar litseyini (Lycée professionnel) tugatgach beriladi. 235 turdagi - iqtisodda (maʼmuriy, tijorat, bank xizmatchlari va hk.), sanoat va qurilishda (stanokchi, slesar, elektromexanik, duradgor, gʻisht teruvchi va hk.), maishiy xizmat sohasida (sartaroshlar, oshpazlar, ofitsiantlar, mehmonxona ishchilari), qishloq xoʻjaligida (chorvador, turli dehqonlar va hk.)gi kasblar

mavjud. Kasb- hunar litseyida o‘qish 2 yil davom etadi va umumiy ta’lim bilan kasbiy-texnologik tayyorlov o‘qitilib, korxonada 3 oy amaliyot bilan yakunlanadi. Guvohnoma olgach, o‘qishni yana davom qildirish mumkin (q.certifikat d’aptitude professionnelle).

brevet de technicien (B.T) - *Texnik guvohnomasi* // Umumiy ta’lim va texnologik litseyda maxsus ta’lim olganlikni tasdiqlovchi guvohnoma (q.lycée d’enseignement générale technologique). Qurilish, qishloq xo‘jaligi, turizm va sanoatda, ishlab-chiqarishda, universitetda texnik ta’lim diplomi olish uchun o‘qishni davom qildirish yoki oliy texnologik ta’lim (q.brevet de technicien supérieur) huquqini beradi (q. diplôme universitaire de technologie).

brevet de technicien supérieur (B.T.S.) - *Oliy malakali texnik guvohnomasi* // Bunday guvohnoma olish uchun tayyorgarlik 2 yil maxsus seksiyalar (S.T.S.) davlat yoki xususiy litseylarda davom qiladi. Bunday seksiyaga kirish uchun bakalavr (q.baccalauréat) darajasi, yoki o‘rta ma’lumot ikkinchi siklini (q.lycée) bitkazgach, joriy o‘zlashtirish komissiyasi (q.examen du dossier scolaire) tomonidan sinovdan o‘tishi lozim. Auditoriya mashg‘ulotidan tashqari texniklarni tayyorlashda ishlab - chiqarish amaliyoti ham o‘tkaziladi. Tayyorlov seksiyalari oliy ta’lim tizimiga kiradi, B.T.S. guvohnomasini olganlar esa universitetning ikkinchi va uchinchi kurslarida o‘qishni davom ettirishlari mumkin.

Bricolage m - qo‘l bola narsalar tayyorlash // Hozirgi vaqtda 80 % fransuz erkaklar va 45 % ayollar bo‘sh vaqtlarini qo‘l mehnatiga sarf qiladilar : o‘z uyini ta’mirlashadi va bezashadi, duradgorlik qilishadi, savat to‘qishadi, uy jihozlari yasashadi, sopol buyumlar tayyorlashadi. Ko‘pchilik uchun bu mashg‘ulot byudjetga madad bo‘ladi.

budget familial - *oila byudjeti* // Fransuz oilasining byudjeti (qanday ishda ishlash maosh, ish haqi (salaire d’un ouvrier), moyana (traitement d’un fonctionnaire) yoki qalam haqi (honoraires d’un médecin, d’un notaire, d’un écrivain), ijtimoiy ta’minot nafaqasi (prestations sociales), bankdagi omonatlari

foizi, ko'chmas mulkni ijaraga berish, ijara puli kabilar evaziga tuziladi. Ayollar mehnatiga erkaklarnikiga ko'ra 25 % kam haq to'lanadi, iqtisodning xususiy sektorida davlatnikidan ko'ra ko'proq. Oxirgi 30 yil fransuz oilasining kvartira, transport, meditsina xizmati, madaniy hordiq va sportga pul sarflashi deyarli ikki barobar o'sdi; oziq-ovqat va kiyim-kechakka nisbatan esa shunchaga qisqardi.

bulletin de notes, bulletin trimestriel - *maktab baholar tabeli* // Yarim yillik byulletenda har bir fan bo'yicha baholar, o'qituvchi mulohaza va tanbehi, o'quvchining bilimi va xulqi bo'yicha tavsifnoma va litsey (kollej) direktori ko'rsatmalari qayd qilinadi.

bureau de tabac - *tamaki do'konchasi* // Tamaki mahsulotlari hamda telefon kartalari (télécarte), otkritka, marka, konvert va boshqa mayda- chuydalar sotiladi.

C

„Ça ira“ „*Omadimiz chopadi, ish yurishadi*“ // Revolyutsion qo'shiq nomi (q.chant révolutionnaire). 1790-yilda Bastiliya qo'lga olinganining bir yillik tantanasi nishonlanishidan oldin parijliklar Tylleri saroyidan kadril tovushi va ushbu ashula eshitila boshladi: „Ah! ça ira, ça ira. Les aristocrates à la lanterne!“ (Ishimiz yurushadi, aristokratlar fonarlariga !'') Ertasi kuni bu qo'shiqni butun Parij kuyladi.

cadre *m - kadr* // tashkilot ma'muriyati, boshqaruv tizimi xodimi.

cahier de textes - 1) *uy vazifalari uchun daftar* // Boshlang'ich va o'rta maktab o'quvchilari yozma (devoirs) va og'zaki (les leçons) topshiriqlarni yozib borishadi. 2) *Sinf jurnali* // O'quvchilarning davomati va o'zlashtirishi qayd qilinadigan jurnal.

calanque *f hud.* - *Provansdagi kichikroq ko'rfaz* // Tik qoyalar bilan o'ralgan tor uzunchoq O'rta Yer dengizi qo'ltigi.

calendrier de voyageurs - *sayohatchilar taqvimi* // Temir yo‘l va aviatransport bo‘yicha yo‘lovchilar uchun barcha kerakli ma’lumotlar (yil davomida imtiyozlar, poyezd va samolyotlar jadvali mavsumga qarab) jamlangan (q. Périodes bleues, Périodes blanches, Périodes rouges).

calendrier républicain - *Respublika (revolyution) kalendari* // Buyuk Fransuz revolyutsiyasi (q. Révolution française) davrida 1793-yil 5 oktabrdagi dekretga asosan kiritilgan. Grigoryan yil hisoblash bekor qilindi. Yangi davrning birinchi kuni bo‘lib 1792-yil 22-sentabr Respublika (q. République) (I) e‘lon qilingan kun e‘lon qilindi. Yangi kalendarga ko‘ra yil 12 oydan (har oyi 30 sutka va qo‘shimcha 5 sutka revolyutsion bayramlar uchun) iborat bo‘ldi. Yozuvchi va siyosatchi Fabr d’Eglanten oylarning quyidagi nomlarini taklif qildi: kuzgi - vandemer (vandémiaire), bryumer (brumaire), frimer (frimaire); qishki-nivoz (nivôse), plyuvioz (pluviôse), vantoz (vantôz); bahorgi- jerminal (jerminal), floreal (floréal), prairial (prairial); yozgi messidor (messidor), termidor (thermidor) va fryuktidor (fruktidor). Revolyutsion kalendar 1806-yilning 1-yanvarigacha amalda bo‘ldi.

calvinisme *m* - *kalvinizm* // Protestantizm yo‘nalishi, reformator diniy ta’limot asoschisi Jan Kalvin (1509-1564) nomi bilan atalgan. Ta’limotning asosiy qoidalari (taqdirning yaratilganiga ishonish, «tinch asketizm»ni targ‘ib qilish) uning «xristian dini nasihatlarida bayon qilingan (Institution de la religion chrétienne 1536). Kalvin «sodda», «arzon» burjuaziyacha saqlanuvchi cherkov, respublikanikiday boshqaruv tizimi uchun, tadbirkorlikka keng yo‘l ochilishi uchun kurashdi, ammo demokratiya - oshkoralikka chidamsiz va o‘z ta’limotiga qarshi chiqqanlarni tushunolmas edi. Calvinizm Fransiyada (q.huguenots), Shvesariyada va Niderlandiyada tarqaldi. Fransiyada kalvinistlarni gugenotlar deb atashardi. 1685-yildan boshlab gugenotlarning chet elga qochishi boshlandi.

Camargue (la) - *Kamarg* // Provansda Rona deltasi orasida joylashgan viloyat. Yer maydoni 600 ming ga, yarmi botqoqlik va ko‘llardan iborat. Janubda,

odatda korrida (buqa janggi) uchun qora buqa va oq otlarni namoyish uchun boqishadi. Shimolda guruch, uzum va yem-xashak yetishtiriladi. Ajoyib o'simliklar va hayvonot dunyosi 1970-1976-yillarda Milly qo'riqsona (réserve nationale) va hududdagi tabiiy park (parc naturel régional) yaratilishiga asos bo'ldi.

Campagne de Russie (de Napoléon) - *Napoleonning Rossiyaga safari*
// Fransiyaning Rossiyaga qarshi janggi (iyun –dekabr 1812-yil). Rus tarixida «1812-yilgi Vatan urushi» deya qayd qilingan. Rus armiyasidan ikki barobar ko'p kuchga – 600 ming kishilik armiyaga ega bo'lgan Napoleon urushni tezda tugatishni ko'zlagan edi. 1812- yil 7-sentabrda Borodino qishlog'i yonida ayovsiz, hal qiluvchi jang bo'lib o'tdi (bataille de Moscou), undan keyin 14-sentabr kuni Napoleon bo'm-bo'sh Moskvaga kirib keldi. Moskvani qo'rqinchli yong'in o'rab oldi, armiyaning ruhiyatini tushkunlikka tushirib yubordi, fransuzlar oziq-ovqatlarining katta qismi yonib kul bo'ldi. Partizanlar janggi taqdiri, rus armiyasining qo'qqisdan bergan zarbalari, yaqinlashib kelayotgan sovuq ob-havo fransuzlarni Moskvani tark etishga majbur qildi va 19-oktabr kuni ular bu yerdan chiqib ketishdi. Bir qancha janglarda mag'lubiyatga uchrab, Napoleon g'arbga qochdi. "Buyuk armiya" o'z safari vaqtida 550 ming kishini yo'qotdi va armiya batamom tugadi.

candidat *m* - 1) *saylovlarda nomzod* 2) *imtihonlarda abituriyent* (baccalauréat); 3) *oliy o'quv yurtiga kiruvchi konkursant* (q. Grandes écoles)

canton *m* - *kanton* // 1789-yildan boshlab hududiy birlik. Kattaligi okrugdan kichik, kommunadan katta (q. Commune). Fransiya hududida 4000 ta kanton mavjud. Bosh maslahatchilar (q. élection cantonales) saylovlarida saylov o'krugi bo'lib xizmat qiladi. Kantonning bosh shahrida sud, jandarmeriya, notariat bo'lib, turli yarmarka va harbiy xizmatga to'planishlar shu yerda o'tadi.

canuts (révoltes des) ñ *1831-1834 - yillardagi Lion to'qimachilari qo'zg'olon* // Lion ipak to'qimachilik korxonalarida 1831-1834-yillarda og'ir

mehnat va kam maosh natijasida o'tgan qo'zg'olonlar fransuz ishchilarining birinchi qurolli chiqishlari bo'ldi. 1831-yil noyabrda ipak to'qish manufakturasida ishchilari tinch namoyishchilar hukumat tomonidan o'qqa tutilgandan keyin qo'llariga qurol olishga majbur bo'lishdi. 3 kun ichida ishchilar Lionni egalladilar va revolyutsion munisipalitet tuzdilar. Biroq, 1831-yil 3-dekabr Parijdan yuborilgan qo'shin qo'zg'olonni bosti-bosti qildi. To'quvchilarning 2 - qo'zg'oloni 1834-yil aprelda bo'lib, siyosiy xarakter kasb etdi. Ishchilar mehnatkashlar uyushmasini taqiqlovchi qonunga qarshi chiqishdi. 1834-yil 15-aprel qo'zg'oloni ayovsiz bostirildi.

Capétiens (les) – *Kapetinglar // Gugo Kapet* (Hugues Capet, 941-996) asos solgan. 987-yildan to 1328-yilgacha qirollikni boshqargan Fransuz qirollari dinastiyasi. Toj Gugo Kapet avlodiga to'g'ridan - to'g'ri meros qilinar edi, keyinchalik u Kapetinglar orqa avlodi - Valua (q.Valois) dinastiyasiga, undan keyin Orleanlar (1350-1515), Angulemlar (1515-1589) avlodi va nihoyat Burbonlar (1589-1792, 1814-1848, q.Bourbons). Turli xil knyazliklar konglomerat (turli xil, tasodifiy narsalar yig'indisi, qurama) hosil qilib mamlakatni Kapetinglar tartibsiz boshqara boshladi. Parij va Orlean atrofi qirollik domeni (feodal mulki, yer - suv) dan iborat bo'ldi va XIV asr boshida bunday domen mamlakatning $\frac{3}{4}$ qism maydonini tashkil qila boshladi. Kapet avlodi so'nggi qiroli Karl IV (1294-1328, 1322 dan boshqargan) vafotidan keyin Fransiya qiroli qilib Filipp Valua (1293-1350, 1328 yildan boshqargan) saylangan. Bu esa inglizlar bostirib kirishiga (ular ham taxtdan umidvor edilar) sabab bo'ldi va 100 yillik urush boshlandi (q.guerre de Cent Ans).

«Carmagnole» (la) - «*Karmanola*» // Xalq revolyutsion ashula – raqsi (q.Chante révolutionnaire), uni sankyulotlar kuylagan (sans-culottes), kalta kurtka-karmonola kiyib yurishgan (nomi ham shu yerdan kelib chiqqan). Ilk bor 1792-yil 10 avgustda Tylleri saroyi bosib olingandan keyin yangragan. 1799-yilda Napoleon tomonidan taqiqlangan, ammo 1830 - va 1848-yillarda revolyutsiya

davrida 1871-yil Parij Kommunasida kunlarida (q.Révolution de juillet, Révolution de février 1848) yana yangray boshladi.

Carnaval *m* – *karnaval* // Rus maslennitsasi, sehrgar-u jodugarlarga sajda qilish (q.fête des Rois) bilan muqaddas ro‘za kunlari (q.Mardi Gras) orasidagi davr. Ketayotgan qish va gullab yashnagan bahor yaqinlashayotganini bildiradi. Rang-barang kostyumlar, niqoblar, bal, raqs kechalari, gullar bayramlari, malika tanlash kabi ko‘ngilochar tadbirlar bilan nishonlanadi. Eng mashhur karnavallar Nitsa, Nansi, Kolmar, Basklar mamlakatida (Pays basque) bo‘lib o‘tadi.

carnet de notes, carnet de correspondance - *maktab kundaligi* // O‘quvchining xulqi va o‘qishi haqida ma’lumotlar tabeli. Hozirgi vaqtda asosan boshlang‘ich maktabda foydalaniladi.

Carolingiens (les) *m pl* - *Karolinglar* // Frank qirolligining (751-987) (merovinglardan keyin, q.Mérovingiens) ikkinchi dinastiyasi. Asoschisi - Pepin le Bref (Pépin le Bref, 714-768). Uning o‘g‘li Buyuk Karl (Velikiy (Charles I le Grand, yoki Charlemagne (742-814) 768- yildan boshlab hukmronlik qilgan) butun dinastiyasiga shu nomni bergan. Uning hukmronligida Frank qirolligi G‘arbiy Yevropaning yarmidan ko‘prog‘ini egallab, kuch-qudratga ega bo‘ldi. 800-yilda Buyuk Karl Rim Papasi qo‘llab-quvvatlashi natijasida Rim imperatori unvoniga sazovor bo‘ldi. 843-yilda Verden shartnomasiga ko‘ra (Traité de Verdun) imperiya nevaralar orasida 3 qism (q.Serments de Strasbourg)ga bo‘lindi. Lotar I (Lothaire I (795-855) 843-yildan boshqargan) Italiyani va Reyn, Rona yonidagi yerlarni oldi (bo‘lg‘usi Lotaringiya, Burgundiya, Provans), Lyudovik II Nemetskiy (Louis II le Germanique (825-875) 843-yildan hukmronlik qilgan) - Reyn daryosidan sharqqa tomon yerlarni (bo‘lg‘usi Germaniya), Karl Lisiy (Charles le Chauve (825-877) 843-yildan boshqargan) - Shelda, Maas, Sona, Ronadan g‘arbga tomon yerlarni (bo‘lg‘usi Fransiyaning katta qismini) bo‘lib oldi. 987-yilda Fransiya Karolinglar o‘rnini Kapetinglar dinastiyasi vakillari egalladilar (q.Capétiens).

Carte «Age d'Or» - «Oltin yosh» varaqasi // 60 yoshdan katta kishilarga (nafaqaxoʻrlarga) kechki seansdagi kinolarga chiptani 50 % arzon narxda sotib olish huquqini beradigan hujjat.

Carte améthyste (violet) - «ametist varaqasi» // Kam taʼminlangan, keksa, nogiron, urushda halok boʻlganlar xotinlari va bolalari, hamda ayrim maʼmuriy xizmatchilar uchun temir yoʻlda yurish chiptasi. Meriya tomonidan bepul yoki 50 % chegirma bahoga chipta olish uchun beriladi.

Carte «Kiwi» - «Kivi» kartochkasi // Imtiyozli bolalar temir yoʻl chiptasi, 16 yoshgacha boʻlgan bolalarga va yonidagi kuzatuvchilarga (4 kishigacha) I va II klass vagonlarda 50 % arzon bahosiga chipta olish huquqini beradi. «Oq» va «Koʻk» davrlarda amalda boʻladi (q.périodes blanches, périodes bleues).

carte nationale d'identité – shaxsni tasdiqlovchi hujjat // Fransiya fuqarosining shaxsini tasdiqlovchi hujjat. Yashash joyi boʻyicha meriya tomonidan fuqarolik holati aktlarini yozish kitobi (régistres d'état civil)ga asoslanib beriladi va 10 yil amalda boʻladi. Ushbu hujjatda ism, familiya, tugʻilgan sana, boʻyi, oʻziga xos belgilari, yashash joyi, fuqaroligi koʻrsatiladi. Egasining fotosurati, imzosi, hujjati, berilgan vaqti koʻrsatilgan boʻladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida amalda boʻla oladi (q.passeport).

carte orange - qizgʻin sariq kartochka // Parij metrosi, avtobusi, tramvay, trolleybusi va shahar atrofi transportida belgilangan hududlarda foydalanish imkonini beruvchi yagona imtiyozli yoʻlkira chiptasi. Egasining surati, ismi-sharifi, imzosi va kuponi mavjud boʻlgan kartochkadan iborat. Kuponning 2 xil turi mavjud: haftalik sariq (coupon jaune) va bir oylik qizgʻin sariq kupon. Metro kassalari, tamaki kioskalari, avtobuslarning oxirgi bekatlarida sotiladi.

carte rose -ôpushti rang kartochkaô // Haydovchilik guvohnomasi.

carte vermeil -ôqizil kartochkaô // Fransiyada doimiy yashovchi, 60 yoshdan katta boʻlgan, I va II klass vagonlariga 50 % chegirma bilan sotiladigan (Parij shahar atrofi poyezdlardan tashqari) (temir yoʻl transporti unchalik band

bo'lmaydigan vaqtlarda) temir yo'l transporti imtiyozli chiptasi (q.périodes bleues).

cartésianisme *m* – karteziANCHILIK (*Rene Dekart va uning izdoshlari yaratgan falsafiy ta'limot*) // XVII-XVIII asrlarda falsafa va tabiatshunoslikda faylasuf olim R. Dekart (Réné Descartes, 1596-1650) g'oyalari bo'lgan yo'nalish. Atama - lotin tilida Cartesius so'zidan olingan. Asosiy faraz - ketma-ket dualism, tafakkurning o'zini anglashi ("Cogito ergo sum"- Men fikrlayapman, demak men mavjudman"). Dekart – mumtoz ratsionalizm yo'lboshchisi (q.rationalisme) hisoblanadi.

cathares *m pl* - (*yunon tilidan katharos -ótozaô*) katarlar // XI-XIII asrlarda Lombardiya, Markaziy Italiya, Kataloniya, Shampän, Burgundiyada va asosan Fransiya janubida (q.Albigéois) vujudga kelgan diniy oqim a'zolari. Hozirgi kunda Fransiya janubida "neokatarizm" deb nomlangan diniy-e'tiqod harakati mavjud.

Celtes *m pl* - keltlar // Markaziy Yevropada eramizdan avvalgi ikkinchi ming yillikda paydo bo'lgan, hozirgi Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Shimoliy Italiya hududlarini bosib olgan, Bolqon va Kichik Osiyoga ham kirgan qadimgi hind-yevropa qabilalari. Keltlar Galliya hududini ming yillar avval bronza davridan boshlab (eramizdan avvalgi 1600- yilda) bosib olgan va eramizdan avvalgi 250-150-yillarda tugallagan. Eramizdan avvalgi VI-V asrlarda mustamlakachilik juda rivojlangan. Mustamlakachilar mahalliy aholi bilan tezda qo'shilib ketgan. Hozirgi Fransiya hududida 60 ga yaqin kelt qabilalari yashagan. Ular doimo o'zaro va qo'shni xalqlar bilan urushib turishgan.

Cent Jours (les) – *yuz kun* // Napoleon I ning boshqaruvidagi oxirgi davr (1815 yil 20 mart – 22 iyun). Bu davrda Napoleon o'zining imperiyasini qayta tiklashga uringan. Elba orolidan qochib (u yerga surgun qilingan edi), Napoleon Fransiya ga keldi va uni Burbonlar tiklanishiga qarshi tomonlar yaxshi kutib olishdi. Mamlakat bo'ylab tantanavor, g'olibona yurish qilib, 20-mart kuni

Lyudovik XVIII qochib ketgan Parijga kirib keldi. Napoleon buyrug'iga binoan yangi Konstitutsiya – "Imperiya konstitutsiyasiga qo'shimcha akt" yangi konstitutsiyasi tayyorlandi. Biroq Vaterloo (q.bataille de Waterloo) jangidagi mag'lubiyati imperiyani qayta tiklashi amalga oshmasligini yaqqol namoyon qildi. Napoleon ikkinchi marotaba taxtdan voz kechishga majbur bo'ldi. U Muqaddas Yelena oroliga surgun qilindi, 1821-yil shu yerda vafot etdi.

centre commercial - *savdo markazi* // Odatda, shahar markazi yoki yangi kvartalda joylashgan kichik va katta magazinlar passaji. Eng mashhur savdo markazi - Parij bozorining Markaziy Forumi (Forum des Halles).

Centre de formation des apprentis (C.F.A.) - *kasb-hunar bilim yurti* // Kollejning 3-sinfini tugatgan 15-16 yoshli kasb-hunar o'rganayotgan o'smirlarga mo'ljallangan. O'quv dasturida - maxsus va umumta'lim fanlar, instruktor-masterlar boshchiligida ixtisosligi bo'yicha korxonalarda ishlash. Ta'lim 1-2 yil davom etadi, bilim yurtini tugatgach kasb tayyorgarligi bo'yicha attestat olishadi (q.certificat d'aptitude professionnelle) yoki kasb-hunar ta'limi to'g'risida guvohnoma (q.brévet d'études professionnelles) beriladi.

Centre international d'études pédagogiques (C.I.E.P.) - *Xalqaro pedagoglar markazi* // 1945-yil Sevr shahrida tashkil qilingan, 1987-yildan boshlab Xalq Ta'limi Vazirligi qoshidagi davlat bilim yurti maqomiga ega. Markaz maqsadi - ta'lim, o'qitish va fransuz tili o'qituvchilarining kasb mahoratini oshirish (q.F.L.E) bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. Markaz ommabop «Exo» («Echos») jurnalini chiqaradi, hamda «Le Français dans le monde» jurnaliga homiylik qiladi. Fransuz va chet el talabalari va o'qituvchilarining stajirovkasini tashkil qiladi.

Centre national d'Art et de Culture Jeorges Pompidou - *J.Pompidu nomidagi Madaniyat va san'at milliy markazi* // 1973-yil prezident Jorj Pompidu (1911-1977) tashabbusi bilan Parijning markaziy qismida (rue Rambuteau) me'morlar R.Rodgers (Angliya) va R.Piano (Italiya) loyihasiga ko'ra

barpo qilindi. Bino – xay-teknik (high-tech) me'morchiligi namunasi – temir va oynadan qurilgan. Kirish qismi oynaband devorga truba va panjaralardan qurilmalar ishlangan. Texnik ishlari tashqaridan truba orqali bajarilgan. Binoda ommaviy kutubxona (Bibliothèque publique d'information), dizayn markazi (centre de création industrielle), Akustika va musiqa muvofiqligi va tadqiqotlari instituti (institut de recherche de coordination acoustique-musique I.R.C.A.M.) zamonaviy san'at muzeyi (Musée National d'Art Moderne).

Centre national de la recherche scientifique (C.N.R.S.) - *Ilmiy tadqiqotlar markazi* // Ilmiy tadqiqotlar markazi 1901-yildan buyon faoliyat yuritayotgan Kassa bazasida (Caisse des recherches scientifiques) 1939-yil tashkil qilingan. Uning vazifasi fanning hamma turlarini rivojlantirish, tadqiq qilish hamda fanning tahlili va hukumatning fan bilan bog'liq ishlarini xabardor qilib turishdan iborat. Markaz 1500 ta ilmiy laboratoriya (31000 nafar ilmiy xodimlari bo'lgan), nashriyotlarni ta'minlaydi, kollokvium va stajirovkalar tashkil qiladi. 7 ta bo'limdan iborat: fizika va matematika, yadrofizikasi va elementar qismlar fizikasi, koinot haqidagi fan, kimyo, sanoatni loyihalashtirish, tirik organizmlar to'g'risidagi fan, inson va jamiyat fanlari. Shu yerda atrof-muhitni himoyalash dasturi, energetika, urbanistika, kelajak texnologiyasi ishlab chiqiladi.

Centre national d'études spatiales (C.N.E.S.) – *Kosmik tadqiqotlar milliy markazi* // 1962 - yilda Parijda milliy kosmik dasturlarni bajarish maqsadida tashkil qilingan. Tuluzadagi kosmik markaz, Evrdagi uchuvchi raketalarni boshqarish markazi (depart.Esson) va Kurudagi kosmodrom (Frans.Gviana; q. Centre spatial guyanais) lar unga qarashli. Markazning vazifalariga ilmiy tadqiqotlarning asosini o'rganish, texnologiya bazalarini va kosmik telekommunikatsiyalarini rivojlantirish, „Telekom“ va „TDF“ yo'ldoshlarini uchirish, „Spot“ yo'ldoshi orqali Yerni kuzatish, raketa uchiruvchilarni loyihalash, ishlab chiqarish va ishlatish kiradi.

Centre spatial guyanais (C.S.G.) - *Gviyan kosmik markazi* // Kuru (Kourou)da Fransiya kosmodromi, Gviyana Zamorsk departamentida (Janubiy Amerika, q.Guyane Française) joylashgan. Atlantika okeani qirg'oqlaridan shimoliy ekvatoridan 5 kenglikda joylashgan va Yerni kuzatish uchun geostatsionar orbitaga telekommunikatsion yo'ldoshlarni uchirish uchun qulay. 1968-yildan faoliyat ko'rsatadi. Eng yirik dasturlari: „Diamant” yo'ldoshi va raketa uchiruvchilarning uchirilishi (q.„Ariane”).

Centre ñ Val de Loire m - *Val-de-Luar markazi* // Parij basseyni janubida, 6 ta departament (Sher, Er-i-Luar, Endr, Endr-i-Luar, Luar-i-Sher, Luare)dan iborat bo'lgan ma'muriy hudud (q.région). Yer maydoni 39100 kv.km (metropoliyaning 7,2 % hududi). Aholisi (1995-yil ma'lumotlariga ko'ra) 2 413000 kishi (Fransiya aholisining 4,1 foizi). Ma'muriy markazi – Orlean (Orléans). Asosiy shaharlari: Tur, Burj, Shartr, Shaturu. Luara qirg'oqlarida pasttekisliklar va qir-adirlarda tekis relyeflar mavjud. Iqlimi yumshoq iliq, uzumchilik uchun qulay bo'lgan quyoshli kunlar Yevropada don yetishtirish bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi. Qishloq xo'jaligi texnika ekinlari va makkajo'xori, sabzavotchilik va gulchilikka ixtisoslashgan. Sanoatda katta va kichik tashkilotlar yetakchilik qiladi. An'anaviy tarmoqlari: yozuv qog'ozi ishlab chiqarish, yog'ochni qayta ishlash, charm, oyoq kiyim, yengil sanoat. Urushdan keyingi yillarda avtomobilsozlik, aviakosmik, elektrotexnik, elektron, kimyo sanoati, qurol-yarog' ishlab chiqarish, farmatseftika rivojlangan. Luara va uning irmoqlari qirg'oqlarida AES katta rol o'ynaydi. Tarixiy va madaniy merosi – Shartr, Orlean, Burj gotik soborlari, renessans uslubidagi Luara qasri (q.Châteaux de la Loire), „Tovush va nur”(q.Son et Lumière) taqdimoti, (qasr fonida beriladigan) Orleanda 7- may kuni Janna d'Ark sharafiga o'tkaziladigan bayram, Burjdagi qo'shiqlar festivali - minglab sayyohlarni jalb qiladi. Mazkur hudud ajoyib bog'-rog'lari va shirin taomnomasi bilan mashhur. Bu yerda tavallud topgan taniqli insonlar: miniatyurachi rassom J.Fuke, faylasuf va olim R.Dekart, shoir

P.Ronsar, yozuvchilar F.Rable, J.Sand, Anatol Frans, Sh.Pegi, M.Prust, aktyor J.Depardye.

certificat d'aptitude au professorat de l'enseignement du second degré (C.A.P.E.S.) - *O'rta maktab o'qituvchisi diplomi* // O'qituvchilar tayyorlash universitet tipidagi institutni tamomlab, tanlov imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirilgach beriladi (q.instituts universitaires de formation des maîtres).

certificat d'aptitude au professorat de l'enseignement technique (C.A.P.E.T.) - *Texnika fanlari o'qituvchisi diplomi* // O'qituvchilarni tayyorlash universiteti institutini tugatgach imtihon sinovlarini topshirgach beriladi (q.institut universitaire de formation des maîtres).

certificat d'aptitude professionnelle (C.A.P.) - *Professional tayyorgarlik to'g'risidagi attestat* // Ishchi yoki xizmatchining kasb mahoratini tasdiqlovchi hujjat. Sanoat, savdo-sotiq, maishiy xizmat, qishloq xo'jaligi kabilarda 30 dan ortiq turlari mavjud. Attestatni olish uchun kasb-hunar litseyida (q.lycée professionnel) umumiy ta'lim, texnologik va ishlab-chiqarish stajirovkasini 2 yil o'tagandan keyin beriladi. Professional tayyorgarlik guvohnomasi (q.brevet d'études professionnelles)ga qaraganda murakkabroq va ixtisoslashtirilgan. Attestat olganlar kasb-hunar va umumta'lim litseylarida bakalavr darajasigacha bilim olishi mumkin. Buning uchun litseylarda birinchi soddalashtirilgan sinf faoliyat ko'rsatadi.

Champagne - Ardenne f - *Shampan Ardenna* // Mamlakatning shimoliy – sharqidagi ma'muriy hudud (q.région). To'rtta departamentdan iborat: Ardenna, Ob, Marna va Yuqori Marna. Yer maydoni 25606 km² (4,7 % metropoliya hududi), aholisi (1992 yil 1- yanvar hisobiga ko'ra) – 1 346 200 kishi (mamlakat aholisining 2,4 foizi). Ma'muriy markazi – Shalon-na-Marne. Asosiy shaharlari: Reims, Trua, Sharlevil - Mezer, Eperney, Sedan. Il-de-France hududidan g'arbda va shimoliy g'arbda, Ena, Marna, Ob, Sena daryolari basseynida joylashgan.

Relyefi asosan tekis. Qishloq xo'jaligi uzumchilik (shampan vinolari ishlab chiqarish), g'allachilik, chorvachilik – go'sht mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan. Oziq-ovqat, yengil sanoat, kimyo, metallurgiya, mashinasozlik sanoati rivojlangan. Mazkur hududda tavallud topgan taniqli kishilar: Sorbonna asoschisi, ilohiyot mutaxassisi R.de Sorbon, ensiklopedist D. Didro, shampan vinosi ixtirochisi, monax Perinon, siyosiy arbobi J. Danton, shoir A.Rembo, yozuvchi va siyosatchi E. Errio.

Champ-deñMars *m* - *Mars dalasi* // Harbiy maktab (q.école militaire) bilan Eyfel minorasi qad ko'targan Sena daryosi so'l qirg'og'i orasidagi yalanglik (q.Tour Eiffel). XVIII asrda maktab tarbiyalanuvchilari uchun mashq maydoni bo'lib xizmat qildi. Buyuk fransuz revolyutsiyasi (q.Révolution française) davrida bu yerda bayram tashkil qilindi: 1790-yil 14-iyul federatsiya bayrami (fête de la fédération), 1794-yil 8- iyun oliy idrok bayrami (q.être Suprême) Mars dalasining 21 *ga* lik katta maydonida 1867, 1878, 1889, 1900, 1937-yillarda xalqaro ko'rgazmalar o'tkazilgan.

Chandeleur *f* – *Xristianlar bayrami* // 2-fevralda nishonlanadigan xristianlar bayrami. Qadimgi odat nomidan kelib chiqqan: qachonlardir bu kuni ayollar uyni chaqmoqdan asrash uchun sham yoqqanlar (chandelles). Bizning zamonamizda bu bayramda an'anaga ko'ra quymoqlar (faire sauter des crêpes) pishiriladi (tovada quymoqlar tepaga otib aylantiriladi). Shunday irim qilishadi; Agar oilaning har bir a'zosi qo'lida oltin tanga yoki qog'oz pul ushlab, quymoqni ag'darib pishira olsa, butun yil omadli bo'ladi.

chanson *f* - *qo'shiq* // Fransuz qo'shig'ining kelib chiqishi XII asrlarga epik poemalarga (chanson de geste) taqaladi. Bu qo'shiqlarni birinchi bo'lib trubadur va truver (q.troubadours, trouvères)lar ijro qilganlar (trubadur – o'rta asrlarda Fransiya janubida elma-el kezib yuradigan oqin shoir). XV asrda xalq qo'shiqlari (masalan, breton «metamorfoza»si), rondo, ballada, *le virèle* kabi janrlar paydo bo'ldi. 1528-yilda Parijda ilk qo'shiqlar to'plami chiqdi (1500

qo‘shiq). Muhabbat lirikasi bilan bir qatorda noma‘lum mualliflar tomonidan ko‘chada aytiladigan hajviy, siyosiy qo‘shiqlar ham paydo bo‘la boshladi. XVII asrda Parijda Le Pont Neuf da ijro etiladigan xalq qo‘shiqlari uning nomini oldi (q.Les ponts neufs). 1729-yilda ilk « mayxona » (caveau) ochildi, bu yerda xalq xonanda va bastakorlari kuylar edi. Yana qo‘shiqning musiqali va adabiy shakli rivojlana bordi. Buyuk Fransuz revolyutsiyasi yillarida revolyutsion qo‘shiq (q.chant révolutionnaire) muhim rol o‘ynadi. XIX asrning birinchi yarmida janr rivojlanishi P.J.Beranj (1780-1857) (q.chansonnier) va P.Dyupon (1821-1870) nomlari bilan bog‘liq. XIX asrning 80-90-yillarida «kabare davri» «yerto‘lachalar» (q.chatnoirisme) o‘rnini egallaydi. Asrning oxirida katta myuzik-xoll zallari: Les folies-Bergères (1869), Le Casino de Paris (1890), Bobino (1880) L’Olimpia (1893) ochildi. XX asrning boshlarida plastinka chiqarish ommalashdi. I Jahon urushidan keyin Amerika (fokstrot, shimmi) va lotin Amerika (samba, rumba) ritmlari urf bo‘lgan. Mistenget, Moris Shevale, Jozefin Bekker-o‘sha davr mashhur xonandalari. II Jahon urushi davrida vatanparvarlik ruhidagi qo‘shiqlar bosqinchilarga qarshi kurashga chorlaydi (masalan, «Partizanlar qo‘shig‘i» - «Le Chant des partisans» (1943) mualliflari - M.Dryuon va J.Kessel). Urushdan keyingi qo‘shiqlar rang-barangligi bilan ajraladi: «adabiy qo‘shiqlar», “matnli qo‘shiq”, “ha-ha” qo‘shiqlari (chanson à texte, chanson ye-ye), - S.Gensburning, J.Brel, L.Ferrening mualliflik Sh.Aznavurning nafis qo‘shiqlari.

chanson à texte, chanson littéraire *matnli qo‘shiq* // Gitarada aytiladigan qo‘shiq turi, bu yerda katta ahamiyat matnga qaratiladi. II Jahon urushi yillarida Senaning so‘l qirg‘og‘i, Parijning intellektual massivida (Lotin kvartali va Sen-Jermen-de-Pre) tarqaldi. Eng mashhur xonandalari: Juliyett Greko, aka-uka Jak Fransis Lemark, Iv Montan, Leo Ferre, Gi Bear, Ann Silvestr va boshqalar. Janr cho‘qqisi - Jorj Brassans degan shoir, bastakor, xonandaning ijodi.

chanson de geste - (lot.gesta-qahramonlik) *Qahramonlik haqida ulug‘vor qo‘shiq (aytimlar)* // XII asrda Fransiyada paydo bo‘lgan, jang maydonidagi jasurlikni kuylagan va syuzeren (O‘rta asrlarda qaram vassallar ustidan hukmron

bo'lgan gersog, knyaz, qirol)ga vafodorlikni madh etgan o'rta asr poemasi. Sayyoh musiqachi - jonglyor (q.jongleur)lar tomonidan to'qilgan va qirol feodallar saroylarida, muqaddas joylarga ziyorat chog'ida kuylangan. Eng qadimgi epik poema – "Roland haqida qo'shiq" XII asr (q. Chanson de Roland).

«**Chanson de Roland**» - «*Roland haqida qo'shiq*» // XII asrda buyuk Karlning Ispaniyaga yurishi (778) ning omadsizligi haqidagi muallifi noma'lum bo'lgan eng qadimgi va eng mashhur epik poema (q.chanson de geste). Qo'lyozmalarga ko'ra, Buyuk Karl Ispaniyadan qaytayotganida franklarning bir otryadiga ispan basklari tashlanadi. Kurashda Bretan markgrafi halokatga uchraydi. Aynan shu epizod poemada franklar bilan xoin mavr-sarasinlar katta janggi deb tasvirlanadi. Noma'lum markgraf - Rolandga – Buyuk Karlning jiyani, jasur va mashhur, qirolga sodiq, ajoyib jangchiga aylandi. Qirolning halokati - poemada markaziy joylarning birida tasvirlangan. Poema matni ingliz normann shevasida yozilgan bo'lib, Oksford kutubxonasida topilgan va 1837- yil nashr qilingan.

chanson ye-ye - «*ha-ha*» *qo'shig'i* // Fransiyada XX asrning 60-yillarida paydo bo'ldi. Atama inglizcha yes «*ha*» so'zidan kelib chiqqan. Janr qiroli Jonni Xolidey (1943-yil tug'ilgan). Uning izdoshlari: Silvi Vartan, Mishel Polnaref, Klod Fransua va boshqalar.

chansonnier *m* – *shansone* // 1) shoir va bastakor, ko'pincha hajviy bo'lgan o'z qo'shiq va bandlari ijrochisi. Bunga P.J.Beranje (1780-1857) yaqqol misol bo'ladi, uning ijodi fransuzlarning ozodlik uchun kurashgan yarim asrlik janggida solnoma bo'ldi (Imperiya, Qayta tiklash, 1830-y. Iyul revolyutsiyasi va 1848-yil Fevral revolyutsiyasi (q.goguette). 2) artist, hajviy va yumoristik monologlar, qo'shiqlar, sketchlar (kichik hajviy pyesa) to'qib, estrada yoki kabareda o'zi ijro qiladi.

ôChant du départ – *ôPoxod qo'shig'i* // Mari-Jozef Shene (1763-1817) so'zi va E.Megul (1763-1817) musiqasi bilan madhiya. Bastiliya

olinishining 5 yilligi sharafiga yozilgan (1794). Buyuk fransuz revolyutsiyasi davrida barcha vatanparvarlik bayramlarda ijro qilingan, jang paytida armiyaning ruhini ko'targan haykaltarosh F.Ryudni (1784-1855) Triumfal arkda (q.Arc de Triomphe de l'Etoile) baRelyef kompozitsiyasinini yaratishga ruhlantirgan.

chant révolutionnaire - *Revolyutsiya qo'shig'i* // Buyuk fransuz Revolyutsiyasi davrida ommaviy revolyutsion qo'shiq – eng mashhur janrlardan biri. Noma'lum mualliflar tomonidan yaratilgan, xalqning qahramonona kurashini madh etgan, revolyutsion ko'tarinki ruhda barrikada va bayramlarda, tantanali marosim va Konvent yig'ilishlarida (q. Convention) kuylangan. “Omadimiz chopadi” (1790), “Karmanola” (1792), “Marseleza” (1792), (q.”Çaira”, ”Carmagnole”, ”Marseillaise”) kabi qo'shiqlar bizgacha yetib kelgan.

Charles I le Grand - *Buyuk Karl* (742-814) // Frank qirol 768-yildan, 800-yildan imperator, Karolinglar dinastiyasiga nom bergan. Uning 773-774-yillarda Italiya, Saksoniya, Bovariyalarni bosib olishi 804-yilda katta imperiyani vujudga keltirdi. Bu imperiyaning yer maydoni 1,2 mln. km², aholisi 18 mln. kishi bo'lgan. 794-yildan boshlab imperiyaning rasmiy markazi Eks-lya – Shapel bo'lgan. 800-yilda Karl G'arbiy Yevropaning xristian imperatori unvonini oladi. Karlning ichki siyosati (cherkovlarga homiylik, sud va harbiy reformalar va hk.) feodal aloqalar shakllanishiga, ta'lim, fan, madaniyat, savdo-sotiq va hunarmandchilikning yuksalishiga (q.Renaissance carolingienne) olib keldi. U afsona va rivoyatlar (q.”Chanson de Roland”) qahramoniga aylandi. Uning nomi *azamat hukmron* so'zining sinonimi bo'ldi, Yevropa davlatlarida qirol unvoni paydo bo'ldi.

château de Fontainebleau - *Fontenblo qasri* // Parij janubida 62 km.da fransuz qirollarining shahar tashqarisidagi qarorgohi. XII asrda bu yerda qirollikning ovchilik uyi bo'lgan, Lyudovik **Svyatoy** buyrug'iga binoan shu yerda qal'a qurishgan. 1527-yilda Fransisk I qal'a o'rnida Renessans uslubidagi qasr qurdi. O'sha vaqtda ilk Fontenblo maktabi (q.école de Fontainebleau) tashkil

qilingan. Qasr fasadi «Oq ot hovlisi» ga chiqadi, bu yerda turnirlar va bayramlar o'tkazilgan. Hovlidan dam olish joyiga mashhur "Taqa" (1634) zinapoyasi orqali o'tiladi. Napoleon I qasrni o'zining qarorgohi qilib olgan. Aynan shu yerda 1814-yil 6 aprelda taxtdan voz kechishini imzolagan va Eski Gvardiyaning oxirgi namoyishi (1814 yil 26 aprel) o'tkazilgan. Hozirgi kunda qasrning bir qismida imperator muzeyi ochilgan. Muzeyda uning buyumlari, muqaddas Yelena orolidagi qabridan olingan tuproq saqlanmoqda. Butun qasr - xalq amaliy san'ati muzeyi sanaladi.

châteaux de la Loire - *Luara qasrlari* // XIV-XVI asrlardagi tarixiy-me'moriy obidalar - Luara daryosi qirg'oqlaridan Orlean va Anje shaharlarigacha joylashgan. Gotik, Renessans va klassisizm uslubidagi me'morchilik namunalari. Qirol va uning yaqinlari qarorgohi bo'lib xizmat qilgan. Eng mashhur qasrlar - Blua, Shambor, Shomon, Shenonso, Ambuaz. Ambuaz yaqinida kichikroq Kloyuse qasri bo'lib, bu yerda Leonardo da Vinchi umrining oxirgi kunlarini o'tkazgan, hozir bu yerda uning muzeyi bor. Yangi uslubning tarqalishiga (q.art de la Renaissance) oq tuf (g'ovak qurilish materiyali) - saroy va hashamatli uylar uchun ajoyib qurilish material borligi turtki bo'ldi. Fransisk I uchun qurilgan Shambor saroyi Renessans uslubining asl durdonasi deb hisoblashadi. Hammasi bo'lib 50 ta qasr saqlanib qolgan. Ularning ayrimlarida tarixiy voqealar ro'y bergan, ayrimlari badiiy asarlar bo'yicha mashhur. Blua qasrida gertsog Genrix Giz (q.guerres de régligion) o'ldirilgan. Bu voqea A.Dyumaning «45» romanida tasvirlangan. Yusse qasrida «Uyqudagi malika» ertagi (Sh.Perro-mualllif) voqealari aks etgan. Shamborda Lyudovik XIV buyurtmasiga ko'ra Moliyer 1670-yilda «Dvoryanlikdagi meshchan» asarini yozgan va namoyish qilgan. Hozirgi kunda 10 minglab sayyohlar Luara qasrini tomosha qilishadi. Bu yerda tarixiy syujetdagi mashhur spektakllar «Tovush va yorug'liklar» (q.Son et Lumière) qo'yiladi.

«chatnoirisme» *m - shanuarizm* // XIX asr oxiriga kelib «yerto'lachalar» (caveau q.chanson) kabarega aylandi (cabaret) va «kafe-konsertlar» (café-

concert)da turli estrada tomoshalari o'tkazilgan. Birinchi parij kabaresi «Chat Noir» (1881) deb atalgan va Monmartrda joylashgan. Bu yerda mashhur shansone (q.chansonnier) Aristid Bryuan (1851-1925 y.y.), argo, jargon va iboralar bilimdoni, Anatol Frans ta'biricha ko'cha xo'jayini chiqishlar qilgan. Rassom Tuluz Lotrek (1864-1901y.y.) «Mirliton»kabaresi afishasida abadiylashtirdi.

Chirac (Jaques) - *Jak Shirak* // 1932-yilda tug'ilgan. Fransiya davlat arbobi, 1995-yildan Fransiya prezidenti. ENA (q.école National d'administration)ni tugatgan. J.Pompidu (1961 y.) kabinetida Bosh vazir bo'lib ishlagan, Miliy Majlis deputati (1967 y.) bo'lgan, vazirlikda katta amallarda ishlagan, 1974-yil prezident V.Jiskar-d'Esten davrida hukumat rahbari bo'lgan. 1976-yil iste'foga chiqib, o'zining "Respublikani qo'llab-quvvatlash birlashmasi" (q.Rassemblement pour la République) deb nomlangan siyosiy partiyasini tuzdi. Bu partiya gollistlarning "Respublikani qo'llab-quvvatlovchi demokratlar ittifoqi" (q.Union des démocrates pour la République) partiyasi o'rnini bosdi. 1977-1995-yillarda Parij shahar meri bo'ldi, 1986-1988-yillarda F.Mitteran prezidentligida premer-ministr bo'ldi. 1981-1988-yillarda prezidentlik saylovlarida mag'lubiyatga uchradi. 3-marta 52,6 % ovoz to'plab 1995-yil 7-martda Fransiya prezidenti bo'ldi.

chouannerie f - *shuanlar harakati* // 1792-1803-yillarda kontrrevolyutsion dehqonlar (shuanlar) partizan urushi (q.Révolution française). Luaradan shimolga-Bretanga, Normandiya, Mene va Anjugacha bo'lgan hududda ro'y berdi. Shuanlar harakati Vandey qo'zg'oloni bilan (q.Vendée, guerre de) shu sababga ko'ra boshlandi. Harakat yo'l boshchisi Jan Kotre-Shuan (Jean Cottureau, dit Jean Chuan). Qo'zg'olon bostirilgach, partizanlar urushini davom qildirishga Birinchi Imperiyaga (q.Empire Premier) qadar intildilar. Shuanlar bilan bog'liq hodisalar Balzakning "Shuanlar" romanida tasvirlangan.

cimetière (m) du Père-Lachaise ñ *Per-Lashez qabristoni* // 44 ga maydondagi eng katta Parij qabristoni. 1804- yil me'mor Bronyar (1739-1813) loyihasiga ko'ra barpo etilgan. Bu yerning egasi Lashezning otasi (Le père

Lachaise,1624-1709) iyezuit va ruhoniyl Lyudovik XIV nomi bilan atalgan. Bu yerda taniqli siyosatchilar, san'at arboblari, adabiyot namoyondalari dafn qilingan. 1871-yil 28- mayda qabristonda versallar bilan kurashda tirik qolgan kommunarlar (q. Commune) otib tashlangan.

circonscription électorale - saylov okrugi // Davlat hokimiyatiga saylovlar o'tkaziladigan hududiy bo'linma. Parlament saylovlari uchun saylov uchastkasi bo'lib departamentning bir qismi hududiy maslahatchilar saylash uchun butun departament (q.département), bosh maslahatchilar saylovi uchun – kanton (q.canton) xizmat qiladi.

Cité f - (lotincha civitas - shahar) Cite // Sena daryosida zamonaviy Parij markazidagi orol, shahar tug'ilgan joy deb sanaladi. Oldin Lyutesiya (Lutécia) deb nomlangan. 8 ta ko'prikl uni Senaning o'ng va so'l qirg'og'lari, bittasi Sen-Lui oroli (q.Saint-Louis) bilan bog'laydi. Orolida Parij Bibi Maryam ibodatxonasi (Notre-Dame de Paris), Sent-Shapell (q.Sainte Shapell), Konserjeri (q.Conciergerie), yana shuningdek gullar va qushlar bozori joylashgan.

cité dortoir f -ôyotoqxona-shaharô// Ikkinchi Jahon urushidan keyingi yirik sanoat markazlarining atrofida paydo bo'lgan katta bo'lmagan shaharchalar (q.habitat). Ular hammasi bir xil, shinam va o'ziga xos emas. Parij yonidagi shunday shaharchalardan birinchisining nomi Capcel (Sarcelles)- me'morchilikda bir xillik va bir tekislilik ramzi bo'lib qoldi (sarcelité –''sarselizatsiya'').

cité Universitaire (cite-U) - universitet shaharchasi // Universitet talabalar yotoqxonalari majmuasi. Maktab va Universitet xizmati markazi hududida joylashgan (Centre régional des oeuvres universitaires et scolaires, CROUS). Talabalarning taxminan 11 foizi yotoqxonalarda yashashadi. Mamlakatda 200 ga yaqin shunday shaharcha bo'lib, ularda 120 ming kishi istiqomat qiladi.

classes préparatoires aux Grandes écoles (C.P.G.E.) - Oliy maktablarga kirish uchun tayyorlov kurslari // Bakalavr darajasiga imtihon

topshirilgandan keyin litsey qoshidagi maxsus sinflarda tanlov imtihonlariga tayyorgarlik 2-3 yil davom etadi. 1200 ta shunday kurslar mavjud bo'lib, shulardan 10 foizi pullik kurslardir. Kursni tugatganlik to'g'risidagi hujjat Oliy ta'lim 1-sikl diplomi maqomiga teng. Oliy maktabga tayyorlashning shunday kurslaridan bir qancha turlari bor: aniq va tabiiy fanlar (classes scientifiques); gumanitar fanlar (classes littéraires); savdo-sotiq va iqtisod yo'nalishidagi (classes économiques et commerciales) qishloq xo'jaligi kabi ayrim vazirliklar uchun mutaxassislar (écoles nationales vétérinaires). Maktab jargonida - "classes prépa".

classicisme *m - klassitsizm* // XVII asr va XIX asr boshida adabiyot va san'atdagi yo'nalish. Mumtoz antik adabiyotga murojaati bilan xarakterlanadi. Fransiyada XVII asrda absolutizm davrida paydo bo'ldi (q.style Louis XIV). Ratsionalizm falsafasi g'oyasida tashkil qilingan (q.rationalisme;littérature classique). Tasviriy san'atda va me'morchilikda barokko gullab-yashnashiga reaksiya sifatida paydo bo'ldi (q.art classique).

climats *m. pl - iqlim sharoitlari* // Fransiyada to'rtta asosiy iqlim turlari ajratiladi. Bretan va Normandiya okean iqlimi (q.Bretagne, Normandie), O'rtayer dengizi bo'yi (q.Provence-Alpes, Côte d'Azur, Langue d'oc-Roussillon, Corse), Parij basseynida mo'tadil kontinental (q.Bassin parisien), Lotaring va Elzasda (q.Lorraine, Alsace), Alp, Pireneya, Vogezi, Markaziy Massifda tog' iqlimi (q.Alpes, Pyrénées, Vosges, Massif central). Umuman, Fransiya mo'tadil iqlim bilan xarakterlanadi.

clochard *m - kloshar* // sayoq, kambag'al, ishsiz va boshpanasiz, katta shaharda yashovchi kishilar.

Clovis I - *Xlodvig* (465-511y.) // Dengiz bo'yida yashovchi (primoriya) franklar qiroli, fransuz davlati asoschisi (q.Royaume franc), gunnlar bilan jangda shuhrat qozongan qiroli Merovey (q.Merovingiens)ning nabirasi. 486-yilda Xlodvig Suasson tog'lari atroflarini, Rim Galliyasining oxirgi orolini bosib oldi. Bu g'alaba Xlodvigni frank qabilasi sardoridan butun franklarning, keyinchalik esa butun

galliya hukmdori bo'lish uchun ilk qadam bo'ldi. Kuchli va qat'iyatli jangchi, ayyor siyosatchi va mahoratli diplomat bo'lgan. 496-yilda u o'zining drujinasi bilan birga Reyms shahrida xristyan dinini qabul qildi. Uning maqsadi - ruhoniylar va gallo-rim aholisining qo'llab-quvvatlashi, ishonchiga erishish bo'lgan. Shundan keyin u frank Galliyasining to'la huquqli qiroli bo'ldi. Xlodvigdan keyingi hamma fransuz qirollari an'anaviy tarzda qirollik tojini Reymsda kiyadigan bo'lishdi.

Club des jacobins ñ *Yakobinchilar klubi* (1789-1799) // Dominikan yoki yakobinsk (couvent des Jakobins) monastiri nomini olgan, Revolyutsiya (davri) zamonidan kelayotgan siyosiy klub. Versalda Breton klubi sifatida Parijga ko'chgandan keyin "Konstitutsiya do'stlari jamiyati" va «Ozodlik va tenglik tarafdorlari jamiyati» (Société des amis de la Constitution, 1789; Société des amis de la liberté et de l'égalité, 1791). Provinsiyada ko'p filiallari bor. Oldin uning a'zolari turli fikr-dunyoqarashlarga ega kishilar bo'lgan: Mirabo (1749-1791), Lafayet (1757-1834), Barnav (1761-1793), Brisso (1754-1793), Robesper (1758-1794). Qirol Varennga qochib ketganidan, Respublika namoyishchilari o'qqa tutilgandan keyin klubda Lafayet bilan Barnov (Konstitutsiya monarxiya tarofdarlari) boshchiligidagi kichikroq guruh feyyanlarning yangi klubini tashkil qildi; qolganlari respublika tarafini olib, qonunchilik yig'ilishining so'l qanotini tashkil qildi (q.Assemblée législative). 1792-yil oktabr oyida Brisso va boshqa jirondistlar klubdan chiqarib tashlandi; keyinchalik - 1793-yil 2-iyun yakobinchilar klubi Montanerlar hukumati tayanchi va markazi (q.montagnards) va Yakobinchilar diktaturasiga aylandi. 1794-yil iyul oyida termidoriyansk to'ntarishidan keyin klub yopilgan, Direktoriya davrida uni qayta tiklashga urinishlar bo'ldi. 1799-yil butkul yopib tashlandi.

Cluny (musée de) - *Klyuni muzeyi* // Lotin kvartalida sobiq Klyuni abbatligi qarorgohi (1485-1510 yillarda J.d'Ambuaz tomonidan gallo-rim vayronalari yaqinida qurilgan) o'rnida joylashgan. «Otashin gotika» va Renessans (q.Art de la Renessans) elementlarini mujassamlashtirgan. Me'morchilik yodgorligi. Bu yerda o'rta asrlar amaliy san'atining qimmatbaho kolleksiyalari,

ular orasida mashhur XV asr shpaler turkumi «La Dâme à la Licorne» saqlanadi. Muzeida qadimgi uylar (hujralar) qoldiqlari ham saqlanmoqda.

Code civile - *Fuqarolik kodeksi* // Napoleon I ning tashabbusiga binoan Davlat maslahat Kengashi - Ta'sis Majlisi va Konvent ishining davomchisi (q.Assamblée constituante) tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Asosiy vazifasi qonunlar chiqarish, g'olib bo'lgan burjua tizimi huquqiy normalarini mustahkamlash bo'lgan. 1804-yil 21- martda «Fransuzlar fuqarolik kodeksi» deb (Code civile des Français) chop qilindi, keyinchalik Napoleon kodeksi (Code de Napoléon) deya nomlangan. Revolyutsiya davridagi dekretlarni va eski qonunlarni bekor qildi, 1789-yilgi prinsiplar: xususiy mulkchilik dahlsizligi, shaxs erkinligi, feodallik huquqlari, fuqaro huquqlari tengligi va hakovolarga sodiqligini tasdiqladi. Revolyutsiyadan oldingi oilaviy munosabatlar erkak boshchiligi, ayol va bolalar bo'ysunishi, cheklangan huquqlarini qayta tikladi. Kodeks chiqqandan keyin oldingi barcha qonunlar bekor qilindi. «Mening eng katta yutug'im, - degan edi Napoleon, - 40 ta jangda g'alaba qozonganim emas, bu-abadiy yashaydigan fuqarolik kodeksidir» Napoleon kodeksiga ozgina o'zgartirishlar kiritilgan va hozirgi kunda ham faoliyat yurityapti.

«cohabitation» *f - Prezident va premer - ministr postidagi turli siyosiy kuchlarning hamkorlikda ish yuritishlari* // Atama 1986-yilda paydo bo'ldi. Saylovlar natijasida parlamentdagi ko'p o'rinlarni o'ng qanotdagilar, Prezident Fransua Mitteran – sotsiyalistik partiya lideri (yo'lboshchisi) (q.Parti socialiste) hukumat vaziri qilib gallist Jak Shirakni (q.Rassemblement pour la République) tayinlashga majbur bo'ldi. Shunday holat 1993-yilda F.Mitteranning 2-prezidentlik muhlatigacha o'ng siyosiy kuch vakili E.Baladyur (q.Rassemblement Pour la République)ni tayinlashda kuzatildi. 3-marta Jak Shirak prezident bo'lgach, premer-ministr lavozimiga sotsiyalistik partiya lideri (q.Parti socialiste) Lyonel Jospenni tayinlashga majbur bo'ldi.

collège *m* – *kollej* // 1-sikl o'rta ta'limining 4 yillik muhlatdagi: 6-dan 3-sinfgacha bo'lgan o'quv yurti. Uni direktor (principal), uning o'rinbosari (principal - adjoint) va ta'lim bo'yicha maslahatchisi (conseiller, ère d'éducation) boshqaradi. 1994-yildan boshlab kollejda o'qitish 3 sikl: kuzatish va moslashuv (6-sinf); chuqurlashtirilgan (5-4-sinf), yo'naltiruvchi (3-sinf) dan iborat. Birinchi va ikkinchi sikllar paytida o'quvchilarga o'rta ta'lim negizidagi bilimlar beriladi, 3-siklda texnik-kasb tayyorgarligini o'rganish mumkin. Ko'p kollejlarda mashg'ulotlarning o'ziga xos tartibi joriy qilingan: sport yoki san'at bilan shug'ullanuvchi sinflar maxsus jadvali, xalqaro yo'nalishdagi sinflar - bu yerda 2-3 ta fan chet tillarida o'qitiladi, o'lkashunoslik kursi va chet tillariga katta e'tibor beriladi. Kollejni tugatgandan keyin imtihon topshiradi va milliy attestatsiya diplomiga ega bo'lishadi (brevet des collèges).

Collège de France - *Kollej de Frans* // 1530 - yilda tashkil qilingan Davlat o'quv va ilmiy muassasasi. Fransisk I (1494-1547) tomonidan Sorbonnaga (q.Sorbonne) qarshi tashkil qilingan. Avvalo «qirollik notiqlar kolleji» (lecteurs royaux) deb nomlanib, Sorbonnada o'qitiladigan fanlar (matematika, qadimiy tillar, tibbiyot, falsafa) bo'yicha ma'ruza o'qitilardi. 1545-yildan qirollik kolleji, buyuk fransuz revolyutsiyasi davrida - milliy kollej, birinchi imperiya davrida – Imperator Kolleji deb atalgan. 1814-yildan boshlab, yangi nom bilan atala boshlandi. Hozirgi davrda kollejda ochiq va tekin ma'ruzalar o'qiladi; u imtihonlarga tayyorlamaydi, ilmiy darajalari ta'sis etmaydi, diplom bermaydi. Kollejda 52 ta kafedra va ilmiy - tadqiqot laboratoriyalarida yirik fransuz va chet ellik olimlar rahbarlik qiladi. Ularni kollej kengashi tavsiyasiga muvofiq respublika prezidenti dekreti bilan tayinlashadi. O'qituvchilar har yili ma'ruza mavzularini o'zlari tanlab, dars soatlarini ham (o'z fani bo'yicha) mustaqil belgilashadi. Bu yerda: tarixchi J.Mishle (1798-1874), F.Brodel (1902-1985), faylasuflar A.Bergson (1859-1941), M.Fuko(1926-1984), yozuvchi P.Valeri (1871- 1945), antropolog Q. Levi-Stross (1908-y.da tug'ilgan) va boshqa taniqli shaxslar ma'ruza o'qiganlar.

colonne Vendôme - *Vandom kollonnasi* // Vandom maydonida (Place Vendôme) Gonduen va Leperlar muallifligida 1806-1810-yillarda Napoleon I sharafiga barpo qilingan. 43 metr balandlikda 1200 pushka stvollaridan quyilgan pushkalar Austerlits janggida qo‘lga kiritilgan.

comédie - ballet *f - Komediya-balet* // Dialog, raqs, pantamimo, vocal - cholg‘u musiqasini mujassamlashtirgan XVIII asrda Fransiyada paydo bo‘lgan teatr janri. Asoschilari - J.B.Molyer (1622-1673 y.y.) va bastakor J.B.Lyulli (1632-1687-y.y.). Balet - komediyalarining mumtoz obrazlari Molyerning «Monsieur de Pourceaugnac» (1669 y.); “Le Bourgeois Gentilhomme“ (1670-y.) kiradi. Lyudovik XIV saroyida namoyish qilingan.

Comédie - Française *f ñ «Komedi Fransez»* // Lyudovik XIV (q.Louis XIV) buyrug‘i bilan 1680-yilda Fransiyada tashkil qilingan eng keksa milliy dramatik teatr. 2 ta Parij teatri qo‘shilib «Burgund oteli» (Hôtel de Burgogne) va Genego oteli (Hôtel Guenegaud) (oldin bu yerga Mol‘er (1622- 1673) truppasiga ham birlashgan. 1799-yildan boshlab to hozirgi kungacha teatr Rishel‘e ko‘chasidagi Pale Ruayal (q.Palais Royal) binolaridan bittasiga joylashgan. Bu bir yilga shartnoma tuzib, aktyorlariga doimiy maosh (pensionnaires) to‘lanadigan aktyor - sheriklardan iborat yagona teatrdir. Uning repertuarini asosan, fransuz klassik dramalari (Rasin, Kornel, Mol‘er) tashkil etadi. «Komedi Fransez» sahnasida taniqli artistlar o‘ynagan: madmuazel Jorj (1787- 1867), madmuazel Mars (1779-1847), Sara Bernar (1844-1923), Talma (1763- 1826) va boshqalar.

Comité de salut public - *Jamoat qutqaruvi Qo‘mitasi* // Revolyutsiya davrida Konventning (q.Convention) 21 ta Qo‘mitasidan biri. 1793-yil 6 - aprelda Danton tashabbusi bilan respublikani ichki va tashqi dushmanlardan himoya qilish maqsadida tuzilgan. 1793-yil 10 –iyulda Danton va hamkorlari Qo‘mitadan chiqarilgan. Ularning o‘rnini Robesp‘er (1758-1794 y.y.), Sen-Just (1767-1794 y.y.), Kuton (1755-1794 y.y.), (q.jacobins, montagnards) butun hokimiyatni qo‘lga olib egallashdi. 1794-yil bahorigacha Qo‘mita Robesper rahbarligida qolgan

barcha Qo'mitalarni o'ziga bo'ysundirib, buyuk organga aylandi. "Katta terror" (1794 yil 10-iyun – 27-iyul) davri, diktatura rasmiy diktaturasi (q.Terreur) davri boshlandi. Robesp'er va safdoshlari qatl qilingach, (1794 yil 27-28-iyul) Qo'mita faoliyati diplomatik va harbiy jihatdan cheklab qo'yildi va 1795-yil bekor qilindi.

Comité de sûreté générale - *Jamoat xavfsizligi Qo'mitasi* // Ichki kontrrevolyutsiya bilan kurash maqsadida 1792-yil 2 oktabrda tuzilgan Konvent (q.Convention) Qo'mitalaridan biri. Asosan yakob-montanyardan iborat. Jirondistlar (q.girondins) ag'darilgandan so'ng, Qo'mita yakob diktaturasi haqiqiy "terrorchilik ministrligi" bo'ldi. 1794-yil bahorda ular bilan jamoat qutqaruvi Qo'mitasi (Robesper boshchiligida) o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga keldi va 9 Termidor (27 - iyul) 1794-yil voqealari bilan yakunlandi (q.Convention,jacobins) va Direktoriyada bekor qilindi (q.Directoire).

Communauté f - *(fransuz) uyushmasi* // 1958-yil Konstitutsiya (q.V^e République) tomonidan Fransiya respublikasiga kirgan (q.d'épartement d'outre mer) Zamorsk hududlaridan Afrikadagi Fransiya 12 ta sobiq koloniya davlatlar uyushmasi. A'zo mamlakatlarni tashqi siyosatda, himoya qilishda hamkorlikdagi iqtisodiy va moliyaviy faoliyatda o'zaro intilishi maqsadida tashkil qilingan. Fransiya prezidenti Uyushmani ham boshqargan, uning oliy organlari: Ijroiya kengashi, Senat va Arbitraj sud. Davlat a'zolari avtonom bo'lib, Uyushmaga kirish va chiqish huquqiga ega bo'lgan. 1960-yilga kelib hamma davlatlar mustaqil bo'ldi va "fransuz uyushmasi" tugatildi.

commune f - *kommuna* // Fransiyada hajmi jihatidan eng kichik ma'muriy-hududiy birlik. Kommuna boshida mer boshqaruvidagi munitsipal kengash bo'lib, mahalliy budjet, obodonlashtirish, ish bilan ta'minlash, maktab ishlari bilan shug'ullanadi; shuningdek davlat vakili (fuqarolar holati akti, qonunlar ijrosi, saylovchilar ro'yxati tuzish, aholini ro'yxatga olish va h.k) va sud politsiyasi ofitseri (respublika Prokurori nazorati ostida). Davlat vakili sifatida mer prefektga bo'ysunadi (q.prefect).

Commune (la) - 1871-yil *Kommunasi* // Parijda faoliyat ko'rsatgan (18.03.-28.05 1871-yil) birinchi proletar Revolyutsiyasi va ishchilarning 1-hukumati. Fransiyaning Marsel, Lion, Tuluza, Sent-Eten, Tulon, Narbonna, Nim va h.k joylarida faoliyat ko'rsatgan. Eng mashhur va davomlisi Parij kommunasi bo'lgan (72 kun) (la Commune de Paris). Fransiya - Prussiya urushida mag'lubiyat, ochlik va kambag'allik (Parijni qurshab olganda), Prussiya bilan tinchlik shartnomasi tuzishda yomon sharoitlar, Uchinchi Respublika hukumatini harbiy iqtisodiy, siyosiy ahvolini nazorat qila olmaganligi mamlakatda revolyutsion muhit yaratdi. Qo'zg'olonchilarni Milliy Gvardiya Markaziy Qo'mitasi boshqardi. 26-martda u Kommuna Kengashiga saylovlar tashkil qildi. Kommuna siyosiy dastur asosida Fransiyaning o'z-o'zini boshqarish kommunasi va keng ommani himoya qiluvchi respublikani o'rnatish masalalari bo'lgan. Siyosiy kelishmovchiliklar va kommuna arboblarning jiddiy xatolari kontrrevolyutsion versal qo'shinlarining g'alabasiga, 21-may Parijga kirishlariga sabab bo'ldi. Bir «qonli hafta» (21-28 may) davomida kommunalar tor-mor qilindi. Bu voqealardan keyin mamlakatda kontrrevolyutsion terror oqimi avj oldi. Otilganlar, qamoqqa tashlanganlar va Yangi Koledoniyaga surgun qilinganlar soni 70 ming kishiga yetdi.

Commune de Paris - *Parij Kommunasi (1789-1795)* // Buyuk Fransuz revolyutsiyasi (q.Révolution française) davrida faoliyat ko'rsatgan shahar boshqaruvi organi 1792-yil 10-avgust tunda isyonchilar kommunasi tashkil topdi (Commune insurrectionnelle) va monarxiyani ag'darishda qatnashdi. 1793 - yil 31-maydan 2-iyungacha isyonchilar kommunasi sankyulotlar qo'zg'oloni (q.sans culottes)ni boshqardi. So'l yakobinlar (q.jacobins) boshqaruvida u mamlakatni dextristianlashtirishda qatnashdi va terror siyosatini qo'llab quvvatladi (q.Terreur). 1794-yil 27-iyunda Kommuna Robesp'er va safdoshlariga yordamga shoshildi, ammo omad undan yuz o'girdi. Termidorian to'ntarishi(1794 - yil 27-iyul)dan keyin uning yakobinchi a'zolari qatl etildi. Kommuna tarqatib yuborildi, Parijni

esa 12 ta munisipial kengashlarga, markaziy byuroni boshqaruvchi qilib, bo'lib yuborildi.

Compagnie Renaud-Barrault - *Reno- Barro teatr truppasi* // 1947-yilda aktyor va rejissor Jan Lui Barro (1910-1994 y.y.) teatr va kino aktyori Madlen Reno (1900-1994 y.y.) tomonidan tashkil qilingan. Klassik notijorat teatri (q.Théâtre du Vieux Colombier) an'analarini davom ettirdi, zamonaviy mualliflari pyesalarini qo'ydi.

Compagnies républicaines de sécurité (C.R.S) - *Respublika xavfsizlik otryadlari* // Ish tashlovchi shaxtyorlar bilan kurashuvchi 1948-yilda tuzilgan maxsus politsiya otryadlari. Endilikda ichki qo'shinlar bo'limi ish tashlash va namoyishlar paytida, favqulodda vaziyatlarda, avtostrada va tog'larda jamoat tartibini saqlaydi.

Concièrgerie f ñ *Konserjeri* // Kapetinglar Qirollik saroyi o'rnida (q. Capetiens) qurilgan Oliy sud saroyi (q. Palais de Justice). Concièrge-saroy nazoratchisi, turma boshlig'i unvoni nomi bilan atalgan. Binoda uchta XIV asr gotik zallari va shimoliy fasadda 4 ta: Kvadrat yoki Qadimgi Parij soatli minorasi (1370), kiraverishda 2 ta egizak minora-Sezar va Serebryan minorasi; asirlarga azob berilgan Bonbek minorasi mavjud. Buyuk fransuz revolyutsiyasi (q.Révolution française) davrida bu yerda 4200 ga yaqin o'limga mahkum qilinganlar gilotinaga (bosh oladigan jodi) keltirilgan. Ular orasida - qirolicha Mariya-Antuanetta, qotil Marata Sharlotta Korde, shoir Andre Shenye, kimyogar Lavuaze, jirondistlar (q.girondins) Danton, Robespyer va boshqa ko'pgina insonlar bor.

Conquête romaine - *Gallianing rimliklar tomonidan bosib olishi* // Gallarning asosiy dushmanlari sharqda german qabilalari, janubda Rim davlati bo'lgan. German bosqinidan himoyalaniish maqsadida gallar Yuliy Sezarga yordam so'rab murojaat etishdi. Sezar germanlarni Galliyadan chiqib ketishga majbur etdi, o'zi esa bu yerda garnizonlarini qoldirdi; rimliklar gall qabilalarini osonlik bilan

zabt etdi. Miloddan avvalgi 120-yilda rimliklar janubiy Galliyaning Oʻrtayer dengizi qirgʻoqlari bilan ishgʻol etdi va rim provinsiyasiga aylantirdi. Keyinchalik butun Janubiy Fransiya provinsiyasi deb atala boshlandi (shu yerdan nomi kelib chiqqan(Provence)). Miloddan avvalgi 58-yilda Sezar bosib olinmagan Galliya yerlariga yurish qildi va ayrim hududlarda gallarning ayovsiz zarbalariga duch keldi (q. Vercingétorix). Rimliklarning Gallarni bosib olishi Aleziyadagi jang bilan yakunlandi. Galliya 500 yilga yaqin vaqt maboynida Rimliklar hukmdorligida boʻldi (q. Gaule romaine).

Conseil Constitutionnel - *Konstitutsion Kengash* // 9 ta tayinlangan maslahatchi yoki „donishmandlar“(sages)dan iborat. Ular 9 yil muddatga saylanadi, Fransiya sobiq prezidentlari „huquq boʻyicha aʼzolari”(membres de droit) boʻlishadi. Quyi va yuqori palata raislari 3 nafar aʼzo tavsiya qilishadi, yana 3 nafar aʼzo va kengash raisini prezident tayinlaydi. Har 3 yilda 1 marta kengash yangilanadi. Asosiy vazifalari: hukumat dekretlari va parlament qonunlari Konstitutsiyaga mosligini tekshirish; prezident saylovlari va referendumlari oʻtkazilishini nazorat qilish; xalqaro kelishuv va shartnomalar ratifikatsiyasini oldindan koʻrib chiqish; Senat va xalq Majlisiga saylovlar nazorati Konstitutsiyaga muvofiq, mamlakatda favqulodda holat eʼlon qilishdan oldin prezident oʻzining taklifini konstitutsion Kengash bilan muhokama qilishi lozim. Konstitutsion Kengash qarori bekor qilinmaydi, Pale Royal binosida Majlislar oʻtkaziladi (q. Palais Royal).

conseil d'administration - *administrativ kengash* // Universitetni boshqaruvchi (q. Conseil des études et de la vie universitaire, conseil scientifique) 3 ta kengashdan biri. 30-60 nafar aʼzodan iborat, ularning 45 foizi oʻqituvchi va ilmiy xodimlar, 25 foizi talabalar vakillari, 15 foizi maʼmuriy, texnik xizmatchi vakillari, 30 foizgacha boshqa tashkilotlar vakillari. Kengash universitetning siyosatini aniqlaydi, budjet va hisobotlarni tasdiqlaydi, talaba va oʻqituvchilarning tartib intizomi boʻyicha chora-tadbirlar koʻradi. Uning qarorlari Oliy kengash tomonidan qabul qilinadi yoki bekor qilinadi. (q. Conseil supérieur de l'éducation).

conseil de classe - *sinf Majlisi* // ota-onalar tomonidan 2 nafar delegat, 2 nafar o'quvchi, tarbiyaviy ishlar maslahatchisi (q.Conseiller d'éducation), o'qituvchilar, kasbga yo'naltiruvchi-maslahatchi, maktab vrachi, ijtimoiy savollar bo'yicha yordamchilardan iborat. Kengashni kollej (principal) yoki litsey direktori (proviseur) boshqaradi. Semestrda bir marta kengash tomonidan har bir o'quvchining o'zlashtirishi ko'rib chiqiladi va tegishli chora-tadbirlar, seminarlar o'tkazish bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatiladi.

conseil d'écocole - *Maktab kengashi* // Maslahat va ijroiya organi, direktor, mer yoki uning vakillari, o'qituvchilar, ota-onalar vakili (har sinfdan bittadan) xalq ta'limi vazirligi maxsus vakili (depart. inspektori), maktab vrachi yoki hamshirasi, ijtimoiy savollar bo'yicha yordamchisi (q.assistant social), shuningdek maktabdan va sinfdan tashqari ishlar bilan shug'ullanuvchilardan tuzilgan. Kengash 3 oyda 1 marta yig'ilish o'tkazadi, 1 yil muddatga tuziladi, tarkibi yangilanguncha faoliyat ko'rsatadi. Uning vakolatida: maktab ichki tartib-intizomi, o'quv haftasi rejasi, pedagogik tadbirlar ishlab chiqishda ishtiroki, gigiyena va ovqatlanish, maktabdan tashqari faoliyat va hakoza.

conseil de discipline *ñ intizom kengashi* // Litsey yoki kollej ma'muriy komissiyasi bazasida (conseil d'administration des établissements de second degrés) maktab intizomi buzilishi muhokamasi uchun tashkil qilinadi. Komissiya doimiy a'zolari bilan bir qatorda uning tarkibiga kasbga yo'naltirish mutaxassisi (conseiller d'orientation), tarbiyaviy ishlar maslahatchisi (q.conseiller d'éducation) va ikkitadan o'qituvchi, "aybdor" sinf o'quvchilari kiradi. Intizom kengashi yig'ilishiga intizomni buzgan o'quvchining ota-onasi ham taklif qilinadi.

conseil de mercredi - (*soñma-soñ*) *chorshanba kungi kengash* // Vazirlar kengashi(q.conseil de ministres)ning prezident raisligida Yelisey saroyida har chorshanba kungi yig'ilishi. Bunda hukumat tomonidan tayyorlangan qonun loyihalari Milliy Assambleya (q.Asssemblée nationale)ga taqdim etishdan oldin va boshqa muhim masalalar ko'rib chiqib, muhokama qilinadi.

conseil des études et de la vie universitaire - *universitet hayoti va o'qishi kengashi* // Universitetni boshqaruvchi (q.Conseil d'administration, conseil scientifique) uchta kengashdan biri. 20-40 nafar talabalar, o'qituvchilar, boshqaruvchi, texnik va xizmatchi xodimlardan iborat. Ma'muriy kengashga o'qitish, kadrlar qayta tayyorlash, talabalar bilimini tekshirish, ularning madaniy, jamoat va sport hayoti, dam olish va ishlash sharoitlarini yaxshilash kabi masalalarni taqdim qiladi. Talabalarning kasaba uyushma va siyosiy huquqlarining kafolati hisoblanadi.

Conseil des ministres - *Vazirlar Kengashi* // Premier-ministr, hukumat vazirlari va vazirlardan iborat. Yig'ilishlari Prezident raisligida (q.conseil de mercredi) Yelisey saroyida o'tkaziladi; favqulodda holatlarda kabinet premier qarorgohida (q.Hôtel Matignon) uning raisligida o'tkaziladi.

Conseil d'État - *Davlat Kengashi* // Hukumat qoshidagi keksa maslahat organi. Konsullik davrida (q.Consulat) Napoleon I (q.Napoléon I) tomonidan tuzilgan. 1872-yildan boshlab Parijda Pale Royal (Palais -Royal) binosida yig'ilish o'tkaziladi. Vazifalari: hukumat apparati ishlari haqida xulosa; qonunchilik, dekretlar masalalari; munozara ishlari qayta ko'rib chiqish; muhim ma'muriy aktlarning qonunuiyligini hal qilish, Davlat Kengashining barcha 200 nafar a'zosi hukumat tomonidan tayinlanadi.

Conseil économique et social - iqtisodiy va ijtimoiy kengashlar // Hukumat qoshidagi iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha maslahat organi. Tarkibi 230 kishidan iborat. 1/3 qismi 5 yil muddatga hukumat tomonidan tayinlanadi, qolganlarini kasaba uyushmasi qo'mitalari va boshqa tashkilotlar nazorat qiladi.

Conseiller d'éducation - *tarbiyaviy ishlar bo'yicha maslahatchi* // Oldin "Bosh nazoratchi" (surveillant général; maktab jargonida *surge*) deb atalgan. Fanlardan, davomat, o'quvchilar ovqatlanishidan tashqari ularning rivojlanish, jamoada o'zini tutishi, turli muammolarni hal qilishda yordam beradi. 1992-yildan

boshlab maslahatchilarni tayyorlash universiteti qoshidagi o'qituvchilar institutida (q.instituts universitaires de formation des maitres) amalga oshiriladi.

Conseiller döorientation - *kasbga yo'naltirish bo'yicha maslahatchi* //

O'rta maktab o'quvchilarini o'quv va kasbga yo'naltirish masalalari bo'yicha maslahatchi. Testlar yordamida qaysi kasbga moyilligi aniqlanadi, ularni va otalarini qiziqqan kasblari bo'yicha kelgusi kasbga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida ko'rsatmalar beradi. O'quvchilarni o'quv seksiyalariga bo'ladi.

Conseil scientifique - *Ilmiy Kengash* // Universitetni boshqaradigan 3 ta kengashdan biri (q.conseil d'administration, conseil des études et de la vie universitaire). 20-40 nafar a'zodan iborat. Ma'muriy kengashga ilmiy ishlarda asosiy yo'nalishlar taklif etadi, tadqiqot ishlariga kreditlar ajratadi. Ta'lim va tadqiqot ishlari o'rtasida aloqa o'rnatadi.

Conseil supérieur de la magistrature - *magistratura oliy Kengashi* //

Prezident qoshidagi konsultativ organ. Prezident-raisi, Yustitsiya vaziri - raisi o'rinbosari. Kengash bilan maslahatlashib, prezident avf etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Kadrlar tanlash, prokuror va sud vazifalariga tayinlash, hukm qilinganlarni avf etish masalalari bilan shug'ullanadi. Kengashga prezident, yustitsiya vaziri (raisi o'rinbosari), Davlat Kengashidan (q.Conseil d'Etat) bir vakil, 5 nafar magistr, 3 nafar sudya (prezident va Senat raisi, Milliy Majlis tomonidan tayinlangan) (q. Sénat, Assemblée nationale)lar kiradi.

Constitution de 1958 - *1958-yil Konstitutsiyasi* // 1958-yil 5-oktabrdan beri amalda. Loyihasi Sharl de Goll (Gaulle Charles de) boshchiligida tuzilgan va 1958-yil 28-sentabrdagi referendumda tasdiqlangan. Preambulada fransuz xalqining "Inson huquqlari va milliy mustaqillikning 1789-yil Deklaratsiyada aniqlangan va 1946-yilgi Konstitutsiyada to'ldirilgan va tasdiqlangan" tamoyillari e'lon qilingan. 2-moddada aytiladiki: "Fransiya bo'linmas, demokratik va sotsial respublikadir". Konstitutsiya qonun oldida barcha xalqlar kelib chiqishi, irqi va dinidan qat'iy nazar tengligini ta'minlaydi. Davlat tizimi Monteske (1689-1755)

taklifiga ko'ra, hukumat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud qiluvchi hokimlikka bo'lingan. Yangi Konstitutsiyaning o'ziga xos jihatlaridan biri - prezident va hukumatning vakolatlarini kengaytirish evaziga, parlament vakolatlarini qisqartirish, ya'ni ijro etuvchi hukumatning qonun chiqaruvchi organdan ustunligini ta'minlaydi.

Consulat *ñ m* - *Konsullik* // 8-yilning 18 Bryumeri (1799-y. 9-noyabr (q.Directoire)) davlat to'ntarishi davridan to 1804- yil 18-may Napoleon Bonapart fransuzlar imperatori deb e'lon qilinguncha bo'lgan davr. 8-yilning Konstitutsiyasiga binoan ijro etuvchi hokimiyat nomigagina 3 nafar Konsul qo'liga o'tgan. Bu Konsullar Bonapart, Kambaseres, Lebren 10 yil muddatga (1802-yilning avgustidan boshlab umrbod) tayinlanganlar, biroq hokimiyat aslida 1-Konsul Napoleon Bonapart qo'lida bo'lgan (q.Napoléon I). Bu davrda ma'muriy boshqaruv markazlashtirilgan, fuqarolar kodeksi ishlab chiqilgan va joriy qilingan, maqsadi-g'olib bo'lgan burjua jamiyati huquqiy asoslarini mustahkamlash bo'lgan. (q.Code civile) Ish tashlashlar bekor qilindi, 1802-yilgi dekretga binoan Fransiyaning ko'plab koloniyalarida quldorchilik tiklandi. Konsullik burjuaziya va boy dehqonlar foydasiga ijtimoiy-iqtisodiy siyosat o'tkazdi. Konsullik hokimligini: cherkov va Napoleonning yarashuvi, din erkinligi o'rnatilishishuan va vandey qo'zg'olonlarning bostirilishi (q.chuannerie, Vandée (guerre de), harbiy g'alabalardan keyin dam olish, iqtisodning yuksalishini ta'minladi. 1804-yil 18-may Senat Napoleonni imperator deb e'lon qildi, 1804-yil 2-dekabrda esa, unga Parij Bibi Maryam Soborida Rim Papasi tomonidan toj kiydirildi (q.Empire Premier).

Convention *f ñ Konvent* // Birinchi respublika oliy qonunchilik va ijroiya organi. (q.République I) 1792-yil 21-sentabrdan 1795-yil 26-oktabrgacha faoliyat yuritgan. Umumiy ovoz berish bo'yicha saylangan. Konvent ishlarida 3 ta davr mavjud-jirondin (q.girondins) 1792-yil sentabrdan 1793-yil iyungacha; montanyar yoki yakobin (q.montagnards, jacobins) 1793-yil iyundan 1794-yil iyulgacha; termidorian 27-iyul 1794-yildan 1795-yil oktabrgacha. Konventning 749 nafar

deputati 3 nafar asosiy partiya vakillari bo'lgan: o'ngda jirondistlar, so'lda montanyarlar (yakobinlar), markazda "tekislik" yoki "botqoq" ("plaine" yoki "marais"), shu davrda eng kuchli partiyani qo'llab-quvvatlagan. Konvent tomonidan Fransiyadagi XVIII-XIX asrlarda eng demokratik Konstitutsiya qabul qilingan. Biroq ichki kontrrevolyutsiya (q.Vendée (guerre de, chouannerie)) va Yevropa davlatlari koalitsiyalari bilan jang sharoitida bu Konstitutsiya faqat qog'ozda qolib ketdi. 1793-1794-yillarda davlat siyosatida terror (q.Terreur) masalasi asosiy o'rinda bo'ldi. Mamlakatdagi noroziliklar, siyosiy va ijtimoiy qiyinchiliklar, yakobinlar o'rtasida urushlar yakobinlar konventining halokatini yaqinlashtirdi. 1794-yil 27-iyulda Konvent tugatilib, o'rniga Direktoriya (q.Directoire) keldi.

Coq gaulois - *gall xo'rozi* // Fransiya milliy ramzlaridan biri. Lotincha "gallus"- "gall" va "xo'roz"ni anglatadi. Xo'roz –Uyg'onish davri antik yuksalish davrida nur va g'alaba ramzi sifatida Fransiya davlati ramzi bo'ldi. Buyuk fransuz Revolyutsiyasi davrida u 3 rangli kokardaga (Cocarde tricolore) bo'yaladi va xalq xushyorligi ramzi, uning vatanparvarligi va himoya qilishga tayyorligini anglatadi. Gall xo'rozi "Fuqaro va inson huquqlari deklaratsiyasi" (q.Déclaration des droits de l'homme et du citoyen, 1789), F. Riyud barelyefi "Marseleza" (1835-1836) - Parij triumfal arki bezagi sifatida tasvirlangan. II Respublika davrida rasmiy emblema bo'ldi (q.République II). Uni polk bayroqlari tayoqlarida, hukumat muhrlarida (1848-yildan boshlab), oltin tangalarda (XIX asr oxirida), markalarda tasvirlashgan. Hozirgi vaqtda fransuz sportchilarining xalqaro musobaqalardagi rasmiy emblemasi hisoblanadi.

correcteur *m* - yozma ishlarini tekshiruvchi, imtihon oluvchi.

corrida *f ñ korrida* // Har yili Arl va Nim shaharlari qadimiy arenalarida bo'lib o'tadigan buqalar janggi. Avvallari bu arenalarda gall-rim davrida gladiatorlarning yovvoyi hayvonlar bilan janggi bo'lar edi.

corse *f* **ñ** *korsika* // oʻz maqomiga ega maʼmuriy hudud. Metropoliyaning eng janubiy qismi hisoblanadi, materikdan 85 km uzoqlikdagi orolda joylashgan. 1769-yil Fransiya qoʻshilgan, bungacha Genez Respublikasiga qaragan. 2 ta departament: Yuqori va Janubiy Korsika (Haute – Corse, Corse de Sud). Yer maydoni - 8680 km² (Fransiyaning 1,6 % hududi). Aholisi 1992 yil 1-yanvar hisobiga koʻra – 251300 kishi, Fransiya aholisining 0,44 foizini tashkil etadi. Maʼmuriy markazi – Ayachcho (Ajaccio). Asosiy shaharlari: Bastiya, Porto-Vekkio, Kort. 1982-yildan boshlab oʻz maqomiga ega. 1992-yildan ovoz berish yoʻli bilan saylangan hududiy Assambleya va Ijroiya Kengashi (Conseil exécutif) tomonidan boshqariladi. Orol balandligi 2710 metr boʻlgan, dengizga tutashgan togʻ massivi. Kesilgan oʻrmonlar oʻrnida togʻ adirlarida qalin butazor (q.maquis) oʻsgan. Noqulay geografik oʻrinlar yirik Yevropa iqtisodiy markazlaridan uzoqligi, quruq iqlimi, hosildor boʻlmagan yerlar qishloq xoʻjaligida yaqqol koʻzga tashlanadi. Qirgʻoq boʻyi zonasida uzumchilik, sitrus mevalar yetishtirish, baliqchilik bilan shugʻullanadi. Mahalliy aholining asosiy daromad manbai – sayyohlik. Fransiya hukumati Korsikaga iqtisodini yuksaltirish uchun katta moddiy yordam ajratadi. Orol avtonomiya va mustaqillikni yoqlovchi, hamda Korsika milliy qutqaruv yashirin fondi (Front de libération nationale de la Corse) faoliyat yuritadi. Korsikaliklar oʻzlarining buyuk vatandoshlari Napoleon Bonapart xotirasini eʼzozlashadi.

Côte d’Argent *f* - *Kumush sohil* // Atlantika okeani sohilida Jironda (q.Gironde) va Biskay koʻrfaziga quyuvchi Bidassoa daryosi (q.golfe des Gascogne) oraligʻidagi qismi. 100 m balandlikdagi qum plyajlari mavjud. Bu yerda mashhur kurortlart- Arkashon, Biarrits joylashgan.

Côte d’Azur *f* - *Lazur sohili* // Oʻrtayer dengizi sohillarining Kassis shahridan Menton shahrigacha boʻlgan qismi. Eng mashhur kurortlari – Nissa, Sen-Trope, sayyohlik markazlari – Antip, Kann. Maishiy xizmat, bogʻdorchilik, uzumchilik, ayniqsa gulchilik rivojlangan.

Côte d'Émeraude *f* - *Zumrad sohil* // Dinar (Dinard) va Sen-Malo (Saint Malo)dan to Val-Andre (Val-André)gacha bo'lgan La Mansh sohillari (q. Manche, Bretagne). Ko'p plyajlarga ega qoyali qirg'oq.

Côte d'Opale *f* - *Opal sohili* // Shimoliy dengiz qirg'oqlari (q. Mer du Nord) bilan La -Mansh (q. La Manche) sohili qismi Belgiyadan to Normandiyagacha, Brey-Diyundan Le-Treporgacha bo'lgan hudud. Nomi suv bilan osmon ranggidan kelib chiqqan. Past qirg'oq, qum tepaliklari bor. Bu yerda yirik portlar joylashgan: Dyunkerk, Kale, Bulon-syur-Mer.

Côte d'Or *f* - *Oltin sohil* // Burgund platosi (q. Bourgogne) Sona daryosi (Saône) vodiysida Kot -d'Or departamentidagi Sharqiy qismi. Uzunzorlari bilan mashhur. Sevimli Burgund vinolari xom-ashyo bazasi (q. grands crus).

Côte Vermeille *f* - *Vermel sohili* // (vermeil m-vermel, oltin suvi yuritilgan kumush) O'rtayer dengizi Russilon (q. Languedoc Roussillon) provinsiyasidagi Kolliur shahridan Serber shahrigacha bo'lgan hudud. Bu joy baliqchilik porti, dengiz kurorti, talassoterapiya markazi bo'lib, nomi sharqiy Pireneylar tog'li hududdan kelib chiqqan. Vermel sohilini Ispaniyadagi Kosta Brava (Costa Brava) davom qildiradi.

course à la cocarde *f* - *soʻzma-soʻz «koʻkardani quvlash»* // Kamarg (q. Camargue)-asrlar osha kelayotgan an'analardan biri, provansal buqa janggi (q. Corrida); ularni maxsus shu bayram uchun yetishtiradilar. Ispanlarnikidan farqli o'laroq provansal korridasida buqalar o'ldirilmaydi. Toreador vazifasi – ho'kiz boshidagi kokardunini olishdan iborat.

croisades *f pl* - *Salb yurishlari (1096-1270)* // G'arbiy Yevropa feodallari tomonidan katolik cherkovining Yaqin Sharq (Suriya, Falastin, Shimoliy Afrika) mamlakatlariga uyushtirilgan bosqinchilik harbiy yurishlari. Salbchilarning asosiy maqsadlari – Yaratgandan tobutini va Muqaddas Yerni g'ayridinlardan tozalash bo'lgan. Hammasi bo'lib 8 ta salb yurishlari bo'lgan, natijada bir necha yangi davlatlar, shular qatorida Quddus (Iyerussalim) tashkil topgan. Birinchi salb

yurishi (1096-1099 y.y.) Klermon (Clermon) shahrida boshlanib, unda asosan fransuzlar qatnashgan va Quddusni bosib olish bilan yakunlangan. To'rtinchi salb yurishi davrida (1202-1204 y.y.) fransuz salbchilari Vizantiya poytaxti Konstantinopol shahrini xonavayron qildilar. Salb yurishlari yakunlangandan keyin Yevropa va Sharq davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar kuchaygan. Sharqning madaniy ta'siri o'sdi. Bu esa ritsar adabiyoti va o'sha davr me'moriy uslublarida o'z aksini topgan.

cromlech [kromlɛk] *m* - (bretoncha crom-aylana va lech-tosh) *kromleh* // Neolit va bronza asrining toshlaridan (q.menhir) aylanasi qilib qurilgan diniy inshootlar. Shimoliy Fransiya va Bretan (q.Bretagne)da uchraydi. Ular bilan ko'pgina kelt afsonalari bog'liq.

cuisine française - *fransuz oshxonasi* // Uyg'onish davridan boshlab o'z an'analari ega, dunyodagi eng yaxshi taomxonalardan biri sanaladi. 1-fransuz restoranlari Buyuk fransuz revolyutsiyasi davrida, milliy oshxona haqidagi 1-kitob – XIX asr boshlarida paydo bo'ldi. Fransuz oshxonasida ikkita asosiy maktab: mahalliy va burjuaziya maktabi mavjud. Birinchisi viloyatlardagi provinsiya an'analari taqaladi, tabiiy mahsulotlardan va sodda usullar bilan tayyorlanadi, ikkinchi oshxona talantli oshpazlar ijodidan kelib chiqqan. Turistlar bu oshxona taomlarini dunyoga tanitdi. Birinchidan farqli o'laroq u taomlarning tabiiy ta'mini saqlab qolish bilan cheklanmay, mahsulotni bilib bo'lmas darajada turli souslar, xilma - xil ziravorlar yordamida o'zgartirib yuborishga harakat qilishadi. Eng yaxshi oshpazlar Fransuz oshxonasi ustalari Assotsiasiyasiga kiradi. Milliy oshxona qadrllovchilari (gourments) yuzlab klublarga a'zo bo'lgan. Bu klublarning eng nufuzlilari: „Gastronomiya akademiyasi” va „Yuzlar klubi”.

D

débarquement allié - *ittifoqchilarning joylashuvi* // 1944-yil 6-iyunda ingliz-amerika va kanada qo'shinlari general Eyzenxauer qo'mondonligida

Normandiyadagi (Côtentén, Normandie) Kotanten yarim oroliga joylashdilar. Noqulay ob-havo sharoitlariga, okkupantlar kuchli zarbasiga qaramay, ittifoqchilar mustahkam chegara chizig'ini yorib o'tishga («Le mur de l'Atlantique») va Fransiya ichki qo'shinlari yordamida jang boshladilar. 1944-yil 15-avgustda ingliz-amerika qo'shinlari Provansda Fransiya janubida joylashdilar. Ittifoqchilar orqasidan o'zining hududiga Fransiya milliy qutqaruv qo'mitasi jang boshladi. Shunday qilib fashistlar Germaniyasiga qarshi Ikkinchi front ochildi.

décentralisation *f* - desentralizatsiya (markazning bo'linishi) // Davlat ijroiya hukumati va mustaqil o'z-o'zini boshqaruv huquqini mahalliy saylov organlariga: hududiy (régional), bosh va kichik kengashlarga berilishi (q. Région, département, commune).

Déclaration des droits de l'homme et du citoyen - fuqaro va inson huquqlari deklaratsiyasi // Ta'sis Majlisi (q.Asssemblée constituante) tomonidan 1789-yil 26-avgustda qabul qilingan. Buyuk fransuz inqilobi dasturli hujjati. Inqilobi 1-davri liderlari Mirabo (1749-1791), Seyyes (1748-1836), Mune (1758-1806) va boshqalar tomonidan tuzilgan. 14-iyul va 4-avgust voqealaridan keyin absolyut monarxiya va feodal tizim bekor qilindi. Konstitutsiya tuzishdan oldin deputatlar uning asosini – yangi jamiyat tuzish prinsiplari ko'rsatilgan hujjat tayyorlashga qaror qilishdi. Deklaratsiya preambula va 17 ta moddadan iborat. Ular «fuqaro va inson huquqlari, tabiiy va ajratilmas huquqlari» shaxs erkinligi, huquqi poymolligiga qarshilik huquqi, qonun oldida tenglik, so'z va vijdon erkinligi, xususiy mulkchilik huquqlaridan iborat. Deklaratsiyada bir vaqtning o'zida hukumatning bo'linishi va milliy suverenitet prinsiplar belgilandi. Inson huquqlari va demokratik jamiyat qurish g'oyalari deklaratsiyada bayon qilingan; ko'pgina davlat Konstitutsiyalarida esga olinadi va o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Hozirgi amaldagi Konstitutsiya preambulasida 1789-yilgi deklaratsiya asosiy qoidalariga dahldorligi yoritilgan.

Défense *f* **ñ** *Defans* // Parijning Yelisey dalalari - Versal yonida shimoli-gʻarbiy qismidagi yangi kvartal. Nomi „Parij himoyasi“ yodgorligidan kelib chiqqan. Parijliklar Fransiya - Prussiya janggida (q.guerre franco-allemande) qilgan qarshiligiga atab oʻrnatilgan yodgorlik. Kvartal 4-5 qavatli uylar va 40 qavatgacha boʻlgan ofis minoralari -shisha, poʻlat va qora granitdan qurilgan. Bu yerda 30 ming kishi yashaydi va 100 kishi ishlaydi. Transport harakati yer osti tunellarida yoʻlga qoʻyilgan. Binolar ichida eng qiziqarlisi - Katta ark (q. Grande arc) va Katta koʻrgazma zali hisoblanadi.

Défense nationale - *Milliy mudofaa* // Millat mudofaasi uchun Fransiyada shaxsan Prezident javob beradi. Prezident Oliy bosh qoʻmondon va Mudofaa oliy qoʻmitasi raisi hamdir. Faqat ugina yadro quroli ishlatish uchun buyruq berishi mumkin. Premier - ministr mudofaa qoʻmitasi qarorining bajarilishini taʼminlaydi. Mudofaa vaziri va vazirlik byudjeti va siyosati, armiya tayyorgarligi va qurollanishi, uni boshqarish, xodimlar olish va h.k.larga masʼul. Parlament milliy mudofaa qarorlarini qabul qiladi, byudjetni koʻrib chiqadi; urush faqatgina parlament ruxsati bilan eʼlon qilinadi. Milliy mudofaa siyosatida mamlakat avtonomiya prinsipiga tayanadi (qarorlarni mustaqil qabul qilish, birdamlik va hamkorlariga yordam).

demandeur d'emploi - *ishsiz* // rasmiy atama, (16-25 yosh) birinchi ish oʻrni izlayotgan ishsiz, bekorchi yoshlarni anglatadi.

département *m* **ñ** *departament* // Fransiyaning asosiy maʼmuriy hududiy birligi. 1789-yil taʼsis etilgan. Departament okruglarga (q.arrondissement), okruglar kantonlarga (q.canton) boʻlinadi. Desentralizatsiya qonuniga muvofiq (q.décentralisation) 1982-yil 2-martdan mahalliy oʻzini - oʻzi boshqarish hududiy birligi hisoblanadi. Bosh maslahatchi (conseil général) rais boshchiligida ijroiya ishlari bilan shugʻullanadi. Byudjet va rivojlantirish rejasi, Oliy sud, mahalliy maʼmuriyat, politsiya, yoʻllar, ekologiya- rais nazoratida boʻladi. 1982-yil 2-martda qonun chiqqanidan keyin prefekt boshqaruvidagi mahalliy organlarning bir

qismi Oliy kengash raisiga o'tdi. Hozirgi davrda Fransiya 100 ta departamentga bo'lingan. 96 tasi metropoliya va 4 tasi dengizorti (q.Guadeloupe, Guyane Française, Martinique, Réunion) hududida joylashgan.

départements d'outre-mer (D. O. M.) ñ *dengizorti departamentlari* //

1946 - yilda departamentga aylantirilgan Fransiyaning sobiq koloniyalari. Ularga quyidagilar kiradi: 1) Gvadelupa (q.Guadeloupe); 2) Gviana (q.Guyane Française); 3) Martinika (q.Martinique) – Karib dengizi orollarida va Janubiy Amerikada joylashgan; 4) Reyunon oroli (q. Réunion) Hind okeanida. Rasmiy tili – fransuz. Bu departamentlarda metropoliyadagi barcha qonunlar amal qiladi. 1982-yilgi qonunga ko'ra ular hududiy kengashli to'rtta régionga aylantirilgan. Iqtisodiy va ijtimoiy kengashlar, madaniyat, ta'lim, atrof-muhitni himoyalash qo'mitalari mavjud. Hukumat raisi (prefekt) *dengizorti* departamenti hududlarida qonunlar ijrosini nazorat qiladi. Ularning aholisi Milliy Majlis va Senatga o'zlarining vakilini saylashadi.

devise de la République française - *Fransiya respublikasi shiori* //

«Ozodlik, Tenglik, Birodarlik» shiori («Liberté, Égalité, Fraternité»). Oldingi ikki so'z «Fuqaro va inson huquqlari deklaratsiyasi» (q.«Déclaration des droits de l'homme et du citoyen», 1789 y.) matniga kiritilgan; uchinchi so'z 1848-yil Ikkinchi Respulika davrida (q.République II), Fransiya koloniyalarida quldorlik batamom tugatilgandan keyin qo'shilgan. Vishi rejimida (q.Régime Vichy) 1940-1944-yillarda davlat shiori «Mehnat, Oila, Vatan» bo'lgan. Ikkinchi Jahon urushidan keyin inqilob shior tiklangan (1946 va 1958-yil Konstitutsiyasi). Uni ma'muriy binolarda, davlat hujjatlari va yodgorliklarda ko'rish mumkin.

diplôme d'études approfondies (D.E.A.) - *chuqurlashtirilgan ta'lim diplomi* //

Magistr unvonini olish uchun universitetning uchinchi sikli (q. Enseignement supérieur) birinchi yilni tugatganlik to'g'risidagi hujjat. Talabaning tadqiqot ishlariga layoqatliligiga guvohlik beradi va uning doktorlik dissertatsiyasini yoqlash huquqini beradi.

diplôme d'études supérieures spécialisées (D.E.S.S.) - *oliy maxsus ta'lim diplomi* // Nomzod universitetning (q.Enseignement supérieur) 3-sikli birinchi yilini tugatgan va magistr unvoniga ega bo'lishi lozim. Mutaxassisligi bo'yicha chuqur nazariy va amaliy jihatdan tayyorgarligini tasdiqlaydi. Eng saralariga doktorlik dissertatsiyasini tayyorlashga ruxsat beriladi.

diplôme d'études universitaires générales (D.E.U.G.) - *umumiy universitet ta'limi diplomi* // Ta'lim olishning 1-siklini (q.enseignement supérieur) tugatgach beriladi. Uni olish uchun majburiy fanlardan belgilangan imtihonlarni topshirish va bu haqda hujjat ko'rsatish lozim (q.unité de valeur).

diplôme d'études universitaires scientifiques et techniques (D.E.U.S.T.) - *Ilmiy-texnik ma'lumot to'g'risidagi diplom* // Umumiy universitet ta'limi diplomi imtihonlarini topshirmagan talabalarga mo'ljallangan (q.D.E.U.G.). Universitet 1-siklini tugatgach, (q.Enseignement supérieur), tezroq kasb tayyorgarligini olib, mustaqil ish faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan talabalarga beriladi. Hozirgi vaqtda D.E.U.S.T.ga talabalar orasida D.E.U.G. diplomi sohiblari, *license* va hatto *maitrise* lar bor. Ilmiy texnika ta'limida 80 xil diplom mavjud bo'lib, ularning har biri hududlarning ijtimoiy - iqtisodiy talablariga javob beradi.

diplôme universitaire de technologie (D.U.T.) - *universitet texnologiyasi diplomi* // Texnologik institut universitetini (q.Instituts universitaires de technologie) yoki 1-sikl ta'limini (q.Enseignement supérieur) (tashkilot yoki ilmiy laboratoriyalarda amaliyot o'tashni o'z ichiga olgan) tugatayotgan talabalarga beriladi.

Directoire m - *Direktoriya (hukumat nomi)* // 1795 yil 1-noyabr – 1799-yil 10-noyabrlarda faoliyat yuritgan Termidorian Konvent (q.Convention) boshqaruvidan keyin o'rnatilgan rejim. Bu davrda ishlagan hukumat oqsoqollar va 500 lar kengashida saylangan (Conseil des Anciens, Conseil des Cinq cents) 5 nafar direktordan iborat bo'lgan. Direktoriya boshqaruvidagi davr ijtimoiy va

iqtisodiy inqirozlarni kuchaytirdi, kambag'al xalq bilan chayqovchilar orasidagi kelishmovchilikni oshirdi. Mamlakat ichida direktoriya o'ng va so'l (yakobinlar va realistlar) dushmanlarga ega, uning tashqi siyosati Fransiya qarshi 2ta koalitsiya tuzilishiga olib keldi (coalition). 18 Bryumer davlat to'ntarishi Direktoriya (Consulat)ni tugatdi va Napoleon Bonapart diktaturasini o'rnatdi.

doctorat *m* 1) - *fan doktori unvoni* // Oliy ilmiy daraja o'quv unvoni (q.Grades universitaires) sohibining ilmiy tayyorgarligini va original ilmiy tadqiqoti o'tkazganligini tasdiqlaydi. Universitet yoki boshqa oliy maktab tomonidan dissertatsiyasini omma oldida yoqlagandan keyin (thèse) 2-3 nafar fan doktori, universitet o'qituvchilari va bir qancha boshqa oliy maktablardan taklif qilinganlardan tuzilgan maxsus komissiya tomonidan beriladi. 2) 1984-yildan boshlab uchinchi sikl fan doktori diplomi o'rnini bosgan (doctorat de 3^e cycle) va fan doktori davlat unvoni diplomi (doctorat d'Etat) o'rniga ta'sis etilgan Fan doktori davlat diplomi. Universitet professori (q.Professeur des universités). Mazkur unvon universitet professori vazifasini egallash uchun tanlovda ishtirok etish huquqini beradi.

dolmen [dolmen] *m* - (bretoncha dol - stol va men – tosh) *dolmen ñ tosh maqbaralar* // Tarixda ilgari katta tosh stol shaklidagi, tik qo'yilgan toshlar ustiga qo'yilgan yodgorliklar (q.menhir). Rivoyatlarga ko'ra, toshlar keltlarda dafn qurilmalari bo'lib xizmat qilgan. Bretanda (q. Bretagne) ko'p uchraydi.

dôme *m* *hud* - Overnda - Lava to'planishidan hosil bo'lgan gumbazsimon cho'qqili tog' (q. Auvergne, Massif central).

doyen *m* - *dekan* // universitet o'quv-ilmiy bo'limi rahbari (q. unité de formation et de recherche).

drapeau tricolore ñ uch xil rangli bayroq // Fransiya davlat bayrog'i, uchta tik yo'l-yo'l chiziq – ko'k, oq va qizil rangda. Buyuk fransuz inqilobi davrida paydo bo'lgan va Bastiliya qo'lga olingach ikki kundan keyin (1789-yil 14-iyul) osilgan. Oq rang qirol hukmronligi ramzi, ko'k va qizil ranglar Parij

milliy gvardiyasi ramzidir. 1793-yilda Konvent (q. Convention) tomonidan rasmiy ravishda davlat bayrog‘i deb qabul qilingan. Tiklanish davrida (q.Réstauration) bekor qilingan, 1830-yilgi inqilobdan keyin qayta tiklangan. 1946 va 1958-yilgi Konstitutsiyalarning 2-bandiga muvofiq Fransiya davlati rasmiy bayrog‘i deb yuritiladi.

Droite f - 1) *o‘ng siyosiy kuchlar, partiyalar;*

2) *parlamentdagi o‘ng Fraksiya;* 3) *partiyaning o‘ng qanoti* // O‘nglarga asosan millatchilar, konservatorlar, realist va pragmatiklar, liberal iqtisodi tarafdorlari kiradi. Eng taniqli partiyalar – «Respublikani qo‘llab-quvvatlash uyushmasi» (q.Rassemblement pour la République) va «Fransiya demokratiyasi ittifoqi» (q.Union pour la démocratie française) .

droits m. pl. dānscription - «*yozilish huquqi*» (universitetda ta’lim uchun haq to‘lash) // Bakalavr darajasini olish uchun imtihon topshirgan abituriyentlar universitetga imtihonsiz -o‘qish, kutubxonadan foydalanish, sport bilan shug‘ullanish, tibbiy xizmat kabilarga pul to‘lab, qabul qilinadilar. 26 yoshga yetgan talabalar tibbiy sug‘urta uchun qo‘shimcha pul to‘lashadi. 1986-yil universitet ma’muriyati ta’lim olish bahosini oshirmoqchi bo‘ldi. Bunga javoban talabalar ommaviy namoyishlar uyushtirib, hukumatni mazkur qarorini bekor qilishga majbur qilishdi.

drôle de guerre - «*antiqa jang*» // Ikkinchi Jahon urushi (1939-yil sentabr 1940-yil may) birinchi bosqichi, jang qiluvchi mamlakatlar tomonidan faol jangovor harakatlarning yo‘qligi. Urush 1939-yil birinchi sentabr Germaniyaning Polshaga hujumidan boshlandi. Polsha ittifoqchilari: Fransiya bilan Angliya Germaniyaga urush e’lon qildi, ammo kuchning ko‘pligiga qaramay (23 ta nemis diviziyasiga qarshi 110 ta fransuz va 5 ta ingliz diviziyasi), passiv mudofaa va kutish taktikasini qo‘lladilar. Bu esa Germaniyaga 2 hafta ichida Polsha armiyasini yakson qilishga va G‘arbiy frontda hujumga tayyorgarlik ko‘rish (1940-yil 10-may) imkonini berdi (q.Guerre mondiale Deuxième).

druides (*m.pl.*) – *druidlar* // Gallarda (keltlar) kohinlar, tarbiyachilar va sudyalari.

E

échec scolaire - *oʻquv oʻzlashtirmasligi, imtihondan yiqilish* // Bu tushuncha XIX asr oxirida, ommaviy taʼlim joriy qilingach paydo boʻldi. Dasturni toʻliq oʻzlashtirmaslik, boshlangʻich maktabda toʻgʻri yoʻnalish tanlanmaganligini bildiradi. Statistik maʼlumotlarga koʻra oʻrta maktabni tugatganlarning 20 foizi - oʻqishni bilmaydi, 20 foizi –butun sonlarni boʻlishni bilmaydi, 58 foizi – masala yecha olmas ekan. Matnni oʻqiy olmaslik va tushunmaslik milliy muammoga aylandi. Oxirgi 10-15 yil ichida koʻp maktab islohotlari oʻzlashtirmaslik muammosini bartaraf qilishga yoʻnaltirilgan. Oʻqituvchilar yetishmasligi, liq toʻla sinflar, oʻquvchilarning moddiy jihatdan tang ahvoldaligi bu muammoni butunlay hal qilishga yoʻl bermaydi..

école confessionnelle - *diniy maktablar* // Xususiy oʻquv dargohi, barcha fanlar bilan birga diniy taʼlim (q.enseignement religieux, enseignement catholique) beradi. Bunday maktablarning koʻpchiligi katoliklardir (97 % boshlangʻich, 21 % oʻrta).

école de Barbizon - *barbizon maktabi* // XIX asrning 30-50-yillarida realistik peyzaj badiiy maktabi. Bu atama Parijdagi Fontenblo yaqinidagi rassomlar yashagan va ijod qilgan qishloq - Barbizon nomidan kelib chiqqan. Barbizonchilar maktabining keksa namoyondalari: J. Dyupre (1811-1889 y. y.) va Narsis Diaz de La Pena (1807-1876); yoshlardan esa Sh. Dobini (1817-1878 y.y.) lardir.

École de hautes études commerciales (E.H.E.C) - *Oliy tijorat maktabi* // maxsus oliy oʻquv yurti (q.Crandes écoles), 1881-yil Parijda tashkil qilingan. Fransiya moliyasi va ishlab chiqarish uchun oliy boshqaruv kadrlarini tayyorlaydi. Oʻquv – pullik, uch yil davom qiladi. Bitiruvchilari orasida (épiciers-talabalar jargonida) yirik tijoratchi va moliyachilar bor. Bunday maktablar Parijda,

Lion va Serji Pontuazda mavjud. Bunday maktabga yana, Parij-Oksford-Berlin-Madrid Yevropa biznes maktabi kiradi (école européenne des affaires Paris-Oxford-Berlin-Madrid, 1973).

École de hautes études en sciences sociales (E.H.E.S.S.) - *Ijtimoiy fanlar oliy maktabi* // 1975-yilda Oliy amaliy maktabning sobiq to‘rtinchi bo‘limini egalladi. Asosiy vazifasi - ijtimoiy fanlar sohasida tadqiqotlari natijalari va o‘qitish uslublari, ilmiy – tadqiqot ishlari. Uchinchi sikl Davlat diplomi (q.enseignement supérieur) va maxsus diplom beradi.

école lyonnaise – *Lion maktabi* // Shahar bankirlari, boy savdogarlar iqtisod cho‘qqisida bo‘lgan vaqtda XVI asr fransuz adabiyotidagi oqim. Lionda har yili xalqaro ko‘rgazma - yarmarkalar o‘tkazilgan, zakovat markazi ham bo‘lgan. Adabiy to‘garaklarni boshqargan. To‘garaklarga kirish huquqiga xotin-qizlar ham ega bo‘lishgan. Eng mashhuri shoira Luiza Labe (1524-1566 y.y.). Taniqli shoir M.Sev (1500-1564y.y.) ham Lionda faoliyat ko‘rsatgan .Lion maktabi shoirlariga Petrarka va o‘rta asrlar tasavvuf adabiyoti ta’siri kuchli bo‘lgan.

école maternelle - *onalar maktabi* // Ikki yoshdan olti yoshgacha bo‘lgan bolalar bog‘chasi. 1860-yildan beri faoliyat yuritadi. 1992-1993-yillarda metropoliyada 19041 ta shunday maktablar bo‘lgan, ulardan 18646 tasi davlat tasarrufida. Fransiya maktabgacha yoshdagi bolalarni muntazam ravishda o‘qitish bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinlarda : 2 yoshli bolalar 30 % va 4-5 yoshdagi bolalar deyarli 100 % ni tashkil etadi . Sinflarda bolalar soni o‘rtacha -27 nafar. Yoshiga qarab bolalar 3 guruhga bo‘linadi : kichik guruh (2-4 yosh), o‘rta guruh (4-5 yosh) va katta guruh (5-6 yosh). Katta guruh boshlang‘ich maktab qoshida tayyorlov sinflar dasturi bo‘yicha ishlaydi (classes enfantines). Dastur bolalarning jismoniy, badiiy-estetik tayyorgarligi, og‘zaki va yozma nutqqa o‘rgatish, ilmiy va texnik qobiliyatlarini o‘stirishga qaratilgan. Mashg‘ulotlar haftasiga 26 soat davom qiladi.

École militaire - *Harbiy maktab* // Mars maydoni ansambli (q.Champ de Mars) XVIII asr me'morchiligi yodgorligi 1751-1773-yillarda Lyudovik XV buyrug'iga ko'ra me'mor J.A.Gabriel tomonidan qurilgan.1784-1787-yillarda bu yerda Napoleon I tahsil olgan. 1878 -yildan boshlab binoda Oliy harbiy maktab joylashgan. Bino klassik uslubda (q.art classique) shimoliy fasadi bilan Mars maydoniga yoyilgan. Fasad kuch, tinchlik, Fransiya va g'alabani izohlovchi ramzlar bilan bezatilgan. Bino oldida Birinchi Jahon urushi qahramoni Marshal Joffr (1852-1931) ning otda turgan haykali bor.

École nationale d'administration (E.N.A.) - *Boshqaruv milliy maktabi* // Davlat Kengashi (q.Conseil d'Etat), Hisob palatasi (Cour des comptes), Moliya nazorati (inspection des finances), Diplomatik korpus (Corps diplomatique) va shu kabi joylarda ishlash uchun oliy ma'muriy kadrlar tayyorlaydi. 1945-yilda Parijda tashkil qilingan va Oliy maktablar (q.Grandes écoles) tarkibiga kiradi. Bir yilda ikki marta kirish imtihoni o'tkazadi: 25 yoshgacha bo'lgan, oylik maosh oluvchi stajor - abituriyentlar va 40 yoshgacha bo'lgan 5-8 yillik mehnat stajiga ega bo'lganlar. Bu toifadagi ta'lim oluvchilar o'qishi davomida o'z maqomi va oylik maoshi saqlanib qolinadi. ENA tanloviga birinchi tayyorgarlik tayyorlov kurslarida (q.Classes préparatoires aux Grandes Écoles), ikkinchisiga esa oliy ma'lumotga ega bo'lganlar, ya'ni bironta oliy o'quv yurti (Institut d'études politiques de Paris, Ecole polytechnique, Ecole normale supérieure) yoki universitetni tugatib kiradilar. Kirish imtihonlarida ijtimoiy huquq, sotsial, xalqaro va iqtisodga oid bilimlari tekshiriladi. Parij va Strasburgda ta'lim stajirovka bilan birga ikki yil. O'qish tugagach, bitiruvchilar davlat tashkilotlarida kamida 10 yil ishlashlari kerak. Bitiruvchilar orasida (q.enarque) prezidentlar: V.Jiskar d'Esten va J. Shirak, bosh vazirlar L.Fabius, M.Rokar, E.Balladyur, L.Jospenlar bor.

École nationale de photo, cinéma, son Louis Lumière – *Lui Lyumer nomidagi fotografiya, kino va ovoz yozish milliy maktabi* // Madaniyat

vazirligi qoshidagi Oliy maktab (q.Grandes écoles), 1926-yilda tashkil topgan, kino asoschilaridan biri – Lui Lyumer (1864-1948) nomi bilan ataladi. Fotografiya va audiovizual texnika sohasida oliy toifali mutaxassislar tayyorlaydi. Ikki yillik bepul o'qish oliy texnik ta'lim to'g'risida guvohnoma olish bilan yakunlanadi (q.brevet de technicien supérieur). Bitiruvchilar orasida: sobiq ma'daniyat vaziri J.Lang, kinorejissor: J. Demi, J.D. Bertuchelli va boshqalar ham bor.

École nationale des ponts et chaussées (E.N.P.C.) - *Yo'llar va ko'priklar qurish milliy maktabi* // Transport vazirligi qoshidagi Oliy maktab (q.Grandes écoles). 1747-yil Parijda savdo va moliya ishlari intendant D.Tryuden tashabbusi bilan tashkil qilingan. Fuqaro qurilish muhandislari, shuningdek iqtisod va transport, ilmiy xodimlar, informatika va amaliy matematika mutaxassislari tayyorlaydi. O'quv muddati 2-3 yil. Bu yerda politexnika instituti (q.Ecole polytechnique), Oliy pedagogika maktabi (q.École normale supérieure) bitiruvchilari o'qishni davom qildiradilar. Bitiruvchilar orasida fizik va astronom J.B. Bio, fizik A.A.Bekkerel, Parij metrosi loyihasi muallifi va qurilish rahbari F. Benvenyular bor.

École nationale supérieure des Arts et métiers (E.N.S.A.M.) - *San'at va hunarmandchilik oliy milliy maktabi* // Madaniyat vazirligi qoshidagi (q.Grandes écoles) maxsus oliy o'quv yurti. 1780-yilda Parijda tashkil qilingan. Keng tarmoqli muhandis-tadqiqotchilar tayyorlaydi, o'quv muddati 3 yil. O'qishga kirish uchun bakalavr bo'lish va tayyorlov kurslarida o'qish lozim (q.classes préparatoires aux Grandes écoles). Amaliy san'at, ishlab chiqarish tadqiqotlari va ilmiy –texnik informatsiya markazi bo'lib, katta texnik muzey bilan kutubxonaga ega.

École nationale supérieure des beaux arts (E.N.S.B.A.) - *Tasviriy san'at oliy maktabi* // Madaniyat vazirligi qoshidagi oliy maktab. Qirollik rassomchiligi, haykaltaroshligi (Académie royale de peinture et de sculpture 1648) va me'morchiligi (Académie royale d'architecture, 1671), 1819 va 1863-yillarda

qayta tashkil qilingan. Turli profildagi rassomlar tayyorlaydi. O‘qish muddati 5 yil. Bitiruvchilar orasida, Falkone, Gudon Vatto Fragonar, David, Jeriko, Delakrua, Engr, Kurbe, Dega, Vereshagin va haykaltarosh O. Tsadkinlar bor.

École nationale supérieure des mines de Paris (E.N.S.M.P.) ñ *Parij oliy milliy kon qidiruv maktabi* // 1783-yilda tashkil etilgan Sanoat vazirligi qoshidagi Oliy maktab. Tashabbuskori -kimyogar va minerolog B.Saja (1740-1824). Sanoat va ilmiy tashkilotlar uchun kadrlar tayyorlaydi. O‘qish muddati - 3 yil. Bitiruvchilar orasida fiziklar J.Klapeyron, A. B Ren’o matematik J. A.Puankare, muhandis P. Marten - po‘latni pechda qayta ishlash yangi usullari kashfiyotchisi va boshqalar bor.

École normale supérieure (E.N.S.) - *Oliy pedagogika maktabi* // Oliy maktablariga ilmiy xodimlarni fundamental va amaliy tadqiqotlarga va universitetlarda dars berishga, shuningdek, davlat va ma’muriy tuzilmalaridagi xizmatchilarni tayyorlaydigan (Grandes écoles, classes préparatoires aux Grandes écoles) maxsus oliy o‘quv yurti. Hozirgi vaqtda Fransiyada 4 ta shunday maktablar mavjud. Uilm-Sevr, Fontene-o-Roz-Sen-Klu, Kashan va Lionda. Uilm-Sevr gumanitar va tabiiy fanlardan, Fontene – o - Roz –Sen –Klu faqat gumanitar fanlardan, Lion maktabi tabiiy fanlar informatika va sog‘liqni saqlashga ixtisoslashgan, Kashandagi maktab texnik o‘quv yurtlariga tabiiy va texnik fanlar, iqtisod va boshqaruv ijtimoiy fanlar va amaliy san’at o‘qituvchilari tayyorlaydi. O‘quv muddati - 4 yil. Talabalar stipendiya olishadi. O‘qishga kirayotganda ular davlat xizmatida kamida 10 yil ishlab berish majburiyatini oladi. Oliy pedagogik maktablar diplom bermaydi, lekin uni bitiruvchining katta mansab (karera) uchun yo‘li ochiq. Eng taniqli oliy pedagogik maktab Parijda Uilm ko‘chasida 1794-yil tashkil topgan. Uning bitiruvchilari orasida: siyosiy arboblari J.Jores, E.Errio, L.Blyum, prezident J.Pompidu, faylasuflar V.Kuzen, A.Bergson, matematik E. Galua, fiziklar P.Lanjeven, A.Kastler, yozuvchilar R.Rollan, J.Romenlar bor.

École polytechnique - *politehnika maktabi* // Mudofaa vazirligi qoshidagi Oliy maktabga (q.Grandes écoles) qarashli o'quv yurti. Talabalar tilida «lōX» deb ataladi. 1794-yil Parijda tashkil topgan. Napoleon I davrida harbiy o'quv yurti maqomini olgan. 1976-yildan beri Parijning Palezo - Esson degan joyida. Fransuz va chet ellik talabalarni bakalavr darajasiga ega bo'lsa (q.Classes préparatoires aux Grandes écoles) va tanlovlardan o'ta olsa qabul qiladi. Talabalar maxsus kiyimda va davlat ta'minotida bo'lishadi. Oliy darajadagi ilmiy bilimlar beradi, muhandis va oliy harbiy kadrlar tayyorlaydi. 2 yillik o'qishni tugatgach, bitiruvchilar Fransiya Oliy maktablaridan birida (Tog'chilik insituti Telekommunikatsiya maktabi va hakoza) o'qishni davom qildirishadi. Bitiruvchilar orasida Fransiya prezidenti M.F.Sadi Karno, A.Lebren, marshallar Joffr, Fosh, fiziklar J.Gey-Lyussak, A. Bekkerel, matematik, J.A.Puankare va boshqalar bor.

école primaire - *boshlang'ich maktab* // 1881- yildan boshlab Fransiyada boshlang'ich ta'lim bepul va 1882-yildan boshlab majburiydir. U 3 siklda: tayyorlov (cycle au cours préparatoire) – 6-7 yoshdagi bolalar uchun, boshlang'ich (cycle au cours élémentaire) 7 -8 yoshdagi; o'rta (cycle au cours moyen) 9-11 yoshdagi bolalar uchun. Boshlang'ich ta'limda fransuz tili, tarix, geografiya, fuqaro tarbiyasi, matematika, tabiatshunoslik, texnologiya, xorijiy til, jismoniy va sport tayyorgarligi, badiiy tarbiya o'qitiladi. Uning asosiy vazifasi – o'qish, yozish va hisob-kitobga o'rgatish. Haftalik o'qish - 26 soat. Dam olish kunlari: chorshanba, shanba va yakshanbaning ikkinchi yarmi.

Écu m ñ ekyu // 1) Fransiya gerbi tushirilgan qadimiy fransuz tangasi. 1) XIX asrda 5 frank qiymatdagi kumush tanga. 2) Buyuk Karl tasvirlangan (742-814) yevro.Valutaning inglizcha qisqartmasi European Gurrerncy Yunit (q.euro).

église Saint ñEustache - *Sant ñEstash cherkovi* // Forum de Al (q.Forum des Halles) yonida joylashgan bozor savdogarlari korporatsiyasi kabi. 1532-1637-yillarda me'mor Lemerse loyihasi bo'yicha gotika va Rennsans uslublarini uyg'unlashtirib qurilgan. Parij Bibi Maryam ibodatxonasidan (q.Nôtre -Dame de

Paris) keyingi eng chiroyli ibodatxona hisoblanadi. Ajoyib akustikasi bilan ajralib turadi. Bu yerda organ konsertlari tashkil qilinadi. Ibodatxonada taniqli kishilar, masalan Kolber, Moliya vaziri Lyudovik XIV dafn qilingan.

élections à l'Assemblée nationale - *Milliy Assambleyaga saylovlar* // Tez-tez “élections législatives” atamasi ham qo'llaniladi. Deputatlar 5 yilga saylanadi (q.législature). Saylov tizimi bo'yicha to'g'ridan to'g'ri 2 xil turdagi saylov bilan saylanadi (scrutin uninormal majoritaire à 2 tours). Birinchi turda saylanish uchun 50 % dan ovoz yig'ish kerak, ikkinchi turda esa nisbatan ko'proq ovoz to'plasa kifoya.

élections cantonales - *Kantonal saylovlar* // Departament (q.département)ning Oliy kengashiga saylovlar. 6 yil muhlatga to'g'ridan-to'g'ri ikkinchi turda saylanadilar, har kantondan (q.canton) bir maslahatchi olinadi. Har 3 yilda Bosh kengash tarkibining yarmi yangilanadi. Kengash raisi uning a'zolari tomonidan 3 yilga saylanadi.

élections européennes - *Yevropa saylovlari* // Yevropa parlamentiga deputatlar saylovi. Deputatlar 5 yil muddatga to'g'ridan-to'g'ri ochiq ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

élections législatives - *Hukumatning qonunchilik organlariga saylovlar* (q. *élection à l'Assemblée nationale, election Senatoriales*) // Ko'proq Milliy Assambleyaga saylovlar ma'nosida ishlatiladi.

élections municipales - *Munisipial saylovlar* // Kommuna (q.Commune) Munisipial kengashiga saylovlar. Munisipial maslahatchilar umumiy saylovlarda 6 yil muddatga saylanadilar. Birinchi va ikkinchi tur qoidalariga rioya qilgan holda o'tkaziladi. 6 nafar saylangan munisipial maslahatchilardan Mer saylanadi.

élections présidentielles - *Prezident saylovlari* // 1962-yil 29-oktabrdagi referendumdan keyin respublika prezidenti umumxalq saylovi tizimida ikki turda 7 yil muddatga saylanadi. 2000-yil 24-sentabrdagi yangi referendumda ayrim o'zgarishlar bo'ldi. Ko'pchilik fransuzlar Prezidentlik muddatini 7 yildan 5 yilga

tushirish fikrini bildirishdi; (q.élection à l'Assemblée Nationale) uning davomiyligini deputatlik mandati bilan birga olib borish maqsadida, turli partiya vakillarining prezident va premer ministr postlaridagi "hamkorligi"ni (q.cohabitation) man etishni ko'zlashdi. Nazariy jihatdan prezident 1-tur saylovdan ko'pchilik ovozga ega bo'lib, saylanishi kerak. Lekin amalda ikkinchi tur o'tkazish zarur bo'ladi. Prezidentlikka Fransiyaning har bir fuqarosi – 23 yoshdan kam bo'lmagan holda nomzod bo'lishi mumkin. Prezident nomzodi fuqarolar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi lozim. (Deputatlar, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash a'zolari, bosh maslahatchilar, Mer va hakozi). Konstitutsiyaviy Kengash har bir nomzodning ishini alohida ko'rib chiqadi. Kandidatlar saylov garoviga 10 ming frank miqdorida to'lashadi.

élections régionales - *hududiy saylovlar* // Hududiy Kengashga saylovlar (q.région). Hududiy Saylovlar umumxalq saylovida ro'yxat bo'yicha 6 yil muddatga saylaniladi. Saylov okrugi bo'lib depart xizmat qiladi. Hududiy Saylov raisi kengash a'zolari ichidan 6 yil muddatga saylanadilar.

élection sénatoriales - *Senatga saylovlar* // Parlament yuqori palatasi deputatlari (q.Parlement) departamentlar bo'yicha 9 yil muddatga bevosita ovoz berish (suffrage indirect), ya'ni saylanuvchilar jamoalari (Collège électoral) – deputatlar, hududiy va bosh maslahatchilar, munisipalitet delegatlari tomonidan saylanadilar. Har 3 yilda 1/3 qismi yangilanadi. Buning uchun barcha departamentlar 3 guruhga (A,B,C) alifbo bo'yicha bo'linadi, ularga dengizorti departamentlari va hududlari (q.départements d'outre-mer, territoires d'outre - mer) qo'shiladi. Senat raisi har 3 yilda qayta saylanadi. Senatorlikka saylanish uchun yosh belgilangan (35 yoshdan katta).

Elysée (palais de lō) - *Yelisey saroyi* // Parijda Fobur Sent-Onore ko'chasida Yelisey maydonlari yaqinida joylashgan. 1718-yil me'mor Malle loyihasi bo'yicha graf Evre (Hôtel d'Evreux) uchun qurilgan, 1753 - yil me'mor P. Lassyurans tomonidan Madam de Pompadur (1721-1764) uchun qayta qurilgan.

(Lyudovik XV favoritkasi). 1793-yildan boshlab davlat tasarrufida. 1815-yil 22-aprelda bu saroyda Napoleon I ikkinchi marta taxtdan voz kechdi. Keyinroq bu yerda Lui Napoleon Bonapart yashadi, 1873-yildan boshlab saroy Respublika Prezidenti rasmiy qarorgohi bo'ldi. Matbuotda va o'zaro suhbatda Prezident fikri uning qarorgohi nomidan beriladi.

Empire (Premier) m - Birinchi imperiya // Napoleon I boshqargan davr (1804-yil 18-may, 1814-yil 4-aprel va 1815-yil 20-martdan 22-iyungacha) Konsullik almashgan davr (q.Consulat), 1804-yil 18-mayda Birinchi Konsul Napoleon Bonapart imperator deb e'lon qilindi. Fransiyada burjua monarxiyasi tiklandi. Napoleon ishtirokida ishlab chiqilgan Fuqarolik (1808) (q.Code civile), Tijorat (1808) va Jinoyat (1811) kodekslari Fransiya burjua jamiyati va uning mustamlakalarida huquqiy normalarni belgiladi. 1810-1812-yillarda imperiya juda kengaydi (Napoleon yurishlaridan oldingi 83 departament soni 130 ta departamentga yetdi): unga Fransiyadan tashqari Belgiya, Gollandiya, Ganzey ittifoqi shaharlari, Bremen, Gamburg, Reynning so'l irmog'i, Bolqon yarim orolining shimoliy-g'arbi kirgan. Ispaniyada Shimoliy va Markaziy Italiyada, Neapl va Vestfaliyada Napoleon dinastiyasi vakillari hukmronlik qilgan. Fransiya sanoatiga va savdosiga xos afzallik yaratish uchun imperator "kontinental blokada" (blocus continental) hosil qildi: Terroristik bosqinchilik, ittifoqdosh mamlakatlardan xomashyoni tortib olish, Angilya bilan savdo-sotiqni ta'qiqlash, Fransiya Sanoat mollari kiritishni man etish va hakoza. Bunday sharoitda Napoleon urushlari (q.Guerres napoléoniennes) buyuk armiyaning millionlab askarlari hayotiga zomin bo'ldi. Savdo va ishlab chiqarish inqirozi mamlakatni holdan toydirdi. Fransiyaning 1810-1811-yillardagi inqirozi xalqda norozichilik keltirib chiqardi va Birinchi Imperiyaning qulashini tezlashtirdi. Napoleonning taxtdan ikkinchi bor voz kechishi uning batamom tugaganini bildirdi (q.Réstauration).

Empire (Second) m- Ikkinchi imperiya // 1851-yil 2-dekabrdagi davlat to'ntarishidan keyin Lui Napoleon o'rnatgan rejim. Lui Napoleon bir yildan keyin

(1852-yil 2-dekabr) Napoleon III nomi bilan Fransiyaning rasmiy prezidenti bo'ldi. II Imperiya ikkita davrga ajratiladi: 1) (1851-1859 y.y.) mehnatkashlar orasida mashhur va undan himoya izlaydigan cherkov qo'llab-quvvatlashda harbiy-burjua diktatura. Mamlakatda iqtisodiy yuksalish boshlandi: ishlab-chiqarish qishloq xo'jaligi, transport, shahar qurilishlari (Baron Osmagen boshchiligidagi Parij rekonstruksiyasi). Antirossiya koalitsiyasi tarkibida II imperiya Qrim urushida (1853-1856 y.y.) va aprel-iyul oylari 1859-yil Italiyan yurushlarida Sardin qirolligi tomonida Kolonian bosqinchilikni muvaffiqiyatli davom qildiradi. 2) (1859-1870 y.y.) liberal qayta tuzilish - parlament boshqaruvi paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Sanoatda kapitalistik munosabatlar shakllanadi, ishchilar sinfi o'sdi va shakllandi; respublikachilar va sotsialchilar oppozitsiyasi kuchaydi. Fransiya-Prussiya urushidagi talofatlar (q.guerre franco - allemande, 1870-1871), ichki dushmanlar bilan kurash, xalq noroziligi II imperiyaning tugashiga olib keldi va 1870-yil sentabr revolyutsiyasiga yo'l ochib berdi.

énarque *m soʻzl.* - talaba, boshqaruv milliy maktab bitiruvchisi // (q. École nationale d'administration).

Encyclopédie ou Dictionnaire raisonné des sciences, des arts et des métiers - *Ensiklopediya yoki fan, sanʼat va hunarmandchilik izohli lugʻati* // 17 tomlik. 60000 maqola, 11000 illyutstratsiyaga ega ilmiy-ommabop va falsafiy nashr (1751-1772). Uning yaratuvchilari –faylasuf D.Didro (1713-1784) va matematik d'Alamber (1717-1783) o'z oldiga hamma zamonlarda va hamma sohada inson tafakkurining umumiy manzarasini tasvirlash maqsadini qo'yanlar. Fan va san'atdan tashqari ensiklopediyada texnika, hunarmandchilik, manufaktura, ishlab chiqarish rivojlanishi berilgan. Uning asosida ratsional dunyoqarash (q.Rationalisme) yotadi. Ensiklopediya buyuk Fransuz Revolyutsiyasini (q. Révolution française) g'oyaviy tayyorlashda muhim rol o'ynadi.

encyclopédistes *m, pl* - *ensiklopedistlar* // Fransiya XVIII asr ma'rifatchilari (q.Lumières (les)) 1751-1772-yillarda Ensiklopediya yoki fan,

san'at, hunarmandchilik izohli lug'ati (q.Encyclopédie ou Dictionnaire raisonné des sciences, des arts et des métiers) yozgan. Buyuk olimlar, faylasuflar, yozuvchilar, Didro yoniga to'plangan. Fransiya ilg'or kishilari. Ularga d'Alamber (matematika va fizika bo'yicha maqolalar muallifi), Volter (adabiyot bo'yicha), faylasuf-materialist P.Golban (1723-1789), geologiya, metallurgiya bo'yicha 400 ga yaqin maqolalar muallifi J.J.Russo (siyosiy va iqtisodiy maqolalar muallifi va musiqa bo'limi redaktori) Q.A.Gelvetsiy va hakoziqlar kirgan.

enseignement catholique - *katolik ta'dim* // Katolik maktablar. Xususiy ta'lim sektorlarining 95 foizini tashkil qiladi (q.enseignement privé) va ta'lim pillapoyalarining barchasini ta'minlaydi: maktabgacha yoshdan to oliy ta'limgacha. Maktabgacha katolik tashkilotlarining 12, 5 foizi - 6 yoshgacha bolalar; boshlang'ich maktablari – hamma o'quvchilarining 15 foizi; kollej va litseylarda bo'lsa 20 % o'quvchilar. Maktab tanlash (davlat yoki katolik) hudud an'analari va ota-ona ijtimoiy ahvoliga bog'liq. Rahbarlar oilasi, fermerlar, erkin kasb egalari (q.professions libérales) katolik maktablarini afzal ko'radilar. Bretan va Pei-de La Luar hududlarida 40 % o'quvchilar katolik ta'limini oladilar, Korsikada (q.Corse) va Limuzinda (q.Limousin) 90 % o'quvchilar davlat maktablariga boradilar. Oliy ta'limni katolik institutlarida (masalan, Institut catholique de Paris) va ayrim maxsus o'quv yurtlarida davlat diplomi berilmasdan o'qitiladi. (q. système d'enseignement).

enseignement libre - *erkin ta'dim olish* // Xususiy ta'lim (q.enseignement privé)ga o'xshash, XIX asr boshlaridagi "Ta'lim erkinligi" siyosiy muzokaralariga taqaladi. Amalda esa Fransiya butunlay "erkin" o'quv yurtlari yo'q, chunki, davlat o'zining me'yorlarini ko'rsatadi: o'quv dasturlari va imtihonlar hamma maktablar uchun bir xil, o'quv maskanlarini moliyaviy ta'minlash ishlarining bir qismini davlat va munisipal organlar bir qismini o'z zimmasiga oladi.

enseignement privé - *xususiy ta'dim* // Xususiy o'quv yurtlari (bolalar bog'chalari, boshlang'ich maktab, kollej va litsey, universitet va oliy

maktablar)dagi ta'lim. "Ta'lim erkinligi" (q.Système d'enseignement)ga muvofiq davlat xususiy maktablarni tan oladi. Ammo ular faoliyatini nazorat qiladi. Davlat bilan shartnoma imzolagan maktablarga (écoles sous contrat) moliyaviy ko'mak berilib turadi. Shartnomasi yo'q maktablar (écoles hors contrat) davlat tomonidan ta'minlanmaydilar, o'quvchilar olishda o'qituvchilar tanlash va ta'lim uslubida erkinroq harakat qiladi, xususiy ta'lim diniy bo'lishini (q.Enseignement religieux), kasb-hunar texnik ta'lim, tijorat bo'limlarini o'z ichiga oladi.

enseignement religieux - *diniy ta'dim* // Xususiy ta'limning diniy (cherkovga oid) bo'limi: katolik, protestant, yahudiy maktablari bor. Davlat maktablari din, falsafa va siyosat savollariga betarafdir. Aristokratizm - fransuz ta'lim tizimining asosiy g'oyalaridan biri (q.système d'enseignement).

enseignement secondaire - *o'rta ta'dim* // Buyuk Fransuz Revolyutsiyasi davrida joriy qilingan. 1802-1805-yillarda litsey va kollejlarda 7 yillik muddat bilan o'qitish qonunlari qabul qilindi. 1852-yilda klassik o'quv shakli bilan bir qatorda zamonaviy o'quv shakli yaratildi. 1880-yilda davlat ayollar o'rta maktablari ta'sis etildi. Hozirgi vaqtda o'rta ta'lim barcha bolalarga birinchi va ikkinchi sikllarda: kollejlarda (to'liqsiz o'rta maktab, q. collège) va litseylarda (o'rta ta'lim kursi yakunlanadi) (q. lycée), Kollejning 3-sinfini tugatgach o'quvchilar quyidagi litseylarda ta'limni davom qildirishlari mumkin: umumiy yoki texnologik ta'lim (q.lycée d'enseignement général ou technologique) – bakalavr darajasi yoki texnik guvohnomasini olishadi (q.Brevet de technicien) yoki kasb-hunar litseyda-kasbiy ta'lim to'g'risida guvohnoma beradi. (q.Brevet d'études professionnelles), kasb tayyorgarligi to'g'risida attestat (q. Certificat d'aptitude professionnelle) yoki bakalavr kasb diplomi (q. baccalauréat) beriladi.

enseignement supérieur - *oliy ta'dim* // Fransiya oliy ta'lim tizimini qat'iy an'analarga va aniq kasb egallash bo'yicha turli o'quv yurtlari tashkil qiladi. Davlat va xususiy o'quv yurtlari mavjud. Davlat diplomi berilishi – davlat o'quv yurti imtiyozi; uni olish uchun xususiy ta'lim talabasi davlat universitetida imtihon

topshirishi kerak. Oliy ta'limni asosan 2 tur o'quv yurtlarida: universitetlarda (q. université) va oliy maktablarda (q. Grandes écoles) olishadi. Oliy o'quv yurtiga kirish uchun bakalavr (q. baccalauréat) darajasiga ega bo'lish lozim. Universitetda qisqa muddatdagi (enseignement supérieur court; q. Instituts universitaires de technologie) yoki odatdagicha (enseignement supérieur long) o'qish mumkin. O'qish 3 sikldan iborat. 1-sikl (2 yil) dasturiga mutaxassisliksiz umumiy fanlar tayyorgarligi kiritilgan. Tugatgach umumiy universitet ta'limi diplomi (q. Diplôme d'études universitaires générales) yoki ilmiy-texnik ta'limi diplomi (q. Diplôme d'études universitaires scientifiques et techniques) beriladi. 2-sikl (2-3 yil) dasturi chuqur ilmiy tayyorgarlik va mutaxassislikni ta'minlaydi. 1-yildan keyin talaba licensiat (q. licence), 2-(3-)-yildan keyin - magistr (q. maîtrise) diplomi oladi. 3-sikl (2-3 yil) faqatgina ilmiy xodimlar tayyorlashga mo'ljallangan. Qabul qat'iy cheklangan, o'qishga faqat magistrlar qo'yiladi. Tugatgach chuqur ta'lim (q. Diplôme d'études approfondies) yoki oliy maxsus ta'lim (q. Diplôme d'études supérieures spécialisées) diplomi beriladi. Bu diplomlar doktorlik dissertatsiyasiga tayyorgarlik huquqini beradi.

épiciér, m, - ère f soǎl. - talaba // Oliy tijorat maktabi talabasi (q. École des hautes études commerciales).

óEquipe Cousteauô - *Kusto Komandasi* // Xususiy kompaniya nomi, atrof-muhitni himoyalash maqsadida ilmiy ekspeditsiyalar uyushtiradi. Kompaniya a'zolik badallari hisobiga ta'minlanadi. 1992-yil "Kusto fondi" deb o'zgartirildi va uning asoschisi J.I.Kusto (1910-1997-y.) nomi bilan ataladi. J.I.Kusto-mashhur okeanshunos va kinodokumentalist, Fransiya Akademiyasi a'zosi, akvalang ixtirochisi, suvosti kinokamera yaratuvchisi, "Sokinlik dunyosi" ("Le Monde du silence", 1956), "Quyoshsiz dunyo" (Le Monde sans Soleil, 1965) filmlari muallifi.

Estérel m - *Esterel* // O'rtayer dengizi qirg'oqlarida (q. Méditerranée) Quyi Provansda joylashgan kristal jinslardan tashkil topgan qadimiy tog' massivi.

Balandligi 618 metr oʻrmon bilan qoplangan (qaragʻay, eman). Sohilda koʻplab kurortlar mavjud.

États généraux - *bosh shtatlar* // Qirol tomonidan favqulodda vaziyatlarda chaqiriladigan tabaqa vakillari organi. Ilk bosh shtatlar 1302-yilda Filipp IV Koʻrkam (Philippe IV le Bel, 1268-1314)ning Bonifatsiy papasi oʻrtasidagi kelishmovchiliklar sababli chaqirilgan. Ruhoniylar vakillaridan, dvoryanlar va “uchinchi tabaqa” (q.Tiers État) – shaharliklardan iborat. Bosh shtatlar ahamiyati 100 yillik urush (q.Guerres de Cent Ans) va diniy urushlar davrida (q.Guerres de religion) oshdi. 175 yillik tanaffusdan keyin bosh shtatlar yana 1789-yil 5-mayda chaqirilgan, uchinchi va oldingi ikki tabaqa oʻrtasida bahs boshlandi: qanday saylash kerak – odatdagiday tabaqalar boʻyichami, yoki alohida, deputat soniga qarabmi (3 tabaqa deputatlari soni oldingi 2 tabaqa deputatlari soni bilan teng edi). Haqqoniy ovoz berishishiga erisha olmay “Millatning 96 % deputatlari” 17-iyunda oʻzlarini “Milliy Assambleya” (q.Assemblée nationale), 9-iyuldan - “Taʼsis majʼlisi” deb eʼlon qilishdi.

Être suprême (Culte de lō) - *Oliy mavjudotga sigʻinish* // Robesp'er taklifiga binoan Konvent tomonidan revolutsiyaning ikkinchi yili 18 Floreal dekreti boʻyicha oʻrnatilgan (1794-yil 7-may). Aqlga sigʻinishning (dehqonlar qarshiligiga sabab boʻlgan q.Raison, culte de la) oʻrnini oldi. Oliy mavjudotga sigʻinish, yaʼni tabiatga sigʻinish (Russo gʻoyasiga tayanilgan) yangi davlat dinini namoyon qilar edi - xalqni birlashtirishni maqsad qilgan. 1794-yil 8-iyunda Parijda yangi sigʻinish qabul qilingani munosabati bilan bayram tashkil qilishdi. Robesper boshchiligida, bezash ishlari rassom Davidga yuklatildi.

euro (monnaie) f - *yevrovalyuta* // 1999-yil 1-yanvarda kiritilgan yagona yevropa valyutasi. Shu kundan boshlab, yevro qabul qilgan davlatlar uni oʻzining valyuta siyosatida hisobga olishlari kerak. 2001-yildan boshlab yevroning boshqa valyutalar qatori naqd toʻlovlar uchun muomalasi rejalashtirilgan. 2002-yil 1-

iyuldan boshlab yevro Yevropa hamkorligi davlatlarida yagona pul birligi bo'lishi lozim.

Eurotunnel *m*- “Yevrotunnel” // La Mansh tagidagi, Fransiya bilan Angliyani bog'lovchi yerosti yo'li. Yevrotunnel qurilishi haqidagi qaror 1986-yil qabul qilingan va frank-britan konserni “Yevrotunnel” tomonidan amalga oshirilgan. Tantanali ochilish marosimi 1994-yil 6-mayda qirolicha Yelizaveta II bilan prezident F.Mitteran ishtirokida bo'lib o'tdi. Tunnel uzunligi 49,7 km, shundan 37,3 km suv ostidan o'tgan. Fransiya shahri Kokeldan – Angliya Cheriton shahrigacha avtomobilda 35 minutda borish mumkin. Avtomobil yo'liga parallel qilib yuqori tezlikdagi poyezdlar uchun temiryo'l tunneli ham o'tkazilgan (q. TGV).

exécutif *m* - *ijroiya hokimiyati* // Prezident (q.Président de la République) va hukumat (q.gouvernement) qo'lida to'plangan hokimiyat, uning boshida premer ministr turadi. Uning vazifasiga qonunlar bajarilishini ta'minlash (qonunchilik organlari tomonidan ishlab chiqilgan) va mamlakatni boshqarish kiradi.

existentialisme athé - *ateistik ekzistensializm* // Ikkinchi Jahon urushi davrida Fransiyada paydo bo'lgan ekzistensializmning irrigatsiya - falsafiy yo'nalishi. Asoschisi va nazariyotchisi – yozuvchi va faylasuf J.P.Sartr (1905-1980). 1943-yilda “Borliq yoki hech narsa” (“L'Être et le Néant”) traktati bilan chiqqan. Bu esa ekzistensializmning mazkur yo'nalishi rasmiy manifesti bo'ldi. Sartr nazariyasi asosi - olamning bema'ni va zidligi, insoniyat tirikchiligi fojiaaviyligi -quyidagi asarlarda o'z aksini topdi: “Behuzurlik” romani, “Yopiq eshik orqasida”, “Dafn qilinmagan murdalar” (“La nousée ”, 1938, “Huis clos” 1945, “Morts sans sepulture” 1946) pyesalarida. Insonlarning begonalashishi mavzusi, ularning bir-birini tushunmasliklari nazariy esse muallifi “Sizif haqida afsona”; “Begona” romani (“Le Muthe de Sisyphe” 1942; “L'Etranger”, 1944) muallifi A.Kamyu (1913-1960) ga yaqin. Bu yozuvchilarning “Qarshilik”da

(q.Résistance) qatnashganliklari ekzistensializm g'oyalariga zid keldi va ularning adabiy ijodiga ta'sir ko'rsatdi.

exode rural - *qishloq aholisini shaharga ommaviy ko'chirish* // Ikkinchi Jahon urushidan keyin ilmiy-texnik revolyutsiya qo'l mehnatini ishlab chiqarish mashinalari bilan almashtirilishi qishloq xo'jalik ishchilarga talabni keskin kamaytirdi va minglab qishloq aholisi ish izlab sanoat markazlariga, avvalo, Parij aglomeratsiyasiga ko'chib ketdi.

expansion coloniale - *XVI-XVII asr kolonial ekspansiya* // Fransiyaning koloniyalarni bosib ola boshlashi XV-XVI asr orasiga to'g'ri keladi. 1534-yilda siyosiy yo'nalishdagi kolonizatsiyaga urinish bo'ldi. Fransisk I (q.Valois) Jak Karte - Britaniya (q.Bretagne) dagi Sen - Malo dengizchisiga oltin izlash va Sharqqa g'arbiy yo'l topish ekspeditsiyasini uyushtirishni topshirdi. Karte-Labrador yarimoroligacha bordi, muqaddas Lavrentiy qo'ltig'igacha yetib, oqim bo'ylab ko'tarildi va u ochgan yerlar Fransiya qiroli mulki deb e'lon qilindi. Shunday qilib Yevropa uchun Kanada kashf qilingan. 1541-yil 15-yanvarda Fransisk I o'zining birinchi Kanada vitse - qirolini tayinladi va bu sana Fransiya kolonial imperiyasiga asos solingan kun deb hisoblanadi. 1635-yil Gvadelupa oroli (q.Guadeloupe), 1638-yil Martinika oroli, (q.Martinique), Gviana (q.Guyane Française), Afrika-Senegal sohillari, Madagaskar oroli bosib olingan. Shimoliy Amerikada 1682-yil Missisipi daryosining Luiziana basseyni katta hududi ustidan nazorat o'rnatildi. XVII asr ikkinchi yarmidan boshlab Fransiyaning Antil orollari, San-Domingo qiziqtirib qoldi. 1686 - yil Dofin oroli (Madagaskar) Fransiya mulki deb e'lon qilindi. Hindiston uchun Burbon oroli (Reyu'on) (q.Réunion) bilan Il-de-Frans (Mavrikiy) orollarida port qurildi. Hindiston va Seylonda Fransiya tayanch punktlari soni o'sdi. XVII asr o'rtalaridan koloniya uchun kurash urushga aylandi. Angliya bilan Fransiya 7 yillik urushi (q.guerre de Sept Ans) Fransiyaning mag'lubiyati birinchi Fransiya kolonial imperiyasini halokatga yetakladi.

fable *f* - *masal* // Pand - nasihat, axloqqa oid she'riy kichik hikoya. Fransiya O'rta asrlar masallarida antik obrazlarga taqlid qilinardi. Fransiya yirik masalchisi Lafonten (1621-1695); qadimgi yunon, rim, hind mualliflaridan o'zlashtirib, o'z uslubi bilan absolyutizm davri fransuz jamoatchiligi barcha tabaqalari ustidan kuldi.

Fabliau *m* - *fablio* // tomoshabinlarga jonglyor (*jongleur*) namoyish qilgan kichik she'riy novella. Qahramonlari – burjua va dehqonlar, qo'polroq xalq shevasida gapirishadi. Masxara qilish uchun sevimli obyekt – qizg'anch va shirinlikni xush ko'ruvchi poplar ("Eshak nasihati", Ryutbyof 1280-yil vafot qilgan). Fablio tili gall yumori, so'z o'yini, o'tkir iboralar bilan ajralib turardi.

farce *f* - *adabiy hazil* // O'rta asr aslzodalar teatri janri. Hazil manbai-jonglyor adabiy san'ati va komediyasi (*q.jongleur*), fablioda (*q.fabliau*), komik sahnalarda – misteriyalarda (*q.mystère*) qo'yilgan. Hazil asosi hayotiy lavhalar, qahramonlar masxaralab ko'rsatiladi. Eng mashhurlari: "Advokat Patlen" ("Maître P.Pathelin") va "Jom haqida hazil" ("La farce de Cuvier").

Félibrige *m* - *felibrij* // 1854 - yil Fransiya janubida paydo bo'lgan provansal tili (*q.langue d'oc*) tiklanish uchun adabiy harakat. Uni F. Mistral (1830-1914) boshchiligida 7 nafar provansallik shoirlar (*félibres*) tashkil qildi. 1885-yildan ular oksitan tilini mukammallashtirish va uni adabiy til maqomiga ko'tarish maqsadida "Provansal almanaxi" (*L'Almanach provençal*) chiqardilar. Felibrij XIX asr yozuvchi va shoirlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Masalan, A. Dode (1840-1897) «Tegirmondan xatlar» («Lettres de mon Moulin» 1866) novellalari.

Festival döAvignon - *Avinon festivali* // 1947-yilda Avinon shahrida tashkil qilingan, yilda bir marta o'tkaziladigan teatr san'ati festivali (*q.Provence-Alpes Côte d'Azur*). Asoschisi-Jan Vilar (1912-1971). Spektakllar ochiq havoda o'rta asr papasi saroyida (*Palais des papes*) ko'p tomoshabinlar to'plangan holda namoyish qilinadi. 1951-1966-yillarda Xalq milliy teatri (*q.Théâtre national*)

populaire) sahnasi uchun sinov yo'lini o'tadi. 1966-yildan keyin chet el truppalari va san'atning boshqa janrlari (xoreograf, sirk tomoshalari, badiiy ko'rgazmalar, kinofilmlar) hisobiga ishtirokchilari safi kengaydi. Festival vaqtida spektakl - uchrashuvlar-tomoshabin ishtirokida jamoa munozaralari o'tkaziladi.

Festival de Cannes - *Kann festivali* // 1946-yildan beri Lazur qirg'og'idagi (q.Côte d'Azur) kichkina kurort shaharchasi Kannda yiliga bir marta o'tkaziladigan xalqaro kinofestival. Bosh sovrin -, „Oltin palma novdasi” (Palme d'or) - eng yaxshi filmga beriladi. Hakamning maxsus katta sovg'asi, ayollar va erkaklar eng yaxshi roli, ssenariy, rejissor va operator ishlariga beriladi. 1958-yilda bosh sovrinni M. Kalatozovning „Turnalar uchyapti“ filmi oldi.

festivals pl - *Festivallar* // Har yili Fransiyada 800 tagacha festival tashkil qilinadi, shulardan 600 tasi iyul-avgust oyiga to'g'ri keladi. Festival o'tkazish joylari bo'lib, tarixiy va me'moriy yodgorliklar xizmat qiladi. Bular: Oranj shahridagi antik teatr, Bon shahridagi roman sobori, Syulli-Syur-Luardagi Uyg'onish davri qasri va hk. Festival mavzulari – turli tuman: Oranjda - opera (les Chorégies d'Orange), Antibda - jaz, Monpelyeda - flamenko va lo'li musiqasi va hk. Eng mashhurlari Kann (q. Festival de Cannes) bilan Avinon (q.festival d'Avignon) festivallari.

fête de l'Armistice 1918 - *Yarashuv kuni* // Birinchi Jahon urushidagi (1914-1918) g'alaba bayrami. 11-noyabrda, Germaniya bilan yarashish sulhi imzolangan kun (q.guerre mondiale (première)) nishonlanadi. Shu kuni halok bo'lganlar qabriga gullar qo'yiladi. Parijda noma'lum askar qabri Mangu mash'ali yonida Triumfal Ark tagida Prezident va premer ministr ishtirokida tantanali marosim bo'lib o'tadi. Dam olish kuni.

fête de la Victoire - *G'alaba bayrami* // 8-mayda, fashist Germaniyasi (1945 y.) taslim bo'lishi sulhi imzolangan kun nishonlandi. 1975-yil prezident J.d'Esten buyrug'iga ko'ra bekor qilingan edi. Ikkinchi Jahon urushi veteranlari (q.guerre mondiale (Deuxième)) talablariga binoan 1981-yil qayta tiklangan. Dam

olish kuni. Shu kuni Fransiyadagi barcha yodgorliklar - halok bo'lganlar xotirasiga gullar, gulchambarlar tantanali ravishda qo'yiladi. Parij Triumfal arkida noma'lum askar qabri yonidagi marosimni Prezident bilan premer ministr boshqaradi.

fête de l'Humanité - *Yumanite gazetasi bayrami* // Parij atrofidagi Kurnyov shaharchasida Fransiya kommunistik partiyasi (q.Partie communiste français) markaziy nashr organi tashkil qiladigan, yilda bir marta sentabr oyi boshida o'tkaziladigan bayram. Bu yerda siyosiy munozaralar o'tkaziladi, turli nashrlar tarqatiladi, yozuvchilar, artistlar so'zga chiqadilar, milliy taomlar tanovvul qilinadi va hk.

fête des Mères - *Onalar bayrami* // 1923-yilda ta'sis etilgan. May oyining oxirgi yakshanbasi kuni nishonlanadi.

fête des Pères - *Otalar bayrami* // 1952-yilda ta'sis etilgan; iyun oyining uchinchi yakshanbasida o'tkaziladi.

fête des Rois - *Sehrgarlarga ta'zim bayrami* // Diniy katolik bayram, yangi tug'ilgan Xrist yoniga sehrgar kelgani munosabati bilan (ikkinchi nomi Epiphanie) 6-yanvarda nishonlanadi. Shu kuni qatlama pirog (galette des Rois) ichiga loviya yoki fayansdan yasalgan haykalcha solib pishiriladi. Sovg'a tekkan kishi qirol (qirolicha) deb e'lon qilinadi va qatnashchilar ichidan juft tanlab oladi. Hamma qirolni qutlaydi: «Qirol ichsin ! Yashasin qirol!» («Le roi bois! Vive le Roi! »). Bunday udum Mopassanning «Madmuazel Perl» novellasida tasvirlangan.

fête du Travail - *Mehnat bayrami* // Mehnatkashlarning xalqaro birdamlik kuni. 1947-yildan beri 1-mayda nishonlanadi. O'rmonga marvaridgul uchun boriladigan bahor folklor bayramiga to'g'ri keladi. Ish haqi to'lanadigan yagona dam olish kuni.

fête foraine - *yarmarka* // XIX asr oxiri - XX asr boshlarida gullab - yashnagan fransuz asriy an'alaridan biri. Yarmarka vaqtida sirk va teatr tomoshalari, sport musobaqalari o'tkazilgan. Hozirgi kunda yarmarkalar mamlakatning barcha yirik shaharlarida o'tkaziladi.

fête nationale - *Milliy bayram* // 1880-yildan boshlab 14-iyulda Buyuk Fransuz revolyutsiyasi (q.Révolution Française) - Bastiliya qo‘lga olinishi voqealari xotirasiga o‘tkaziladi. Shu kuni Yelisey dalalarida harbiy parad o‘tkaziladi, soat 22:00 da katta feyerverk chaqnaydi. Shunday katta tantanalar chekka shaharlarda, posyo‘lkalarda o‘tkaziladi. Dam olish kuni.

fêtes légales - *Davlat bayramlari* // Ularga 11 ta diniy va fuqaro bayramlari kiradi va bu kunlar dam olish kuni hisoblanadi: 25-dekabr – Rojdestvo (q.Noël), 1- yanvar- Yangi yil (q.Jour de l’An), Pasxa – (q.Pâques), 1- may- Mehnat bayrami (q.Fête du Travail), 8-may–G‘alaba bayrami (q.Fête de la Victoire), Me’roj (q.Ascension), Troitsa (q.Pantecôte), 14- iyul - Bastiliya olingan kun (q.Fête nationale), 15-avgust-Bibi Maryam muvaffaqiyati (q.Assomption), 1-noyabr – Muqaddas Avliyolar kuni (q.Toussaint) va 11-noyabr – Yarashuv kuni (q. Fête de l’ Armistice, 1918).

fêtes locales - *Mahalliy bayramlar* // Qishloq kommunalari va shahar kvartallarining muqaddas avliyolar - shu joylar homiylari bayramlari. Hozirgi kunda diniy ahamiyatini yo‘qotgan va an’anaviy xalq sayllariga aylangan.

Finistère *m* - (*lotincha finis terrae - yer oxiri*) *Finister* // Bretan (q.Bretagne) g‘arbiy chekkasi, uch tomonidan dengiz bilan o‘ralgan. Breton tili va udumlari (langue bretonne) saqlanib qolgan departament (ma’muriy markazi - Kempe) joylashgan.

foie gras - *fua ñ gra, gōoz jigari* // 1782-yilda oshpaz J.J.Kloz kashf qilgan g‘oz yoki o‘rdak jigaridan tayyorlangan Strasburg pashteti. Buning uchun unga dvoryan unvoni berilgan. Tayyorlash jarayoni uzoq vaqt, katta mahorat talab qiladi, shuning uchun ham bu mahsulotning bahosi juda qimmat turadi. Asosan tarixiy provinsiya - Perigorda (Dordon departamenti, mamlakatning janubiy-g‘arbida) ishlab chiqariladi (q.Aquitaine).

Fontainebleau (école de) - *Fontenblo maktabi* // Fransisk I davrida Fontenblo qasrida paydo bo‘lgan fransuz tasviriy san’at yo‘nalishi (1526-XVI asr

oxiri). Kichkina qasrni hashamatli qarorgohga aylantirish uchun qirol italyan ustalari Rosso, Primaticchio, del Abbatlarni taklif qildi. Ular fransuzlarga binoni Renessans (q.Renaissance) va manerizm didi (q. manierisme) uslubida bezash bilan tanishtirdilar. Asta-sekin ustalarning safiga fransuz va flamond rassomlari, haykaltarosh, me'morlari: J.Kuzen (1490-1561 yillar atrofida), A.Karon (1521-1599), J.Klue (1485-1541) kabilar qo'shildi. O'ziga xos uslub – afsonaviy mavzudagi va yalang'och qomat go'zalligini madh etuvchi yo'nalish yaratildi. Genrix IV hukmronligida Fontenblo ikkinchi maktabi (Deuxième école de Fontainebleau) ochildi. Bu yerda muhim rolni endi italyan emas fransuz ustalari o'ynadi: T. Dyubrey (1561-1602), M. Fremine (1567-1619) va hk.

Formule I - *formula I avtopoygasi* // Xalqaro darajadagi sport avtomashinalar musobaqasi. Yevropa, Afrika, Shimoliy va Janubiy Amerikaning turli davlatlarida tashkil etiladi. Yopiq halqasimon trassada bir necha bosqichda o'tadi. Eng murakkab trassa – Monakoda. Poyga 2 soatdan ortiq davom etmasligi kerak. Oraliq masofa 250 dan 320 km gacha. Fransuz avtopoygachilardan Gran – Pri sohibi bo'lganlar –A.Prost, R.Arrnu, J.Laffit, M.Trentinyan va boshqalar.

Forum des Halles -ôDe Al Forumiô // Tijorat va madaniy ko'ngilochar kompleks, 1979-yil eski bozor “Parij qorni” (“Ventre de Paris”) o'rnida Pompidu markazi (q.Centre National d'Art et de Culture G. Pompidou) yaqinida me'mor K.Voskoni bilan J.Penkreana loyihasi bo'yicha qurilgan, yer sathidan 4 metr balandlikda umumiy maydoni 56 ming m². bo'lgan hududda joylashgan. O'z ichiga 60 ta magazin, mehmonxona restoranlar, 6 ta kinoteatr, konsert zali, mumdan ishlangan haykallar muzeyi (Musée Grévin), metro platformasi va hududiy tezyurar tarmog'ini (q.Réseau Express Régional) qamrab olgan.

franc m - *frank* // 100 santimga teng bo'lgan Fransiya pul birligi. Ilk bor XIV asrda Ioann II Dobriy zamonida lotin tilida Frankorum Rex (Franklar qiroli) degan yozuv bilan tilla tanga ko'rinishida chiqqan. Nomi ham shundan kelib chiqqan. Keyinroq oltin tangalar kumushga, kumushlar – livrga aylantirildi. Buyuk

Fransuz Revolyutsiyasi davrida (q. Révolution française) livrlar qogʻoz pullariga almasildi (assignatlar). 1795-yildan boshlab qadimgi kumush frank yana respublikaning asosiy tangasi boʻldi. 1803 - yilda Napoleon Bonapart kumush jerminal- frankka qoʻshimcha qilib (q.calendrier républicain) 0,29 g sof oltini boʻlgan oltin frank joriy qildi. Bunday tangalar 20 frank boʻlib “napoleondor” deb nomlandi. “Frank Jerminal” 1914- yilgacha muomalada boʻldi va Belgiya, Shveytsariya, Italiya, Gretsiya davlatlariga namuna boʻldi. Ikkinchi Jahon urushidan keyin Sharl de Goll (q.Charles de Gaulle) yangi frank joriy qildi, eskisiga 1:100 miqdorida almashtirildi. Hozirgi vaqtda franklar mashhur fransuz fan va madaniyat arboblari surati tushirilgan 500, 200, 100, 50, 20 va 10 frankli qogʻoz pullarida hamda 0, 5; 1; 10; va 50 tangalarda chiqarilmoqda.

óFrance combattanteô-óKurashayotgan Fransiyaô // Fashist bosqinchilaridan mamlakatni ozod qilish vatanparvarlik harakati. 1942-yilgacha “Ozod Fransiya” (q.“France libre”) deb nomlangan. “Kurashayotgan Fransiya” qurolli kuchlari fashistlar bilan Shimoliy Afrikada jang qildilar, Korsika va Italiyani ozod qildilar, ittifoqdoshlari bilan Provansni boʻysundirdilar, ichki qarama-qarshi kuchlar (q.Résistance) bilan Parijni ozod qilishda qatnashdilar.

France (la) dans le monde - *Fransiyaning dunyodagi mavqei (oʻrni)* // 550 ming km² maydoni bilan Fransiya Yevropaning eng katta mamlakati sanaladi. Yevropa Ittifoqida eng boy qishloq xoʻjalik mulklari, katta oʻrmonlarga ega. Uchta dengizga chiqadi. Milliy mahsulotlar va eksport hajmi boʻyicha dunyoda 4-oʻrinni egallaydi. (AQSH, Yaponiya va Germaniyadan keyin). 3-harbiy hukumat (AQSH, Rossiyadan keyin). Bir qator xalqaro tashkilotlar aʼzosi: Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish (OESR), 8 ta eng rivojlangan dunyo mamlakatlari guruhi, BMT, Xavfsizlik Kengashi (veto huquqi bilan); 1993-yildan Maastrixt bitimi imzolanganidan keyin - Yevroittifoq aʼzosi; Nato aʼzosi, ammo 1966-yildan beri hamkorlikdagi mudofaa tizimida qatnashmaydi, Fransuz tili – 6 ta rasmiy va 2 ta BMT amaldagi tilidir. Parijda Yuneskoning shtab - kvartirasi joylashgan.

France d'outre-mer - *Zamorsk Fransiya* // Metropoliyadan tashqarida joylashgan Fransiya hududi. Unga quyidagilar kiradi: 1) zamorsk departamentlari (q.départements d'outre mer); 2) zamorsk hududi (q.territoires d'outre mer); 3)Fransiya departamenti hududiy birliklari (q. Saint-Pierre et Miquelon, Mayotte).

France libre- Erkin Fransiya // Turli sabablarga ko'ra mamlakatdan tashqarida bo'lgan vatanparvarlar harbiy va siyosatchilar antifashistik harakati. Boshqaruv organi - general de Goll rahbarligida (q.Gaulle Charles de) Londondagi Milliy Qo'mita. Angliya yordamida shakllangan kichik fransuz armiyasi Fransiya koloniyalarining biroz qismini egalladi: Kamerun, Chad, Kongo, Ubangi-Shari, Siriya, Livan. 1942-yili "Ozod Fransiya" maxfiy xizmati Fransiya Qarshiligi (q.Résistance), ichki kuchlari bilan aloqalarni yaxshiladi. 1942-yil iyulda harakatning nomi "Kurashayotgan Fransiya" (q."France combattante") deb o'zgartirildi.

France préhistorique - *Tarixdan ilgarigi Fransiya* // Fransiya – inson paydo bo'lgan qadimiy markazlardan biridir. Bu haqda mamlakatda topilgan (Shell "Ashel" Sona va Luara departamentlari) qadimiy yodgorlik - qazilmalar guvohlik beradi. Arxeologlar bunda inson rivojlanishidagi turli bosqichlarni ko'rsatib berishgan: Shell (600-400 ming yil avval), Ashell - (400-200 ming yil oldin) madaniyati qadimgi tosh asri va paleolitning boshiga, Madlen va paleolit erasining oxiriga to'g'ri keladi. Madlen madaniyati 8-15 ming yil oldinni ko'rsatadi. Bu davrda bizning ajdodlarimiz - kromanyonlar yashagan. Ularning nomi Kro-Manyon topilmasi (Dordon departamenti) sharafiga atalgan. Ular o'zlaridan mahorat bilan qurilgan tosh va suyak qurollar, g'or devorlarida ajoyib suratlar qoldirishgan. Eng mashhuri - Lasko g'ori (q. grotte de Lascaux).

France sportive - *Fransiyada sport* // Sport Fransiyada milliy an'ana sanalmaydi. Fransuz aristokratlarining qiziqishlari ov, qilichbozlik , to'p o'yini bo'lgan. Burjua uchun bu mashg'ulotlar obro'li sanalmagan. Dehqonlar umuman sport bilan shug'ullanishmagan. Fransuzlarning sport bilan qiziqqa boshlashi baron

Pier de Kuberten (1863-1937) tomonidan olimpiya harakatini barpo qilishdan boshlandi. 1903-yilda u ishchilar jamiyatini “Barcha uchun hohlangan sport” shiori ostida tuzdi. XX asrning 30-yillarida sport bilan shug‘ullanish ommalashdi. Xalq fronti (q.Front populaire) davrida ikki haftalik haq to‘lanadigan ta‘til va yoshlar klublari paydo bo‘ldi. Hozirgi kunda fransuzlar sportga o‘rtacha haftasiga 1 soat vaqt ajratadilar. Sport va jismoniy tarbiyaga maktablarda katta e‘tibor berildi: haftasiga 3-4 soat (sport to‘garaklaridan boshqa).

Franche-Comté - *Fransh-Konte* // Ma‘muriy hudud (q.région). Fransiya sharqida Burgundiya bilan Shveytsariya chegarasida 4 ta departamentdan iborat. Du, Yura, Yuqori Sona va Bel’for viloyati 1 100000 kishilik aholisi (1987 yildagi hisob) yoki mamlakatning 1,9 % aholisi. Yer maydoni 16202 kv.km metropoliyaning 3 % maydoni). Ma‘muriy markazi - Bezanson. Asosiy shaharlari: Monbelyar, Belfor, Dol. Bu o‘lka tekisliklar va tog‘ platolar, 40 % o‘rmondan iborat. Hudud industrial - agrar, an’anaviy hunar - yog‘ochni qayta ishlash, soatsozlik. Qishloq xo‘jaligida sut mahsulotlariga talab katta. Ishlab-chiqarish 3 ta markazda. Bezansonda (oldin soatsozlik poytaxti, endilikda - yuqori texnologiya), Sosho-Monbelyare yirik avtozavodi bilan (“Pejo”), Belfor “Al’stom” firmasi-temiryo‘l moslamalari, (TGV) yuqori tezlik poyezdlari sostavi ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. An’anaviy soatsozlik, optik va yog‘ochga ishlov berish sanoati o‘yinchoq ham chiqaradi. O‘rmonchilik zamonaviylashtirilgan. Tabiat go‘zalligi chang‘ichilar va piyoda sayyohlarni jalb qiladi. Doimiy ravishda havo sharlari xalqaro musobaqalari Bel’forda, velopoyga Nantuada, kanoe va baydarka, itlar poygasi, chorvachilik musobaqalari Mesh shahrida o‘tkaziladi. Hududning arxeologik va badiiy merosi asrlar osha saqlanib kelmoqda. Bu yerda abbatlik qadimgi nomlari bilan (Baume-les-Dâmes, Baume-les-Messieurs), oqbeton kema-cherkov-1955-yil qurilgan, me‘mor Le Korbyuze tomonidan Notre-Dâme-du-Haut tepaligida joylashgan. Bu yerda yozuvchilar: Viktor Gyugo, Marsel, Eme, Bernar Klavel, rassom G. Kurbe, faylasuf Sh.Fure, sotsialist R.J.Prudon, olim L.Paster,

kino kashfiyotchilari aka - uka Ogyust va Lui Lyumer, “Marseleza” mualliflari K.Ruje de Lill tavallud topishgan.

Francophonie *f* ñ *frankofoniya* // Fransuz tilida so‘zlashuvchi davlatlarning madaniy, iqtisodiy, siyosiy hamkorligini II Jahon urushidan keyin va Afrika mustaqil davlatlar tashkil topganidan keyin yo‘lga qo‘yildi. 52 mamlakat 5 ta kontinentni (fransuz tilini mamlakat ichida va xalqaro aloqada ishlatuvchi) birlashtiradi. Fransiyada frankofoniya Oliy instituti (institut de hautes études francophones) faoliyat yuritadi. “Année francophone internationale” chop qilinadi. Xalqaro darajada frankofoniya hukumatlararo Agentligi (Agence de la francophonie) 1996-yil madaniy hamkorlik Agentligi bilan jamoat tashkilotlari: Fransuz tili qisman yoki to‘liq o‘qitiladigan universitetlar assosiasiyasi (Association des université partiellement on entièrement de la langue française), fransuz tilini chet elda o‘qitish Assosiasiyasi (Agence pour l’enseignement français à l’étranger), fransuz institutlari va Fransiya Tashqi ishlar vazirligi qoshidagi madaniyat markazlari (institut et Centres culturels français) o‘rnini bosdi.

Francs *m pl -franklar* // III asr o‘rtasida Galliyaga qochib ketgan german qabilalari. Tadqiqotchilar bu so‘zning kelib chiqishida hamfikir emaslar. Ba’zilari uni frakker, ya’ni jasur desalar, boshqalari franka-erkin deb talqin etishadi. V asrda franklar Galliyada o‘tirimli bo‘lib, o‘zlarining qirroligini (q.Royaume franc) tashkil etdilar. 511-yilga kelib ular butun Galliyani (shimoliy-g‘arbiy chekkasi Armorika va Reyn atrofi viloyatlaridan boshqa) egallashdi. Franklarning nomidan kelib chiqib, Galliya Fransiya deb atala boshladi.

fromages français - *Fransuz pishloqlari* // Pishloq-fransuzlarning sevimli taomi: aholining 2/3 qismi uni har kuni iste’mol qiladi. Mamlakatda 400 ga yaqin navdagi pishloq ishlab chiqariladi. Juda ham yangi, toza, ushlanib turmagan tvorogsimon pishloq; yumshoq pishloqlar po‘stlog‘i bilan, oppoq momiq bilan qoplangan (camembert, brie), yoki silliq po‘stloqli (epoisses, munster); po‘pakli

pishloqlar (bleu de Bresse, bleu de Causses morbier)ga ajratiladi. Rokfordan boshqa hammasi sigir sutidan tayyorlanadi. Yana shuningdek, siqib chiqarilgan, issiq ishlov berilmagan (cantal, tomme) yoki qaynatilgan, ozgina meva ta'mli (beaufort, comté, emmental) va nihoyat, turli namlikka ega echki sutidan tayyorlangan pishloqlar (crottins, chabichous), hamda yumshoq pishloqlarning 32 xil navi markali hisoblanadi (appellations d'origine contrôlée, AOS). Fransiyada pishloq tarixi muzeyi bor. Ulardan biri Overnda joylashgan.

Fronde *f* - *Fronda* (*soʻzma* - *soʻz palahmon*) // Voyaga yetmagan qirol Lyudovik XIV (q. Louis XVI) davrida absolut monarxiya zulmiga va kardinal Mazarini hukumatiga qarshi Anna Avstriyskaya regenstvasi (mamlakatni vaqtincha boshqarib turish) vaqtidagi umumxalq jamoa harakati. Umumiy dasturlash ham, yagona (daho) yoʻlboshchisi ham boʻlmagan. Shartli ravishda 2 davrga: “eski” yoki “Parlament Fronda” (1648-1649) bilan “Yangi” yoki “Shahzodalar Frondasi” (1650-1653) boʻlinadi. 1-davrda burjuaziya bilan Parij parlamenti xalq qoʻzgʻolonidan oʻz maqsadlari yoʻlida foydalanishni koʻzlagan. 2- davrda esa saroy aristokratlari. Oxirida Mazariniga norozi aristokratlar bilan kelishish mumkin boʻldi. Fronda magʻlubiyatga uchradi. Lyudovik XIV hokimiyati chegara bilmas boʻldi. Fronda voqealari va Mazarini fitnasi A.Dyuma-otaning «Yigirma yildan keyin» (“Vingt ans après”, 1845) romanida oʻz aksini topgan.

Front national (F. N.) - *Milliy front* // 1972 – yil 5-oktabrda Jan-Mari Le Pen tashkil qilgan oʻng siyosiy partiya. Koʻp vaqtlar saylovlarda 1 foizdan koʻp ovoz toʻplamagan, biroq 1997- yilda 5, 6 % ovozga ega boʻlgan partiya palatada 1-oʻrinni egalladi. Yaqqol koʻzga tashlanuvchan millatchilik bilan ajraladi, iqtisodiy liberalini himoya qiladi, Yevropa qurilishiga, korrupsiya, anʼanaviy siyosiy partiyalar, immigranlar (ayniqsa, Magʻrib mamlakatlaridan-ishsizlik va jinoyatchilikni mamlakatga olib kelishda asosiy sabab deb hisoblaydi)ga qarshi chiqadi. Partiya-shiori-“Fransiya fransuzlar uchun” (“La France aux Français) yoki “Les Français d’abord”). 1999- yil partiyada ajratilish yuz berdi: partiyadagi

ikkinchi yo‘lboshchi kishi raqobatchisi Bruno Megre o‘zining “milliy harakat” (“Mouvement national”) tashkilotini tuzdi.

Front populaire - *Xalq fronti (1936-1938)* // Fransiya So‘l qanotlar (radikallar, sotsialistlar va kommunistlar partiyalari) ittifoqi, fashizm bilan kurash uchun tuzilgan. 1936-yil aprel - may parlament saylovlarida g‘alabani qo‘lga kiritgan, 1926-yil 4 - iyun sotsialistlar boshchisi Leon Bilam (1872-1950) xalq frontiga tayangan hukumat tashkil qildi. Bunga sotsial va radikal vazirlar kirdi. Xalq fronti tashkil etilishi mamlakatda fashist diktaturasini o‘rnatish harakati rejasini chippakka chiqardi.

G

garde républicaine - *respublika gvardiyasi* // Bosh davlat tashkilotlari (Yelisey saroyi, milliy Assambleya, Senat kabi)ni qo‘riqlovchi jandarmeriya qo‘shinlarining qo‘shilishi. Uning tarkibiga faxriy soqchi (tantanali uchrashuv va qabullar uchun)lar ajratib olinadi.

Garonne *f* – *Garonna* // Fransiya janubi - g‘arbiy va Ispaniya shimolidagi daryo. Uning uzunligi 647 km.ni tashkil qilib, shundan 596 km. Fransiya hududida. Ispaniya Pireneyi (q. Pirenée)dan boshlanib, Biskay qo‘ltig‘iga (q.golfe de Gascogne) quyadi; Dordon daryosi bilan Jironde estuariysi (q.Gironde) hosil qiladi. Bosh irmoqlaridan Tuluzagacha bu kuchli tog‘ oqimi keng tekis daryoga aylanadi. Oqimning o‘ng tomonida bosh irmoqlar - Tarn bilan Lot, so‘lda – Sav, Jer, Sala, Arej va boshqalari. Bordo portiga kema qatnovi mavjud. Asosan sug‘orish ishlari bilan gidroenergetika uchun foydalaniladi. Aylanma kanal qurilishi (canal latéral)dan keyin O‘rtayer dengizi Biskay ko‘rfazidagi suv - tizimining muhim qismi bo‘ldi.

garrigue *f* – *garriga* // Provansdagi (q. Provence-Alpes-Côte d’Azur) va Langedokdagi (Languedoc) O‘rtayer dengizidagi o‘simliklarning turi, tosh

emandan, tikanli butalar va xushbo'y o'simliklardan tashkil topgan o'rmon yong'inidan so'ng ohaksimon yerni qoplagan.

gastrnomie française - *fransuz gastronomiyasi* // Fransuzlarning haqiqiy g'urur-iftixori; kelib chiqishi italyanlarga borib taqaladi. Florensiyalik Yekaterina Medichi (1519-1589) 1533-yilda Fransiya qiroli Genrix II ga turmushga chiqdi va o'zining a'yonlari orasida Fontenblo qasriga italyan oshpazlarni olib keldi. Ular saroyni yangi mahsulotlar bilan tanishtirdilar : sparkiya artishoki, amerika loviyasi, un mahsulotlari, murabbo va shakar qo'shilgan mevalar. Lyudovik XIV (q.Louis XIV) davrida gastronomiyaga katta ahamiyat bera boshlashdi. 1681-yildan qirollik ordonansi yaqin kishilar uchun qiro'l tanovvul vaqtida o'zini tutish tartibini o'rnatdi. Hozirgi fransuzlar uchun gastronomiya - mamalakat madaniy merosining bir qismi. U o'zining vinolari (q.vins), pishlog'i (q. fromages), maxsus taomlari (q. foie gras), kolbasa mahsulotlari (charcuterie), dengiz in'omlari (fruits de mer): ustritsa, langust, midiya va boshqa malyuskalar bilan dong taratgan.

Gauche f - 1) so'l siyosiy kuchlar, partiyalar. 2) Parlament so'l fraksiyasi. 3) Partiya so'l qanoti o'ng va so'l qanotlar (q. Droite) qarama – qarshiligi yoki Fransiya o'ng va so'l partiyalari siyosiy hayotida Buyuk Fransuz revolyutsiyasi davridan 1789-yil 11-sentabrda ta'sis Majlisida (q.Assemblée constituante) yangi konsitutsiya muhokamasi bo'ldi. “Veto” qirollik huquqiga ovoz berishda fikrlar qarama-qarshi bo'ldi. Ko'pchilik ruhoniylar dvoryanlik vakillariga – raisning o'ng tarafida o'tirganlarga qo'shildilar va ularga ovoz berdilar. So'l tarafda bo'lsa faqatgina 3-tabaqa deputatlari qoldi, ular “veto” qirollik huquqini bekor qilishni talab qilishdi. Bu esa siyosiy kuchlarning so'l va o'ngga bo'linishiga asos bo'ldi. Odatda so'llar tarafdori (l'homme de gauche), universalist, antirasist, ijtimoiy nohaqlikka qarshi kurashchi, idealist (ba'zan utopist), kuchli davlat hokimiyati tarafdori. So'l siyosiy kuchlar: sotsialistik partiya (q.Parti socialiste), kommunistik partiya (q.Parti communiste français) “Fuqarolar harakati” (q.“Mouvement des

citoyens”), radikal (q.“Radical”), yashillar (q.Verts), “Ekologiya avlodi” harakati (q. Génération Ecologie).

Gauche plurielle - *koʻp partiyali soʻl blok* // Sotsialistik partiyani (q. Parti socialiste), Kommunistik partiya (q.Parti communiste français), soʻl radikallarni (q.Radikal), “Fuqarolar harakati” partiyasi (q.“Mouvement des citoyens”) va “yashillar” (q.verts)ni oʻz ichiga olgan. 1998-yil martda Milliy Majlisga saylovlarda gʻolib boʻldi.

Gaule *f – Galliya* // Alpning ikki tomonidagi viloyatlarga, keltlar: Sizalpiy Galliyasi (Gaule cisalpine) va Transalpiy Galliyada yashagan rimliklar tomonidan berilgan nom. Bu hudud hozirgi Fransiya, Belgiya, Shveytsariya va Reynning soʻl sohiliga kiradi (q. Gaule celtique, Gaule romaine).

Gaule celtique - *Kelt Galliyasi* // Yuliy Sezarning “Gall urushi haqida qaydlar”ida tasvirlangan. Mamlakat hududi oʻrmonlar va botqoqliklar bilan qoplangan edi. Keltlar (gallar) kichkina posyolka boʻlib, poxol tomli yogʻoch uylarda joylashdilar. Keltlar guruhi 3 sinfga boʻlingan: harbiy aʼyonlar (hokimiyat ular qoʻlida boʻlgan), druidlar (q.druides) va oddiy xalq. Keltlar oʻziga xos madaniyatga, oʻz tili va diniga ega boʻlishgan. Adabiyot, asosan sheʼriyat boʻlgan va ogʻzaki ravishda shoir va baxshilar tomonidan yetib kelgan; haykaltaroshlik maxsus maktabi va hunarmandchilik gullab – yashnadi.

Gaule romaine - *Rim Galliyasi* // Rim hukmronligidagi Galliya. Besh asr davomida (milloddan oldingi 52-yildan to milloddan keyingi 486-yilgacha) Galliya Rim imperiyasi tarkibida boʻlgan. Rimliklar oʻzlari bilan quldorlik tizimi, lotin tili, Rim huquqi, oʻz madaniyat va texnikasi, bogʻdorchilik va uzumchilikni olib kelishdi. Mamlakatda keng koʻchalar, ibodatxonali shaharlar, amfiteatr, triumfal ark, forum, osma quvur, koʻshklar paydo boʻldi. Ularning ayrimlari saqlanib qolgan. Nim bilan Arldagi amfiteatr, Gar koʻprigi, Uch qavatli osma quvur (Pont du Gard) “Maison Carrée” ibodatxonasi Nimdagi, Oranjdagı teatr. Qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishi - uzumchilik va zaytun daraxtlari koʻpaydi.

Eramizning II asridan Galliyaga xristianlik dini kirib kela boshladi. Madaniyat sohasida Galliyaning ishg'ol qilish-latin tilida og'zaki va yozma ravishda ishlatib kelingan kelt shevasini olib tashlash bo'ldi.

Gaulle (Charles de) - *Sharl de Goll (1890-1970)* // 1958-1969-yillarda Fransiya prezidenti bo'lgan Fransiya generali va siyosiy arbobi. Mashhur harbiy akademiya Sen-Sir (Saint-Cyr)da ta'lim olgan. I Jahon urushida jang qilgan va yarador bo'lgan, asirlikdan qochgan, brigada generalligiga o'tkazilgan. 1940-yilda mudofaa vaziri o'rinbosari etib tayinlangan. Marshal Peten imzo chekkan taslim bo'lish to'g'risidagi hukumat qarorini (q. guerre mondiale Deuxième) tan olmadi va Angliyaga chiqib ketib, 1940-yil 18-iyunda radiodan fransuzlarni jangni davom qilishga chaqirdi. Angliyada mamlakatini ozod qilishni tashviqot qilgan va qurolli kuchlarni tayyorlantirgan (q. "France libre;" "France combattante") "Ozod Fransiya" tashkilotini tuzdi (1942-yildan "Kurashayotgan Fransiya"). 1941-yilda Fransuz milliy qo'mitasi rahbari, 1943-yil Aljirda tashkil etilgan (q. Résistance) Xalq qutqaruvi milliy qo'mitasi rahbari, 1944-1946 va 1958-yillarda premer ministr bo'ldi. 1947-yilda "Fransuz xalqi birlashuvi" partiyasini tuzdi. Mazkur partiya keyinchalik "Respublikani qo'llab-quvvatlash birlashuvi" (q. Rassemblement pour la République) deb o'zgartirildi. De Goll tashabbusi bilan V Respublika Konsitutsiyasi (q. Constitution de 1958) yaratildi. U prezident huquqlarini ancha kengaytirdi. Uning boshqaruvi-Aljirga mustaqillik imkonini berdi (1962-yil), Fransiya esa NATO harbiy tashkilotidan chiqdi. De Goll to'la milliy mustaqillik, o'z yadro qurollarini yaratish, "Atlantikadan Uralgacha" yagona Yevropa uchun kurashdi. 1969-yil referendumda mag'lubiyatga uchrab, iste'foga chiqdi. Ajoyib notiq, iste'dodli yozuvchi, «Urush xotiralari», «Umid memuarlari» (Mémoires de guerre, 1954-1956 y.y.; Mémoires d' espoir, 1970) asarlarini yaratgan. Asarlari sof adabiy tilda yozilgan.

Gaulois m *pl-Gallar* // Galliyada yashagan keltlarning (q. Celtes) rimcha nomi. Mohir dehqonlar va chorvadorlar, didli hunarmandlar – gallar qabila bo'lib yashagan. Ularni harbiy yo'lboshchilar va druidlar (q. druides) boshqargan. Gallar

tabiat kuchlarini ilohiylashtirib, toshlar (q. menhir)ga va daraxtlarga sigʻinishgan. Ularning tarqoqligi Rimga mamlakatini bosib olish va oʻz hukmronligini oʻrnatishda qoʻl keldi.

gave *m, hud.* - **togʻ daryosi**// Fransiya gʻarbidagi Pireneya (q.Pyrénées) togʻ oqimi.

Gendarmerie nationale -*harbiy jandarmeriya* // Mamlakat qurolli kuchlari qismi. Mudofaa vaziriga boʻysunadi. Politsiya bilan birga (q.police nationale) jamoat tartibini saqlaydi. Oʻz ichiga departament (gendarmerie départementale) va mobil jandameriyani (gendarmerie mobili), respublika gvardiyasi (q.garde républicaine) va harbiy-havo, harbiy-dengiz jandarmeriyalarini (gendarmérie de lʼair, gendarmerie maritime) jamlagan.

«Génération Ecologie»(G.E.) - *ekologiya avlodi* // Tevarak-atrof himoyachilari harakati, turmush tarzini yaxshilash, tabiiy parklar yaratish, oʻrmon va suv havzalarini ifloslanishdan himoyalash kabi ishlar uchun kurashganlar. 1990-yil atrof-muhitni himoyalash sobiq vaziri Bris Lalond, (Brice Lalonde, 1946-yil tugʻilgan) tomonidan tashkil qilingan. 1992-yil hududiy saylovlarda “yashillar” bilan birga 14,6 % ovoz toʻpladi. Boshqa ekologik partiyalar bilan kelishmovchilik va hamjihatlik yoʻqligi 1994-yil harakat obroʻsiga putur yetkazdi. Oxirgi yillarda “Ekologiya avlodi” bilan Respublikani qoʻllab-quvatlash birlashuvi (q.Rassemblement pour la République) va Fransiya demokratlari ittifoqi (q. Union pour la démocratie française) oʻrtasida yaqinlashuv yuz berdi.

Gironde *f* - *Jironda* // 1) Garonna (q. Garonne) va Bordo shahri yonidagi Dordoni daryolari umumiy etaklari. Uzunligi 75 km, eni 10 km atrofida. 2) Akvitaniya (q.Aquitaine) hududidagi departament. Markazi-Bord.

girondins (Gironde) *m pl* – *jirondistlar (Jironda)* // Buyuk Fransuz revolyutsiyasi davridagi, burjuaziya dehqonchiligi va savdo ishlab chiqarish foydasini koʻzlagan siyosiy guruh. Jirondistlar yoʻlboshchilari taniqli jamoat arbobi Byuz (1760-1794), advokat Verno (1753-1793 y.), jurnalist Brisso (1754-

1793), faylasuf va matematik Kondorse (1743-1794 y.) va boshqalar. Eng avval yoʻlboshchilardan biri sharafiga brissotiyaslar deb atalgan. 1792-yil sentabrgacha Yakob klubiga (q.Club des jacobins) kirib, qonunchilik Majlisining (q.Assemblée législative) soʻl qanotini tashkil etishgan. 10-avgust 1792-yil monarxiya agʻdarilgach, konventining (q.Convention) oʻng qanoti boʻlib, montanyarlar bilan jangda (q.montagnards) Revolyutsiya rivojiga qarshilik koʻrsatdilar. Parij kommunasi (q. Commune de Paris) boshqargan xalq qoʻzgʻoloni (1793-yil 31-may-2-iyun) paytida yakson qilingan. 1793-yil oktabrda deputat - jirondistlar (21 kishi) qatl etildi. Termidorian toʻntarishi (1794-yil)dan keyin jirondistlar kontrevoliyusionerlarga birlashib oldilar.

gisant m - (*gesir-yotmoq, tinchlanmoq*) vafot qilgan odamning haykal portreti-yotgan holda **oʻrta asr yodgorligi** // Fransiya qirollarining Parij yaqinidagi Sen-Deni soborida (79-qirol, oila aʼzolari, taniqli harbiy boshliqlar q. Saint-Denis), hamda Plantagenetlar oilasi Fontevro abbatligi cherkovida, bu yerda yana Genrix II, Angliya qiroli, uning rafiqasi Alenora Akvitanskaya, ularning oʻgʻli Richard Yoʻlbars Yurak va boshqa oʻgʻlining rafiqasi Izabella Angulemskayalar dafn qilingan.

Giscard dʼEstaing (Valéry) - *Valery Jiskar dʼEten* (1926-yil tugʻilgan)// Siyosiy arbob, V Respublikaning (q. V République) 3-prezidenti (1974-1981-yillarda). Pompidu (q. Pompidou(Georgrs) – moliya va iqtisod vaziri (1969-1974-yilda). U inflyatsiyaga qarshi kurash va moliyani barqarorlashtirish rejasini taklif qildi va bajardi. 1966-yil “Mustaqil respublikachilar milliy federatsiyasi” siyosiy partiyasini tuzdi. U boshqargan davr jamiyat-liberallasuvi va mamlakat siyosiy hayotida keskinlik kamayganligi qayd etilgan. “Fransiya demokratiyasi ittifoqi” harakatining (1978-1998-yillarda) va partiyalar konfederatsiya raisi. Jiskar dʼEten-Yevropa ittifoqi tuzishning (q.Union de l’Europe) tashabbuskorlaridan biri, u “Fransiya demokratik ittifoqi” bilan “Respublikani qoʻllab-quvvatlash tashkiloti”ning (q.Rassemblement pour la République) 1989-yilgi Yevropa parlamenti saylovini boshqardi. Oʻzining siyosiy

qarashlari va kurash tajribasini “Fransuz demokratiyasi” (q.“Démocratie française”1976) va “Hukumat va Hayot” (“Le Pouvoir et la Vie”, 1988-1991) kitoblarida bayon qilgan.

óGlorieuses (les trente)ô -óAjoyib oãttiz yillikô (1945-1975) // Urushdan keyingi Fransiya iqtisodining doimiy o‘sishi bilan ajralib turgan o‘ttiz yil. Atama fransuz iqtisodchisi J.Furaste (1907-1990)ga tegishli.

óGlorieux (les trois)ô - óUch ajoyib kunô// Iyul Revolyutsiyasi ro‘y bergan (q. Révolution de juillet) uch kun -1830-yil 27, 28, 29 – iyun kunlari.

goguette f –goget // XIX asr 20-60-yillarida oddiy xalq uchun kabare. Norozilik, tanqid bilan farq qilib, hukumat tomonidan ta’qib etilgan. Bu kabareda tayyorgarliksiz muhim kupletlar kuylashgan. Shansone (q.Chansonnier) shu yerdan boshlangan.“Hayvonot bog‘i” va “Qo‘shiqlar musobaqasi” (“La Ménagerie, La Lice Chansonnière”) Parijning eng mashhur gogetlari hisoblanadi.

golfe de Gascogne - Biskay qoãttigã // Atlantika okeanining Akvitanিয়া (q.Aquitaine) sohillari bilan Ispaniya shimoliy sohillari qo‘ltig‘i. Oldingi nomi – golfe de Biscaye Ispaniyaning qo‘ltiqqa tutash 3 ta bask provinsiyalaridan birining nomi bilan atalgan.

gothique (art) - gotika sanãati // G‘arbiy Yevropa (XII-asr ikkinchi yarmi – XVI-asr boshi) san’atidagi yo‘nalish, roman uslubi o‘rnini egallagan (q.roman art). Vatani Il-de-Frans (q.Ile-de-France) bo‘lib, shu yerdan bu uslub butun Yevropaga tarqalgan. ”Gotika” nomi Italiya san’atshunoslari tomonidan varvarlik deb bu uslubga yomon baho berishgan. Cherkovlar qurilishida o‘z aksini namoyon qildi va shaharlar ko‘paygach, zaruriyat ko‘paydi. Roman uslubida deraza-katta oynalar qo‘yish mumkin bo‘lmagan bo‘lsa, bu gotik uslubida katta hajmdagi derazalar, arklar qurish mumkin bo‘ldi. Bezakning bosh elementi ko‘p gullidumaloq vitrajlar (masalan, Sent-Shapel ibodatxonasi-Sainte-Shapelle – Bibi Maryam cherkovida, Notre-Dâme de Paris). Toshga naqsh berishda haykaltaroshlik bezaklari (q.gisant)dan foydalanildi. Gotika rivojlanishini 3-

davrga, ya'ni sof avvalgi (XII-XIII-asrlar) (gothique pur), yetuk XII-XIV asr (gothique rayonnant) va jo'shqin gotika XV-XVI-asrlar (gothique flamboyant)ga ajratishadi.

gouvernement *m* – *hukumat* // Premier ministr (q. premier ministre) tomonidan tuziladi va prezident (q. Président de la République) buyrug'i bilan tayinlanadi. Premier ministr, davlat vazirlari, vazirlar va davlat kotiblaridan tuziladi. Vazirlar soni, ularning vazifalari har hukumat tomonidan o'zgartiriladi. Hokimiyatni bo'lish prinsiplariga ko'ra, hukumat a'zolari bir vaqtning o'zida deputat yoki Senator bo'la olmaydi, ammo o'z vazifasi bilan mer mandati yoki boshqa mahalliy saylov vazifasini qo'shib olib borishi mumkin.

gouvernement provisoire de la République française (GPRF) - *Fransiya respublikasi vaqtincha hukumati* // 1943-yil 3-iyunda Algirda (q. Résistance) tuzilgan xalq qutqaruvi milliy Fransiya qo'mitasi bazasida tashkil topdi. Sharl de Goll (q. Gaulle Charles de) boshchiligidagi vaqtincha hukumat dasturi respublika qonunchiligini tiklash, mehnatkashlar turmush tarzini yuksaltirish, banklarni milliyalashtirish, og'ir sanoat, transport vositalarini yuksaltirish kabi vazifalarni o'z oldiga maqsad qilgan. Ta'sis Majlisi (1945-yil oktabr) saylovidan keyin hukumatga kommunistlar, sotsialistlar, Xalq-respublika harakati vakillari a'zo bo'ldi. Fransiya tarixida ilk bor 5ta vazirlik postini kommunistlar egallashdi. Fransiya kommunistik partiyasi bosh kotibi (q. Parti communiste français) Moris Torez (1900-1964), Premier ministr o'rinbosari qilib tayinlandi. Muhim ijtimoiy-iqtisodiy reformalar amalga oshirildi: ijtimoiy ta'minot davlat tizimi yaratildi, 40 soatlik mehnat haftasi-haq to'lanadigan ta'til bilan tiklandi va hk. Biroq Ta'sis Majlisidagi kelishmovchiliklar sababli de Goll 1946-yil 20-yanvarda iste'foga chiqdi. Sotsialist F.Guen (1884-1973), keyin (1946-yil iyundan) Xalq-respublika harakati yo'lboshchisi Jorj Bido (1899-1983) lar hukumat boshlig'i bo'ldilar. 1946-yil kuzda yangi konsitutsiya qabul qilindi. Vaqtincha hukumat o'zining vakolatini qo'ydi, IV Respublika (q. République IV)ning 12 yillik davri boshlandi.

grades universitaires -*ilmiy daraja* // Litsey va universitetlarni muvaffaqiyatli yakunlangnligi to'g'risidagi diplom. Universitet, sud, ma'muriy organlarda ma'lum vazifalarni, erkli kasblarni egallash huquqini beradi (q.professions libérales). Hozirgi davrda asosiy universitet ta'limi va yo'nalgan mutaxassislik hamda bakalavr (q.baccalauréat), umumiy universitet ma'lumoti (q.diplôme d'études universitaires générales), liseniat (q.licence), magistr (q.maitrise), chuqur ta'lim to'g'risida (q.diplôme d'études approfondies), fan doktori (q.doctorat) va mutaxassisligi bo'yicha diplomlar: ilmiy-texnik ma'lumot (q.diplôme d'études universitaires scientifiques et techniques), texnologik universitet diplomi (q.diplôme universitaire de technologie) va boshqalar beriladi. Ilmiy darajani olish uchun Oliy ta'lim va ilmiy ishlar bo'yicha Davlat Kengashi muhokama Majlisidan keyin vazirlik tomonidan tasdiqlangan (Conseil national de l'enseignement supérieur et de la recherche) Universitet ilmiy kengashi qarori, shuningdek o'quv okrugi (q. académie) rektori roziligi kerak.

grand couturier ñ *kutyure, modalar uyi boshligi* // Eng birinchi va eng mashhur ingliz Charlz F.Uort (1825-1895), 1846-yilda Parijga ko'chib kelgan va 1858-yilda birinchi Modalar Uyini ochgan. U birinchi bo'lib o'z modellarini manekinshitsalarga kiydirib, defile (défilé) tushunchasini kiritgan. Uort o'g'li Gaston bilan Parij palatasini tashkil etdilar. Parij palatasida kutyure nomi uchun mezon yaratilgan, modadagi kolleksiyalar mavsumiy kalendari va gazlamalardan namunalar, ko'ylaklar bichimlari kartotekasi mavjud bo'lgan.

Grande Arche - *Katta Ark* // Parijning Defans (q.Défense) rayonida joylashgan. Daniyalik me'mor Otto fon Sprekelsen (1929-yil tug'ilgan) loyihasiga ko'ra 1789-yil qabul qilingan. "Fuqaro va inson huquqlari deklaratsiyasi" (q.Déclaration des droits de l'homme et du citoyen) sharafiga barpo etilgan. 1989-yil Buyuk fransuz revolyutsiyasining 200 yilligi nishonlanayotgan kuni tantanali ochilgan. Og'irligi 300 ming tonnalik, yon tomoni 110 metrlik ichi bo'sh kubni tashkil qiladi. 2 ta 35 qavatli minorada idora xonalari joylashgan. Yuqori qismida,

“Inson huquqlari xalqaro fond”i joylashgan. Arklar oldida zamonaviy san’at muzeyi bor.

óGrande Muetteô - **óBuyuk soqovô** // Hukumat siyosatiga betaraf bo‘lishi lozim bo‘lgan armiyani xalq shu laqab bilan atagan.

grande surface - *katta universam* // Fransiya - oziq-ovqat sotiladigan katta unversamlar (q.hypermarché, supermarché) tashkil qilgan Yevropa davlatlaridan biri.

Grandes écoles - *Oliy maktablar* // Maxsus oliy o‘quv yurtlari bo‘lib, ularning mavjudligi universitetlar bilan birgalikda, fransuz oliy ta’lim tizimining xususiyati hisoblanadi. XVIII – asrda paydo bo‘lgan. Iqtisodiy faoliyatning barcha sohasi uchun oliy ma’muriy kadrlar va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydi. Davlat va xususiy oliy maktablar mavjud. Universitetlardan farqi-talabchanlik bilan tanlov (q.classes préparatoires aux Grandes écoles) o‘tkazadi. Eng nufuzli Oliy maktablar stipendiya to‘laydi. Bitiruvchilar davlat xizmatida kamida 8-10 yil ishlab berish yoki o‘zining o‘qishiga ketgan xarajatlarni to‘lashi kerak. O‘quv muddati 2-5 yil. Oliy maktablarning 3 xili bor: 1) Ilmiy texnik yo‘nalishidagi davlat oliy maktabi, harbiy va fuqaro muhandislari (q. Ecole polytechnique, Ecole Nationale supérieure des Mines de Paris, Ecole nationale des ponts et chaussées, Ecole nationale d’administration) tayyorlaydi; 2) Davlat pedogogika (q. Ecole normale supérieure); 3) Xususiy tijorat (q.Ecole de hautes études commerciales).

grandes vacances ñ «*katta ta’illar*» // Yozgi ta’til. Hokimiyatni xalq fronti (front populaire) boshqarayotgan 1936-yil fransuzlar ilk bor 2 haftalik to‘lanadigan ta’tilga chiqdilar. Hozirgi kunda yozgi ta’tilda o‘rtacha 3 hafta dam olib, qolgan kunlarini qishki uik-end (week-end) lariga qo‘shildi. Yozgi ta’til odatda iyul-avgust oylarida olinadi. Fransuzlarning yarmiga yaqini ta’tilni dengizda (Atlantika okeani, O‘rta Yer dengizi), chorak qismi-qishloqda, qolganlari-qo‘shni mamlakatlar (Ispaniya, Italiya) da o‘tkazishadi.

grand magasin ñ *univermag* // Eng yirik va mashhurlari-“les Galeries Lafayette”, “Le Printemps”, “Le Bazar de L’Hotel de Ville (BHV)”, “Le Bon Marché”, “La samaritaine”. Ular Parij markazida joylashgan bo‘lib, shaharchalar va provinsiyalarda filiallarga ega. 30-yillarda tashkil qilingan «Prisunic» bilan «Monoprix» magazinlari arzon narxlari bilan shuhrat qozongan.

grand opéra - *katta opera* // XIX-asr 20-40-yillarida Fransiyada paydo bo‘lgan romantik opera. Qahramonlik syujeti, tarang mushkul harakatlar va teatr sohasi hashamdorligi bilan ajralib turadi. Klassik obrazlari quyidagi operalar: J.Fromantal Galeva “Jidovka”, (1835), “Karl VI” (1843), J.Meyerber “Gugenotlar” (1836), “Payg‘ambar” (1849).

Grand Siècle - *Buyuk asr* // Lyudovik XIV davri (1638-1715, 1643-yildan boshqargan), absolyutizm gullab-yashnagan, iqtisodning yuksalishi, yirik manufaktura ishlab-chiqarish yo‘lga qo‘yilishi, san’at (taniqli asarlar yaratilgan art classique) boshqaruvni markazlashtirish davri.

grands crus - *Oliy navli markali vinolar* // Ma’lum haroratda saqlangan, ta’mi vaqt o‘tgan sayin yaxshilanadi. Qat’iy cheklangan miqdorda 3 ta asosiy vinochilik rayonda ishlab chiqariladi: Burgundiya (q.Bourgogne), Shampän (q.Champagne-Ardenne), Bordo (Bordeaux). Burgund vinolari (les bourgognes) Côte d’Or departamentidagi kichkina uzumzorlardan-vinochi dehqon oilalaridan keladi. Eng mashhurlari burgundy romanée-conti va richebourg vinolari. Bordo vinolari (les bordeaux) yirik xo‘jaliklarda (fransuz bankirlari, ingliz va amerika millionerlari va Atlantika bilan Jironda orasidagi Medok yarim oroli kazo-kazolari xo‘jaliklari)da tayyorlanadi. Bu vinolardan eng saralari Château-Margo, Château-Lafite-Rothschild, Château-Latour. Shampän adirlarida vishillaydigan vinolar uchun uzum yetishtiriladi. Tayyorlash texnologiyasini XVII-asrda monax Perinon o‘ylab topgan. Eng yaxshilari: La veuve Cliquot Ponsardin, Krug, “Cristal”de Roderer, Dom Pérignon.

grotte de Lascaux - *Lasko gʻori* // Fransiya janubiy-gʻarbida Dordon departamentidagi tosh asri rasmlari saqlangan gʻor 1940-yil ochilgan. Qubbasi va devorlarida tadqiqotchilar 800 ta rangli suratlar-kiyik, togʻ echkisi, buzoq, karkidon, mamont kabi hayvonlarning 17 ming yil oldin chizilgan rasmlarini topishdi.

groupe de Médan -*omedan guruhi*// E.Zolya (1840-1902) naturalistik-estetik gʻoyalarini qoʻllashgan va Medan atrofida toʻplangan yosh yozuvchilar guruhi. Hozir bu yerda muzey bor. Guruhga P.Aleksis, G.Sear, L.Enik, Sh.R.Gyuismans va Gi de Mopassan aʼzo boʻlishgan. 1880-yilda “Medan oqshomlari” toʻplami chop etilgan; unga 6 ta novella kirgan. Mopassanning “Doʻndiq” (“Boule de suif”) novellasi ham u yerdan oʻrin olgan.

Guadeloupe *f* - *Gvadelupa* // Fransiya zamorsk departamenti (q.departements d'outre-mer). Karib dengizida, Kichik Antil orollari arxipelagida joylashgan. Bosh (katta) orollari; Basse-Terre yoki Gvadelupa va Grande Terre. Yer maydoni 1,8 ming kv km. Hududiy markazi-Bas-Ter (Bass-Terre), iqtisodiy markazi-Puent-a-Pitr. Aholisi asosan afrikaliklar va mulatlar. 1990-yil hisobiga koʻra aholisi 387 000 kishi. Oq tanlilar iqtisodni boshqaradi. Iqtisodning asosini qishloq xoʻjaligi (banan, kokos yongʻogʻi, ananas, shakarqamish, chorvachilik), baliqchilik va sayyohlarga xizmat koʻrsatish tashkil etadi. Oziq-ovqat (rom(kuchli spirtli ichimlik ishlab chiqarish)) va yengil sanoat rivojlantirilmoqda. 1989-yil Milliy park ochilgan. Ishsizlik yuqori boʻlgani uchun mamlakat Yevropa ittifoqidan yordam oladi. Asosiy dini-katolik. X. Kolumb ekspeditsiyasi Gvadelupaga 1493-yilda borgan, 1635-yildan Fransiya koloniyasiga Afrikalik qullar koʻchirib kelingan. 1946-yil Gvadelupa zamorsk departamenti maqomini oldi. Hukumatga Fransiya respublikasi komissariyati tomonidan keng vakolatlar berilgan. Mahalliy boshqaruv organlari-Bosh va hududiy kengashlar. Davlat tili-fransuz, hamda kreol (patua) tili ham qoʻllaniladi.

guerre de Cent Ans - *100-yillik urush* // Angliya bilan Fransiya o'rtasidagi (1337-1453) Fransiya va Flandriya janubiy - g'arbida Giyen gersogligi yeri ustidagi urush. Ingliz qirolu Eduard III (1327-1377) Fransiya taxtiga da'vogarligi urushga sabab bo'ldi. Harbiy harakatlar Fransiyada bo'lib o'tdi va mamlakatni xonavayron qildi. Soliqlar ko'paytirildi va shaharliklar, dehqonlar noroziligini keltirib chiqardi (q.Jacquerie). Mamlakat o'zaro nizodan charchadi va tez orada butun shimol va janubiy-g'arb inglizlar hukmronligiga, shimoliy-sharq bilan sharq-ularning ittifoqdoshi Burgund gersogi qo'liga o'tdi. Bir necha o'n yilliklarga Fransiya mustaqilligini yo'qotdi. 1428-yil Janna d'Ark qo'shinlarni boshqarganda (q.Jeanne d'Arc) fransuzlar foydasiga hal qiluvchi burilish ro'y berdi. Urush 1453-yil inglizlarning taslim bo'lishi bilan tugadi. Fransiya mustaqilligi to'la tiklandi, ingliz qirolligining Fransiya taxtiga da'vogarlik qilishlariga chek qo'yildi. 1558-yilgacha Fransiyada Angliya shahri-Kale saqlanib qoldi.

guerre de Sept Ans - *Yetti yillik urush* // Bir tomondan Fransiya, Avstriya, Rossiya, Ispaniya, Saksoniya, Shvetsiya, boshqa tomondan Prussiya, Buyuk Britaniya, Portugaliya (1756-1763) o'rtasidagi urush. Angliya bilan Fransiyaning koloniyalar ustida va siyosiy to'qnashuvlarda Prussiya bilan Avstriya, Fransiya bilan Rossiya o'rtasida keishmovchiliklar sababli kelib chiqqan. Urush Buyuk Britaniyaning Fransiya ustidan koloniya uchun jangda g'olib kelgani bilan yakun topdi. 1763-yilgi Parij tinchlik shartnomasi bo'yicha Buyuk Britaniyaga Fransiyadan Kanada, Sharqiy Luiziana, Hindistondagi fransuz koloniyalarining katta qismi o'tkazildi. Xalqaro maydonda Fransiyaning obro'si pasaydi.

guerre d'Indochine ñ *Hindixitoy urushi* // Fransiya koloniya hukmronligini saqlash uchun Laos, Vetnam, Kambodjedagi urush (1945-1954) Vetnam xalqining qahramonona kurashi, Fransiyaning katta harbiy talofatlari, ayniqsa Denbenfudagi butundunyo tinchliksevar kuchlari Fransiyaning 1954-yilgi

hindu-xitoy bo'yicha Jeneva shartnomasini tuzishga majbur qildi va harbiy harakatlarga chek qo'yildi.

guerre franco-allemande (1870-1871) - *1870-1871-yillarda fransiya-prussiya janggi* // Prussiya boshchiligidagi Fransiya bilan german davlatlari (Bavariya, Saksoniya va hakoza) o'rtasidagi urush. Urushdan ikki tomon ham o'z manfaatlarini ko'zlagan: Napoleon III Imperiya obro'sini ko'tarishni, Prussiya hukumati kansler Bismark boshchiligida Fransiyaning Germaniya bilan birlashishi uchun asosiy to'siq deb hisoblar edi. 1870-yil 1-sentabrda Napoleon III boshchiligidagi fransuz armiyasi Sedan yonida tor-mor qilindi, imperatorning o'zi esa, 83 ming nafar askari bilan asirga tushdi. Ertasi kuni fransuz armiyasi taslim bo'ldi. Bu mag'lubiyat II Imperiyaning (q. Empire (Second)) qulashini tezlashtirdi. 1871-yil 10-mayda Frankfurt tinchligi tuzildi, unga ko'ra Fransiya 5 ming frank kontributsiya (urushda yengilgan davlat g'olib davlatga to'laydigan tovon) to'ladi va Germaniya uchun Elzas (q. Alsace) bilan Sharqiy Lotaringiyaning (q. Lorraine) bahridan o'tdi.

guerre mondiale (Deuxième) - *Ikkinchi Jahon urushi* // Bir tomondan fashistlar Germaniyasi, Italiya, militarist Yaponiya bilan, boshqa tomondan (1939-1945-yillar) Buyuk Britaniya, Fransiya, SSSR, AQSH, Xitoy o'rtasidagi jang. 1939-yil 1-sentabrda fashist qo'shinlari Polshaga bostirib kirdi. 3-sentabrda Buyuk Britaniya bilan Fransiya Germaniyaga urush e'lon qildi, biroq 9 oy davomida faol harbiy harakatlar olib bormadi; bu davr "antiqa urush" (q. drôle de guerre) nomini oldi. 1940-yil 10-may nemis qo'shinlari Belgiya, Gollandiya, Lyuksemburgga bostirib kirib, Fransiya ham yurish boshladi. 5 hafta ichida fransuz armiyasi yakson qilindi. 14-iyunda Parij dushmanga taslim bo'ldi, 1940-yil 22-iyunda marshal Peten Fransiyaning taslim bo'lganligi to'g'risidagi aktga imzo chekdi. Uning shartiga ko'ra, Elzas bilan Lotaringiya departamentlari Germaniyaga o'tdi, Shimol va Pa-de-Kale departamentlari esa, "Belgiya bilan Shimoliy Fransiya harbiy gubernatorligi" boshqaruvidagi qismga aylandi. Fransiya 2 mintaqasi: Vishi hukmronligi (q. régime Vichy) nazorati ostidagi shimoliy, bosib olingan (zone

occupée) va janubiy “ozod” (zone libre) zonaga bo‘lindi. Mintaqalar o‘rtasida chegara chiziq (ligne de démarcation) o‘tkazildi; u mintaqadan bu mintaqaga o‘tish punktlari bosqinchilar tomonidan nazorat qilindi. 1942-yil Afrikadagi ittifoqdoshlarini ko‘chirgach, nemislar Fransiyaning janubiy qismini ham bosib oldilar. Mamlakatda kuchli Qarshilik (q.Résistance) milliy-qutqaruv harakati ishlay boshladi. Gitlerchilarning sovet frontidagi mag‘lubiyati va ittifoqdoshlarning harakatlari (q.Débarquement allié), Qarshilik milliy qutqaruv harakati, hammasi birgalikda Fransiyaning bosqinchilardan ozod qilishga olib keldi. (1944-yil oxirida) Fransiya Germaniya bilan Yaponiyaning taslim bo‘lganligi haqidagi aktga imzo chekdi va BMT ta‘sischi-a‘zosi maqomini oldi va Xavfsizlik Kengashi doimiy a‘zosi bo‘ldi. Fashistlar Germaniyasi ustidan qilingan g‘alaba kuni (8-may 1945-yil) davlat bayrami hisoblanadi va har yili Fransiyada nishonlanadi (q.fête de la Victoire).

guerre mondiale (Première) - *Birinchi Jahon urushi* // Yevropaning asosiy ittifoqchi-mamlakatlari o‘rtasidagi jang: bir tomondan, Germaniya va Avstro-Vengriya, boshqa tomondan Antanta (Angliya, Fransiya, Rossiya) 1914-1918-yillar. Barcha jang qiluvchi davlatlar bosqinchilik maqsadlarini ko‘zlagan edi. Fransiya maqsadi: Saar basseyini bosib olish va Elzas (q.Alsace) bilan Lotaringiyani (q.Lorraine) (franko-prussiya urushida Germaniya tortib olgan) qaytib olish edi. Fransiya maydoni harbiy harakatlar o‘tkazilagan asosiy yer bo‘ldi. Urush Antanta mamlakatlari g‘alabasi bilan yakunlandi. 1918-yil 11-noyabr Kompen shahri yaqinida Marshal Fosh-antanta G‘arbiy fronti Bosh qo‘mondoni, Germaniya bilan kelishuv sulhiga imzo chekdi. Keyinchalik bu kun davlat bayrami (q. fête de l’Armistice) bo‘ldi. Kompen sulhi shartiga ko‘ra Fransiya o‘ziga Elzas bilan Lotaringiyani qaytib oldi, Reynning so‘l sohiliga Saar basseyini bilan, bir qator german koloniyalari va 3,1 milliard oltin marka reparatsiyasi (urushdan ko‘rilgan zararni urushni boshlagan va yengilgan davlat to‘laydigan tovon) sifatida oldi. Versal tinchlik shartnomasi (Traité de Versailles) 1919-yil 28-iynda imzolangan, Birinchi Jahon urushini rasmiy tugatdi, g‘oliblar foydasiga tinchlik

chegarasini mustahkamladi. Germaniya magʻlubiyatidan keyin Fransiya Yevropadagi eng kuchli harbiy davlat boʻlib, agrar industrial davlatdan industrial agrar mamlakatga aylandi.

guerres napoléoniennes - *Napoleon janglari* // Mamlakat ichkarisidagi qarama-qarshiliklarga barham berib, imperator boʻlib Napoleon I 1805-yildan boshlab Yevropa davlatlariga – Angliya, Avstriya, Prussiya, Rossiyaga bosqinchilik janglari uyushtirib, bir qator gʻalabalarga erishdi. 1805-yil 16-oktabrda Ulm yonida Avstriya armiyasi yakson qilindi; 2-dekabr Austerlits yaqinida rus va avstraliyaliklarga qattiq zarba berildi; 1806-yil 14-oktabrda Yevropadagi eng yaxshi armiya sanalgan Prussiya armiyasi Yen va Auershtedtdagi ikkita jangda tor-mor qilindi. 1806-1807-yillarning qishida Napoleon Polshaga, rus armiyasiga qarshi urushni davom ettirdi. Preysish –Eylandagi qonli jang hech kimga gʻalaba keltirmadi, biroq Fridland yonida Napoleon jangda gʻalaba qozondi va Aleksandr I ni Tilzit tinchlik sulhini imzolashga majbur qildi. Bunga koʻra Prussiya Elbadan gʻarbgacha boʻlgan barcha yeridan ayrildi. Trafalgarda (1805-yil 21-oktabr) fransuz va ispan flotlarining vayron boʻlganidan keyin Napoleon Angliyaga desant tushirish fikridan voz kechdi va uni iqtisodiy jihatdan singdirishga qaror qildi. Buning uchun Pireney yarim orolini bosib olib, Yevropaning hamma bozorlarini Angliya uchun yopib qoʻydi. 1809-yil 6-iyulda Vagran yonida Napoleon yana avstraliyaliklarni tor-mor qildi. 1812-yil iyunda rus yurishi (q. Campagne de Russie) – Napoleon uchun oxirgi boʻlgan urush boshlandi.

guerres de religion – *diniy (gugenotlar yoki fuqarolar) urushlar* // Urush XVI asr ikkinchi yarmida katolik va gugenotlar (q.hugenots) oʻrtasida olib borilgan. Oʻzaro janjal chiqishiga Genrix II (1519-1559) oʻlimidan keyin qirollik hokimiyatining susayishi sabab boʻlgan. Ona qirolicha Yekaterina Medichi (1519-1589-y.y.) oʻzining voyaga yetmagan oʻgʻillari Fransisk II va Karl IX nomidan mamlakatni oʻzi boshqardi. Bu vaqtga kelib yirik feodallar siyosiy va diniy guruhga boʻlindilar: shimol va shimoliy-sharqda-katolik; uni Giza boshqargan;

Lotarengiya gersoglari-janubda gugenotlarni Navarra qiroli Antuan Burbon rahnamoligida, Konda shahzoda va Kolini admirallari boshqarishgan. Tarixchilar 9 ta gugenot janglarini sanab berishadi. Bu janglar 30 yildan ortiq (1562-1598) davom etgan va ayovsizlik, beshafqatlik, fanatizm bilan ajralib turgan. 1572- yil 24-avgust eng fojiali epizodlardan biri Varfolomeyev kechasi (q. Saint Barthélemy) -gugenotlarni ommaviy qirib tashlangan tun. 1589- yil Genrix III Valua o'ldirilgandan keyin, Genrix Navarskiy (1553-1610, 1589-yildan boshqargan) qiroli bo'ldi. U Burbonlar (q. Bourbons) dinastiyasidan bo'lib, 1593-yil katolik dinini qabul qildi. U hokimiyatga kelgach, diniy urushlar barham topdi. 1598-yilda Nant farmoniga muvofiq (Edit de Nantes) katolitizm davlat dini deb e'lon qilindi, gugenotlarga esa o'z diniga sig'inish huquqi berildi. Diniy urushlar fojiasi adabiyot va san'atda o'z aksini topdi, masalan, A. Dyuma „Qirolicha Margo“, „ La reine Margot“, 1845, „Grafinya de Monsoro“, („La Dâme de Monsoreau“ 1846); „45“ (1847-1848); romanlarida, Prosper Merime „Karl IX saltanatining yilnomasi“ (Chronique du règne de Charles IX , 1829) romanida Meyerberning „Gugenotlar“ („Les Huguenots“ 1836) operasida ko'rsatib berilgan.

guillotine *f - gilotina* // bosh olinadigan jodi. Hukm qilinganlarning boshini tanasidan judo qilish asbobi. XII-XIII asrlardan beri ma'lum. Bosh shtatlar generali (q.Etats généraux), vrach J.Giyoten (J. Guillotin, 1738-1814) taklifiga ko'ra, Fransiyada Buyuk fransuz Revolyutsiyasi (Révolution française) vaqtida (nomi ham shundan kelib chiqqan) joriy qilingan. Bunday mashinani yaratish haqida Qonunchilik Majlisi (q.Asssemblée législative) ning 1792- yil 25- martdagi yig'ilishida qaror qabul qilindi. 1792- yil 25- aprel Grev maydonida ilk bor ishlatildi. Keyinchalik Revolutsiya maydoniga (Kelishuv maydoni) ko'chirildi va bu yerda 1793-yil 21- yanvar qiroli Lyudovik XVI boshi tanasidan judo qilindi. XIX – XX asrlarda jinoyatchilarni qatl qilishda foydalanilgan. 1981-yilda Fransiyada o'lim jazosi bekor qilindi.

Guyane Française - *Fransuz Gviyanasi* // Janubiy Amerikaning Atlantika okeani sohillaridagi Fransiya zamorsk departamenti (q.départements d'outre mer). Yer maydoni 91000 km². Aholisi (1995- yil hisob-kitobiga ko'ra, 117 000 kishi)-gviyanliklar (Guyanais), asosan kreollar, negrlar, hindular. Ma'muriy markazi-Kayenna. Iqtisodiy qoloq agrar mamlakat, metropoliyaga moliyaviy qaram. Yer qa'ri mineral resurslar (boksit-alyuminiy rudasi, oltin, rux, platina)ga boy, biroq uni aniqlash va qazib olish sust. 90 foiz maydoni qimmatbaho daraxtli – eksport qilinadigan o'rmon bilan qoplangan. 1964-yil Kuruda Kosmik tadqiqotlar milliy markazi (q.Centre National d'études spatiales) tashkil qilingan. Kosmik markaz sohil bo'yi zonalarini iqtisodini yuksaltirdi, biroq aholining ijtimoiy va madaniy integratsiyasi muammosini hal qilmadi. Ishsizlik bu yerda metropoliyadagidan yuqoriroq. Gviyana 1499-yil Ispanlar tomonidan kashf qilingan. 1604-yilda Fransiya uni mustamlakaga aylantira boshladi va XVII asr oxirigacha davom etdi. Uning hududi uchun yana Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Portugaliya davlatlari kurashdilar. 1817-yil batamom Fransiya mustamlakasi bo'ldi. XX asr o'rtalarigacha siyosiy mahbuslar surgun qilinadigan joy bo'lgan. 1946-yilda zamorsk departamenti maqomini oldi. O'zini - o'zi boshqaruv organlari: Bosh va hududiy kengashlar. Fransiya hukumati Respublika komissari tomonidan taqdim qilingan. Fransiya parlamentida 2 nafar deputat va Senator mavjud. Rasmiy tili-fransuz.

H

habitat français - *Fransiyada uy-joy qurilishi* // Qishloq aholisini shaharga ommaviy ko'chirish (q.exode rural) munosabati bilan, immigrantlar oqimi va faol urbanizatsiya natijasida 1950-1970-yillarda katta shaharlar (ayniqsa, Parij, Lion, Ruan) atrofida uy-joy qurish ishlari juda avj oldi. Yirik "Yotoq shaharlar" (cité-dortoir), shahar atrofi aholi massivlari, "muhim shahar qurilish zonalarini" (zones à urbaniser par priorité); munisipial turar joy (habitations à loyer

modéré)lar vujudga keldi. 70-yillardan boshlab arzon turar-joy oʻrniga yuqori sifatliylari qad rostladi. Shaxsiy uylar (maisons individuelles) va shahar atrofi uylari (q.pavillon) qurildi. 1984-yildan boshlab, iqtisodiy inqiroz sababli qurilish sekinlashdi. Fransuzlarning turmush sharoitlari ularning ijtimoiy mansubligiga bogʻliq. Shahar markazi (centre-ville)da chiroyli “burjua kvartiralar” eski rayonlar bilan qoʻshni boʻlib (kam taʼminlangan aholi qismi hech qanday qulayliklarsiz yashashmoqda) qad koʻtargan. Shahar atrofida –beton minorali turar-joylarda mayda savdogarlar, xizmatchilar, ishsizlar va immigrant-ishchilar istiqomat qilishadi. Shahar atrofida yoʻl boʻylab moddiy taʼminlangan kishilarning shaxsiy uylari joylashgan.

habitations à loyer modéré (H.L.M.) - *arzon-garov turar-joy* //

Kvartira toʻlovi aniq chegaradan oshmaydigan munitsipial turar-joylar. II Jahon urushidan keyin asosan yirik shaharlar ishlab chiqarish joylarida davlat mablagʻi hisobiga qurilgan. Ularda 3 mln.ga yaqin kam taʼminlangan oila istiqomat qiladi. Kam ish haqi oladigan oilalarga moʻljallangan. Qurilishi davlat tomonidan moliyalashtiriladi.

haute couture - *yuqori moda* // Shaxsiy buyurtma boʻyicha ustaxonalarda qoʻl bilan yuqori badiiy modeldagi kiyimlar tayyorlash sanʼati. Tikish sirlari avloddan-avlodga oʻrgatiladi. Parij-yuqori moda poytaxti sanaladi. Hunarmandchilik anʼanalari 150 yildan beri kelmoqda va Charlz F.Uort (q.grand couturier)ga taqaladi. Yuqori moda korxonalari roʻyxati har yili Sanoat vazirligi komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi. Ularda 15 nafardan ortiq modelʼer boʻlmasligi kerak. Har yili ular koʻrgazma namoyishida (bahor-yoz, kuz-qish), ish va tantanalar kiyimi namoyishlarida (har namoyish uchun kamida 35 xil modeldagi kiyim boʻlishi shart) qatnashishadi. Fransiyada 19 ta yuqori moda firmalari mavjud: «Balmain», «P.Cardin», «Ch.Dior», «Carven», «Chanel», «L. Féraud», «Givenchi», «Lecoanet», «Henant», «Ch. Lacroix», «Lapidus», «Guy Laroche», «Hanae Mor», «Paco Rabanne», «Nina Ricci», «Ives Saint-Laurent», «J.L.Scherrer», «Torrente», «Ungaro».

Haute-Normandie - *Yuqori Normandiya* // Mamlakat shimoliy-g'arbida Normandiyaning (Normandie) sobiq provinsiyasi sharqiy qismida joylashgan ma'muriy hududi (q. région). 2 ta departamentni o'z ichiga oladi: Er va Sena sohillaridagi hudud. Maydoni 12317 km² Aholisi (1992-y. 1-yanvar) -1 753 100 kishi (Fransiya aholisining 3 foizi). Ma'muriy markazi – Ruan. Asosiy shaharlari: Sent-Eten dyu Ruvrey, Gavri, Evre, Dep, Fekan. Hudud Parij basseynida (q. Bassin parisien), Senaning ikki tomonida, chuqur vodiylarga ega yerda joylashgan. Ko' yassi tog' qoyalari 100 m balandlikda plyajlar tepasiga ko'tarilgan. Ular orasida mashhurlari: «Etret darvozasi» Alebastr sohilida joylashgan, ko'pgina shoir-u rassomlarni ilhomlantirgan. Yumshoq okean iqlimi va hosildor yerlar qishloq xo'jaligi rivojlanishiga qulay (don, qandlavlagi, zig'ir, sabzavotlar). Bu yerda ot va chorva mollari boqiladi. Sanoatda aholining 28,3 foizi band. An'anaviy daraxtga qayta ishlov berish, oynasozlik, qog'oz - sellyuloza bilan bir qatorda avtomobilsozlik, metallurgiya, elektrotexnika sanoati, og'it ishlab chiqarish (Yevropada 1-o'rinda) rivojlanmoqda. Sena etagida 4 ta neftni qayta ishlash zavodi: «Esso», «Shell», «Mobil», «Total» joylashgan. Gavri va Ruan porti orqali mamlakat yuk aylanishi 25 % dan o'tadi. Kimyo-farmatsevtika, oziq-ovqat va boshqa konsernlar yirik qo'shma ishlab chiqarish evaziga (q.«Ron-Pulenk», «Danon») hudud iqtisodi yuqori temp bilan rivojlanmoqda. Bu o'lka go'zal, maftunkor tabiati, me'moriy obidalari, muzey, o'z oshxonasi (asosan, sut mahsulotlari va olma) bilan shuhrat qozongan. Bu yerda yozuvchilar: Kornel, Flober, Gi de Mopassan, G. Malo, A.Morua, R.Keno; rassomlar: N.Pussen, T.Jerikolar tug'ilgan. Klod Mone shu yerda yashagan va ijod qilgan.

Hémicycle *m (soʻzma-soʻz)* - *yarim doira* // o'rindiqlari Amfiteatr qilib joylangan Senat (q. Sénat) yoki milliy Assambleya (q.Asssemblée Nationale) yarim doira Majlislar zali. Atama ko'proq parlament palatasini bildirish uchun qo'llaniladi.

Hexagone(lö) m – oltiburchak (Fransiya va uning Yevropa chegaralarida)

// Atama ilk bor Sharl de Goll (q.Gaulle Charles de) tomonidan qo‘llanilgan.

hôtel Carnavalet ñ *Karnavale oteli* // Parijning Mare (Marais) kvartalida joylashgan XVI asr me‘moriy yodgorligi. Luvr arxitektori P. Lesko (1515-1578) loyihasi bilan Renessans (q.art de Renaissance) uslubida qurilgan. Yil fasllari ramzi bo‘lgan barel’eflar haykaltarosh J.Gujon (1510-1564) tomonidan bajarilgan. 1665-yilda uy F. Mansar (1598-1666) tomonidan qayta qurilgan. Uning nomi sohibi-shevalye Kernevenua (Margarita Valua mulozimlaridan)dan kelib chiqqan, keyinchalik Karnavalega o‘zgartirilgan. 1677-1696-yillarda bu yerda o‘zining Lyudovik XIV saroyidagi rasm-rusm, tartib-qoidalarini qiziga xat orqali yozib yetkazib turganligi bilan mashhur bo‘lgan markiza de Sevinye (1626-1696) yashagan. Hozirgi kunda bu me‘moriy yodgorlik- Karnavale muzeyi (q. musée Carnavalet) hisoblanadi.

Hôtel de Ville - *Parij ratushasi* (shahar boshqarmasining binosi) // Parijning Mare kvartalida (q.place de l’Hôtel de ville) joylashgan Parij munitsipaliteti va Sena departamenti prefekturasi binosi. Renessans uslubida me‘mor Bokkador (1549-yil vafot qilgan) tomonidan qurilgan. Ko‘cha devori (fasad)ni Fransiya tarixi va san‘ati taniqli arboblarning 136 ta haykali bezab turibdi. Sena sohili tomonida uy oldida Eten Marselning (otliq) suvoriy haykali o‘rnatilgan. U Parij meri va savdogarlar starshinasi bo‘lgan. 1358-yil 22-fevraldagi Parijliklar qo‘zg‘olonini boshqargan. 1871- yilda bino yonib ketdi, biroq 1882-yilda avvalgi ko‘rinishiga keltirib qayta ta‘mirlandi.

Hôtel des Invalides ñ *Hôtel des Invalides* // Klassitsizm uslubidagi (q.art classique) 1671-1676-yillarda Parijda qurilgan me‘moriy ansambl, Lyudovik XIV buyrug‘i bilan armiya veteranlari uchun bunyod etilgan. Inshoot me‘mori - L.Bryuan (1635-1697). Bino kompleksiga kasalxona, askarlar cherkovi va 7000 kishilik kazarma kirgan. Keyinchalik unga me‘mor J.Arduenom-Mansarning 1679-1706 - yillar qurgan Nogironlar Sobori ham qo‘shilgan. Bosh fasad 196 metr

uzunlikda, G.Kustu ishlagan Lyudovik XIV otliq haykali yodgorligi bilan bezatilgan, 1840-yilda Muqaddas Yelena orolidan bu yerga Napoleon I (q.Napoléon I) hoki ko‘chirilgan. Katta sobor, 27 metr diametrli zarhal gumbazi bo‘lib, maqbaraga aylantirilgan. Orqa kapellada Napoleonning 2 aka-ukasi, uning marshallari va turli davrdagi taniqli harbiy boshliqlari (qo‘mondonlari): Tyurenn (1611-1675-y.), Voban (1633-1707-y.), marshal Fosh (1851-1929-y.)lar dafn qilinganlar. Hozirgi kunda bu yerda armiya, artilleriya, qurolli kuchlar relyef kartalari va shtabi muzeylari joylashgan.

Hôtel Matignon - *Matignon saroyi* // XVIII asr me‘moriy yodgorligi. Me‘mor Kurton loyihasi bilan qurilgan. 1935-yildan boshlab premer - ministr qarorgohi. Matbuotda va o‘zaro suhbatda tez-tez premer - ministr harakatlari va fikrini bildirish uchun ishlatiladi.

huguenots *m pl - gugenotlar* // Bu nom 1520-1525-yillarda Jenevada protestantlar - Jeneva mustaqilligi kurash konfederatsiyasi a‘zolarini (gersog Savoyский bilan kurash) bildirish uchun paydo bo‘ldi. XVI-XVII asrlarda “gugenot” so‘zi kamsitish ma’nosini oldi va katoliklar tomonidan kalvinizm (q.calvinisme) izdoshlari va davomchilarini atash uchun ishlatila boshladi. Katoliklar bilan gugenotlar o‘rtasidagi jang diniy urushga olib keldi (q.guerres de religion).

humanisme *m - (lotincha humaniya-inson) gumanizm (insonparvarlik)* // Uyg‘onish davri (q.Renaissance) aslzodalari dunyoqarashi, o‘rta asrlar sxolastikasi (quruq safsata, asoslanmagan bilim) va cherkov ruhoniylari boshqaruviga qarama-qarshi bo‘lgan. Fransiyada yirik insonparvarlar: Margarita Navarrskaya (1492-1549), shoir Kleman Maro (1496-1544y.), “Gargantuya” (“Gargantua”, 1534) va “Pantagryuel” (“Pantagruel”, 1532 y.) romanlari muallifi Fransua Rable (1494-1553y.), “Pleyada” shoirlari (q.“Pléiade”), faylasuf Mishel Monten (1533-1592) bo‘lganlar. Keyinchalik “insonparvarlik” atamasi insonga ishonch, uning baxt va erkinlik huquqi uchun insoniy qadriyatlar ramziga aylandi.

hypermarché *m- universam* // 2500 m². maydondagi turli xil oziq-ovqat va kundalik ehtiyoj mollari ko'p bo'lgan o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish katta univermagi. Mashinalar to'xtash joyiga ega, Fransiyada 600 ga yaqin shunday magazinlar bor bo'lib, odatda kichikroq shahar (shahar atrofi)larda joylashgan. Ularning umumiy aylanmasi – mamlakat chakana savdo-sotig'ining 20 foizini tashkil qiladi.

hypotaupé *f -maktab jargoni* // Oliy texnika (q.grandes écoles) maktablariga kirish uchun tayyorlov kurslarida 1-o'quv yili (q.classes préparatoires aux Grandes écoles)

I

Ile-de-France *f - Il de Frans* // Fransiya shimoliy qismida 8 ta departamentni o'z ichiga olgan ma'muriy hudud: Parij, Sena-va-Marna, Ivelin, Esson, O-de Sen, Sena-Sen-Deni, Val-de-Marn, Val-d'Uaz. Maydoni-12012 km² (metropoliya hududining 2,2 foizi). 1992-yil 1-yanvar hisob-kitobiga ko'ra, aholisi 10 836000 kishi yoki Fransiya aholisining 18,9 foizi (aholisi bo'yicha hududlar o'rtasida 1-o'rin). Ma'muriy markazi-Parij; Asosiy shaharlari: Bulon-Biyankur, Montreysu - Bua, Arjantey, Sen-Deni, Versal, Nanter. Ile-de-France aholisining zichligi va aholining ko'pligi (har km² ga 887 kishi) bilan ko'p yillar mamlakatning yagona yirik iqtisodiy markazi bo'lgan Parijga qaram bo'lgan. Oxirgi yillarda desentralizatsiya siyosati amalga oshirilgani bois, Parij aglomeratsiyasini to'xtatish va boshqa iqtisodiy markazlarni rivojlantirish amalga oshirildi. Hudud Parij basseyni (q.Bassin parisien) markazida joylashgan. Qishloq xo'jaligida ishga yaroqli aholining atigi 0,5 foizi band bo'lsada, yuqori texnologiya bilan jihozlangan ilg'or agrotexnologiyali xo'jaliklar mamlakatdan o'rtacha kirimdan 85 foiz yuqori daromad keltiradi. Don, qandlavlagi, sabzavotchilik, bog'dorchilik ekinlari ekishga ixtisoslashgan. Go'sht, sut yetishtirish rivojlangan. Aholining 20,3 foiz qismi sanoat sohasida ishlaydi. Ko'p tarmoqli mashinasozlik,

avtoqurilish (“Renault”, “Peugeot”, “Citroën”firmalari), aviokosmik, elektrotexnik, poligrafiya sanoati (nashr etish) nozik kimyo texnologiyasi, farmatsevtika, kosmetika ishlab chiqarish keng rivojlangan. Hududda transport infrastrukturasini rivojlantirgan. Aholining 72,9 foizi maishiy xizmat bilan band. Parijda asosiy davlat korxonalari, yirik banklar, sugʻurta agentliklari, tijorat markazlari va kompaniyalari, katta mehmonxonalar joylashgan. Hududda yuqori ilmiy potensial toʻplangan. Il de Frans Yevropada Yevropa ittifoqining iqtisodiy poytaxtlaridan biri hisoblanadi. Hudud butun dunyodan koʻp sonli sayyohlarni oʻziga jalb qiladi. Qomusshunos DʼAlamber, matematik E.Galua, kimyogar A. Lavuaze, yozuvchilar: Volter, E.Zolya, B.Vian, Turne; kinomatografistlar J.L.Godar, Rene Kler, F.Tryuffo, L.Besson, artistlar R.Osseyne, J.P.Belmondo, B.Bardo, K.Denyovlar hududning mashhur insonlari hisoblanishadi.

óImmortelô *m* - **óboqiyô,óoãmasô** // Fransiya fanlar akademiyasi aʼzosining norasmiy nomlanishi, akademik unvonining abadiyligini taʼkidlaydi (q.Académie française). 1672-yildan boshlab, davlat boshliqlari roziligi bilan Akademiyaning yangi aʼzolari faqat ketganlari oʻrniga saylanadi. Hozirgi vaqtda saylovlar yashirincha ovoz berish yoʻli bilan oʻtkaziladi. Anʼanaga koʻra akademiya aʼzosi boʻlish huquqiga faqat fransuz yoki 2 fuqaroligi bor kishilar ega boʻlishadi. Akademiya aʼzolarining umumiy soni 40 nafar. Akademiklikka qabul qilish marosimlari paytida qayta saylanganlar qora frak, koʻk hoshiyali liboslar kiyib, soʻzga chiqadilar (discours de réception). Marosim Fransiya instituti saroyi ibodatxonasida boʻlib oʻtadi (q.Palais de l’institut). Ularning ayrimlarining chiqishlari fransuz adabiyoti tarixi sahifalariga kirgan, masalan, La Bryuyer (1645-1696) bilan Fenelon (1651-1715) nutqlari.

impressionnisme *m* - (*impression* **ñ** *taassurot soʻzidan*) *impressionizm* // XIX asrning 60-70-yillarida Fransiyada paydo boʻlgan tasviriy sanʼat va musiqadagi yoʻnalish. Klod Mone (1840-1926) peyzaji ”Impression”, ”Soleil levant” (”Taassurot”, ”Chiqayotgan quyosh”) deb nomlangan. Bu peyzaj quyidagi rassomlar asarlari bilan birga namoyon qilingan: Pissarro (1830-1903), Sisley

(1839-1899), Renuar (1841-1919), Dega (1834-1917), Giyomen (1841-1927), Berto Morizo (1841-1895) va boshqa bu oqim vakillarining 1874 - yil Parijda “Mustaqillar ko‘rgazmasi” (Salon des Indépendants)da fransuz realistik san’ati oqimida paydo bo‘ldi (q.réaliste (art)). Uing tarafdorlari o‘zlarini Kurbe, Koro va Barbizon peyzajistlar maktabi (q.école de Barbison) davomchilari deya nomladilar. Ular ijodiga Edgar Mane katta ta’sir o‘tkazdi. Impressionistlar ko‘rish tasavvuriga katta ahamiyat berishib, atrof-muhitni bor jozibasi, turfa xilligi va o‘zgaruvchanligi bilan namoyon qilishga harakat qildilar. Impressionistlarning lahzalik harakat, o‘zgaruvchan tur, nurlar o‘yini kabilarni qayd qilishga qiziqishlari haykaltaroshlikda O.Rodenga ma’qul tushib, ko‘pgina asarlarida inson tanasining lahzalik harakatlarini qayd qildi. XIX asr oxiri – XX asr boshida musiqada impressionizm tasviriy san’at tasiri ostida vujudga keldi. Unga kayfiyat, his-tuyg‘u nozik torlari tabiat hodisalarini tasvirlash, tembr va o‘zaro moslik xos. Bu yo‘nalish vakillari: Klod Debyussi (1862-1918), Moris Rovel (1875-1937) va boshqalar.

inspection *f* - *inspeksiya* // Xalq ta’limi tizimida o‘quv inspeksiyasi xizmatchilarining 3 ta korpusi bor: bosh, hududiy o‘quv region va xalq ta’limi tizimi inspeksiyasi (inspecteur de l’éducation nationale). Ular faoliyati maqsadi - desentralizatsiya sharoitida butun mamlakat hududida ta’lim sohasida yuqori daraja va muvofiqlikka erishish.

Institut de France - *Fransiya instituti* // 1795-yil Konvent (q.Convention) tomonidan Fan va san’at Davlat instituti (q.institut national des sciences et des arts) nomi bilan tashkil etilgan. Hozirgi davrda 5 ta akademik muassasasini birlashtiradi: Fransuz akademiyasi, Tasviriy san’at akademiyasi, Adabiyot va yozuv akademiyasi, Fanlar akademiyasi, Ma’naviy va siyosiy fanlar akademiyasi (q.Académie française, Académie des Beaux-Arts, Académie des inscriptions et belles – lettres, Académie des sciences, Académie des sciences morales et politiques). Kansler boshchiligidagi 400 nafar fransuz va xorijiy a’zolari bor. Fan va san’atni rivojlantirish va rag‘batlantirishga yo‘nalgan. Har yili Fransiya

va frankofon davlatlaridagi eng muhim tadqiqotlarni mukofot bilan taqdirlaydi; Universitetlar ilmiy ishlarida qatnashadi, akademiklar ishlarini chop qiladi. Institut kutubxonasi 1,5 mln tom kitobga, institutga tegishli bo'lgan kardinal Mazarini kutubxonasi - 450 ming kitob va noyob qo'lyozmalarga ega. 1806-yildan beri Parijda Konti sohilidagi «To'rt millat kolleji» binosida faoliyat yuritmoqda.

Institut d'études politiques de Paris ñ IEP - Politehnika tadqiqotlari
Parij instituti // Premier ministr qoshidagi ilmiy madaniy profildagi davlat oliy o'quv yurti. Eng nufuzli o'quv yurtlaridan biri (kundalik turmushda «Sciences Po»), ijtimoiy fanlar, siyosat, iqtisodga tayyorgarlikni ta'minlaydi. Universitetlarga qaram emas. Politolog E.Butmi (1835-1906) tomonidan 1872-yil tashkil etilgan. Tarkibining 40 foizini - universitet o'qituvchilari, 37 foizini davlat xizmatchilari, 23 foizini tijorat vakillari va erkin kasb egalari tashkil qiladi. O'quv muddati 2 -3 yil. Bakalavr (q.baccalauréat) diplomi egalari, litsensiat (q.licence), magistr (q.magistère) yoki maxsus o'quv yurti bitiruvchilari diplomi (q.Grandes écoles)ga ega kishilar o'qishga qabul qilinadi. O'qish pullik. 2 ta yuqori kurs 4 ta: davlat xizmati, iqtisodiy-moliya, aloqa va inson resurslari, xalqaro bo'limlarga ega. Bitiruvchilar oliy maxsus ta'lim to'g'risida (q.Diplôme d'études supérieures spécialisées) yoki chuqur ta'lim (q.Diplôme d'études approfondies), shuningdek, fan doktori diplomi (q. doctorat)ga ega bo'lishadi. Bitiruvchilar orasida: F.Mitteran, J.Shirak, J.Pompidu, M.Debre va boshqalar bor. Politehnik tadqiqot institutlari Lionda, Grenoblda, Strasburgda, Tuluzada, Bordo va Eks-an-Provansda mavjud.

Institut national de la statistique des études économiques (I.N.S.E.E.) - *Statistika va iqtisodiy tadqiqotlar davlat instituti* // 1946-yil tashkil etilgan. Aholi va iqtisod muammolari - jamiyatni rivojlantirish statistika ma'lumoti yig'ish, aholi sonini qayd qilish, oylik maoshi, oila ta'minoti (kirimi) kabi savollar bilan shug'ullanadi. Moliya vazirligi, tashqi savdo-sotiq, qishloq xo'jaligi kabi sohalar ishlarini bajaradi.

Institut national des langues et civilisations orientales (I.N.L.C.O.) - *Sharq tillari va rivojlanishi davlat instituti* // Xalq ta'limi vazirligi (q.Ministère de l'éducation nationale) qoshidagi maxsus oliy ilmiy va o'quv yurti (q.grandes écoles). 1795-yil Konvent dekretiga binoan, (q.Convention) Kalber (1619-1683) «Yosh tilshunoslar» («Jeunes de langues») maktabi bazasida diplomat va savdogarlarga zarur bo'lgan sharq tillarini o'rganish uchun tashkil etilgan. 1971-yilgacha «École nationale des langues orientales» (talabalar jargonida «Langues O») deb atalgan. Hozirgi vaqtda 2 ta maqomga ega : Avtonom davlat ilmiy-madaniy muassasa va Parij-III universitetining o'quv ilmiy bo'limi (q.Unité de formation et de recherche). O'quv muddati 3 yil. 80 ta til o'rganiladi, ular orasida: rus, xitoy, yapon, arab tillari bor. Ilmiy tadqiqot markazlari, eng boy Parij kutubxonalaridan biriga ega.

Institut Pasteur - *Paster instituti* // Mikrobiolog va immunolog L.Paster (1822-1895) tashabbusi bilan 1888-yil tashkil etilgan. Ilmiy tadqiqot muassasasi. Hozirgi vaqtda bir necha markazdan iborat: mikrobiologiya sohasida boshlang'ich tekshiruvlar, virusologiya, molekulyar va hujayrali biologiya; inson va veterinariya tibbiyoti sohasida amaliy tadqiqotlar, agronomiya va ishlab chiqarish; universitet ta'limotiga ega kishilarning malakasini oshirish; immun va yuqumli kasalliklar patologiyasi mutaxassisligi. Boshqa davlatlarda 27 ta bo'limlari bor. Eng muhim fan yutuqlaridan: difteriyaga qarshi vaksina (1894), silga qarshi (1921), sariq bezgagi (1927), poliomyelit (1855), B gepatiti (1988) (SPID) OITS virusini o'rganish ishlari. Institut 41 foizga davlat tomonidan, 26 foiz vasiyat yoki xayr-ehson evaziga, 33 foiz o'z ishlab-chiqarish faoliyati bo'yicha moliyalashtiriladi (ta'minlanadi). Bu yerda buyuk rus olimi I.I.Mechnikov (1845-1916) ishlagan.

Instituts universitaires de formation des maitres (I.U.F.M.) - *O'qituvchilarni tayyorlash universitet institutlari* // Boshlang'ich va o'rta maktab o'qituvchilari tayyorlash, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash, ta'lim sohasidagi

taqiqotlar davlat oliy o'quv yurti. Har bir o'quv okrugida (q.académie) mavjud. Xalq ta'limi vazirligiga bo'ysunadi. O'quv muddati - 2 yil. I.U.F.M.ga kirish uchun universitetda 3 yil o'qiganligi (q.licence) to'g'risida bakalavr darajasi uchun imtihon topshirgach (bac + 3) diplom talab qilinadi. O'qish tugagach, bitiruvchilar boshlang'ich maktab, kollej yoki litsey (q.Certificat d'aptitude au professorat de l'enseignement du second degré, Certificat d'aptitude au professorat de l'enseignement technique; Certificat d'aptitude au professorat de l'éducation physique et sportive) o'qituvchisi guvohnomasini olishadi.

Institut universitaire de technologie (I.U.T.) - *universitet texnologiya institutlari* // Davlat oliy o'quv yurtlari (universitet qoshida) maishiy xizmat va ishlab chiqarish o'rta zveno mutaxassisliklari qisqa muddatda tayyorlovni ta'minlaydi. O'quv muddati – 2 yil. 1565-yil tasdiqlangan. O'qishga kirish uchun bakalavr (q.baccalauréat) darajasi va diplomiga ega bo'lish lozim. Tugatgach tanlangan mutaxassisligi bo'yicha baholar qo'yilgan diplom beriladi.

instituteur m - *O'qituvchi (bog'cha tarbiyachisi)* // Bu kasb egalari 1990-yilgacha alohida pedagog xodim bo'lishgan. Hozirgi paytda bog'chalarda boshlang'ich maktab o'qituvchilari (q.professeur des écoles) ham ishlashlari mumkin.

«Internationale» (Lö) ñ *«Internatsional»* // Kommunar E.Pote (1816-1887) she'ri va ishchi P.Degeyter (1848-1932) musiqasi bilan madhiya. Ilk bor 1888-yil Lill mehnatkashlari bayramida jaranglagan. 1889-yilda II Internatsional 1-Kongressida butun dunyo revolutsion proletariati madhiyasi sifatida tasdiqlangan va hozirgi kungacha butun mamlakat partiyalari madhiyasi bo'lib qolgan. 1918-yildan 1943-yilgacha Sovet Ittifoqi madhiyasi bo'lgan.

invasions barbares - *varvarlar hujumi* // Eramizning IV-V asrlarida xalqlarni buyuk ko'chirish davrida Galliyaga (q.Gaule) vandal, vestgot, burgund, gunn, frank qabilalari varvarlari Rim imperiyasining kuchsizlanib qolganidan foydalanib hujum uyushtirdilar. V asrning 2-yarmiga kelib vestgotlar Akvitaniya

(q.Aquitaine) va Ispaniya, bugundlar - sharqda, franklar (q.francs) - Galliya shimolida oʻrnashdilar. Rim garnizonlari Somma va Luara daryolari oʻrtasidagi kichkina maydonda qoldi.

invasions des Normands - *normannlar bosqini* // Karolinglar davrida (751-987; q.Carolingiens) frank davlati oʻzlarini viking deb nomlagan normann – skandinavlar tomonidan xonavayronchilik bosqiniga duchor boʻldi: ular aholini qatl qilib, shahar va monastirlarni talon-taroj qilib, oʻz kemalarida oqim boʻylab Sena va Luara atrofini xonavayron qildi. 50 yil ichida ular Parijga 4 marta poʻpisa qilishdi. 896-yilda normannlar Rollon boshchiligida Sena boʻylab yerlarning katta qismiga ega boʻldi, biroq 911- yil franklar qiroli Karl Prostovatiy bu yerlarni Rollon mulki deb tan oldi va Rollon ham oʻz navbatida xristian dinini qabul qilib, oʻzini qiroli vassali deb eʼlon qildi. Shunday qilib, Normandiya (q.Normandie) qirolligi vujudga keldi. 1066-yilda normannlar Angliyani bosib oldilar va gertsog Normandskiy Vilgelm Bosqinchi (1027-1087) Angliya taxtiga oʻtirdi. Natijada ingliz-normann qirolligi paydo boʻldi, uning qoʻl ostida Normandiyadan tashqari Luara va Akvitaniya etaklari ham bor edi. Kapetinglar (q.Capétiens) va Angliya toji majorosi 100 yildan koʻp davom etdi. Faqat 1192 - yilga kelib, Filipp II Avgust boshchiligidagi (1165-1223, 1180-y.dan boshqargan) fransuzlarga Richard Sheryurak (1157-1199) qoʻmondonligidagi armiyani yengish nasib etdi. Filipp II Normandiyani yengib chiqdi.

J

jacobins *m pl* – *yakobinchilar* // Yakobin klubi aʼzolari (q.Club des jacobins), 1792-yil unda jirondislar (q. girondins) quvilganlaridan qolganlari.

Hokimiyat tepasida 1793-yil iyundan 1794-yil iyulgacha bo'lishgan. Revolyutsion demokratik burjuaziya manfaatini ko'zlab, yakobinlar yoki montanyerlar (q.montagnards) agrar muammolarni hal etishga katta hissa qo'shdilar; revolyutsion o'zgarishlarda ichki va tashqi dushmanlardan (q.chouannerie, Vendée (guerre de) faol himoyachi bo'lib, 1793-yil 24-iyunda demokratik Konstitutsiya qabul qilindi. Yakobinlar o'rtasida eng radikallari Robesp'er tarafdorlari, revolyutsion hukumat boshliqlari bo'lgan. 27-28-iyul Termidorian to'ntarilishi yakobin diktaturasiga yakun yasadi.

Jacquerie *f* – *Jakeriya* // (dehqonlarning kinoya bilan atalishi "Jak-sodda") Fransiya tarixida eng katta dehqonlar qo'zg'oloni (1358-y). Unda 100 mingga yaqin kishi ishtirok etgan. 100 yillik urush (q. guerre de Cent Ans) qiyinchiliklari va xonavayronchiligi oqibatida dehqonlar kambag'allashuvi, soliq va to'lovlar ko'paytirilgani, hamda beayov o'lat epidemiyasi tarqalgani (1348) sababli kelib chiqqan. Qo'zg'olonchilar qasrlarni vayron qildilar, feodallarni o'ldirdilar, ayblovlar ro'yxatini yoqib tashladilar. Qo'zg'olon bostirilgach, dvoryanlar dehqonlardan to'lovlarni kamaytirdi, qirollik hukumati soliq reformasini o'tkazdi va soliq yig'ishni tartibga soldi.

Jardinage *m* - *bogdorchilik, polizchilik* // Ko'pchilik fransuzlarning bo'sh vaqtlaridagi sevimli mashg'uloti. Ko'pchilik uchun dam olish, ayrimlar uchun - moddiy ko'mak manbai. Ayniqsa, mamlakatda havaskor bog'bonchilik urf bo'lgan.

Jardins des Tuileries - *Tyulleri bogdori* // Fransuz bog'- park san'ati namunasi. Parijda Karusel maydoni (q.Arc de triomphe du Carrousel) bilan Place de la Concorde orasida joylashgan. 1563-yil Tyulleri saroyi atrofida (Palais des Tuileries) cherepitsa ustaxonalari o'rnida (tuile-cherepitsa) ekilgan. Shu yerdan bog' va saroy nomi (Palais des Tuileries) kelib chiqqan. Me'mor F.Delorm tomonidan 1564-1570 - yillarda Karl IX ning onasi Eketerina Medichiga atab qurilgan. Parij kommunasi (q.Commune) vaqtida saroy yonib ketdi. Undagi Jyo-de

– Pom va Orangereya pavilonlari qoldi. Hozirgi kunda pavilonlarda turli koʻrgazmalar oʻtkaziladi. Bogʻning sharqiy qismida-muzey (ochiq osmon tagida): mashhur haykaltarosh A.Kuazevoks, J. Kustu, J.J.Prade, A.Mayolyalarning asarlari joylashgan.

Jeanne döArc (sainte) - (*muqaddas*) *Janna döArk* // Orlean qizi (Pucelle d'Orleans, 1412-1431) laqabli Fransiya milliy qahramoni. Domremi shaharchasida, hozirgi Domremi-la Pusel, Lotaringeya chegarasida, dehqon oilasida tugʻilgan. 13 yoshida paygʻambarlar ovozini eshitgan, unga «Fransiyaning angliyaliklardan qutqar», - deyishgan. Orlean qamali (1429) haqida eshitib, Shinon qasriga shahzoda Karl huzuriga boradi va uni Orleandan qoʻlini olishga koʻndiradi. Jannaning jasurligi va odamlarni ergashtira olishi, qoʻshinlarga dushmanlarni yengishda va qamaldagi shaharni ozod qilishda yordam beradi, shuning uchun Orlean qizi deb laqab olgan. Bir qator gʻalabalarga erishib, Janna Reymsni ozod qildi va **dofinni** 1429-yil iyulda toj kiyishga koʻndirdi. Karl VII (1403-1461) Fransiya qiroli boʻldi. 1430-yilda Kompen shahri olingandan keyin Janna angliyaliklar ittifoqdoshi burgundlar qoʻliga asir tushadi, biroq qiroli qahramonning koʻp obroʻ-eʼtiborga egaligidan xavotirlanib, unga tovon toʻlab, sotib olishni hohlamadi. Burgundlar Jannani angliyaliklarga sotdilar, ular uni Ruanda cherkov sudi boʻyicha sud qildilar. Bidʼat va sehrgarlikda ayblanib, Janna 1431-yil mayda gulxanda yoqib yuborilgan. Karl VII ning buyrugʻi bilan 25 yildan keyin sud qarori koʻrib chiqilgan va bekor qilingan. 1920-yilda Janna muqaddas insonlar safiga qoʻshilgan. Mana 5 asrdirki, Orlean aholisi 7-8 may kunlarini rasmiy ravishda shahar Orlean qizi tomonidan qutqarilgan kun sifatida bayram qilishadi. May oyining 2-yakshanbasi esa butun mamlakatda Janna d'Ark bayrami sifatida nishonlanadi. Janna obrazi koʻp asarlarda aks ettirilgan, masalan, Sh.Pegi, F.Shiller, P.Klodel, P.I.Chaykovskiy va boshqalarning asarlarida uchratish mumkin.

Jeu de boules - *Shar oʻyini* // Ommaviy fransuz oʻyini boʻlib, chidam, aniq nishon va kuchli (qattiq) qoʻl talab qiladi. Oʻyinchilar (4-8 kishi) tekis yer

maydoniga temir sharlarni taxta sharik («cochonnet –cho‘chqacha)ga yaqinroq joylashtirishga harakat qilib, tashlashadi. Kim o‘z sharlarini «cho‘chqacha»ga yaqinroq tashlashsa, shu ko‘p ball to‘playdi. Hududlarda o‘yin turli ko‘rinishlarda bo‘lib, eng ommaviysi «petank» (q.petanque) hisoblanadi.

Jeux Olympiques - *Olimpiya o‘yinlari* // Sportning 20-25 turi bo‘yicha xalqaro sport musobaqalari, Olimpiya shahrida Zevs sharafiga qadimgi yunon musobaqalaridan kelib chiqqan. 1896-yil fransuz tarixchisi, adabiyotchi, faylasuf va pedagog Pier de Kuberten (1863-1937) tashabbusi bilan qayta tiklangan. Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi tomonidan har 4 yilda dunyoning turli mamlakatlarida tashkil etiladi. Fransiyada 4 marta: 1900-yilda (Parij), 1924-yil (Shamoni), 1968-yil (Grenobl), 1992-yil (Albervil)da o‘tkazilgan. G‘alabalar soniga qarab Fransiya duyoda 5-o‘rinni egallaydi.

Jongleur *m tar.- jonglyor* // O‘rta asr xalq qo‘shiqchisi, baxshi, sayoq artist (menestrel) o‘z qo‘shiqlarini musiqa asboblari ohangida ijro etadi. Namoyishda bir necha jonglyor qatnashishi mumkin – bittasining qahramonlik qo‘shig‘ini (q.chanson de geste), boshqasi uni imo-ishora harakatlari bilan namoyish etadi.

Jour de l’An - *Yangi yil (1-yanvar)* // Davlat bayrami (q.fêtes légales). Rojdestvodan (q.Noël) farqli, yangi yilni do‘stlar bilan kafe yoki restoranlarda kutib olishadi. 31-dekabrdan 1-yanvarga o‘tar kechasi kechki ovqat paytida (q.Saint-Sylvestre) fransuzlar bir-birini tabriklab, baxt tilab, sovg‘alar berishadi.

Journal officiel de la République française (J.O.) - *Fransiya Respublikasi rasmiy axborotnomasi* // Hukumat kundalik byulleteni, unda qonun va dekret matnlari, parlament debatlari stenogrammalari, Senat va Milliy Majlis (q.Sénat, Assemblée nationale) hujjatlari chop etiladi.

Jura *m – Yura* // Fransiya va Shveytsariya hududida Rona (q.Rhône) va Reyn (q.Rhin) daryolari orasidagi tog‘lar. Tog‘ tizmasi uzunligi 250 km, balandligi 1718 metr. Karst (*geol.* toshtuz, ohaktosh, gips kabi eruvchan jinslardan tuzilgan yerlarning notekis ko‘rinishi) ko‘rinishlari rivojlangan yosh tog‘lar

jumlasiga kiradi. Oʻrmonlar bilan qoplangan, gidroenergetik resurslarga boy. Turizm rivojlangan.

jury de correcteurs - *bakalavr darajasiga imtihon oluvchi komissiya* // Universitet va litsey oʻqituvchilaridan tuziladi. Komissiya raisi – universitet oʻqituvchisi, oʻrinbosari – «agreje» (q.agrégé) litseydan.

L

Lande *f* ñ *landlar* // Gʻarbiy Fransiya peyzaji, kamyob oʻsimliklari (utyosnik, sariq archagul, drok (sariq gulli dukkakli choʻl oʻsimligi), brusnika, qirqquloq kabilar) qum va granit yerlarda oʻsadi. Asosan (yaylov) chorva mollarini boqish uchun foydalaniladi.

Landes *f* *pl* – *Land* // Kamyob oʻsimliklar va oʻrmon bilan qoplangan Quyi Garonna bilan (q.Garonne) Adur oraligʻidagi Akvitaniya qishloq tekisliklari (q.Aquitaine). XIX asr oʻrtalarigacha – kambagʻal oʻlka, qumloq, yerlarda qishloq xoʻjalik mahsulotlari yetishtirish qiyin boʻlgan. Qumtepalar qirgʻogʻini mustahkamlash uchun primore qaragʻaylari ekish boshlangan va bu yerlar oʻzgarib ketgan. Oʻrmondagi daraxtlardan simyogʻochlar tayyorlash, shaxtalarni mustahkamlash, qogʻoz ishlab-chiqarish, yelim olish maqsadlarida foydalanila boshlandi. Qishloq xoʻjaligi jadal rivojlana boshladi. XX asr boshlarida Land yana qaytadan oʻzlashtirildi.

Langue d'oc -òkò *tili* // XII –XIII asrlarda tarqalgan (Luara daryosidan janubga) janubiy fransuz yoki provansal, gall-rim tili varianti. "Ha" yuklamasi "òk" ma'nosida qoʻshib gapirishgani natijasida bu nomni olgan. Shevalarga boʻlingan: provansal, limuzen, languedok, dofine, overn, gaskon. Ulardan oldingi 3 tasi eng koʻp tarqalgan. Provansal tilida Trubadurlar kurtuaz poeziyasi (q.troubadours) yaratilgan.

Langue dööl -ôoylô tili // Luaradan shimolga XII –XIV asrlarda tarqalgan, gall -roman nutqi shimoliy fransuz varianti. "Oyl" yuklamasi qo'shib aytilganidan, shu nomni olgan. Sharqiy (lotaring, burgund, shampan, pikar diy, vallon) va g'arbiy (normand, anjevin, puatvin, angulem, fransiy) lahjalariga bo'lingan. Shimoliy fransuz lahjasida: "Roland haqida qo'shiq" (q."Chanson de Roland" XII asr oxiri), Ryutbyof (1280 - yil vafot etgan) poema va pyesalari, Villarduen va Juanvil (XII asr) xronikasi, Kreten de Trua (1135-1183) romanlari, birinchi fransuz mashhur shoirasi asarlari (XII asr), falsafiy pand-nasihat asarlar ("Roman de la Rose", XIII asr), satirik asarlar ("Le roman de Renard" XII asr), truvelar kurtuaz lirikasi (q.trouvère), fablio (q.fabliau), komediya va dramalar yaratilgan.

langue française - *fransuz tili* // Roman tillaridan biri (q. langues romanes). Galliya hududida (q.Gaule) xalq lotin tili yuksalishi, taraqqiyoti natijasida shakllandi. Fransuz tili tarixida bir necha davrlar kuzatiladi: 1) gall-roman V-VIII asrlar, Frank qirolligi davri (q.royaume franc), u vaqtda fransuz tili bo'lmagan, xalq tili roman tili deb nomlangan; 2) qadimgi fransuz (IX-XIII asrlar) rasmiy chegaralangan –Valua dinastiyasi (q.Valois) boshqaruvining boshlanishi (1328); 3) o'rta fransuz (XIV-XV asr), qadimgi fransuz tilidan yangi fransuz tiliga o'tish bilan to'g'ri keladi; 4) fransuz milliy tilini birinchi bor shakllanishi (vujudga kelishi) (XVI asr)), 1539-yil qirol farmoniga ko'ra fransuz tili majburiy-doimiy bo'ib, lotin tilini ishlab-chiqarishdan va mahalliy tillarni kundalik ehtiyojda foydalanishni siqib chiqardi; 5) yangi fransuz tili davri (XVII-XX asrlar), o'z navbatida klassik (XVII-XVIII asrlar) va zamonaviy (XIX-XX asrlar) tillarga bo'linadi.

Languedoc ñ Roussillon *m - Langedok ñ Russilon* // Fransiya janubidagi ma'muriy hudud. 5 ta departamentni o'z ichiga olgan: Od, Gar, Ero, Lozer, Sharqiy Pireneya (q.Aude, Gard, Hérault, Lozère, Pyrénées - Orientales). Yer maydoni 27376 km² (metropoliyaning 5 foiz yeri). Aholisi 1995-yilgi hisob-

kitobga ko'ra - 2 221405 kishi yoki mamlakat aholisining 3,8 foizini tashkil qiladi. Ma'muriy markazi-Monpele. Asosiy shaharlari: Perpinyan, Nim, Ales, Beze, Set. Rona daryosidan g'arbda, Fransiya bilan Ispaniya temir yo'l va avtomobil yo'llari kesishgan joyda, Atlantika bilan O'rtayer dengizi orasida joylashgan. Geografik jihatdan qulay. 5 ta departamentdan 4 tasi sohilda joylashgan. Iqlimi yumshoq, uzumchilik uchun qulay. Bug'doyning qattiq navlari, sabzavotlar, mevalar yetishtiriladi, qo'ychilik bilan shug'ullanadi. Yengilsanoat, to'qimachilik, informatika va elektronika (IBM, Dell Computer, Cap Gemini) farmatsevtika (dorishunoslik) jadal rivojlanmoqda. Faol aholining 73 foizi maishiy xizmat bilan band. Sayyohlik rivojlanishi bo'yicha mamlakatda 3-o'rinni egallaydi. Gall-Rim yodgorliklari (Pont du Gard, Nîmes, Norbonne etc.), o'rta asr qasrlari (Carcassone, Aigues-Mortes, Perpignan), fuqaro me'morchiligi (Château de la Baume, etc.), milliy va hududiy parklar (parc national des Cévennes et parc naturel régional du Haut-Languedoc) ko'plab turistlarni o'ziga jalb qiladi. Bu yerda mashhur insonlar: yozuvchilar J.B.Moler va Pol Valeri, haykaltarosh A.Mayol, milliy xalq teatri va Avinon festivali asoschisi va rejissyori J.Vilar, fransuz Qarshilik harakati qahramoni J.Mulen, bastakor va xonanda Sh.Trene, xonanda J.Greko va boshqalar tavallud topganlar.

Langues régionales - *hududiy tillar* // Fransiyada yashovchi millatlar tili davlat tili bo'lgan fransuz tili bilan bir qatorda ishlatiladi. 7 ta hududiy tildan 3 tasi roman tiliga mansub (q.languages romanes) oksitan, katalan, korsika (italyan tili shevalari); 2 tasi german tiliga: elzas lahjalari nemis tilidan va niderland tilining flamand lahjasi; breton tili kelt guruhiga (Yevropada yagona) kiradi, bask tili – genetik ajralgan-hind yevropa tili emas. Bu tilda so'zlashuvchilarning umumiy soni 10 mln. atrofida, ya'ni mamlakat aholisining 20 foizi. Hududiy tillar asosan kundalik turmush sharoitida, oilada, dehqonlar va hunarmandlar o'rtasida ishlatiladi. Oxirgi 10 yilliklar ichida milliy o'z-o'zini anglash kuchayganligi natijasida ziyolilar va talabalar o'rtasida ham ularga qiziqish ortdi. Hududiy tillarda

badiiy adabiyot, radio va teleko'rsatuvlar mavjud, matbuot materiallari chiqariladi. Bir qator fransuz universitetlarida bunday tillarni o'rganuvchi bo'limlar ochilgan.

langues romanes - *roman tillari* // Rim istilolari natijasida Yevropada tarqalgan qadimgi lotin tili bilan umumiyligi jihatdan bog'liq. Roman tillar guruhiga quyidagi tillar kiradi: fransuz, ispan, portugal, katalan (Fransiya va Ispaniyada), oksitan yoki provansal (Fransiya janubida), italyan, retoroman (Shimoliy Italiya va Sharqiy Shveytsariyada), sardin yoki sard (Sardiniya orolida), rumin va moldavan tillari. Roman tillari Yevropa va Janubiy Osiyoda tarqalgan. Hind yevropa tillari katta guruhiga mansub.

législatif *m* - *Qonun chiqaruvchi hokimiyat* // Uning vazifasiga qonunlarni ishlab-chiqish, ko'rib-chiqish va qabul qilish kiradi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat parlament qo'lida (q.parlament), 1958-yilgi Konstitutsiyada parlament va hukumat mandatlarini birlashtirish man qilingan. Deputat yoki Senator huquqiy holati ko'pgina davlat yoki xususiy vazifalar bilan birga mos kelmaydi. Qonunchilik tashabbusi huquqiga premer-ministr (q.projet de loi), deputatlar va Senatorlar (q.proposition de loi) ega.

législature *f* – *legislatura* // Milliy Assambleya (q.Assemblée nationale) vakolatining 5 yillik muddati.

Libération (la) *ñ* *Qutqaruv* // 1944 – yil 6 - iyunda Ittifoqdosh armiyalarning chiqarilishi (q.débarquement allié) milliy qo'zg'olonga signal rolini o'ynadi va mamlakatning 90 tadan 40 ta departamentiga yoyildi, 28 ta departament bosqinchilardan (okkupantlardan) Qarshilik kuchlari tomonidan ozod qilindi (q. Résistance). 19-avgustda Parijda qo'zg'olon boshlandi, 24-avgustda Parijga general Leklerkning bronetank diviziyasi kirib keldi. 1944-yil 25-avgustda Parijning nemis gornizoni taslim bo'ldi. Milliy qo'zg'olonchilar g'alabasi ittifoqdoshlar armiyasi harakatlarini osonlashtirdi va mamlakatni tezda ozod bo'lishga olib keldi. Sentabr o'rtalariga kelib Fransiyaning deyarli hamma yeri qutqarildi.

libertinage *m* - *hurfiylik* // Dekart (1596-1650) ta'siri ostida Fransiyada yuzaga kelgan, katolitsizmni tanqid qilish va dinga umuman skeptik (shubha bilan) yondoshishi bilan xarakterlanadigan falsafiy yo'nalish. Bu yo'nalish vakillari P.Gassendi (1592-1655) va Sirano de Berjeraklar (1619-1655) bo'lgan. XVIII asrga kelib bu zakovat hurfiyligi ijtimoiy bo'ladi. Mol'er (1622-1673)ning "Don Juan" yoki "Le Festin de pierre"(1665-y.) pyesasi bosh qahramoni yangi qahramon obrazi bo'lib ko'rsatiladi, u o'z istaklariga erishish uchun din va jamiyatdagi barcha chegaralarni buzib o'tadi. Hurfiylikning yorqin vakillaridan XVIII asrda Shoderlo de Laklo (1741-1803) "Xavfli aloqalar" romani (q."Les Liaisons dangereuses, 1782) bo'lib, uning qahramonlari odob-axloq va ezgu ishlar ustidan kulib, boshqalar ustidan o'z hukmronligi bilan lazzatlanadilar.

licence *f* - *litsensiat ilmiy darajasi* // 1) Oliy ta'lim ikkinchi sikli birinchi yili tugagandan keyin olinadigan unvon. Tibbiyot va farmakologiyadan boshqa hamma mutaxassisliklarga beriladi. Bu unvonni olish uchun universitet ta'limi diplomi (q.diplôme d'études universitaires générales) va majburiy va fakultativ fanlar kursi o'tilganligi to'g'risida guvohnoma (q.unité de valeur) yoki ijtimoiy, aniq fanlar dastursiga kirgan fanlardan imtihonlar topshirish kerak bo'ladi. 2) Litsensiat ilmiy darajasini tasdiqlovchi davlat diplomi (q.licencié). Iqtisodiyot sohasida ishga joylashishda imtiyoz bermaydi, boshlang'ich va o'rta maktab o'qituvchisi (q.professeur des écoles) vazifasi tanlovida qatnashishga ruxsat bermaydi.

licencié *m* – *litsensiat* // Universitet ilmiy darajasini olgan shaxs (q.licence).

Limousin *m* – *Limuzen* // Fransiya markazidagi ma'muriy hudud (q.région). 3 ta departamentdan iborat: Korrez, Krez, Yuqori Vienna. Yer maydoni 16942 kv.km. (metropoliya maydonining 3 foizi). 1992-yil 1- yanvardagi hisob-kitobga ko'ra aholisi - 718900 kishi (Fransiya aholisining 1,3 foiz qismi). Ma'muriy markazi-Limoj. Asosiy shaharlari: Briv-la-Gayard, Tyul, Gere, Yussel. Markaziy massivning shimoliy-g'arbida joylashgan. Iqlimi – salqin va nam. Yeri

unchalik hosildor emas, shuning uchun asosiy qishloq xo‘jalik ekinlari – kartoshka va qora bug‘doy yetishtiriladi. Go‘sht yetishtirish rivojlangan. Mehnatga yaroqli aholining 20 foizi ishlab-chiqarishda: chinni (Limoj), gilam (Obyusson, Felten), to‘qimachilik va charm sanoati, elektr asboblari va qurol ishlab-chiqarish bilan band. O‘lkaning o‘ziga xos madaniy mulki (Limuzen-roman san’ati markazi) sayyohlarni o‘ziga jalb etadi. Bu yerda tavallud topganlar: rassom O. Renuar, yozuvchi Sh. Jirodu, prezident J. Shirak.

littérature classique - *klassitsizm adabiyoti* // XVII asrda klassitsizm (q.classicisme) fransuz adabiyotining eng nufuzli yo‘nalishi bo‘lgan. Unga antik mualliflarga taqlid qilish, aniq va oydin ifodalanish, keragidan ortiq so‘zlardan voz kechish (q.préciosité), janrlarni qat’iy chegaralash (komediya, drama, fars, roman, novella), ularni baland va pastga ajratish (birinchisiga – olijanob qahramonlari bilan – tragediya, ikkinchisiga – oddiy burjua qatnashgan komediya) kabi xislatlar mos. Klassitsizm nazariyotchisi Bualo (1636-1711) bo‘lib, klassitsizmning asosiy qoidalarini “Poetik san’at” (q.“Art poétique”) poemasi bayon qilgan. Yo‘nalishning buyuk namoyondalari: fransuz tragediyasi yaratuvchilari Per Kornel (1606-1686) va Jan Rasin (1639-1699), buyuk komediyashunos Molyer (1622-1673), ertakchi Sharl Perro (1628-1703), masalchi Lafonten (1621-1695), nasihatgo‘ylar Labryuer (1645-1696), Laroshfuko (1613-1680) (q. morallistes).

littérature courtoise - *(fransuzcha cour-saroy, courtois-boadab, xushmuomala) o‘rta asrlarda g‘arbiy Yevropada ritsarlikni tarannum qilgan saroy adabiyoti (XII-XIV asrlar)* // Tabaqalar shon-sharafi va mag‘rurligi timsolini shaxsiy iftixor va ma’naviy yetuklik uchun ma’shuqasiga beg‘araz, fidokorona xizmat qilishni kuylaydi.

logement f - *kvartira, uy-joy* // Fransuz kvartirasi odatda 2 yoki 4 xonadan: oshxona, cho‘milish xonasi, hojatxonadan iborat. 70 foiz kvartiralar qulayliklarga ega (markaziy isitish moslamasi, ichki hojatxona, cho‘milish xonasi, qaynoq suv). Yashash sharoitiga ko‘ra fransuzlar 2 toifaga bo‘linadi: shaxsiy uyda yashovchilar

(q.maison individuelle) va davlat yoki xususiy uylar kvartirasida istiqomat qiluvchilar (immeubles). Parijdagi bunday uylarning yarmidan ko'prog'i bir necha xo'jayinga (immeubles en copropriété) tegishli. Xususiy kvartiralarga 60 foiz savdogarlar va ishlab chiqaruvchilar, 27 foiz ishchilar ega. "Ijtimoiy turarjoylar" ham mavjud bo'lib, kam ta'minlangan fuqarolar uchun qurilgan davlat kvartiralari (habitations à loyer modéré)dir. 50-70-yillarda turarjoy qurilishi iqtisodning yetakchi bo'limi bo'lgan. 70-yillarning o'rtalariga kelib, qurilish tugatildi va turarjoy inqirozi (crise du logement) boshlandi, katta shaharlarda kvartiralar bahosi keskin ko'tarildi, "ijtimoiy turarjoylar"soni kamaydi. 1986-yildan boshlab ahvol yaxshi tomonga o'zgara boshladi. 1992-yil Fransiyada 27 mln. kvartira bo'lib, ularning yarmisi xususiy mulk edi.

Loire f – *Luara* // Fransiyadagi daryolarning eng kattasi. Uzunligi -1012 km. Uning basseyni mamlakat Yer maydonining 20 foizini: Markaziy massivning sharqiy qismi, Parij basseynining janubiy qismini va Armorikan balandligining janubiy-sharqiy qismini egallaydi (q.Massif central, Bassin parisien Massif armoricain). Markaziy massivdan boshlanib, Atlantika okeani (q.Atlantique océan)ga quyadi. Chapdan asosiy irmoqlari: Ale, Sher, Venn; o'ngdan: Nevr, Men. Aylana kanallarda va etaklarida kemalar qatnaydi. Sohillaridagi yirik shaharlar: Orlean, Tur, Nant. AES lar qurilgan. Luarada va uning irmoqlarida dunyoga mashhur tarixiy va me'moriy yodgorliklar mavjud (q. Château de la Loire).

Lorraine f - *Lotaringiya* // Fransiya sharqida Germaniya bilan chegaradagi ma'muriy hudud (q.région). 4 ta departamentdan iborat: Mez, Mert-i-Mozel, Mozel, Voge. Yer maydoni - 23547 kv. Km (metropoliya maydonining 4,3 foizi). Aholisi 1992-yil 1-yanvar hisobiga ko'ra, 2 298 600 kishi, mamlakat aholisining 4 foizini tashkil etadi. Ma'muriy markazi - Mets. Asosiy shaharlari: Nansi, Tionvil, Agondanj, Epinal. Hudud Parij basseynining qismi bo'lib, sharqda Vogezi qiyaliklarini, g'arbda ohaktoshli plato kuest qatorlari va daryoli vodiylarni o'z ichiga olgan. Seryog'in va kontinental iqlim o'rmonlar o'sishida muhim omildir. Zamonaviy qishloq xo'jaligida yirik mexanizatsiyalashgan, tor ixtisoslashgan

(don, asosan arpa, go'sht-sut chorvachilik) korxonalar mavjud. Sanoat asosida – foydali qazilmalar: tuz, toshko'mir, temir rudasi qazib olish. 70-yillarda iqtisodiy inqiroz ta'sirida toshko'mir va metallurgiya sanoati to'xtab qoldi va ishsizlikni ko'paytirdi. Ilgari gullab yashnagan to'qimachilik sanoati osiyo mamlakatlari raqobatiga dosh bera olmadi. Zamonaviy sanoat Metsa va Nansi universitetlari bazasidagi ilmiy- tadqiqot markazlari bilan bog'langan. Tarixiy va madaniy qadriyatlar, o'rmon massivlari, mineral suvlari bilan bu hudud sayyohlar va dam oluvchilarni o'ziga chorlaydi. Bu yerda tug'ilgan mashhur kishilar: P.Verlen, yozuvchi E. Gonkur, zamonaviy gobelenlar yaratuvchisi J.Lyursa, matematik A.Puankare, futbolchi M. Platini va boshqalar.

Louis XIV - *Lyudovik XIV (1638-1715)* // *Lyudovik XIII (1610 -1643)* va *Anna Avstriyskaya (1601-1666)*larning o'g'li, «quyosh qirol» laqabli Fransiya qiroli (1643-1715). Yosh qirol dunyoqarashining shakllanishiga, uning yakka hukmronligiga Fronda va Mazarini (1602-1661) kardinali tarbiyasi (ona qirolicha vaqtincha hokimligi davrida (q.régent, -e)) ta'sir ko'rsatdi. Uning hukmronligida absolyutizm yuksak darajaga ko'tarildi. « L'Etat c'est moi » (Davlat - bu men) - qirol iboralaridan biri. 1661- yil Mazarini vafotidan keyin qirol o'zi premer-ministr bo'lishini e'lon qildi va 54 yoshida moliya vaziri J.B Kolber (1619-1683)ga tayanib, ichki va tashqi siyosat bilan shaxsan o'zi shug'ullandi. U hukmronlik qilgan davrda qondosh shahzodalar va oliy dvoryanliklar vazir lavozimini egallamay, qirolga saroyda xizmat qildilar. Vazirlik lavozimini aslzoda bo'lmagan har bir qobiliyatli, qirol ishonchini qozona olgan kishi egallashi mumkin bo'ldi. Qirol intendant (armiyada moddiy ta'minot bilan shug'ullanuvchi xodim) lavozimini tashkil qildi va har bir provinsiyada uning nomidan boshqarila boshlandi. Lyudovik XIV saroyi ayniqsa, 1682-yil qurib bitkazilgan Versal (q.Versailles)ga ko'chishgandan keyin muhtashamligi va dabdabaliligi bilan hayratga solar edi. Qirol fanga va san'atga homiylik qildi, uning davrida fanlar Akademiyasi (q.Académie des sciences), tasviriy san'at, musiqa va me'morchilik tashkil topdi; Qirollik rasadxonasi «Komedi Fransez» teatri (Comédie Française)ga

asos solindi. San'atdagi yo'nalishni o'ziga bo'ysundirishga harakat qilib, u klassitsizmni rasmiy qabul qilingan yo'nalish deb e'lon qildi va tasviriy san'at, me'morchilikda o'z uslubini yaratdi (q. style Louis XIV). Uning hukmronligi ulkan harbiy zafarlar bilan boshlanib, oxirida halokatli mag'lubiyatlar, juda katta qarzlar va mamlakat iqtisodiyoti qulashi bilan yakunlandi.

Louvre *m - Luvr* // Sena daryosining o'ng sohilida joylashgan Fransiya qirollarining Parijdagi sobiq qarorgohi; Filipp Avgust (1204) davridagi qal'a; Karl V (1338-1380) hukmronligida qirollar qarorgohi; Fransisk I (1494-1547) zamonidagi saroy. Uning janubi-g'arbiy burchagidagi «Kvadrat saroyi» eng qadimgi qismi bo'lib, 1527-yil me'mor P.Lesko tomonidan qurilgan va haykaltarosh J.Gujon tomonidan Renessans (q.Renéissance) uslubida bezatilgan. O'ng qanoti «Pavilon soati» bilan 1624-yil klassitsizm uslubida (q.art classique) me'mor D.Lemerse (1585-1654) tomonidan qurib bitkazilgan. Sharqiy fasadi mashhur kolonnalari bilan me'mor K. Perro (1613-1688) tomonidan loyihalashtirilgan. 1680-yil qirollik qarorgohi Versalga ko'chirildi va Luvr bo'shab qoldi. Faqat XIX asrning boshlariga kelib, Napoleon I ning buyrug'iga ko'ra eski binoni ta'mirlab, me'mor Sh. Perse (1764-1838) va P. Fonten (1762-1853) loyihasi bilan yangi saroy qurish boshlandi. II Imperiya davrida (q.Empire (Second)) ishlar L.Viskonti va G.Lefyuel rahbarligida davom etdi. Buyuk fransuz Revolyutsiyasi (q.Révolution française) davrida saroyda muzey ochilgan (q. musée du Louvre).

Lumières (les) - *ma'rifatparvarlar* // Ma'rifat davri arboblari (q.Lumières). Fransuz ma'rifatparvarlarining uch avlodini ajratadilar. Birinchi avlodga Volter va Monteske (Fr. M.Arouet, dit Voltaire, 1694-1778; Ch-L. de Secondat, baron de la Brède et de Montesquieu, 1689-1755). Volter o'zining falsafiy va adabiy asarlarida («Lettres philosophiques», 1734; «Traité sur la tolérance»; 1763) despotizmni fosh qildi. Uning kulgusi va hazili fanatizmdan jaholat- bilimsizlikdan va eskilik xurofotlaridan ozod bo'lishga yordam berdi. «Qonunlar ruhi haqida»gi («De l'esprit des lois», 1748) yirik asar muallifi Monteske hukumat absolyutizmiga qarshi, hukumat bo'linishi (ijroya, qonun

chiqaruvchi va sud)ga qarshi chiqdi. Ikkinchi avlodga qomusshunos (q.ensyclopédistes)lar kiradi. Uchinchi avlodga J.J.Russo (Rousseau, 1712-1778) mansub. Uning ta'kidlashicha ijtimoiy tengsizlikning asosiy sababi xususiy mulkchilik va Konstitutsiya qonun oldida barcha tengligini kafolatlashi kerak («Discours sur l'origine de l'inégalité», 1755; «Du Contrat social; 1762). Russo fikrlari «Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi », 1789 (q.«Déclaration des droits de l'homme et du citoyen) asosini tashkil etdi.

Lumières *f pl - Ma'rifat (davri)* // G'arbiy Yevropada XVIII asrda tarqalgan falsafiy oqim. Fransiyada ratsionalistlar (q.Rationalisme) P.Beyl (1647 – 1706) va B. de Fontenel (1657-1757) ta'sirida paydo bo'ldi. Asosida – aql, ong haqida karteziyan ta'limoti (q.cartésianisme), diniy bid'atlar va o'rta asrlar xurofoti bilan kurash, ilmga ishonch, ilmiy taraqqiyot va hk. O'z aksini adabiyotda namoyon qildi, ma'rifat yozuvchilari dvoryan klassitsizmiga uning ideal qahramonlari bilan xalqdan chiqqan oddiy insonni taqqoslaydilar va shu bilan realizm rivojiga ulkan hissa qo'shdilar.

lycée d'enseignement général et technologique - *texnologik va umumta'dim litseyi* // Sobiq umumta'lim (lycée d'enseignement général) va texnik litseylar (lycée technique). 1989- yildan yangi nomi 2 - sikl o'quv yurti, o'quvchilariga to'liq o'rta ma'limot beriladi. Litsey boshliqlari – direktor (proviseur), uning o'rinbosari (proviseur adjoint). O'quv muddati – 3 yil. 2-, 1- va bitiruvchi sinflar. 2- sinfda majburiy fanlar (q.tronc commun), bo'lg'usi ixtisoslik bo'yicha ixtiyoriy ikki fan, ular orasida lotin va grek tili, 1-2- xorijiy til, shuningdek, san'at yoki sportdan fakultativ mashg'ulotlar o'tiladi. Oxirgi 2-sinfda bakalavr darajasi uchun imtihon topshirishga tayyorlaydi. 1994-yilgacha umumta'limda -10 ta yo'nalish, texnologik ta'limda -20 ta yo'nalish bo'lgan. Hozirgi vaqtda ular kam va bakalavr darajasiga imtihonlar soniga bog'liq. Umumta'lim fanlar uchta asosiy qismlarga bo'lingan: **L** (lettres) - adabiyot, tillar, san'at; **S** (scientifique)- fan: matematika – fizika, matematika - tabiatshunoslik, matematika- texnika; **ES** (sciences et économiques et sociales) iqtisod va

sotsiologiya. Texnologik ta'lim sohasida oltita asosiy bo'lim mavjud: **STI** (sciences et technologies individuelles) fan va sanoat ishlab chiqarish texnologiyasi; **STL** (science et technologie de laboratoire) laboratoriya tadqiqotlari nazariyasi va amaliyoti; **SMS** (sciences- médico- sociales)- ijtimoiy tibbiyot fanlari; **STAE** (sciences et technologies de l'agronomie et de l'environnement)– qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish nazariyasi va amaliyoti va ekologiya; **STPA** (sciences et technologies du produit alimentaire) – oziq - ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish nazariyasi va amaliyoti; **STT** (sciences et technologies tertiaires)- savdo-sotiq nazariyasi va amaliyoti va xizmat ko'rsatish sohasi.

lycée professionnel (LP) - *kasb-hunar litseylari* // Kollej bitiruvchilarining kasb-ta'lim va o'rta ta'limni davom qildirish o'quv yurti. 1985-yildan boshlab kasb ta'limi litseyi (q.lycée d'enseignement professionnel) o'rniga faoliyat yuritadi. O'quv muddati 2 yoki 4 yil. Oldingi 2 yil ichida o'quvchilar kasb tayyorgarligi to'g'risidagi guvohnoma yoki kasbga layoqatlilik to'g'risidagi (q.brévét d'études professionnelles, certificat d'aptitude professionnelle), ayrim hollarda har ikkoviniyam olish uchun imtihon topshirishga tayyorgarlik ko'rishadi. 40 % atrofidagi bitiruvchilar 2 yildan keyin ishga ketishadi, qolganlari yana 2 yil o'qib, bakalavr kasb-hunar diplomini (q.baccalauréat) olishga tayyorgarlik ko'rishadi. Eng yaxshi bitiruvchilar umumta'lim yoki texnologik ta'lim litseylariga o'qishga o'tishlari mumkin (q.lycée d'enseignement général et technologique).

lyrisme courtois ñ *kurtuaz lirikasi* // Fransiyada trubadur va truverlar (q.troubadour, trouvère) she'riyatida namoyon bo'lgan. Ilk bor Langedok va Provansda XI asrda «ok» tilida kuylagan trubadurlar she'riyatida (q.langue d'oc) go'zal ayolga muhabbat va ta'zimda paydo bo'lgan. Oldin Fransiya, keyin Angliya qirolichasi Alenora Akvitanskaya (1122-1204), hamda uning ikki qizi sharofati bilan saroyda truverlar bo'lgan, kurtuaz lirikasi «oyl» tilida Fransiya shimolida paydo bo'ldi (langue d'oïl). Kurtuaz lirikasi asosiy janrlari bo'lgan ballada va pastoral (balladde, pastourelle) ishlab chiqildi. Oddiy va jiddiy uslubga teskari «Roland haqida qo'shiq» (q.shanson de Roland) ular murakkabligi va nafisligi

bilan farq qilar edi. Trubadurlar sharofati bilan Yevropa sheriyatida rifma - qofiya paydo bo'ldi.

M

Madeleine (église Sainte-Marie-Madeleine) - *Muqaddas Mariya Magdalena cherkovi* // 1763-1840-yillarda Parijda qurilgan. 1806-yil Napoleon I ning buyrug'iga ko'ra, bu yerda harbiy shon-shuhrat muzeyini qurush uchun, cherkovning qurilgan qismi buzib tashlandi va qurilish qaytadan boshlandi. Lyuodovik XVIII davrida binoning qurilishi baland podium va 52 korinf kolonnalari, 8 ta kolonnaga o'rnatilgan yodgorlik frontoni asosiy fasadi klassik uslubda yakunlanib, uni cherkovga berildi. Cherkov Burbon saroyi manzarasi (q.Palais-Bourbon) - Konkord maydoni (q.Place de la Concorde) – Qirollik ko'chasi (rue Royale)ning chiroyli ko'rinishi bilan yakunlanadi.

mai 1968 (événements de) - *1968-yil may voqealari* // “Qizil may” (mai rouge) nomini olgan. V Respublikaning chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqirozi. Talabalarning 1967- yil oliy ta'lim sohasida demokratiyani talab qilgan ommaviy chiqishlari, Nanterra Universiteti va Parij Sorbonnasi yopilishiga olib kelgan Lotin kvartalida (q. Quartier Latin) talabalarning politsiya bilan to'qnashuvidan boshlandi. Talabalarni shafqatsiz jazolash qatag'on jabrdiylari bilan 13-maydagi birdamlik namoyishiga olib keldi. Namoyishni kasaba uyushmalari va Fransiya kompartiyalari (q. Parti communiste français) boshqardi. Bir vaqtning o'zida butun mamlakatni bir necha kun qamrab olgan iqtisodiy talablar bilan ommaviy ish tashlashlar bo'lib o'tdi. Talabalar, anarxistlar va so'l elementlar (gauchistes) kasaba uyushma va kompartiya vakillari yo'lboshchilari orasida ish tashlovchilar talablari bo'yicha ko'p kelishmovchiliklar yuzaga keldi. 27 - mayda Grenell shartnomasi (accords de Grenelle) hukumat, kasaba uyushma va tadbirkorlar o'rtasida imzolandi. Natijada oylik maosh 14 % ga , eng kam ish haqi – 35 % ga, ishsizlik nafaqasi - 15% ga, nafaqalar 15-20 % ga oshirildi. Oliy

ta'lim tizimini isloh qilish qonun loyihasi tayyorlandi. Shu bilan birga Prezident hukumatga o'zgartirishlar kiritdi, Milliy Assambleya (q.Asssemblée nationale)ni tarqatdi, muddatdan oldingi parlament saylovlarini chaqirdi va bu saylovlarda «Respublikani himoyalash demokratlar ittifoqi» (Union des démocrates pour la V République) dyagallar partiyasi g'olib chiqdi. Bu esa V Respublika rejimini mustahkamladi. 1968-yil iyunda ish tashlash yakunlandi.

magistère *f* - *magistr diplom* // Universitetning ikkinchi siklidagi uch yil ta'limi davomidagi jiddiy kasb tayyorgarligini tasdiqlovchi diplom. 1985-yilda muhandislik maktablari bitiruvchilarining kasb mahoratini oshirish va xalqaro talablarga javob berishni ta'minlash maqsadida kiritildi. Diplom beruvchi o'quv yurtlar ro'yxati xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Ularning ko'pchiligi - Oliy maktablar (q. Grands écoles), shular qatorida san'at oliy o'quv yurtlari ham bor. Magistr diplomini olish uchun umumiy Universitet ta'limi (q.Diplôme d'études universitaires générales) diplomiga ega bo'lish va tanlov imtihonlarini topshirish lozim bo'ladi. Magistère diplomining maîtrise diplomidan ustunligi shundaki, uning sohibi ishlab chiqarish stajirovkasidan keyin kasbiy tajribaga ega bo'ladi.

maison *f* ñ *uy* // Qadimda uylar faqat mahalliy qurilish materiallaridan qurilgan, shuning uchun ham mamlakat hududida 80 % uylar turli-tuman toshlardan qurilgan. Shimolga faxverk qurilishlar (q.maison en colombages) xos, Luara daryosi bo'ylab qasr va dang'illama uylar oq qumtoshdan (tuffeau), janubdagi uylar asosan sariq-pushti qumtoshdan (q.maas) qurilgan. Qishloq joylardagi uylar tomi poxol, cherepitsa, shifer yoki toshtaxta bilan yopilgan. Qishloq uylari me'morchiligi - «gall» (odatda bir qavatli, tomi tik ko'tarilgan, bunday uylar shimolda, g'arbda va mamlakat markazida anchagina) yoki «lotin» (ko'p qavatli, katta devorli, tekis cherepitsa tomli, oynalari kam, salqin tosh pollik) tipida. O'rta asr qal'a devorlari bilan o'ralgan shaharlarda joy kam bo'lgan tor yerlarda uylar tepaga qarab qurilgan. Birinchi qavat - do'kon, ikkinchi qavat - mehmonxona yoki oshxona, uchinchi qavatda-yotoqxonalar joylashgan. Cherdakni

xizmatkor egallagan. Qavatlarni tik aylanma zina bog'laydi. Bunday uylardan juda kam saqlanib qolgan, biroq ular hozir zamonaviy qulayliklarga ega va shahar tashqarisidagi uy (q. Résidence secondaire) bo'lib xizmat qiladi. Urbanizatsiya sharoitida shahar ko'chalarida 5-6 qavatli burjuaziya uylari saf tortdi. Eskirgan uylar o'rnida zamonaviy turar-joy massivlari o'ziga xos me'morchiligi bilan qad rostladi. Ammo bunday uylar faqat ta'minlangan fuqarolar uchun; ko'pchilik turar-joy zonolari - bir xil to'g'ri burchakli beton va oynavand minorali uylardir.

maison de la culture - *madaniyat uyi* // 50-yillar oxirida madaniyat va san'atni targ'ib qilish maqsadida yozuvchi va madaniyat vaziri bo'lgan A.Malro (1901-1976) tashabbusi bilan tashkil etilgan. Moliyalash ishlari mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari va davlat tomonidan teng bo'linadi. Teatr, konsert va ko'rgazma zallari, kinoklub, diskoteka, kutubxonalar bilan xizmat ko'rsatadi. Aholisi 100 mingdan ortiq bo'lgan shaharlarda mavjud: kichikroq shaharlarda madaniyat markazlari (Centres d'action culturelle) tuziladi va mahalliy organlar tomonidan moliyalashtiriladi. Madaniyat uylari qurilishida mashhur me'morlar qatnashgan: G.Lano, M.Veyl, J.Dmitrevich, G.Odije (Gavrda), Le Korbyuze (Firminda), A.Vojenskiy (Grenoblada) va boshqalar.

Maison de Molière - *Moler uyi* // «Komedi fransez» teatrining norasmiy nomi (q.Comédie -Française).

maison des jeunes et de la culture (M.J.C.) - *Yoshlar va madaniyat uyi* // Katta shaharlar, yangi kvartallarda, kichkina shahar va shahar atrofida joylashgan madaniy-ma'rifiy tashkilotlar. Munisipalitet tomonidan moliyalashtiriladi. Yoshlar bilan madaniy, o'quv va sport ishlari (Teatr postanovkalari, filmlar tomosha qilish, ma'ruzalar, sport musobaqalari, turli kurslar, to'garaklar va hakoza) tashkil qiladi. Yoshlar va madaniyat uylarining ikkita: «Yoshlar va madaniyat uylari Fransiya federatsiyasi» va Yoshlar madaniyat uylari hududiy ittifoqi («Fédération française des M.J.C.» et «Union des Fédérations régionale des M.J.C.») yirik assotsiatsiyasi mavjud. Bir million a'zoga

ega. 80-yillardan beri yetarli moliyalashtirilmayotganligi bois inqiroz yuzaga kelgan.

maison en colombages - *faxverk uy* // Tosh fundamentli, uning ustidan tik va biri ustiga ikkinchisini ko'ndalang qilib smola bilan to'yintirilgan to'sin mahkamlanadi; ular orasi g'isht yoki loy, poxol, shag'al bilan to'ldiriladi. Tashqarisidan oq suvoq qilinadi. Bunday uylar mamlakatning ko'pgina shimoliy hududlarida uchraydi.

maîtrise *f* - *magistratura* // 1) oliy ta'limning ikkinchi siklini muvaffaqiyatli tugatgach olinadigan magistr ilmiy darajasi (q.enseignement supérieur). Tayyorlov muddati – 1 yil (ikkinchi sikl ta'limining ikkinchi yili). Lisensiyat diplomi bo'lsagina beriladi (q.licence). 1984 -yildan boshlab tibbiyot va farmatsevtikadan tashqari barcha universitetlar ixtisosliklari bo'yicha mavjud. Diplom olish uchun ilmiy tadqiqot ishini bajarib, mazkur mavzu bo'yicha diplom ishi yoqlash kerak bo'ladi. 2) Universitet ta'limini yakunlovchi magistr ilmiy unvonini beruvchi davlat diplomi. Politsiya komissari (q.agrégation) yoki litsey o'qituvchisi vazifasini egallash uchun, milliy tanlovda qatnashish uchun zarur.

majorité absolue - *mutlaq ko'pchilik ovoz* // Prezident saylovlarida, xalq Majlisiga yoki boshqa organlarga birinchi turda 50 foizdan bitta ovoz olgan, ammo okrugdagi qayd qilingan saylovchilardan 25 foizdan kam ovoz olmagan nomzod saylangan hisoblanadi (q.élection présidentielle, élection à l'Assemblée nationale).

majorité relative - *nisbatan ko'pchilik ovoz* // Ikkinchi turda ko'proq ovoz to'plagan nomzod g'olib chiqadi (q.élection présidentielle, élection cantonale).

Manche (la) - *La Mansh* // Buyuk Britaniya oroli bilan Fransiya shimoliy sohillari orasidagi bo'g'oz. Pa-de Kale bo'g'ozi bilan Shimoliy dengiz (mer du Nord) va Atlantika okeani (q.Atlantique océan)ni bog'laydi. Uzunligi 520 km atrofida, g'arbiy qismida eni 180 km, sharqiy qismida - 32 km. Eng chuqur joyi

172 m. Asosiy fransuz portlari: Gavr, Bulon, Sherbur, Kale. 1994-yilda bo'g'oz ostidan o'tadigan tunnel qurildi. (q. Eurotunnel).

maquis *m* - *maklar* // 1) Qalin, o'tib bo'lmaydigan butazor o'sgan O'rta yer dengizi landshafti (archagul, lavr daraxtlari). 2) Ikkinchi Jahon urushi davrida qarshilik (q.Résistance) harakati qatnashchilari yashiringan tog'da yoki o'rmondagi uzoq joylar. 3) Nemis okkupatsiyasi (1940- 1944 yillar) davrida Fransiya partizanlik harakati.

maquisard *m* - *Qarshilik harakati qatnashchisi (q.Résistance), partizan, nemis okkupatsiyasi davrida 1940-1944-yillar (q.maquis) maxfiy tashkilot aʼzosi.*

Mardi Gras *soʻzma - soʻz oʻyogʻi seshanba* // Diniy bayram (qishni kuzatish bayrami q.Carnaval). 3-fevral bilan 9-mart oralig'ida post (ro'za (xristianlarda: go'shtli, sutli, tuxumli taomlarni yeyish man qilingan kunlar)dan avval oxirgi seshanba (le Carême) kuni nishonlanadi. Shu kuni quymoqlar pishiriladi, xursandchilik qilinadi, karnaval yurishlarini tashkil qilishadi.

Marianne – *Marianna* // Allegorik qahramon – frigiylar qalpoqchali (q.bonnet phrygien) yosh ayol, Fransiya respublikasi timsoli. Buyuk Fransuz revolyutsiyasi (q.Révolution française) davrida paydo bo'ldi. Bu nom, bir taxminga ko'ra Deva Mariya va uning onasi Anna (Marie-Anne) ismlaridan kelib chiqqan, boshqa taxminga ko'ra - Ikkinchi Imperiya vaqtida yashirin respublika jamiyati nomidan kelib chiqqan. Marianna suratini Delakruaning «1830-yil 28-iyulda xalqni barrikadaga boshlagan ozodlik» kartinasida va haykaltarosh F.Ryudning Parij Triumfal Arkidagi «Marsel'ez» barelyefida ko'rish mumkin. Mariannaning byusti mamlakatning barcha munitsipalitetlarida turibdi. Uning haykal – portretlarini yaratayotib, rassomlar oxirgi yillarda model sifatida mashhur aktrisa, xonanda va manekenshitsalardan foydalanishadi. Bular Brijitt Bardo, Katrin Denyov, Mirey Mate, Ines de la Fressanj va Letitsiya Kaast.

Marseillaise (la) ñ *Marseleza* // Fransiya Respublikasi milliy madhiyasi. Ruje de Lil (1760-1836) so'zi va musiqasi. 1792-yil Strasburgda «Reyn

armiyasining jangovar qo'shig'i» (Chant de guerre de l'armée du Rhin) sifatida yozilgan, keyin (Marselliklar gimni) (L'Hymne des Marseillais) Marseleza deb atala boshlangan, chunki bu vatanparvarlik sadolari ostida Buyuk fransuz revolyutsiyasi (q.Révolution française) vaqtida Parijga Marsel polki kirib kelgan. 1795-yil 14-iyuldagi dekretda davlat madhiyasi deb e'lon qilingan. 1958-yilgi Konstitutsiyaning 2-bandida madhiya maqomi mustahkamlangan.

Martinique *f ñ Martinika* // Karib dengizi orollarida va Kichik Antil orollari arxipelagida joylashgan Fransiya zamorsk departamenti (q.département d'outre-mer). Maydoni 1,1 ming kv. km. Aholisi – 359572 kishi (1995-yilgi hisobga ko'ra). Iqtisodiyotining asosi – qishloq xo'jaligi (ananas, banan, shakarqamish), sayyohlarga xizmat ko'rsatish, asosan Fransiya va AQSH lik sayyohlar. Iqtisodi ancha yuksalayotgan bo'lishiga qaramay, ishsizlar soni ko'p va ko'plab yosh martinikaliklar chetda ishlashga majbur. Orol 1502-yilda Xristofor Kolumb tomonidan kashf etilgan, 1635-yildan beri Fransiya mustamlakasi va Afrikalik qullar ishlatiladi. 1848-yil qullik bekor qilindi. XVIII- XIX asrlarda Orol Buyuk Britaniya tomonidan uchinchi marta bosib olingan. Zamorsk departamenti maqomini 1946–yilda oldi. Fransiya hukumati nomidan Respublika Komissari keng vakolatlari bilan ish yuritadi; mahalliy boshqaruv organlari Bosh va hududiy (1983-yildan beri) kengashlardir. Parlamentda 4 nafar deputat va 2 nafar senator ko'rsatilgan. Tillari - fransuz (rasmiy) va kreol (patua)

mas [ma(s)] *m - mas* // Sariq–pushti qumtoshdan qurilgan Fransiya janubidagi (yuqori Provans) qishloq uyi.

Massif armoricain - *Armorikan massivi* // Fransiyaning shimoli - g'arbiy chekkalarida (q.Finistère) joylashgan. Qadimgi, juda vayron bo'lgan tepalik, balandligi sharqiy qismida 400 metrga yetadi. Ko'plab daryo vodiylariga bo'lingan.

Massif central *ñ Markaziy massiv* // Fransiya markaziy qismidagi tepalik. Mamlakatning eng qadimgi qismi (200 mln. yildan ko'proq), kristal jinslardan

hosil bo'lgan. Qiyaligi shimoliy-g'arbga engashgan. Massivning janubi - sharqiy o'lkasi – Sevenna tog'lari - Rona vodiysiga (q.Rhône) va Langedok tekisligiga tik yiqilib tutashgan. Markaziy qismida avvalgi vulqon qoldiqlari saqlangan: o'chgan vulqon konusi, ko'l hosil qilgan kraterlar, keng lava dalalari, mineral manbalar (Vichy, Mont-Dore, La Baurboule), Puy de Sancy (1886 m) va Cantal (1858m) so'ngan vulqonlar – massivning eng baland nuqtalaridir. Tepalikda Luara daryosi (q.Loire) va uning irmoqlari, Garonna daryosi (q.Garonne) irmoqlari boshlanadi. Sevennada 1971-yildan beri 82200 gektarlik milliy tabiat parki (Parc national des Cévennes) ochilgan.

mastère *m - óusta* // bir yil davomida mutaxassisning xususiy oliy o'quv yurti (shuningdek Oliy maktablarda q.Grandes écoles)da kasb tayyorgarligidan o'tganini tasdiqlovchi sertifikat.

Maures *m pl - Mor* // Eradan Frejyusga tomon cho'zilgan Quyi Provansdagi kristal jinslardan tarkib topgan qadimgi tog' massivi. Tog' cho'qqilari qora slonets jisimli dumaloq shaklda bo'lib, yongan o'rmon bilan qoplangan. Eng yuqori nuqtasi (signal de la Sauvette) - 780 metr.

Mayotte *f – Mayotta* // Komor arxipelagi orollari va Hind okeanida shu nom bilan ataluvchi oroldagi Fransiya hududiy birligi. Yer maydoni 373 km². Aholisi - (Mahorais) 67 000 kishi. Ma'muriy markazi Mamudzu (Mamoudzou) shahri. Iqtisodi ziravorlar, xushbo'y yog'lar, vanil, chinnigul, sitrus mevalar, shakarqamish, kokos yong'og'ining mag'zini, qahva yetishtirishga ixtisoslashgan. 1946-yildan boshlab Fransiya zamorsk hududi (q.territoires d'outre – mer). 1961-yilda ichki avtonomiya (muxtorlik)ni oldi. 1974-yilda Komor referendumi natijasida mustaqil bo'ldi, ammo Mayotta oroli Fransiya tegishli bo'lib qoldi. Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organi - Bosh Kengash. Fransiya hukumatidan respublika komissari ish yuritadi. Mamlakat parlamentida oroldan 1 nafar deputat va 1 nafar senator bor.

Méditerranée (la) - Oʻrtayer dengizi // Janubiy Yevropa, Gʻarbiy Osiyo va Shimoliy Amerika orasida 2,5 mln. km² lik akvatoriya maydoni. Gibraltar boʻgʻozi bilan Atlantika okeani, Suets kanali bilan Qizil dengiz Dardanella boʻgʻozi bilan Marmar, Bosfor orqali - Qora dengizlar bilan bogʻlanadi. Eng koʻp chuqurligi 5093 m. Juda shoʻr suvli issiq dengiz. Yirik orollari Korsika (q.Corse) orasida. Asosiy Fransiya portlari Marsel va Tulon. Lazur sohili kurortlari (q.Côte d'Azur) dunyoga mashhur. Oʻrtayer dengizi qirgʻoqlarida grek-lotin taraqqiyoti paydo boʻlgan va fransuz madaniyati shakllanishiga katta taʼsir oʻtkazgan. Hozirgi kunda bu yerdan eng muhim dengiz yoʻllari oʻtadi va Fransiyaning Afrika va Janubiy Yevropa bilan bogʻlaydi.

mégalthé m – megalit // Eramizdan avvalgi 3-2 ming yilliklarda ishlov berilmagan tosh palaxsalaridan qurilgan ibodatxonalar. Bretan (q.Bretagne)da uchraydi. Megalitlarga mengir (q.menhir), dolmen (q.dolmen) va kromlex (q.cromlech) kiradi.

menhir [*menir*] m - (bretoncha men-tosh, va hir-uzun) *mengir* // Yerga tik koʻmib oʻrnatilgan balandligi 4-5m. boʻlgan ishlov berilmagan tarixdan oldingi davr (q.mégalthé) toshi. Keyinchalik druidlarga (q.druides) va rimliklarga ibodatxona boʻlib xizmat qildi. Bunday yakka yoki bir chiziqqa qurilgan turnaqator toshlar Morbion va Bretan (q.Bretagne) departamentlarida topilgan va koʻplab Bretan afsonalariga, rivoyatlariga manba boʻlgan.

mer du Nord - *Shimoliy dengiz* // Fransiya, Buyuk Britaniya, Norvegiya, Daniya, Germaniya, Niderlandiya va Belgiya qirgʻoqlarini siypab oʻtadi. La – Mansh, Pa-de-Kale (q.Manche, Pas de Calais) koʻrfazlari uni Atlantika okeani bilan bogʻlaydi. Oʻrtacha chuqurligi 100 metr atrofida, Fransiya qirgʻoqlarida kuchli suv koʻtarilishi va pasayishlari boʻladi. Muhim iqtisodiy ahamiyatga ega, chunki u orqali Gʻarbiy Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlariga zarur savdo yoʻllari oʻtgan.

Mérovingiens (les) – *Merovinglar* // Frank qirollarining (481-751) birinchi dinastiyasi, nomi qirol Merovey (Mérovée) nomidan kelib chiqqan. Qirollik asoschisi Xlodvig (q.Clovis) vafotidan keyin Markaziy hokimiyat uning shogirdlari toj talashgani tufayli zaiflashadi. VII asr oʻrtalaridan boshlab, “dangasa” (fainéants) laqabini olgan qirollar butun hokimiyatni mayordomlarga (maires du Palais), frank qirolligi yuqori amaldorlari qoʻliga oʻtdi. Karl Martel-mayordomlardan birining oʻgʻli (q. bataille de Poitiers) Pepin (Pepin le Bref) 751-yilda Merovinglarning oxirgisini taxtdan agʻdardi va yangi – Karolinglar dinastiyasini (q.Carolingiens) tashkil etdi.

métro *m* – *metro* // Fransiyada metro Parij, Marsel, Lill, Tuluza shaharlarida harakat qiladi. Lill va Tuluzada butunlay avtomatlashtirilgan. Parij metrosi - eng qadimgi metrolardan, 1890 - yil muhandis F.Benvenyu loyihasi va boshchiligida qurilgan. Uning nomini bekatlardan biriga berishgan – Monparnas Benvenyu. Metroda 16 ta liniya va 350 ta bekat mavjud. Bekatlar orasi bir-biridan uncha uzoq boʻlmagan, qulay, biroq shinam emas. Ayrim bekatlarning havosini tozalash qiyin, tigʻiz paytlarda vagon liq toʻla boʻladi. Oʻtish joylarida savdo-sotiq boʻladi, musiqa yangraydi. Sovuq qish kunlari ayrim bekatlarda uysizlarga bekatlarda tunashga ruxsat beriladi.

Meuse *f* – *Maas* // Fransiya, Belgiya va Niderlandiyadan oqib oʻtuvchi daryo. Umumiy uzunligi-950 km, shundan 500 km qismi – Fransiya hududida, Niderlandiya hududida Reyn (q.Rhin) deltasiga quyadi, dengiz sathidan 450 metr balandlikda Langr platosidan boshlanadi. Etak qismida Sedan shahri – quruqligi bor. Plato boʻylab Ardennaga (q.Ardenne) oqib, ajoyib tabiat manzarasini hosil qiladi. Shelda, Sena (q.Seine), Reyn daryolari bilan kanallar orqali bogʻlangan.

Midi ñ Pyrénées *m* – *Janub - Pireneya* // Fransiya janubidagi maʼmuriy hudud. 8 ta departamentni oʻz ichiga oladi: Arej, Aveyron, Yuqori Garonna, Jer, Lot, Yuqori Pireneya, Tarn, Tarn va Garonna. Yer maydoni - 45348 km² (metropoliyaning 8,3 % maydoni) 1992-yil 1-yanvardagi hisob boʻyicha, aholisi -

2 460900 kishi, yoki mamlakat aholisining 4,3 foizi. Ma'muriy markazi - Tuluza, asosiy shaharlari - Tarb, Albi, Montoban, Kastr. Turli reliyeflarga ega: janubda Pireneya tarmoqlari, Shimoliy - sharqda Markaziy massiv (q.Massif Central), markazda Garonna daryosi (q.Garonne) vodiysi. Iqlimi kuchli mavsumiy o'zgarishlar, janubda - tog' iqlimi, sharqda O'rtayer dengiziga yaqin. Qishloq xo'jaligi sut chorvachiligi, qo'ychilik va parrandachilikka ixtisoslashtirilgan. Bug'doy, sabzavotlar, mevalar va uzum yetishtiriladi. Oziq-ovqat sanoati tansiq taomlar: o'rdak jigari (foie gras), qo'y sutidan rokfor pishlog'i va mahalliy uzum navlaridan mashhur armanyak ichimligini yetishtiradi. Sanoatning an'anaviy bo'g'inlari: ko'mir, metallurgiya, to'qimachilik (jun matolardan) - susaygan. Oziq-ovqat va aviakosmik sanoati rivojlanmoqda. (Tuluza-kosmik tadqiqotlar markazi). Aérospatiale, Alcatel-Espace, Matra Marconi, Space kabi kompaniyalar o'z aerobus, yo'ldosh va Ariane raketalarini chiqaradi. Universitetlar bo'yicha ikkinchi shahar - Tuluza. Hududda, ayniqsa, Pireneyada, sayyohlik keng rivojlangan. Bu yerda tavallud topganlardan shoir K.Maró, matematik P.Ferma, rassomlar J.O.Engr va A.Tuluz - Lotrek, dengizda suzuvchi va kashfiyotchi J.F.Laperuz, siyosatchi L.Gambetta, siyosatchi „Humanité“ gazetasi asoschisi J.Jores, yozuvchi F.Sagan va boshqa taniqli kishilar bor.

millésime *m* - *vinoli shishada ko'rsatiladigan yil* // Vinoning yaratilishi va navi, sifati va bahosi uning ishlab chiqarilgan yili, ijobiy yoki salbiyligi (quyoshli kunlar, harorat, havo namligiga bog'liq)ga qarab chiqariladi. Har bir navli vino uchun o'zining „eng yaxshi yillari“ mavjud.

Aminetó *m soʻzl.* - **Amineó** // Yoshlar modasidagi yo'nalishlardan biri. Uning tarafdorlari amerikacha hamma narsani jonidan ortiq ko'radi, qora ko'zoynak taqib, Levis jinsi ko'ylaklar kiyib, koka-kola ichishadi va amerikacha kinodan zavqlanadilar.

minitel *m soʻzl.* - *minitel* // Telefon tarmoqlari orqali xabar tizimiga kira olish qurilmasi. Kichkina klaviaturali ekrandan iborat. Minitel orqali samolyotga,

teatrda chipta buyurtma berish, telegramma jo'natish, turli xabarlar olish (ob-havo, poyezdlar jadvali, teatr repertuari, birja aylanmalari to'g'risida), jamoatchilik fikri so'rovlarida qatnashish mumkin bo'ladi. Foydalanganligi uchun oylik to'lov ko'rsatilgan xizmatlardan kelib chiqib belgilanadi. Minitel – fransuzlar kashfiyoti (1978-yil), 1988 - yildan boshlab Fransiyaning barcha hududlariga kiritilgan.

mistral *m - mistral* // (magistral so'zidan vent- maitre) Provansning Rona (q.Rhône) vodiysida va O'rtayer dengizi sohillari yaqinida (q.Méditerranée) esuvchi shimoliy yoki shimoli - g'arbiy shamol. Yanvardan aprelgacha – kuchli va sovuq, suvning faol bug'lanishiga olib keladi. Yozda quruq va issiq, qyun ko'tariladigan. Hisoblashlaricha Mistral darmonsizlik, holsizlik, lohaslik, asab buzulishini keltirib chiqarar ekan.

Mittérrand (François) - *Fransua Mitterran (1916-1996)* // Fransiya davlatining siyosiy arbobi, Fransiya prezidenti (1981-1995) Ikkinchi Jahon urushigacha Parijda huquqni o'rgandi, talabalar rahm – shafqat katolik tashkilotini boshqardi, harbiy xizmatga serjant sifatida chaqirilgan, asirga tushgan, uch marotaba qochishga uringan. 1941-yil Fransiya «erkin zona»sigacha yetib bordi, davlat xizmatiga ishga kirdi (q.régime Vichy). Qarshilik harakati (q.Résistance) bilan aloqani yaxshiladi, sobiq harbiy asirlar harakatini tashkil etdi. Urushdan keyin 1946 - yildan boshlab deputat va senator bo'ldi, o'n bir marta vazirlik lavozimlarini egalladi, 1965-1974-yillarda prezident saylovlarida qatnashdi, biroq Sharl de Gollga (q.Gaulle Charles de) va Valeri Jiskar d'Estenga (q.Giscard d'Estaing) yutqizdi. 1971-yildan birinchi Senator bo'lib, sotsialistik partiya (q.Parti socialiste) uchun ko'p ishlar qildi. Ikki prezidentlik boshqaruvi muddati (1981-1988 va 1988-1995-yillar)da muhim reformalar kiritdi: desentralizatsiya, ish haftasini 39 soatgacha qisqartirish, nafaqa yoshini 60 yoshgacha kamaytirish, ijtimoiy ta'minot tizimini yaxshilash, o'lim jazosini bekor qilish va boshqalar. Mamlakat iqtisodiy ahvolidan yomonlashuvi va bir qator siyosiy-moliyaviy janjallar bilan Mitteran atrofida odamlar uning o'ng hukumat (1986-1988 va 1993-1995) «hamkorlik» (q.Cohabitation) qilishga va siyosiy ta'siri pasayishiga

olib keldi. Chuqur ta'lim olgan, tarix va adabiyotning ajoyib bilimdoni Fransua Mitteran Fransiya madaniyatiga katta e'tibor qaratdi: uning tashabbusi bilan Katta Luvr (q.Musée du Louvre) loyihasi Parijdagi Milliy Kutubxona (q.Bibliothèque Nationale de France) va Bastiliya va Parij operasi (Opera de Paris, Bastille) yaratildi.

Môme (la) Piaf - *mitti Piaf* // Buyuk fransuz estrada xonandasi Edit Piaf (Edith Giovanna Gassion, dite Edith Piaf, 1915-1963) laqabi. Piaf - Parij lahjasida „chumchuqcha“. Uning o'rtamiyona kelib chiqishi, qiyin, mashaqqatli hayoti, fojiaga, siqilish va umidga to'la hayoti, katta iqtidori ijodida namoyon bo'ldi, qo'shiqlari esa (aksariyatini o'zi yaratgan masalan, “La vie en rose”) (“Mon Dieu”, “Je ne regrette rien”, „Milord”, etc) oltin fondga kirdi. Ko'plab fransuz xonanda va aktyorlariga mashhur bo'lishlarida yordam berdi. Ular orasida:«Les Compagnons de la chanson», Sharl Aznavur, Jilber Beko, Iv Montanlar bor. Hozirgi paytda uning an'ana-uslubini xonandalar Mirey Mat'e va Patritsiya Kaas davom qildirmoqdalar.

monarchie absolue - *absolyut monarxiya* // Butun hokimiyat bir kishi-monarx qo'lida bo'lgan davlat tuzumi. Fransiyada XVII asrning 60-80-yillarida Lyudovik XIV (1638-1719, 1643-yildan boshqargan) hukmronligi davrida qaror topdi. Qirol - Xudoning yerdagi elchisi va faqat unga, qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyati ungagina tegishli deb hisoblangan. Lex Rex, Rex Lex-La Loi c'est le roi, le roi c'est la loi-(qonun- bu qirol, qirol- bu qonun) deb lotin maqoli va unga yondosh maqol yangraydi. Fransiyada absolyut monarxiya yaratilishi ikki nafar kardinal Rishel'ye (1696-1788) va Mazarini (1602-1661) faoliyatiga imkon tug'dirdi. Absolyutizm nazariyotchisi yepiskop J.Bossyue (1627-1704) bo'lib, «Muqaddas yozuvlardan olingan siyosat» (Politique tirée de l'Écriture Sainte) asarida u «qirol hukmronligi va uning hayotga, mol-mulkka va qo'l ostidagilar iymon-e'tiqodiga huquqi Xudo tomonidan ko'rsatilgan» degan fikrni yoqladi.

Buyuk Fransuz Revolyutsiyasi (q.Révolution française) Fransiyadagi absolyut monarxiyaga chek qo'ydi.

monarchie de Juillet - *Iyul monarxiyasi* // Fransiyada 1830-yil iyul revolyutsiyasidan keyin oʻrnatilgan konstitutsion burjuaziya monarxiyasi (1830-1848) rejimi. 1830- yil 9-avgust Burbonlar Orlean sulolasidan Lui-Filipp (Louis-Phillipe d'Orléans, 1773-1850) “fransuzlar qiroli” deb eʼlon qilindi. U bilan birga hokimiyat tepasiga bankirlar, burjua ishbilarmonlari, yirik yer egalari kelishdi. Sanoat revolyutsiyasi mamlakatni jadal yuksalishiga zamin yaratdi, biroq mehnatkashlar ahvolini yomonlashtirdi (q.canuts). Iqtisodiy va moliyaviy inqirozlar 1846-1847-yillarda mamlakatga 1848-yilgi revolyutsiyaga olib keldi (q.Révolution de février 1848), iyul monarxiyasini agʻdardi va II Respublika oʻrnatdi (q.République II).

mont *m hudud.* - Markaziy massivdagi (q.Massif central) dumaloq shakldagi togʻ.

montagnards *m pl* - (*montagne-togʻ*) montaniyerlar yoki **Atogʻdaró** // Qonunchilik yigʻilishida (1791-yil 1-oktabrdan 1792-yil 29-sentabrgacha q.Assemblée législative), keyinroq 1794 yil 27-iyulgacha Konventda (q.Convention) Buyuk fransuz revolyutsiyasi (q.Révolution française) davridagi soʻl kuch vakillari. Majlislar zalidagi yuqori oʻrindiqlarda oʻtirib, shu nomni olishgan. Ularning yoʻlboshchilari: Kuton (1755-1794), David (1748-1825), Sen-Jyust (1767-1794), Robespyer (1758-1794) va boshqalar. Montaniyerlar yoki yakobinlar (q.jacobins) radikal revolyutsion kuchlarni taqdim etdilar: “Parij isyonchilar kommunasi” (q.Commune de Paris) va sanklyutlar, Parij seksiyalari (sans-culottes) ularni Konventga tortdilar. 1793-yil 7-iyulda jirondistlarni Konventdan haydaganlaridan soʻng montaniyerlar hal qiluvchi oʻzgarishlarga kirishdilar. Ichki va tashqi kontrrevolyutsiya bilan ayovsiz kurashda ular Jamoat qutqaruvi va Jamoat xavfsizligi Qoʻmitasi (q.Comité de sûreté générale, Comité de salut public) tashkil qildilar, revolyutsion diktatura oʻrnatdilar va terror siyosatiga (q.Terreur) oʻtdilar. 1793-yil kuzidan boshlab montaniyerlar (yakobinlar) safida hukumat oppozitsion guruhlar: Eber (1757-1794) tarafdorlari

– “quturganlar” -sankylotlarga tayanib, Konventni revolutsion terrorni kuchaytirishga majbur qilib, cherkovlarni yoqib, dinni aqlga tobe qilgan, urushni g‘alabali yakunlash fikridagi va Danton (1759-1794) tarafdorlari - „ko‘ngillilar”, terror va qatog‘onni kamaytirish, inson huquqlarini tiklash, matbuot erkinligi va hakovolar uchun jonbozlik qilishgan. Bu ikki guruh faoliyati yakobinlar diktaturasi to‘ntarilishini tezlashtirdi, ularning yo‘lboshchilari Revolutsion tribunal tomonidan ayblanib qatl qilingan (Comité de salut public).

Montmartre *m ñ Monmartr* // Parijning shimoliy qismida Monmartr tepaligi yonbag‘irlarida (Butte Montmartre), cho‘qqisida Sakre-Kyo‘r (q.basilique du Sacre-Coeur) bazilikasi mavjud. Monmartr nomi (*soʻzma-soʻz* - “jafokashlar tepaligi”- Mont des martyrs) 250 yil bu yerda Parij yepiskopi Dionisiy va uning izdoshlari qatl qilingani to‘g‘risidagi rivoyat bilan bog‘liq. XI asr oxirida tepalikda abbatlik tarkib topdi, ulardan hozirgi kungacha katta bo‘lmagan Sen - Per-de-Monmartr cherkovi (1147-yil qurilgan) saqlanib qolgan. XIX asrda Monmartrda Parij Kommunasasi (q.Commune)ga bog‘liq bo‘lgan voqealar bo‘lib o‘tdi. XX asr boshigacha kvartal qishloq manzarasini saqlab qoldi, uning uzumzorlari va tegirmonlari rassomlarni o‘ziga jalb etdi. XIX asr oxiridan ko‘ngilochar markazga aylandi, bu yerda Moulin Rouge myuzik-xolli joylashgan. Ko‘p sonli tungi kabare, dansinglar, restoranlar (ko‘pchiligi place Pigalle) rassomlar ishlaydi (q.Place du Tertre).

moralistes *m pl - nasihatgoʻylar* // XVII asr yozuvchi va mutafakkirlari adabiyot va san‘at faqat ko‘ngil ochish uchun emas, balki tarbiyalashi ham lozim deb hisoblaganlar. Ularga o‘zining hayotiy tajribalarini qisqacha go‘zal iboralarda umumlashtirgan, Laroshfuko (1613-1680) va insonlar toifalarini “Bu asr xarakterlari yoki xulq atvorlari” (“Les Caractères, ou les Moeurs de ce Siècle” 1688) kitobida tasvirlagan Labryuyer (1645-1696) lar kiradi.

motion de censure - *ishonchsizlik bildirish* // Milliy Assambleya (q.Assemblée natoinal)ning hukumatga ishonchsizlik to‘g‘risidagi rezolyutsiyasi.

Ishonch to'g'risidagi savol shunday qo'yilishi mumkin: 1) hukumat dasturlarini qo'llab-quvvatlash talab qilinganda premer ministr tomonidan; 2) taklif qilingan qonun loyihasi sababli hukumat tomonidan; 3) deputatlar tashabbusi bilan 1958-yilgi Konstitutsiyaga muvofiq ishonchsizlik bildirishi, hukumatni iste'foga chiqarishi ham mumkin. Faoliyati davomida bunday holat faqat bir marta (1962-yil 5-oktabr) bo'lib o'tgan va Pompidu hukumati iste'foga chiqqan.

óMouvement des citoyensô - *"Fuqarolar harakatiô* // Sotsialistik partiya (q.Parti socialiste) sobiq a'zosi, hukumat vaziri J.P.Shevenman tomonidan 1993-yil tashkil etilgan siyosiy partiya. Sotsialistlardan farqi Maastrixtsk bitimlarga 1991-yil 11-dekabrda qarshi chiqadi (q.Traité de Maastricht) va yevro kiritilishi, 1998-yil martda so'l blok ko'p partiyasi tarkibida faoliyat yuritadi.

«Mouvement pour la France» - *«Fransiya uchun harakat»* // Respublika partiyasidan chiqqan (q.Union pour la démocratie française) yangi o'ng katolik orientatsiyasi partiyasidan Milliy Majlis deputati Filipp de Vile tomonidan 1995-yil tashkil etilgan siyosiy harakat. Poraxo'rlikni qoralaydi, Maastrixt shartnomasini inkor qiladi, immigratsiyani qisqartirishni talab qiladi. Milliy front (q.Front national) nuqtai nazarini qisman quvvatlaydi. 1995-yilgi prezident saylovlarida „Fransiya uchun harakat“dagi nomzod 5 foizdan kam ovoz to'pladi.

Musée Carnavalet - *Karnavale muzeyi* // Karnavale (q.hôtel Carnavalet) va Le-Pelete-de-Sen-Farjo (hôtel Le Peletier-de-Saint-Fargeau) qasrlarida joylashgan Parij tarixi muzeyi. Bu yerda Parij tarixiy yodgorliklari bilan bog'liq, uning turmush tarzi va Genrix IV (1553-1610) zamonidan hozirgi kungacha bo'lgan mashhur kishilari bilan bog'liq bo'lgan noyob kolleksiyalar to'plangan. Karnavale qasrining bir qismida (1677-1696-yillarda) bu qasrda yashagan Madam de Sevine (1626-1696)ning shahar tarixi bo'yicha to'plagan boy manbalari-madaniy va adabiy merosi saqlanadi.

musée d'Orsay - *d'Orse muzeyi* // 1848-1914-yillardagi Yevropa san'ati davlat muzeyi. Sobiq vokzal binosi (gare d'Orsay) Orseyda joylashgan. Italyan

arxitektori Ge Aulenti loyihasiga ko'ra, 1981-1986–yillarda muzey uchun jihozlangan. Muzeyda rassomchilik san'ati, haykaltaroshlik, me'morchilik, mebel (uy jihozlari), fotosuratlar bor. Impressionist va postimpressionist rassomlar ijodi to'g'risida ko'proq, to'laroq ma'lumotlar mavjud.

musée du Louvre - *Luvr muzeyi* // Butun dunyoga mashhur davlat badiiy muzeyi; boy kolleksiyasi sobiq qirollik saroyida (q.Louvre) XVI-XVII asrlar me'morchiligi yodgorliklari joylashgan. Ta'sis yig'ilishi (q.Assemblée Constituante) qaroriga ko'ra 1793-yil 18-noyabrda ochilgan. Kolleksiya asosini fransuz qirollari to'g'risidagi 1789-yilda milliylashtirilgan va arxeologik topilmalar bilan to'ldirilgan to'plamlar, Napoleon I harbiy o'ljalari va xaridlari, xayr-ehsonlari tashkil etadi. Muzeyda 7 ta bo'limda 300 mingtacha buyumlar saqlanmoqda: Qadimgi Sharq, Gretsiya va Rim antik san'ati, Misr qadimiy buyumlari, rassomchilik san'ati, haykaltaroshlik, rasmlar va amaliy san'at namunalari. Ekspонатlar orasida Nika Samofrakiyskaya (er.avv.III-II asrlar) va Venera Milosskaya (er.avv.II asr) haykallari, Leonardo-da Vinchi (1495)ning «Jakonda» kabi durdona asarlari bor. 1988-1992-yillarda prezident F.Mitteran tashabbusi bilan muzeyda me'mor Iyo Min Pey loyihasiga ko'ra rekonstruksiya ishlari bajarildi. Muzeyga kirishning markaziy qismi Napoleon saroyiga ko'chirildi, katta yer osti vestibyuli qurildi, uning ustidan eni 33 metr va balandligi 21 metr bo'lgan oynavand piramida qad ko'targan. 1993-yilda “Rishelie qanoti” (aile Richelieu) ochildi. Muzeyning umumiy maydoni 60 ming m²ga kengaydi va shundan keyin dunyodagi eng katta muzey bo'ldi.

Musée national d'histoire naturelle - *Tabiat tarixi milliy muzeyi* // Parijning V okrugida joylashgan botanika zoopaleontologiya va minerologiya Davlat muzeyi. 1635-yilda Botanika bog'i (Jardin des plantes) kolleksiyasi asosida, uning hududida ochilgan. Uning tashkil qilinishida buyuk fransuz tabiatshunos olimlari: Byuffon (1707-1788), L.Dobenton (1716-1800), A.D. de Jyuse (1748-1836), Lamark (1744-1829), J.Sent-Iler (1772-1844) va buyuk

paleontolog J.Kyuve (1769-1832) (muzey joylashgan ko'cha uning nomi bilan ataladi) ishtirok etdilar.

N

Napoléon I - (*Napoléon Bonaparte 1769-1821*) *Napoleon I* // Fransiya imperatori (1804-1814, mart-iyun 1815-y.) Korsika orolida Ayachcho shahrida kambag'al, ko'p bolali oilada dunyoga kelgan. Fransiya (Briyenna, Parij) harbiy bilim yurtlarida ta'lim olgan. Xizmatni 1785-yil artilleriya kichik leytenanti lavozimidan boshlagan, Revolyutsiya davrida brigada generali, Direktoriyada esa (q.Directoire) armiyaga komandirlik qildi. Uning mashhurligi Direktoriyani tashvishlantirar edi. Yosh generalni Misrdagi fransuz qo'shinlarini (la campagne d'Egypte) boshqarishga jo'natishdi. Mamlakatdagi o'zgarishlarni sezib, Napoleon Parijga yashirin ravishda qaytdi va 1799- yil 9-noyabr (18 bryumer)da davlat to'ntarishi tashkil qildi va Konsullik rejimini (q.Consulat), ya'ni Birinchi konsul-Nopoleon Bonapart shaxsiy diktaturasini o'rnatdi. U Fransiyaning markazlashgan davlatga aylantirdi; sud, ma'muriy, moliyaviy reformalar o'tkazdi, o'rta ta'lim va Universitet ta'lim tizimini qaytadan tashkil qildi. Davlat Kengashi (Conseil d'Etat) va Fransiya Banki (Banque de France) tashkil etildi, yangi pul – frank chiqarildi, faxriy legion Ordeni (q.Ordre de la Légion d'honneur) ta'sis etildi. 1804-yil mayda Senat Napoleonni “Fransuzlar imperatori”(q. Empire (Premier) Napoleon I deb e'lon qildi. Napoleon fan va san'atga homiylik qildi. Ampir uslubi (q.style Empire) Napoleon imperiyasi uchun xos, rasmiy uslub bo'ldi. G'olibona urushlar natijasida (q.guerres napoléoniennes) Yevropadagi ko'plab mamlakatlar Fransiya qaram bo'lib qoldi. Birinchi Imperiya pasayishi 1812-yilgi Rossiyaga qarshi jangdagi (q.Campagne de Russie) mag'lubiyatdan boshlandi. Fransiya qarshi koalitsiya qo'shinlarining Parijga kirishi Napoleonni taxtdan voz kechishga majbur qildi. U Elba oroliga surgun qilindi va u yerdan qochib ketdi (q.Cent Jours). 1815-yil mart oyida yana taxtga o'tirdi, Vaterloo mag'lubiyatidan keyin (q.Bataille de Vaterloo)

ikkinchi bor taxtdan voz kechdi va Muqaddas Yelena oroliga surgun qilindi va o'sha yoqda 1821-yil vafot etdi. Napoleon Parijga dafn qilingan.

naturalisation ñ *naturalizatsiya (boshqa davlat fuqaroligiga o'qishni qabul qilish)* // Davlatning o'z fuqaroligini qabul qilish huquqini bu huquqqa ega bo'lmaganlarga taqdim etishi.

naturalisme -*naturalizm*// XIX asrning 80- yillarida paydo bo'lgan adabiy yo'nalish. O.Kont pozitivizmi (q.positivisme) tabiiy fanlar va falsafa yutuqlari ta'sirida shakllandi. Naturalist yozuvchilar insonga biologik mavjudot va ijtimoiy muhitning turli ko'rinishlari sifatida qarashdi. Naturalizm realizm (q.réaliste (littérature))ning tabiiy davomi bo'lib, ko'pgina yozuvchilar (A. Dode, Guy de Maupassant) o'z ijodida ikkita yo'nalish sifatlarini mujassam etishdi. Naturalizm nazariyotchisi va yorqin namoyondasi E.Zola uning prinsiplarini o'zining 1880-1881-yillardagi asarlarida bayon qilgan: "Eksperimental roman", "Teatrda naturalizm", "Romanist-naturalistlar" ("Le Roman experimental", "Le Naturalisme au théâtre", "Les Romanciers naturalistes", 1881). O'zining "Rugon Makkar" (Les Rougon- Macquart; 1871-1893) turkum romanlarida bu yo'nalish prinsiplarini qo'llagan. Fransuz yozuvchi-naturalistlari ko'pgina davlatlar adabiyoti va Rossiya adabiyoti rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatishdi.

navette *f - moki* // Palatalar o'rtasida qonun loyihasi matni mos kelishi uchun mokidek harakat: Kontitutsiyaga muvofiq, qonun loyihalari har bir palatada alohida- alohida qabul qilinadi (q.vote de la loi).

néo - classicisme *m - neoklassitsizm* // XVIII asr ikkinchi yarmida paydo bo'lgan va Buyuk Fransuz revolyutsiyasi davrida (q.Révolution française) juda rivojlangan san'atdagi oqim. Yunon - Rim san'ati va fransuz klassitsizmi an'analari (q.Classicisme, art classique) asosida tashkil topgan. Eng yorqin vakili - J.L.David (1748-1825) bo'lib uning "Goratsiyevlar qasami" ("Serment des Horaces" 1784) kartinasi neoklassitsizm manifestiga aylandi.

ónezô *m soǎl* - “*burunô* hidlar degustatori (sinovchisi) // Hidlar bo‘yicha mutaxassis. Bunday mutaxassislar juda kam. Ular o‘zgacha iste’dodi, qobiliyatiga tayanib, minglab xushbo‘y islar aniqlay olishadi va yaratishadi.

Noël *m – Rojdestvo* // Xristianlar bayrami - Iso payg‘ambar tug‘ilgan kuni 24-dan 25-dekabrga o‘tar kechasi va ertasi kuni nishonlanadi. An’anaga ko‘ra ishdan keyin (messe de minuit) oila a‘zolari archa atrofiga (Arbre de Noël) bayram dasturxoniga to‘planishadi. Rojdestvo kechasi kechki ovqat menyusini (réveillon) odatda ustritsa, o‘rdak jigaridan (q. foie gras) pashtet, qiymalangan kurka va shokoladli tort – g‘o‘lasi (bûche de Noël) tashkil qiladi. Qarindoshlar va tanish-bilishlar bir-biriga quvnoq rojdestvo tilaklari bitilgan tabriknomalar yuborishadi (Joyeux Noël) va bolalarga sovg‘a-salomlar berishadi. Bolakaylar o‘z oyoq kiyimlarini kamin yoki archa yoniga qo‘yib, Qorbobo (Père Noël)dan yaxshi xulqi uchun sovg‘a olishadi. Har yili pochta Qorbobo nomiga bolalar tomonidan yozilgan 300 mingdan ortiq xatlarni qabul qiladi. 1967 -yildan boshlab Liburnda (Jironda departamenti) bunday xatlarga javob beruvchi xizmat tashkil qilingan .

NordñPasñdeñCalais *m - NorñPa-de-Kale* // Mamlakat shimolidagi 2 ta departament : Nor va Pa–de–Kaledan tarkib topgan ma’muriy hudud (q.région). Yer maydoni 12414 kv. km (metropoliya hududining 2,3 foizi). Aholisi 1992-yil 1-yanvardagi hisob-kitobga ko‘ra - 3 969 300 ming kishi (Fransiya aholisining 7 foizi). Ma’muriy markazi - Lill. Asosiy shaharlari: Rube, Turkuen, Valansen-Denen, Lan, Dyunkerk. Kale, Bulon-syur- Mer, Arras. Past yassi tekisliklarda joylashgan. Flandriya bilan Artuani bog‘laydi. Iqlimi salqin, nam, kunlari bulutli. Dengizga chiqqani uchun iqtisodiy - geografik qulayliklarga ega. Mamlakatning eng zich aholi joylashgan rayonlaridan biri (zichligi har kv. kmga 300 kishidan ko‘proq to‘g‘ri keladi). Oxirgi vaqtlarda ko‘mir va metallurgiya sanoati inqirozga yuz tutgan va jiddiy ilmiy salohiyatga tayanib, ularda qayta qurish ishlari bormoqda. To‘qimachilik va temiryo‘l uskunalari, qog‘oz, qurilish materiallari, kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatlari mutaxassislashgan. Qizg‘in ishlab

chiqariladigan qishloq xo'jalik mahsulotlari: qandlavlagi, kartoshka, don mahsulotlari, zig'ir va sut mahsulotlari. Baliq tutish bo'yicha Bretandan keyin (q.Bretagne) 2- o'rinda turadi. Kale, Bulon, Dyunker portlari- mamlakatdagi va Yevropadagi yirik portlardir. 1994-yil 6-may La-Mansh tagidan Yevrotunnel ochildi va tezyurar liniya **TJV** (q. **TGV**) Parijni Lill orqali London bilan bog'laydigan bo'ldi. Hudud o'zining cherkovlari, qasrlari, muzeylari bilan shuhrat qozongan. Bu o'lkaning mashhur siyosatchilari orasida M. Robesp'er va Sh.De Goll; uchuvchi Blerno, La Manshga birinchi bo'lib samolyotda uchib kelgan; rassom A. Vatto, kinoaktyorlar F. Nuare va P. Risharlar bor.

normalien,-ne - *talaba yoki Oliy pedagogika maktabi bitiruvchisi* (q.École normale supérieure).

Normandie-Nieman - *“Normandiya-Neman”* // Germaniyaning SSSR ga hujumidan keyin “Ozod Fransiya ” rahbarlari (q.France libre) SSSR bilan umumiy dushmaniga qarshi hamkorlikda harbiy harakatlar tashkil qilish uchun aloqa o'rnatdi. Ikki harbiy hamdo'stlik xalqining ramzi – eskadrilya, keyinroq BBC “Ozod Fransiya ” qiruvchi polki “Normandiya” nomi bilan 1942-1945-yillarda Sovet-German frontida harakat qildi. Polk Neman daryosidan o'tish operatsiyasining muvaffaqiyatli o'tishi natijasida ikkinchi, ya'ni Neman nomini oldi (“Normandiya – Neman”).

notation f - *baholar tizimi* // Fransiya o'quvchilarini baholashda 2 tizim mavjud. Boshlang'ich va o'rta maktabda – 5- balli tizim harflar orqali belgilanadi: A- a'lo (excellent ou très satisfaisant), B-yaxshi (bien ou satisfaisant), C- qoniqarli (moyen ou insatisfaisant), D-yomon (médiocre ou insuffisant), E- juda yomon (faible ou très insuffisant). Yuqori sinflarda 20-ballik tizim (0 dan 20 gacha). Yil davomida yozma, og'zaki va amaliy ishlardan olingan baholardan o'rtacha yarim yillik baho chiqariladi.

Notre-Dame de Paris - *Parij Bibi Maryam ibodatxonasi* // Site orolidagi (q. Cité) dunyoda eng mashhur bo'lgan gotika (q.Gothique (art)) durdonasi Parij

Katedral Sobori. Cherkov qurilishi yepiskop M.De Syulli topshirig'iga binoan 1163-yil boshlanib, 1345-yil yakunlagan. 1845-1864-yillarda me'mor Viole-le-Dyuk tomonidan ta'mirlangan. Cherkov uzunligi -130 m , eni - 108m, gumbazlarining balandligi - 39 m, minoralari balandligi- 69m; 69 ming kishi sig'adi. Bosh fasadga 2 ta minora kiydirilgan va 3 pog'onaga bo'lingan. Ikkinchisining markazida – “atirgul” vitrajli diametri – 10 metrli dumaloq oynali Cherkov xudolar, payg'ambarlar qirollarning yuzlab tosh figuralari bilan, fantastik mavjudotlar - ximerlar bilan bezatilgan. V.Gyugoning «Bibi maryam cherkovi» (1831) romani chiqqanidan keyin, unga qiziqish ortdi. Hozirgi kunda bu yerda nafaqat diniy marosimlar, balki musiqali konsertlar ham o'tkaziladi.

Nouveau T.N.P - *Yangi Milliy xalq teatri* // 1972-yilgacha «Villerbann shahri de la Site teatri» (Théâtre de la Cité de Villeurbanne) deb nomlangan. 1973-yilda Villerbannga Parij Milliy xalq teatri (Théâtre national populaire) ko'chib kelgandan so'ng, Yangi Milliy xalq teatriga o'zgartirilgan. Uning rahbari - taniqli teatr arbobi R.Planshon (1931-yilda tug'ilgan).

Nouvelle-Calédonie f - *Yangi Koledonya* // Tinch okeanining janubi-g'arbiy qismida joylashgan Yangi Kaledoniya, Luayote, Pen orollaridagi Fransiya zamorsk hududi (q.térritoires d'outre-mer). Umumiy maydoni - 19,1 ming km². 1995-yilgi hisob-kitobga ko'ra 200 ming kishi: mahalliy melaneziyliklar (kanaklar), yevropaliklar (kaldoshlar) va Osiyo hamda Okeaniya mamlakatidan chiqqanlar. Uchta ma'muriy provinsiyaga bo'lingan (Shimoliy, Janubiy va Luayote orollari). Ularning har birini Assambleya boshqaradi. Fransiya parlamentiga 2 nafar deputat va bir nafar Senator vakil qilingan. Davlat tili - fransuz tili. Aholi o'z tilida va bichlamar-ingliz, fransuz va polineziy tillari aralashmasida so'zlashadi. Iqtisodiyotning asosini – tog' ruda sanoati (nikel, kobalt, xrom, marganes, temir va boshqalar tashkil qiladi); bu yerda dunyodagi eng yirik nikel makoni bor. Mahalliy aholining 70 foizi qishloq xo'jalikislari bilan band. Makkajo'xori, arpa, sabzavotlar, mevalar, kokos yetishtiriladi. Yangi Kaledoniya ingliz J.Kuk tomonidan 1774-yil kashf etilgan. 1853-yildan boshlab

Fransiyaga tegishli, katonga-surgun vazifasini o'tagan (1872-yilda u yerga kommunarlar jo'natilgan). 1946-yildan beri zamorsk hududi mavqeyiga ega 1984-yilgacha Bosh komissar tomonidan boshqarilgan; keyin hudud Kongressi - mahalliy qonunchilik organi tomonidan saylangan hukumat ijroiya hokimiyati boshqaradigan bo'ldi. 1985-yildan 1988-yilgacha kanaklarni qutqarish Milliy fronti boshqaruvidagi qurollangan chiqishlar yuz berdi. 1988-yil iyulda Fransiya hukumati bilan siyosiy partiya rahbarlari o'rtasida, o'tish davrida hududiy hokimiyatni asrab qolish, mamlakat iqtisodi va madaniyatini ko'tarish shartnomasi tuzildi. 1988-yil noyabrda Fransiyada Yangi Kaledoniya bo'yicha referendum o'tkazildi, buning natijasida bu o'z avtonomiyasiga ega bo'ldi va o'zining zamorsk hududida 10 yilgacha uning taqdiri to'g'risidagi yangi referendumgacha o'z huquqiy holatini saqlab qoldi. 1998-yil may oyida Yangi Kaledoniya vakillari bilan Yangi shartnoma tuzildi, unga ko'ra o'tish davri yana 10-15 yilga cho'zildi, bu vaqt mobaynida "yuksalayotgan avtonomiya" siyosati o'tkaziladi va metropoliyadan zamorsk hududiga doimiy hukmronlik qilinadi. 1998- yilgi noyabr referendumida bu shartnoma tasdiqlandi.

nouvelle chanson française - *Yangi fransuz qo'shiq* // XX asrning 70-80- yillarida qo'shiqchilik ijodidagi oqim, fransuz Milly qo'shiqchiligi an'alarini tiklagan. Zamonaviy texnika, rok-musika ritmi yutuqlaridan foydalanib, mualliflar qo'shiq mazmuniga, matniga ko'p e'tibor qaratadilar. Asoschilari - Alen-Sushon va Jilber Lafay; eng mashhur ijrochilar qatoriga yana Iv Dyutey va Jan Jak Goldmanlar ham kiradi.

nouvelle vague (la) - "*Yangi to'lqin*" // Fransiya kinorejessyorlari guruhi, keyinroq butun 50-yillar kinematograflari avlodining nomi, "kinematografistik ozodlik" (suratga olish vaqtida improvizatsiya (tayyorgarliksiz suratga olishlar, yoshlar muammolariga qiziqish, tabiiy manzaralarda suratga olish) dasturi bilan chiqqan. Bu yo'nalishning mashhur vakillari: rejissyorlar F.Tryuffo, K.Shabrol, J.L.Godar, aktyorlar R.Vadim, B.Bardo, J.Moro, J.P.Belmondo.

O

Observatoire de Paris - *Parij rasadxonasi* // 1667-yil Lyudovik XIV tomonidan (q. Louis XIV) astronomik va meteorologik kuzatishlar maqsadida tashkil qilingan. Binosi 1667-1672-yillarda me'mor Perro tomonidan shunday qurilganki, uning markazidan Parij meridiani o'tgan, 4 ta fasadi dunyoning 4 tomoniga qarab turibdi. Gumbaz qirol Lui-Filipp (1830-1848) davrida astronom Arago iltimosiga ko'ra barpo etilgan. Hozirgi vaqtda bu yerda xalqaro vaqt byurosi mavjud, rasadxonaning o'zi esa Xalq ta'limi vazirligiga qaraydi. Uning bo'limlarida astronomik kuzatish ishlari, rasm statistikasi, Quyosh, planeta, kometa va hk. larni kuzatish olib boriladi.

ogival (art) soʻzl. - *gotika sanʼati* // Atama uchi strelkasimon peshtoq (ogive) gotik me'morchiligiga mansub bo'lgan (q. Gothique art) nomidan kelib chiqqan.

opéra m - *opera* // Teatr uchun musiqali dramatik asar. XVI asrda Florensiyada paydo bo'ldi. Fransiyada italyan operasi XVII asrda Lyudovik XIV davrida kirib keldi. Fransuz opera maktabi asoschisi J. B. Lyulli (1632-1687), lirik tragediya janri ("Altsesta" 1674; "Tezey", 1675) va fransuz opera uvertyurasi ijodkori. Opera rivojiga bastakor va musiqa nazariyotchilari J.F.Ramo (1683-1764), bastakor Q.V.Glyuk (1714-1787) - opera islohotchisi, musiqali tragediyalar mualliflari ("Orfey va Evridika", 1762 va boshqalar) kiradi. XIX asrda romantizm davrida opera san'ati gullab yashnadi. Bunga quyidagilar misol bo'la oladi: F.A.Bualde "Oq ayol" operasi (1825), E.Ober"Portichilik soqov"1828), SH.Guno "Faust" (1859), Q.Sen-Sans "Samson va Dalila" (1877), J.Bize "Karmen"(1875). A.Onegger (1892-1955) va F. Pulenk (1899-1963) (q. grand opéra; opéra comique; opéra lyrique) lar XX asrdagi eng mashhur kompozitorlar ekspressionizm va neoklassitsizm vakillari bo'ldilar.

opéra comique - *komik opera* // Italiyada XVIII asrda paydo bo'lgan opera janri. Tomoshabinga musiqa orqali tushunarligi va komediyali sujeti bilan farq qiladi. Fransiyada XVIII asr o'rtasida muhabbat syujetli meshanlik dramasi musiqali ko'rinishi turi sifatida kirib keldi. Bu janrning rivojlanishida pastoral J.J.Russo „Qishloqlik sehrigar” (Le Devin du village 1752) asosiy rol o'ynadi. „Fra – Dyavolo” (1830), „Bronza ot” (1836), „ Qora damino” (1837) asarlari muallifi - F.Ober (1782 – 1871) eng mashhur komik opera muallifi hisoblanadi.

Opéra de Paris Bastille - *Bastiliya Maydoni Parij davlat opera teatri* // Bino 1822 - 1829-yillarda Kanadalik me'mor Karlos Ott tomonidan zamonaviy uslubda qurilgan va 1830-yil ochilgan. Bu yerda faqatgina operalar (baletlar opera maydonidagi teatrdagi q.Palais Garnier) qo'yiladi. Teatrdagi ikkita - 2700 va 1000 o'rinli zallar mavjud.

opéra lyrique - *lirik opera* // XIX asrning 50 – 60 yillarida Fransiyada tashkil topgan opera janri. Musiqa yordamida oson his qilinishi, oddiy syujet, oddiy kishilarni tasvirlashga intilishi, tomoshabinga his-tuyg'ularning tushunarligi bilan ajralib turadi. Adabiy asosi sifatida klassik asarlar tez – tez qo'yilgan masalan: Sh.Guno „ Romeo va Juletta” (1865) operasi, Sh. Massne „Manon” (1894), „Verter” (1892); J.Bize „Marvarid izlovchilar” (1863) operalari misol bo'la oladi.

opérette f - (italyancha operetta, - *kichik opera*) - *operetta* // Vokal, raqs va suhbat ko'rinishlari aralashgan, odatda komediya xarakteridagi musiqali teatr namoyishi. Parijda XIX asrning o'rtalarida teatr intermediya va improvizatsiya (q.goguette)lari, satirik sahnalar (chansonnier)dan paydo bo'ldi. Ilk operettalar uchun satirik yo'nalish muhimligi xarakterli bo'lsa, keyinchalik ular ko'proq lirik bo'lishgan. Parij operettasi yaratuvchisi Jak Offenbax „Go'zal Yelena”(1864), „Parij hayoti”(1866), „Perikollar” (1868) muallifi; Florimon Erve „Mademuazel

Nitush” (1889); Sharl Lekok „Madam Ango qizlari“ (1872); Rober Plankett „Kornevil qo‘ng‘iroqlari“ (1877) lar mashhur fransuz bastakorlari hisoblanishadi.

Ordre de la Légion d'honneur - *Faxriy Legion ordeni* // 1802-yil 19-mayda Birinchi Konsul - Napoleon Bonapart tomonidan Fransiya uchun xizmat ko‘rsatgan harbiylar va fuqarolar uchun tashkil etilgan. 1804-yil 11-iyul dekretiga binoan oliy davlat nishoni – Faxriy Legion Ordeni belgisi ta’sis etilgan va hozirgi kunda ham bor. Orden 5 xil darajaga ega: Katta krest kavaleri, Oliy ofitser, Komandor, ofitser va ritsar (Grand – croix, Grand – officier, commandeur, officier, chevalier). Qayta saylangan Respublika prezidenti avtomatik ravishda Katta krest kavaleri, Buyuk Magistr (Grand Maître) orden sohibi bo‘ladi. Orden belgilari: katta krest, krest, yulduz, orden lentasi, bo‘yinga osadigan orden lentasi, rozetka. Ordenning har bir darajasining o‘z belgilari bor. Qayta saylangan respublika prezidenti Katta krest belgisi ordeni kavaleri Bosh kansleridan Buyuk magistr yulduzi va zanjirini oladi.

ordres privilégiés - *imtiyozli tabaqalar* // 1789-yil Revolyutsiyasigacha (q.Révolution française) butun hokimiyat ikki tabaqaga – ruhoniylar va dvoryanlarga tegishli bo‘lgan. 3-tabaqadan (q.Tiers État) farqli o‘laroq, ular qirolga soliq to‘lamaslik imtiyoziga ega bo‘lishgan.

P

Palais-Bourbon *m - Burbon qasri* // Fransiya Milliy Assambleyasi (q.Assemblée nationale) qarorgohi. 1722-1728-yillarda me’morlar Djardini, Lassyurans, Gabriel va Oberlar tomonidan Lyudovik XV ning qizi Luiza-Fransuaza, Burbon gersoginyasi uchun qurilgan. Direktoriya vaqtida (q.Diréctoire) bu yerda besh yuzlar Kengashi (Conseil des Cinq-Cents) ishlagan. I Imperiya davrida (q.Empire Premier) Madlen cherkovi (q.Madeleine) bilan yagona ansambl tuzish uchun klassik uslubda, cherkov fasadiga qat’iy simmetrik qilib

fasad qurilgan. Uning frontoni Korto allegorik figuralari bilan, Ryud va Prade ishlari baRelyeflari bilan bezatilgan. Kiraverishda – Minerva (Gudon) va Femida (Rolon) haykallarini ko‘rish mumkin. Saroyning diqqatga sazovor joylari-noyob qo‘lyozmalarga ega kutubxonasi (m.Janna d’Ark bilan bog‘liq jarayon to‘g‘risidagi matnning asl nusxasi), shift va devorlariga Ejen Delakrua tomonidan rasm solingan. Ikkinchi Jahon urushidan keyin bino – Milliy Assambleya qarorgohiga aylandi. Matbuotda quyi palatani ko‘pincha uning joylashgan yeri nomi bilan atashadi.

Palais de Justice - *Adolat saroyi* // Site orolidagi (q.Cité) arxitektura ansambli. Rim hukmdorlari Lyutetsiya qarorgohini Merovinglar dinastiyasi (q.Mérovingiens) o‘zgartirgan, keyinchalik «Site saroyi» - fransuz qirollari qarorgohi bo‘lgan. Hozirgi nomini Buyuk Fransuz revolyutsiyasidan keyin (q. Révolution française) olgan. 4 qismdan iborat: Adolat saroyi, Konsiyerjeri (q.Concièrgerie), Sent-Shapel ibodatxonasi (Sainte-Chapelle) va Parij politsiyasi qarorgohi. Bino Orfevr sohilida joylashgan.

Palais de l’Institut - *Fransiya instituti saroyi (q.Institut de France)* // 1665-yilda rim barokko uslubida me’mor Le Vo (1612-1670) tomonidan kardinal Mazarini (1602-1661) vasiyat qilgan «To‘rt millat kolleji» qurilishi pullariga barpo etilgan. Markaziy bino va ikki yonbosh yarim aylana pavilondan iborat. Markaziy fasadni Mazarini gerbi solingan gumbaz bezab turibdi. Saroyda Fransiya akademiyasi (q.Académie française) yangi a’zolarining tantanali chiqishi (namoyishi) bo‘lib o‘tadi.

Palais du Luxembourg - *Lyuksemburk saroyi* // Mariya Medichi (1573-1642)ning 1615-1625-yillarda me’mor L.de Bross tomonidan Pitti florentiy saroyi uslubida qurilgan sobiq saroyi. Bu yerda uning bolalik yillari o‘tgan. Bino markaziy va burchakli pavilonlarga ega, asosiy kirish qismida Lyudovik XIII uslubidagi 8 burchakli gumbaz savlat to‘kib turibdi. Binoni ichki bezatish ishlari bilan Rubens, Pussen, F.Shampenski shug‘ullandilar. Buyuk Fransuz

Revolyutsiyasi davrida (q. Révolution française) qamoqxona vazifasini o'tadi. U yerda Danton, Demulen, Eber o'zlarining so'nggi kunlarini o'tkazdilar. Revolyutsiyadan keyin parlament Majlisi (q.parlement), Direktoriya (q.Diréctoire), Konsullik (q.Consulat) joyi bo'ldi. 1800-yilda Napoleon topshirig'iga binoan me'mor J.R.Shalgren binoni Senat uchun qayta qurdi, 1836-1841-yillarda esa bino me'mor A.Jizor loyihasiga ko'ra ancha kengaytirildi (yangi Majlislar zali, kutubxona). 1814-yildan boshlab bu yerda perlar palatasi yig'ilish o'tkazdi, 1946-1958-yillarda binoda Respublika Kengashi (q. République IV) joylashdi, 1958-yildan boshlab esa, binoni yana Senat egalladi.

Palais Garnier - *Garne saroyi* // Opera maydonida joylashgan (place de l'Opéra) Parij opera teatri. Rasmiy nomi –«Musika va raqs milliy akademiyasi». Bino 1863-1875 - yillarda me'mor Sh.Garne tomonidan qurilgan. Ikkinchi Imperiya (q. Empire Second) didiga javob beradigan turli uslublar (renessans, barokko kabi) bezaklariga boyligi bilan ajralib turadi. Bino maydoni 11 ming kv.km, balandligi 63 m. Vestibulga kirishni 7 yarim aylana peshtoq haykaltaroshlik guruhlar bilan, ular orasida mashhur J.B.Karponing „Raqs“ kompozitsiyasi ochadi. Binoning buyukligini ajoyib pillapoya alohida ta'kidlaydi. 1969-yilda tomosha zali shifti Mark Shagal rasmlari va Garnening surati solingan katta qandil bilan bezatildi. Hozirgi kunda bu yerda asosan baletlar namoyish etiladi, operalar esa yangi teatrda (q.Opéra de Paris Bastille) qo'yiladi.

Palais Royal - *Pale-Royal* // 1629-yilda kardinal Rishle (q.Richelieu) buyurtmasiga binoan me'mor J.Lemerse tomonidan Luvr yaqinida qurilgan. Rishle tomonidan vasiyat qilingan bo'lib, uning vafotidan keyin 1613-yil Lyudovik XIII ga o'tdi va hozirgi nomini oldi. Keyinroq Lyudovik XIV ga o'z akasi Gaston Orleanskiyga (1608-1660) sovg'a qilingan, qirol avlodi 1848-yilgacha unga egalik qilishdi. Buyuk Fransuz revolyutsiyasi vaqtida xalq chiqishlari joyi bo'ldi. Bu yerda 1789-yil jurnalist Q.Demulen xalqni Bastilyani bosib olishga chaqirdi. Hozirgi kunda Pale-Royal binolarida Davlat Kengashi (q.Conseil d'État), Konstitutsion Kengash (Conseil Constitutionnel), Fransiya

madaniyati vazirligi va Fransiya komediya teatri (q.Comédie Française) joylashgan.

Panthéon (le) - *Panteon* // Fransiya Buyuk kishilari maqbarasi, tarixiy va me'moriy yodgorlik. Parijda, muqaddas Jeneveva tepaligida joylashgan. Oldin bino 1764-1780-yillarda me'mor Suflo tomonidan muqaddas Jeneveva cherkovi uchun qurilgan. Ishlar 1812-yil yakunlangan. Binoning bosh fasadi korinf kolonnalari bilan bezatilgan. Kolonnalar tepasida David d'Anjening haykaltaroshlik guruhi ishlari - vatan allegorik figurasini - mamlakat buyuk kishilariga gulchambarlar tutib turgan manzara frontoni savlat to'kib turibdi. Frontonda «Buyuk insonlarga - vatan minnatdorchiligi» («Aux grands hommes, la Patrie reconnaissante») deb yozilgan. Bino buyuk fransuz Revolyutsiyasi vaqtida (q.Révolution Française) maqbaraga aylantirilgan, 1806-yil katolik cherkoviga qaytarilgan, 1830-yilda esa Shon-shuhrat qasri (temple de la Gloire), 1851-1870-yillarda yana cherkov bo'lib xizmat qildi. V.Hyugoning dafn marosimidan keyin, 1885-yil uni Panteonga aylantirishga qat'iy qaror qilindi. Bu yerda yozuvchilar Volter, Russo, Zola, matematik Lagranj; kimyogar Bertelo, fiziklar Perren va Lanjeven, ko'rlar alifbosi kashfiyotchisi Brayl, siyosatchilar Gambetta va Jores kabi buyuk insonlar dafn qilingan. 1995-yil aprelda Panteonda buyuk fizik olimlar Per va Mariya Kyurilarning hoki dafn etildi. M.Kyuri hozirgacha Panteonda dafn etilgan birinchi va yagona ayoldir.

papillon *m soʻzl.* - *jarima* // Avtomobilni noto'g'ri qo'yib ketganlik jarimasi to'g'risida bildiruv, xabar shamol oynasiga yopishtiriladi.

Pâques *m* - *Pasxa* // Xristos tirilgani bayram. 22-mart va 25-aprel orasida bahorgi tengkunlik davrida nishonlanadi. Pasxa yakshanbadan boshlanadi. Keyin dushanba kuni dam olish kuni hisoblanadi. Pasxada tabriknomalar (Joyeuses Pâques) jo'natadilar, sovg'a - salomlar, ayniqsa, bolalarga ulashadilar. Magazin peshtaxtalariga shokoladli qo'ng'iroqchalar, tuxumlar, jo'ja va quyonchalarning rang-barang lentalar bilan bezatilgan o'yinchoqlari qo'yiladi.

parc Astérix - *Asterix parki* // Komiks (q.Bande dessinée) A.Yuderzo va F.Go'ssini bosh qahramoni Asteriks (q.Astérix) bo'lgan motivlari bo'yicha attraksion va quvnoq tomoshalar parki 1989-yil Parijda 30 km. shimolda qurilgan. Ko'ngilochar, o'rgatuvchi va tarbiyalovchi vazifalarni bajaradi. Bir qancha qismlardan tuzilgan bo'lib, har biri tarixning ma'lum bir davriga bag'ishlangan; Qadimgi Yunoniston, Rim Imperiyasi, Qadimgi Galliya, o'rta asrlar Fransiya va hk. Fransiya butun tarixi hayotiy surat va hashamatli bezaklarda namoyon bo'lgan. Har yili parkka 1 mln. atrofida kattalar va bolalar tashrif buyurishadi.

parc de la Villette - *La Villette parki* // Parijdagi eng katta park (55 ga), La Villette atrofida sobiq kommuna o'rnida joylashgan. 1986-yil me'mor A.Fenzilber loyihasiga binoan ekilgan va Fan va sanoat markazini, Musiqa va raqs konservatoriyasini (Oliy o'quv yurti), dunyoda eng yirik yarim sferali ekran 1000 m² maydonga ega ("Géode") kinoteatrlar, konsertlar va ko'rgazmalar zallari, shuningdek, attraksionlar, kosmik kema va suvosti kemalar attraksionlarini o'z ichiga olgan. Fan va sanoatda eng yangi fan-texnika yutuqlari namoyish etilgan. Parkni «Kelajak shahri» deb ham atashadi.

parfumerie f - *atirlar ishlab chiqarish* // Fransiya iqtisodining yiliga 29,4 mlrd. frank (1995) olib keladigan muhim sohasi. Fransiya parfyumeriyasi bir vaqtning o'zida ko'p asrlik an'analarga (q.nez) va oxirgi texnologik yutuqlarga tayanadi. Dunyodagi 8 ta yirik parfyumeriya firmalarining 4 tasi Fransiyaniki: L'Oréal ("Lancôme", "Cacharel", "Guy Laroche" markalari), Louis-Vuitton-Moët-Hennessy ("Christian Dior", "Guerlain", "Givenchy", "Kenzo" markalari), Elf Aquitaine ("Yves Saint-Laurent", "Nina Ricci") va Chanel o'zining markalari bilan. Bundan tashqari deyarli har bir Modalar uyi o'z parfyumeriya va kosmetika markalarini chiqaradi.

Paris ñ *Parij* // Fransiya poytaxti va Il-de-Frans hududi asosiy shahri (q.Ile-de-France). 1982-yildan o'zgacha huquqiy holatga ya'ni bir vaqtning o'zida departament va kommunaga ega. Parij shahrini va Parij viloyatini (unga Parij va 7

ta departament kiradi) ajratadilar. Parij shahrining maydoni 105 km². Aholisi 1995-yilgi ro'yxat bo'yicha – 2 152453 kishi, zichligi 1 kv.kmga 27400 kishi. Parij kommunasi (q.commune) 20 ta okrugga (q.arrondissement) bo'lingan, mer va munitsipal Kengash-Conseil de Paris tomonidan boshqariladi va departament bosh kengashi (q.département) hamdir. Kengash 167 nafar maslahatchidan (conseillers de Paris) iborat bo'lib, ular merni birgalikda saylaydilar. 1977-yildan 1995-yilgacha Parij meri Jak Shirak bo'ldi. Har bir okrug boshida Kengash bo'lib, uning a'zolari okrug merini saylashadi. Parij basseyni (q.Bassin parisien) dan qulay geografik o'rni, XIII asrda olingan poytaxt huquqiy holati tufayli eng yirik savdo-sotiq, iqtisodiy, siyosiy va mamlakat madaniy mazrkaziga aylandi. Bu yerda prezident qarorgohi (q.Elysée(palais de l')) hukumat boshliqlari qarorgohi (q. Hôtel Matignon), Milliy Majlis (q.Palais- Bourbon) va Senat (q.Palais du Luxembourg), vazirliklar, bir qator xalqaro tashkilotlar (YUNESKO, OES), elchixonalar, turli matbuot, radio, TV agentliklari, yirik banklar joylashgan. Parijda mamlakat madaniy merosi katta qismi (q.Centre national d'Art et de Culture Georges Pompidou, Collège de France, Comédie-Française, Institut de France, Opéra de Paris Bastille, musée d'Orsay, musée du Louvre, Palais Garnier, la Sorbonne etc.) to'plangan.

parlement *m - parlement* // Mamlakatning oliy qonunchilik organi (q.législatif). 1958-yilgi Konstitutsiya bo'yicha 2 palatadan: quyi-Milliy Majlis (q.Assemblée nationale) va yuqori-Senat (q.Senat)dan iborat. 1995-yildan boshlab 1 yilda 1 marta 1-sentabrdan 30-iyungacha sessiyaga yig'ilishadi. Prezident ruxsati bilan favqulodda sessiya chaqirilishi mumkin. Yig'ilishlar ochiq o'tkaziladi. Parlament a'zolari dahlsizlikka ega, ya'ni sessiya paytida ushlanmasligi, qamalmasligi, palata byurosi ruxsatisiz ayblanmasligi (jinoyat ustida qo'lga olingan holat bundan mustasno), bo'lishi lozim. Deputat va Senatorlar partiya belgilari bo'yicha fraksiyalar (groupes) palatasiga birlashadilar.

«**Partnasse**» (le) - «*Parnas*» // T. Gote (1811-1872), Sh. Lekont de Lill (1818-1894), Syulli Pryud (1839-1907) va boshqalar kirgan fransuz shoirlari

guruhi. Ular «sof san'at», «his tuyg'usiz» «mukammal formadagi» she'riyat uchun romantizmga qarshi (romantisme) kurashganlar. Guruh 1866-yilda «Zamonaviy Parnas» almanaxi chiqqandan keyin tuzilgan («Parnasse contemporain»).

Parti communiste français (P.C.F.) - *Fransiya kommunistik partiyasi* // 1920-yil Tur shahridagi kongressda tashkil topgan, xalq fronti (q.Front populaire) va Qarshilik (q.Résistance) harakatlarida Ikkinch Jahon urushi davrida faol ishtirok etdi. Urushdan keyin – soni bo'yicha Fransiya'dagi oldingi, 1-partiya; De-Goll hukumatida (q.Gouvernement Provisoire de la République française) qatnashgan. 70-yillarda sotsialistlar bilan hamkorlikda (keyinchalik ularga so'1 radikallar ham qo'shilishgan). So'1 kuchlar hukumat dasturi loyihasini ishlab chiqdi va bu dastur 1977-yilgacha amalda bo'ldi. 80-yillardan boshlab KPSS siyosatidan ajratib qo'yilishiga qaramay, proletariyat diktaturasi nazariyasi va demokratik sentralizm prinsipi o'z ta'sirini yo'qota boshladi va soni sezilarli darajada ancha kamaydi (70-yillarda 700 ming, 90-yillarda 200 minggacha) va bu holat Sharqiy Yevropada sotsialistik rejim barbod bo'lishiga olib keldi. Elektorat qisqardi: 1993-yil parlament saylovlarida 9,2 foizini; 1995-yil prezident saylovlarida 8,6 foiz va 1997- yil muddatidan oldingi parlament saylovlarida 3,8 foiz (38 o'rin). Oxirgi yillarda o'z ta'sirini barqarorlashtirishga erishdi (elektoratning 9-10 foizi). 1972-1994-yillarda FKP bosh kotibi J.Marshe (1920-1997) bo'ldi. 1994-yildan boshlab uning milliy kotibi – Rober Yu.

Parti socialiste (P.S.) - *Sotsialistik partiya* // Kapitalistik jamiyatda demokratik yangilanishlar uchun tinchlik yo'li bilan kurashgan so'1 siyosiy partiya. F. Mitteran tomonidan Epine-syur-Sen shahridagi 1971-yilgi sezdda J.Ged va J.Jores tomonidan 1905-yilda tuzilgan ishchilar internatsional seksiyasi (Section Française de L'Internationale ouvrière, SFIO) qaytadan tashkil etilgach tuzilgan. Kommunistlar va So'1 radikallar hamkorligida tayyorlangan 1972-yilgi o'zaro hukumat So'1 kuchlar dasturi loyihasi partiya ta'sirini oshirdi va uning safini mustahkamladi. 1981-yilda uning birinchi kotibi F. Mitteran respublika prezidenti etib saylandi, parlamentda esa sotsialistlar ko'p ovoz olishdi.

Shakllangan Soʻl hokimiyat 1981-1983-yillarda bir qator muhim (reforma) islohotlar oʻtkazdi: ish haftasini 39 soatga qisqartirdi, nafaqaga chiqish vaqtini 60 yoshga pasaytirdi, davlat iqtisod sektori kengaytirildi va hk. 1983-1986-yillarda hukumatning «Qattiq iqtisod» siyosatiga oʻtishiga toʻgʻri keldi va sotsial islohotlar inkor qilindi. Bu esa sotsialistlar katta qismi elektoratini yoʻqotishga va 1986-yilgi parlament saylovlarida magʻlubiyatga olib keldi. F.Mitteran (q.cohabitation) premer ministrlar lavozimiga soʻl kuchlar vakili Jak Shirakni (1932-yilda tugʻilgan) tayinlashga majbur boʻldi. 1988-yil Mitteran yana qayta prezidentlikka saylandi, biroq mehnatkashlar iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli yomonlashuvi, birlik yoʻqligi uning aʼzolarining koʻp moliyaviy qallobliklari tufayli partiya obroʻsi va taʼsiri tushib ketdi. 1993-yilgi Milliy Majlisga saylovlarda sotsialistlar atigi 19,2 % ovoz toʻpladi. Prezident yangi premer-ministrni oʻng kuchlardan: E.Balladyurni tayinlashga majbur boʻldi. « Birga yashashlik » ning ikkinchi davri boshlandi. 1995-yilgi prezidentlik saylovlarida sotsialistlardan L.Jospen (1937) nomzodi boʻlib 1-turda hammadan koʻp ovoz (23,2 %) toʻpladi, biroq 2-turda 7 % farq bilan J.Shirakka yutqizdi. 1997-yilgi muddatdan oldingi parlament saylovlarida sotsialistlar 38,5 % ovoz toʻplab, Milliy Majlisda koʻpchilikni tashkil etdilar. Sotsialistik partiya sobiq Birinchi kotibi L.Jospen hukumat premer-ministri boʻldi. «Birga yashash» ning 3-davri boshlandi .

partis politiques - *siyosiy partiyalar* // 1958-yilgi Konstitutsiya siyosiy partiyalarning mamlakatda saylov vaqtidagi siyosiy hayotdagi muhim rolini tan oladi. Fransiya – koʻp partiyali tuzumning klassik namunasi: mamlakatda oʻnlab partiya va guruhlar boʻlib, ularning koʻpchiligi kam sonli va aholining ishonchini qozonmagan. Aholining atigi 2-3 % qismi partiyalar aʼzosidir. Amaliy siyosiy hayotda bir necha yirik partiyalar rol oʻynaydi. 90-yillarda 2 partiya bloki uzoq oppozitsiyasidan keyin oʻng va soʻl (q. Droite, Gauche) bloklar atrofida qolgan partiyalar toʻplandi va partiyalar tizimida parchalanish, boʻlinish yuz berdi.

Pas-de Calais *m- Pa-de Kale* // Fransiya bilan Buyuk Britaniya orasidagi bo'g'oz. O'rtacha eni 31 km, uzunligi 180 km. La-Mansh (q.Manche) va Shimoliy dengizni bog'laydi. Asosiy fransuz portlar: Kale, Dyunkerke.

pasport *m ñ pasport* // Fransiya Respublikasi fuqarosining Yevropa Ittifoqi chegaralarida (q.Union de L'Eroupe) shaxsini tasdiqlovchi hujjat. Meriya, prefektura, suprefektura va politsiya komissariyatlarida beriladi. Uni olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar: shaxsini tasdiqlovchi guvohnoma (q.Carte nationale d'identité), yashash joyidan ma'lumotnoma (justification de domicile), fotosurat va davlat boji markasi. Besh yil muddatga yaraydi. 15 yoshgacha bo'lgan bolalar ota-onalari pasportiga kiritiladi; 15-18 yoshdagi bola shaxsiy pasport olishi mumkin, chet elga ketsa, boshqa shaxs kuzatuvda boradi.

pavillon *m - shahar tashqarisidagi uycha* // Shahar tashqarisidagi katta bo'lmagan, bog'i bor uy. Bunday uylar I Jahon urushidan keyin ko'paydi. Bu uylar odatda 2 qavatli bo'lib, qizil g'isht yoki kulrang toshdan quriladi va tosh devor bilan o'raladi. Keyinchalik bir xil o'lchamdagi qizil cherepitsali to'siq va gulzorli uylar qurildi.

Pays de la Loire *m pl - Luara yerlari* // Fransiya g'arbidagi ma'muriy hudud (q.région). 5 ta departamentdan iborat: Atlantik Luara, Men-i-Luara, Mayenn, Sarta, Vandeya. Maydoni - 32082 km² (metropoliya maydonining 5,9 foizi). Aholisi 1992-yil 1-yanvar hisob-kitobiga ko'ra - 3 087000 kishi yoki mamlakat aholisining 5,4 foizi. Ma'muriy markazi – Nant. Asosiy shaharlari: Anjer, Man, Sen-Nazer, Laval, Shole, Somyur. 75 % maydoni - Armorikan massiviga (q.massif Armoricaïn) to'g'ri keladi: Luaradan shimolga qumliklar va granit bokajlar (q.bocage) hosil qiladi. Relyef doimiy ravishda xushmanzara „Mansell Alp” laridan (Alpes mancelles) „breton jo'yaklari”ga (sillon de Bretagne) va janubroq - Luaraga pasayib boradi. Yumshoq iqlimi qishloq xo'jaligi rivojlanishida muhim omil bo'lib, mamlakatda qishloq xo'jaligi 2-o'rinda turadi. Ixtisosligi: chorvachilik, bog'dorchilik va sabzavotchilik, don mahsulotlari (arpa,

bug‘doy). Baliq ovlash bo‘yicha Fransiyada 3-o‘rinda turadi. Hududda oziq-ovqat, oyoq kiyim-poyafzal (mamlakatda 1-o‘rinda), kimyo, yog‘ochni qayta ishlash, avtomobil, elektron, aviakosmik sanoati, informatika va ayniqsa kemasozlik sanoati rivojlangan. Aholining katta qismi Atlantika sohillari va Luara vodiysi (q.Châteaux de la Loire)ga tashrif buyuruvchi sayyohlarga xizmat ko‘rsatishadi. Bu yerda shoirlar Abelyar va Dyū Belle, yozuvchilar J.Vern va E.Bazen, vrach Abruaz Pare, siyosatchi J.Klemanso, kutyure Koko Shanel va boshqa taniqli kishilar tavallud topganlar.

P.D.G. - *Firma prezidenti* // Président directeur général dan qisqartma.
P.D.G. - korxona bosh direktori.

pelote basque - *baskcha pelota* // Mamlakat janubi-g‘arbida bask provinsiyalari (Labur, Quyi Navarra, Sulda)da an‘anaviy koptok o‘yini. Qadimgi fransuz chillak o‘yinlariga (jeu de paume) taqaladi. Pelota (qattiq koptokcha qo‘y terisiga o‘ralgan va ip bilan tortib bog‘langan) (pelote) har bir shahar va qishloqda o‘yin uchun maxsus ajratilgan joylarda o‘ynaladi. Odatda, cherkov yonidagi maydonda balandligi 10 m va eni 20 m, markazi gumbazsimon qilib devor qurilgan. O‘yin maydon devori yonida – atrofi amfiteatr qilib tosh o‘rindiqlar qo‘yilgan maydonda o‘tadi. O‘yinchilardan biri koptokni devorga uradi, boshqalarining vazifasi - sakrab ketgan koptokni tutish va yana devorga tashlash. Yerga tushgan koptok - raqib komandaga ochko bo‘ladi. O‘yinning bir necha variantlari mavjud. Havaskorlar koptokni yalang‘och qo‘li bilan urishadi, professionallari esa o‘ng qo‘liga tol novdalaridan to‘qilgan qo‘lqop kiyishadi. O‘yinchilar soni 2 nafardan 6 nafargacha bo‘ladi. 1952-yildan bu o‘yin bo‘yicha Fransiya, Ispaniya, Meksika, AQSH, Argentina va boshqa davlatlar ishtirokida jahon chempionati o‘tkaziladi.

Pentecôte *f* (yunoncha *pentekoste-50-kun*) - *Troitsa kuni* // Muqaddas Ruxning Xrist apostollariga tushishi sharafiga bayram. Pasxadan 50 kun keyin, may oyining oxiri - iyun oyining boshida nishonlanadi. 2 kun davom qiladi.

perchoir *m. soʻzl. - oʻrin* (lavozim) *milliy Majlis raisi* (q.*Assemblée nationale*) // Soʻzma-soʻz «qoʻndiq» maʼnosini anglatadi. Rais kreslosi notiqar tribunasi dan koʻtariladi, pastda stenografistlar byurosi joylashgan. Nomi ni III Respublika zamonidan (q.*République III*) olgan.

périodes blanches - *oq davrlar* // Temiryoʻl transporti koʻp, qizgʻin yuk bilan taʼminlangan kunlar va soatlar. Bu vaqtda imtiyozli taʼriflar amal qilmaydi: juma kuni soat 12 dan shanba 12 gacha, yakshanba soat 15 dan dushanba 12 gacha va ayrim bayram kunlari.

périodes bleues - *oqoʻk davrlar* // Temir yoʻl transporti kam yuklangan imtiyozli tarifli kunlar va soatlar: dushanba soat 12 dan juma 12 gacha; shanba soat 12dan yakshanba soat 15 gacha; bayram kunlari ertalab.

périodes rouges - *oqizil davrlar* // Temiryoʻl transpoti juda koʻp yuklanganligi va chiptalar bahosi juda yuqori boʻlgan vaqt (imtiyozli tariflar yoʻq). Bu "qizil kunlar" (jours rouges) ommaviy joʻnab ketishlar (grands départs): Rojdestvo (q.Noël) va pasxa taʼtillari (q.Pâques), yozgi taʼtillar boshi va oxiri (avgust - sentabr).

pervenche *f* - *avtomobillar pullik toʻxtash joyidagi nazoratchi ayol* // Nomi - "pervanch" (ochiq havorang) kontrolyor formasi rangidan kelib chiqqan. Kuture Karven modeli boʻyicha tayyorlangan.

pétanque *f* - *petank* // Fransiya janubida shar oʻyini (q.Jeu de boules). Provansda XX asr boshida paydo boʻldi. Qoidasi boʻyicha oʻyin davomida tomoshabinlar ehtirossiz boʻlishlari, oʻyinchilar jim boʻlishlari - gapirmasliklari lozim. Har bir oʻyin spektakl, imo-ishora, qoʻl harakati va koʻz qisishlar bilan olib boriladi. Tanaffus vaqtlarida qonun-qoida buzilganligi kabilar toʻgʻrisida qizgʻin bahslar boʻlib oʻtadi va tomoshabinlar temperamenti namoyon boʻladi.

petits commerces - *kichik xususiy magazinlar* // Ularga baqqollik mollari, non doʻkonlari, goʻsht va kolbasa mahsulotlari doʻkonlari, attorlik mollari doʻkoni,

dorixona kabilar kiradi. Yirik univermaglar paydo bo'lishi (q.Grande surface) bilan narx-navo pasayishi bunday do'konchalarning kamayishiga olib keldi.

Picardie *f* - *Pikardiya* // Fransiya shimolidagi ma'muriy hudud (q.Région). Uchta departamentni o'z ichiga olgan. Bular: Ena, Uaza, Somma departamentlari. Maydoni - 19528 km² (metropoliyaning 3,6 % maydoni). Aholisi 1,8 mln. kishi (1996) yoki mamlakat aholisining 3,2 foiz qismi. Ma'muriy markazi – Amen. Asosiy shaharlari: Sen-Kanten, Kompen, Bove, Suasson, Lan. Parij basseynida (q.Bassin parisien) joylashgan. Tekis Relyefi, hosildor yerlari va yumshoq iqlim hududi qishloq xo'jaligi ixtisosligini belgiladi. Kartoshka, sabzavotlar, qandlavlagi va sanoatda ulardan oziq-ovqat tayyorlash bo'yicha 1-o'rinda turadi. Agrosanoat sohasida juda ko'p ishchilar mehnat qilishadi. Hudud attorlik mollari (parfyumeriya) chiqarish bo'yicha (1966- yildan beri) 1-o'rinni egallaydi. Oynasozlik va kimyo sanoati, mashinasozlik rivojlangan. 300 yildan beri yirik ish beruvchi guruh Sent – Goben (idish-tovoq va kumush oshxona jihozlari, daraxt va suyak o'ymalarini, to'qimachilik, kiyim tikish, shisha va fayans) guruhidir. Hududda Givenchy, Chanel, l'Oreal, Colgate, Fabergé, Avon (atir, kosmetika, zebziynat buyumlari, yuqori Moda kiyimlari va ommaviy xaridor) kabi firmalar joylashgan. Hududni XI -XVI asrlar gotika san'ati yodgorliklari – Amendagi cherkovlar (tojdag i injil), Lan, Suasson cherkovlari dunyoga mashhur qildi. Kampen yaqinida 1918-yil 11-noyabr I Jahon urushidagi yarashish va Fransiyaning fashistlar Germaniyasiga 1940-yilgi taslim bo'lish shartnomalari imzolangan vagon – salon saqlanmoqda. Pikardiyada tavallud topganlar orasida: yozuvchilar J.Rassin, J.Lafonten, A.Dyuma, J. de Nerval; shoir va dramaturg P. Klodel; faylasuf, matematik va buyuk Fransuz Revolyutsiyasi siyosiy arbobi Kondorse va boshqalar bor.

place Charles de Gaulle - *Sharl de Goll maydoni* // Parijning I okrugida joylashgan. 1970-yilgacha "Place de l'étoile" deb nomlangan. Maydondan 12 ta ko'cha yulduz hosil qilib, har tomonga qarab ketgan shu qatorda Yelisey dalalari –

Champs - Elysée maydoni markazida Trimufal Ark (q.Arc de triomphe de l'étoile) joylashgan.

place de la Bastille - *Bastiliya maydoni* // Parijning sharqiy qismida joylashgan. 1789 - yilgacha siyosiy mahbuslarga qamoq vazifasini o'tagan, 1370-yilda Karl V tomonidan qurilgan qasr nomi bilan atalgan. Turli vaqtlarda turmada N.Fuke «Temir niqob», Volter, markiz de Sad, Mirabo va boshqalar saqlangan. Hech qanday sud va taftish-tekshiruvsiz qamoqqa tashlangan turma - qirollar despotizmi-istibdodi ramzi bo'lgan. Buyuk fransuz Revolyutsiyasi (q. Révolution française) 1789-yil 14-iyulda binoni ishg'ol qilishdan boshlangan va bu kun fransuz xalqining milliy bayrami bo'lib qoldi (q.Fête nationale). 1790-yil tekislab tashlangan va uning o'rnida 1800-yil Napoleonning Misrga yurishi sharafiga yodgorlik o'rnatishga qaror qilishdi; 12 metrlik bahaybat fil qurishdi. Bu yerda V.Hyugoning «Xo'rlanganlar» (Les Misérables) romani qahramoni Gavrosha panoh topdi. 1840-yilda maydonda bronzadan, «Iyul kolonna»si 1830-yil Revolyutsiya vaqtida halok bo'lganlar xotirasiga barpo etildi (q.Révolution de juillet). Uning tepasida – Ozodlik dahosi qanotli zarhal haykali qad ko'tarib turibdi. Hozirda maydonda yangi opera binosi joylashgan (q.Opéra de Paris Bastille).

place de la Concorde ñ *place de la Concorde* - *Kelishuv maydoni* – Parijdagi eng katta (184 ming km²) maydon. Me'mor Gabriel (1698-1782 y.y.) tomonidan Lyudovik XV ning otliq haykalini o'rnatish uchun barpo etildi va 1790-yilgacha uning nomi bilan atalgan, keyin Revolyutsiya maydoni (place de la Révolution) nomini oldi. 1793-yil 21-yanvarda Lyudovik XVI ni qatl etish uchun maydonga gilotina (q.guillotine) ko'chirildi. 2 yil davomida 1793-1795-yillarda bu yerda 1119 kishi qatl etilgan. Ular orasida qirol Lyudovik XVI, qirolicha Mariya-Antuanetta, Danton, Robesper, Sen-Jyust va boshqalar bor. 1795-yil maydon oldingi nomini oldi va 1830-yil qat'iy o'sha nomni qabul qildi. 8 burchakli ko'rinishga ega. Shaharning ramzi 8 ta haykal : Lill, Strasburg, Lion, Marsel,

Bordo, Nant, Brest, Ruan. 1836-yilda maydonda Luksorsk yodgorligi qirol Lui-Filippga Misr vitse-qirol Mahmet-Ali tomonidan sovg'a sifatida o'rnatildi.

place de l'Hôtel de Ville - *Ratusha maydoni* // Parijning sobiq Grev (place de Grève, 1830- yilgacha) maydoni; o'rta asrlarda qatl qilish uchun va xalq-sayri joyi sifatida xizmat qildi. Maydon bilan ko'plab tarixiy voqealar bog'liq. Buyuk fransuz Revolyutsiyasi boshida bosh ko'targan xalq ratushani egalladi va maydon siyosiy manifestlar joyi bo'ldi. 1871-yil 28-martda bu yerda Kommuna (q.Commune) tantanali e'lon qilingan. 1944-yil avgustda maydonda Qarshilik harakati (q.Résistance) ichki kuchlar shtabi joylashgan, 25-avgust 1944-yil general de Goll ratusha balkonidan (q.Hôtel de Ville) Fransiyaning ozodligini e'lon qildi (q. Libération).

place de la République - *Respublika maydoni* // 1854-yilda Parijning sharqiy qismida prefekt baron Osmann (1809-1891) buyrug'iga ko'ra bunyod etildi. 1883-yil aka-uka Morislar loyihasi bilan maydonda Respublika bronza yodgorligi o'rnatilgan. Haykaltaroshlik va ba'Relyef ishlari J.Dalu (1838-1902) tomonidan bajarilgan bo'lib, Fransiya respublikasi asosiy voqealarini tasvirlaydi. Hozirgi kunda maydon mitinglar o'tkazish joyiga aylangan.

place des Vosges - *Vogeze maydoni* // Parijning eng chiroyli maydonlaridan biri. Mare kvartalida joylashgan. Qurilishi 1605 - yil Genrix IV buyrug'i bilan boshlangan va 1612-yil tugallangan. Sobiq Qirollik (place Royale); markazida 1639-yil Lyudovik XIII ning otliq haykali o'rnatilgan. Buyuk fransuz Revolyutsiyasi vaqtida (q.Révolution française) haykalni olib tashladilar va maydonni hamma soliqlarini birinchi bo'lib to'lagan (1800-y.) Vogeze departamenti sharafiga nomlandi. Maydon kvadrat formada 36 ta bir xil 3 qavatli qizil cherepitsa bilan yopilgan tik tomli uylar arxitektura ansamblini tashkil etadi.

place du Châtelet - *Shatle maydoni* // Senaning o'ng sohilidagi qadimiy qal'a- qop-qorong'i turma nomidan kelib chiqqan. Buyuk fransuz revolyutsiyasidan keyin (q.Révolution française) buzib tashlangan. Menyal

ko‘prigi shimoliy qismida, San - Devi ko‘chasiga o‘tish joyida joylashgan. Maydon o‘rtasida -’’Palma fontani’ – 1806-yilda qurilgan kalonnalari palma yaproqlari bilan bezatilgan, ular orasida Napoleonning Italiya va Misrga yurish vaqtlaridagi g‘alabalari nomlari o‘yib yozilgan. Kolonnani haykaltarosh F.J.Bozining G‘alaba xudosi tasviri bezab turibdi.

Place du Tertre - *Tertr maydoni* // Sakr-Kyor (q.basilique du Sacre-Coeur) yaqinida Monmartr (q.Montmartre)dagi maydon. XVIII asrda bu yerda Sena kommunasi (q.Commune de la Seine) bo‘lgan, uning birinchi meriyasi 1790-yil 3 - uyda bo‘lgan. 1860-yil Parij prefekti baron Osmanning buyrug‘i bilan kommuna bekor qilindi. Hozirgi kunda maydonda ko‘cha rassomlari va karikaturachilari Monmartrga o‘ziga xos muhit yaratdilar.

place Vendôme - *Vandom maydoni* // Parijning eng qadimiy maydonlaridan biri. 1685-1720-yillarda me‘mor J.Arduen-Mansar tomonidan ampir uslubida qurilgan. Oldin zabt etilgan maydon (place des Conquêtes), keyin-Buyuk Lyudovik maydoni deb atalgan. Hozirgi nomi gersog Vandomskiy saroy xo‘jayinlaridan biri nomidan kelib chiqqan. Bir xildagi bir qavatli kalonnalar bilan bezatilgan va uchburchak frontonli uylar arxitektura ansamblini tashkil etgan. Fasad tomlarida chertak xonalarga o‘ziga xos derazalar o‘rnatilgan. Bunday binolar me‘mor Mansar sharafiga ”mansard”– deb atalgan. XVII asrda maydon markazida Lyudovik IV ga yodgorlik o‘rnatilgan, 1792-yil buzib tashlangan, uning o‘rniga 1806-1810-yillarda Vandom kolonnasi (q.colonne Vendôme) barpo etildi.

«Pléiade» - «*Pleyada*» // Uyg‘onish davri (Renaissance) fransuz shoirlar guruhi, oldin «La Brigade» (1550) deb nomlangan va fransuz adabiyoti revolutsion o‘zgarishlarini boshlagan. “Pleyada” nomi yunon mifologiyasi (Atlantaning 7 qizi, Zevs tomonidan Pleyada yulduzlar turkumiga aylantirilgan)dan o‘zlashtirilgan. Eramizdan avvalgi III asrdan bu atama iqtidorli shoirlar “turkumi”ni bildirish uchun qo‘llaniladi. Fransiyada “Pleyada”ga 7 nafar shoirlar kirgan: Jan Dora, Pierde Ronsar, Eten Jodel, Pontius de Tiyar, Jan Antuan

de Biaf, Remmi Bello, Joashim dyu Belle. Ularning manifesti J.Dyu Bellening “Fransuz tilini madh etish va himoyalash” (Défense et illustration de la langue française, 1549) asari bo‘ldi. Muallif vatandoshlarini ilmiy va she’riy asarlarini lotin tilida emas, balki fransuz tilida yozishga chaqiradi. “Pleyada” shoirlari o‘z oldilariga fransuz adabiyotini lotin adabiyoti darajasiga yetkazishni maqsad qilib oldilar.

ó poisson döavril” - “*Aprél baligãô* // 1- aprel Fransiyada – aldoqchi va quvnoq o‘yinlar kuni. Shu kuni hazil sovg‘alari, qalbaki xabarlar jo‘natish, orqasiga qog‘ozdan yasalgan baliqlar yopishtirish udum bo‘lgan. Bu odat 1564-yil Karl IX (1550-1574) yangi yilni 1-apreldan 1-yanvarga ko‘chirgandan keyin, oldingi yangi yil sovg‘alari hazil, o‘yinga aylangach kelib chiqdi.

óPoitou ñCharentesó m - Puatu Sharanta // Fransiya g‘arbida joylashgan ma’muriy hudud (q.région). 4 ta departamentdan iborat: Sharanta, Primorskaya Sharanta, Dyo-Sevr, Venna. Maydoni - 25810 kv. km (metropoliya maydonining 4,7 foizi). Aholisi 1992-yil hisobiga ko‘ra - 1 601800 kishi yoki mamlakat aholisining 2,8 foiz qismi. Ma’muriy markazi - Puate. Asosiy shaharlari: Angulem, La Roshel, Nyor, Shatelro. Hudud Parij janubi-g‘arbi va Akvitan basseyini shimolini, sharqda – Markaziy massivni (q.Bassin parisien, Bassin Aquitaine, Massif Central) bog‘laydi. Yumshoq, okean iqlimi, ko‘p sonli quyoshli kunlar, hosildor yerlar qishloq xo‘jaligi asosini tashkil qiladi va don mahsulotlari, uzumchilik, sut-go‘sht chorvachiligiga ixtisoslashtirilgan. Mahalliy uzumzorlar mevalari eng yaxshi konyak (80 % eksport qilinadi) chiqarishga ketadi. Hudud ustritsa va midiya yetishtirish bo‘yicha 1-o‘rinni egallaydi. Baliq ovlash rivojlangan. Yirik shaharlardagi to‘plangan sanoatchilik (asosan mashinasozlik) zaiflashgan. Sayyohlik va kurort ishlari rivojlanmoqda. Ruayan (Royen) shahri kurort markazida mashhur ommaviy festivallar uyushtiriladi. Puate yaqinida 1986-yilda superzamonaviy attraksion parki qurilgan. Bu hududda shoir Agrippa D’Obine, Fransiya prezidenti F.Mitteran, kosmonavt J.L.Kretenlar tavallud topganlar.

police *f* - *politsiya* // O'rta asrlarda bu atama fuqaro jamiyatini ishlab chiquvini ta'minlovchi korxonalar birligi va o'zini tutish-xulq qoidalarini bildirgan. Hozirgi kunda jamoat tartibini, fuqaro hayotini va mulkini, davlat institutlarini saqlashga javob beruvchi davlat xizmatlari tizimini anglatadi. Milliy politsiya va milliy jandarmeriya bor (q.police nationale, gendarmerie nationale). Politsiya departamentda prefektga, kommunada - merga bo'ysunadi.

police judiciaire (P.J) - *kriminal politsiya* // Jinoyatlar, moliya va iqtisodiy jinoyatlar, uyushgan jinoyatchilik, qurol-yarog' va giyohvand moddalar sotish jinoyatlariga qarshi kurash olib boradi.

police nationale - *milliy politsiya* // Ichki ishlar vazirligiga qarashli va fuqarolardan tashkil topgan. 1994-1995-yilgi islohotlardan keyin o'z ichiga 9 tur xizmatni qamrab olgan: Bosh inspeksiya (Inspection générale de la police nationale); Sud politsiyasi markaziy xizmati (q.police judiciaire); Jamoat xavfsizligi markaziy xizmati (Direction centrale de la sécurité publique); Umumiy ma'lumot markaziy xizmati (Direction centrale des renseignements généraux); Noqonuniy mehnat faoliyati va immigratsiya nazorati markaziy xizmati (Direction centrale du contrôle de l'immigration et de la lutte contre l'emploi des clandestins); Kontrrazvedka xizmati (Direction de la surveillance du territoire); Xavfsizlik respublika otryadlari (q.Compagnies républicaines de sécurité); Hukumat himoyasi xizmati (service de protection des hautes personnalités); Xalqaro texnik hamkorlik xizmati (q.service de coopération technique internationale de police).

Polynésie Française *f* ñ *Fransuz polineziyasi* // Tinch okeani sharqiy qismidagi Fransiya zamorsk hududi (q.territoires d'outre-mer). Tarkibiga 5 ta arxipelag: Markiz orollari, Gambe orollari, Janubiy orollar yoki Tubuan orollari va Tuamotu marjon orollari kiradi. Umumiy maydoni - 4 ming km². Aholisi-polineziyaliklar (Polynesiens), 1995-yil hisobiga ko'ra 200 ming kishi, mahalliy xalq polineziy tilida so'zlashadi, avvalo taityan tilida. Ma'muriy markazi - Papete. Iqtisodiy asosi - sayyohlarga xizmat ko'rsatish, marvarid qazib olish (sadaf, kakos

yong'og'i va shu kabilar bilan birga eksport qilinadi). 80-yillarda orollarda fosfat va kobalt yirik qatlamlari ochilgan. Qishloq xo'jaligi an'anaviy chorvachilik, cho'chqa, ot, sabzavotchilik, sitrus mevalar, banan, ananas yetishtirishga ixtisoslashtirilgan. Baliq ovlash rivojlangan. Bu orollar ichida birinchi bo'lib 1595-yil ispan dengizchisi A.Medan tomonidan Markiz orollari kashf etilgan. Polineziyani tadqiq qilish ishlarida rus dengizchilari I.F.Kruzenshtern, O.E.Kotsebu, M.P.Lazarevlar katta ulush qo'shgan. XIX asrning 40-yillarida orollarning katta qismini Fransiya egalladi. 1958-yil Fransiya Polineziyasi zamorsk hududi huquqiy holatini oldi (bungacha 1885-yildan u Fransiya Okeaniyasi deb atalgan). 1984-yil «ichki avtonomiya» ni o'z qonunchilik organi bilan - Hududiy Assambleya va hukumat mas'ulligini qo'lga kiritdi. Fransiya parlamentiga 2 nafar deputat va bir nafar Senator qo'yilgan. Fransiya hukumati Hududiy Assambleyada o'z vakiliga ega. 1964-yil Tuamotu (Mururoa va Fangatofa) arxipelagi marjon orollarida yadro qurollarini sinash Tinch okeani sinov markazi tashkil etildi va bu mahalliy xalq bilan qo'shni davlatlar noroziligiga sabab bo'ldi. 1992-yil yadro sinovlari xalqaro moratoriysi (to'lov muddati uzaytirilgan) sababli sinovlar to'xtatildi. 1996-yil Fransiya yadro qurolini ta'qiqlash Shartnomasiga imzo chekdi.

Pompidou (Georges) - *Jorj Pompidu* (1911-1974) // Siyosiy arbob. 1969-1974-yillardan V Respublika (q.République V)ning 2-prezidenti. 1956-yildan 1962-yilgacha Rotshild banki bosh direktori, Sh. de Gollning yaqin safdoshi (q.Gaulle (Charles)(de)), 1962-yil aprelda uning premer ministrii bo'ldi, 1962-yil oktabrda Milliy Majlis (q. Assemblée nationale)da ishonchsizlik bildirish natijasida (q.motion de censure) iste'foga chiqdi. Milliy Majlis yig'ilishi shundan keyin prezident tomonidan tarqatilib yuborilgan. Sharl de Goll tarafdorlarining parlament saylovlaridagi g'alabasidan keyin yana premer ministr qilib tayinlandi. 1968-yil may voqealari vaqtida (q.mai 1968) kasaba qo'mita vakillari bilan Grenell shartnomasini (accords de Grenelle) imzoladi. 1968-yil iyulda Milliy Majlisga saylovlarda «Respublika uchun demokratlar ittifoqi» partiyasi (Union des démocrates pour la République) g'olib chiqqani uchun iste'foga chiqdi. 1969-yil

15-iyun prezident bo'lib saylandi. Sh. de Gollning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini davom qildirdi. Uning boshqaruvi davrida mamlakat sanoati zamonaviylashtirildi va rivojlandi. Bunda 1972-yil ishchilarning o'z ijtimoiy huquqlari uchun kurashi kuchaydi va so'l kuchlarning 1973-yilgi parlament saylovlaridagi muvaffaqiyatiga olib keldi. J.Pompidu 1974-yil 2-aprel prezidentlik mandati tugashidan oldin vafot etdi.

population *f - aholi* // 1999-yil 1-yanvardagi hisob-kitobga ko'ra Fransiya aholisi metropoliyada 59 mln. va zamorsk departamentlari bilan birga 61.3 mln. kishini tashkil etadi. Ulardan taxminan 25,8 foizi yoshlar (20 yoshgacha) va 15,6 % kishilar 65 yoshdan katta. 1998-yil tug'ilish va o'lish 14,3 % va 9,5 foizni tashkil etdi. O'rtacha umr ko'rish (1998-yil) erkaklar uchun 74,6 yosh, ayollar uchun - 82,2 yoshni tashkil etdi. Aholining faol qismi 44 foizni tashkil etadi. Faol aholining 5 foiz qismi qishloq xo'jaligi bilan, sanoatda-17 %, xizmat ko'rsatish sohasida – 66 % band. 2000-yilda ishsizlar soni (bu asosan yoshlar, ayollar va immigrantlar) 10 foizga kamaydi.

positivisme *m - pozitivizm* // Falsafiy ta'lim - hamma asl (tajribaga tayangan) bilimlar - aniq fanlar natijasi va falsafiy anglashga muhtoj emas. Fransiya XIX asrning 30-yillarida paydo bo'ldi. Asoschisi - matematik va faylasuf O.Kont (1798-1857) XIX asrning 2-yarmidagi ko'pchilik fransuz yozuvchilari ijodiga ta'sir ko'rsatdi.

Postes, Télégraphes, Téléphones (P.T.T.) **Postes et télécommunications** - *pochta, telegraf, telefon* // 1998-yilgacha-pochta, telegraf va telefon xizmatlarini ko'rsatgan va 17,2 ming pochta bo'limlarini, 25 mln. km telefon tarmoqlarini idora qilgan va dunyodagi eng zamonaviy telegraflardan biri bo'lgan davlat tashkiloti. Teleinformatika (q.minitel) yangi yutuqlaridan foydalandi. 1998-yil 2 kompaniyaga bo'lindi: davlat - pochta xizmati (la Poste) va xususiy telefon «France Télécom». Shundan keyin fransuzlar telegraftan foydalanmay qo'yishdi.

Postimpressionnisme *m* – *postimpressionizm* // Fransiyada taxminan 1885-1905-yillarda impressionizmga (q.impressionisme) reaksiya sifatida paydo bo'lgan rassomlik san'atidagi turli oqimlarning umumiy nomi. Uning ergashuvchilari impressionizmdan O.Renuar (1841-1919) kabi uzoqlashdilar, yoki P.Sezann (1839-1906), V.Van-Gog (1853-1890), P.Gogen (1848-1903), A.Tuluz-Lotreklar (1864-1901) kabi o'z uslubini qarshi qo'ydilar. Postimpressionistlarga simbolizm vakillari kabilarni kiritadilar.

pouvoir (autorité) judiciaire - *sud hokimiyati* // Uning vakolatiga qonunni qo'llash va rioya qilish qoidalariga amal qilishni nazorat etish kiradi. Ijroiya (q.exécutif) va qonunchilik (q.législatif) hokimiyatlariga bo'lingan. Sud hokimiyati mustaqilligini Respublika Prezidenti ta'minlaydi.

préciosité *f* (fransuzchadan précieux-nazokatli, g'ayritabiiy) - *XVII asr fransuz adabiyotida aristokratik yoʻnalish* // Aslzodalar, asosan ayollar salonida paydo bo'ldi, ular orasida eng mashhurlari yozuvchilar markiza de Rambuyye (1588-1665) va Madlen de Skyuderi (1607-1701) salonlari. Uslubning asosiy xususiyatlari: his-tuyg'ular shartliligini, qahramonlarni ideallashtirish, so'z o'yini, giperbola, metaforalar mo'l-ko'lligi, til shartliligi va hk. Bu uslubni Moler va Bualo istehzo bilan, achitib masxara qilishgan.

préfet *m* - *prefekt* // 1) hudud (q.région) yoki departamentda (q.département) davlat hokimiyati vakili oliy martabasi. 1982-yilgacha prefekt bu hududlarda hokimiyatni to'liq boshqargan. Desentrlashtirish to'g'risidagi qonun qabul qilingan 1982-yil uning vazifasi chegaralandi va vakolatining ma'lum qismi Bosh yoki Hududiy Kengashlarga berildi. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari ustidan nazorat qiladi. 1982 - 1988-yillarda Respublika Kommissari (Commissaire de la République) deb ataldi. 2) Préfet de police-Parij politsiyasi boshlig'i.

premier ministre - *premer ministr* // Hukumat boshlig'i (q.gouvernement), Milliy Majlis (q.Assemblée nationale) partiyalari

yoʻlboshchilari ichidan prezident tomonidan tayinlanadi (q. président de la République). Premier ministr oʻz kabineti tarkibini tasdiqlash uchun prezidentga taqdim etadi. Parlament oldida (q.parlement) masʼul. Milliy Majlisga hukumat dasturini (q.motion de censure) taqdim etadi, hukumatni barcha ishlarini boshqaradi va milliy mudofaa, qonunchilikni taʼminlash, belgilangan aktlar chiqarish hamda muhim fuqaro va harbiy lavozimlarga tayinlash ishlari uchun javobgar. Qarorgohi Matignon (q.Hôtel Matignon) saroyida joylashgan.

président de la République - *Respublika prezidenti* // Davlat boshligʻi. 1958-yilgi Konstitutsiyaga muvofiq (q.Constitution de 1958) prezident roli ancha kengaytirilgan; u parlament oldida masʼul emas, barcha davlat boshliqlariga va aynan faqat Fransiya Prezidentiga xos boʻlgan, davlat hayotining barcha sohalarida keng vakolatga ega. Premier ministr va uning kabinetini tayinlash, hukumat isteʼfosini qabul qilish, Milliy Majlis (q.Assemblée nationale)ni muddatidan ilgari tarqatib yuborish, yangi saylovlar belgilash, referendumga davlat hokimiyatini tashkil etish boʻyicha qonun loyihasini kiritish, armiyani shaxsan oʻzi boshqarish huquqi, davlat xavfsizligi, davlat tashqi siyosati boʻyicha qonunlar taqdim etishi mumkin. U mamlakat xavfsizligi uchun jiddiy xavf-xatar boʻlganda favqulodda vakolatga ega. Prezident Konstitutsion Kengash (q.Conseil constitutionnel) raisi va 3 ta aʼzosini tayinlaydi, unda oʻz mandati muddati tugagach (q.élections présidentielles) umrbod yigʻilish oʻtkazishi mumkin.

président de l'université - *universitet prezidenti* // 5 yil muddatga 3 ta universitet kengashi aʼzolari koʻpchilik ovozi bilan saylanadi (q.conseil d'administration, conseil scientifique, conseil des études et de la vie universitaire). Universitet faoliyatining barcha turlarini boshqaradi.

prête-a-porter *m* (soʻzma-soʻz isteʼmol uchun tayyor) - *pret-a-porte* // Keng xaridorlarga standart oʻlchovlar boʻyicha kiyim-kechak ishlab chiqarish. Kiyish uchun tayyor boʻlgan kiyim. Bu atama sanoatchi R.Veyl tomonidan 1949-yilda kiritilgan. Pret-a-porte mahsulotlari modellarini baʼzan yuqori moda firmalari

(q.haute couture) ishlab chiqadi, biroq ko'pincha modelerlar litsenziyasi bo'yicha yuqori texnologiyadan foydalanib tikishadi. Tikuvchilik korxonalari 4 ta federatsiyaga birlashgan. Ulardan eng yirigi - Ayollar tayyor kiyimlarini ishlab chiqaruvchi fransuz birlashmasi. 1961-yildan boshlab Parijda 1 yilda 2 marotaba tayyor ko'ylaklar ko'rgazmasi (salons) o'tkaziladi.

professeur des écoles - *boshlang'ich maktab o'qituvchisi* // 90-yillardagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash Universitet institutlarida olib borilishi (q.Instituts universitaires de formation des maitres) to'g'risidagi islohotlardan keyingi atama, oldingisi (instituteur, - rice) ning o'rniga ishlatiladi.

professeur des universités - *Universitet professori* // Universitet o'qituvchilar tarkibidagi eng yuqori lavozim. Fan doktori (q.doctorat). Ma'ruzalar o'qiydi, diplom ishlariga, dissertatsiya, ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qiladi. Universitet o'quv-ilmiy bo'limiga (UFR) rahbarlik ham qilishi mumkin. Universitet taklifiga ko'ra, ministr tomonidan yoki Universitetlar Milliy Kengashi (Conseil National des Unversités, CNU) tomonidan tayinlanadi.

professions libérales - *erkin kasblar* // Aqliy mehnat ishchilari davlat xizmatchisi bo'lishmasa, o'z mehnati uchun oylik maosh emas, gonorar olishadi (vrachlar, huquqshunoslar, musiqachilar, artistlar, rassomlar, adabiyotchilar va hk.)

projets de loi - *qonun loyihasi* // Konstitutsiyaga muvofiq premer-ministrga taqdim etilgan qonuchilik tashabbusi.

proposition de loi - *qonun taklifi* // Deputat yoki Senator tomonidan kiritilgan qonun loyihasi.

Provence Alpes - Côte d'Azur (P.A.C.A.) *f - Provans-Alp- Maviy Qirg'och* // Fransiya janubi sharqidagi ma'muriy hudud (q.région). 6 ta departamentdan iborat. Bular: Yuqori Provans Alp, Yuqori Alp, Primorsk Alplari, Bush- dyu- Ron, Var, Voklyuz. Maydoni- 31 400 kv. km (metropoliya hududining 5,8 foizi) 1992-yilgi hisobi bo'yicha aholisi - 4 349 200 kishi yoki Fransiya

aholisining 7,6 foiz qismi. Ma'muriy markazi – Marsel. Asosiy shaharlari: Tulon, Nitsa, Eks-an-Provans, Grass, Kann, Antib, Arl, Avinon, Oranj. Rona daryosi janubiy – sharqiy qismi (q.Rhône) va janubiy Alpning (q.Alpes) deyarli hamma yerini qamrab olgan. O'rtayer dengizi iqlimi iliq qish va issiq va qurg'oq yozi bilan qishloq xo'jaligi mosligini belgilaydi (sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik, guruch yetishtirish, chorvachilik). Iqtisodda baliq ovlash ancha muhim o'rin tutadi. Sanoat uncha ham rivojlanmagan; asosiy soha - neft, kimyo (« Esso», « British Petroleum», « Total», «Shell»). Qora metallurgiya, kimyo sanoati rivojlanmoqda. Zamonaviy sohalari-aviaqurilish, elektronika, informatika, telekommunikatsiya (Telekom Valley). Hududning ilmiy potentsiali Yevropadagi eng kuchlilaridan sanaladi va Nitsa shahridagi Sofiya Antipolis Universiteti bilan bog'liq. Marsel - ahamiyati bo'yicha mamlakatda birinchi va Yevropada - uchinchi o'rindagi port hisoblanadi. Gullab yashnayotgan soha bu - sayyohlik sohasi bo'lib, tabiiy parklar go'zalligi, madaniy va tarixiy yodgorliklar ko'pligi, xalqaro festivallar (Kannda – kino, Avionda - teatr), muzeylari bilan o'ziga jalb qiladi. Bu yerda tavallud topganlar; mashhur astrolog M. Nostradamus, shoir Frederik Mistral, shoir va dramaturg Edmon Rostan. Yozuvchilar: J.Jiono, M.Panol, J.M.Leklezio, rassomlar O.Dome, P.Sezann, J. O. Fragonar, xonandalar L. Ferre, J.Beko, xoreograf M.Bejar, aktyorlar Fernandel, J. Filipp va boshqalar.

puy m (hud.) - *togã* markaziy Massivdagi tepalik (q.Massif Central) // Krateri hali bilinib turgan so'ngan vulqon. Le Puy de Dôme, Le Puy de Sancy geografik nomlar tarkibiga kiradi.

Pyrenées f pl - *Pireneya* // Fransiya va Ispaniya chegarasidagi tog' zanjiri. Fransiya hududidagi eng yuqori balandlik - Vinmal tog'lari (3298 m.). G'arbdan - sharqqa bo'lgan masofasi - 430 km. Yosh tog'lar sarasiga kiradi. Qadim o'tmishda muzliklar bilan qoplangan. O'ziga xos relyefga ega: 1600 m balandlikda Gavarni katta tabiiy sirki - 400-500 m balandlikdagi tik devorlar bilan o'rab olingan, ulardan 12 ta sharshara daryodagi (Cave de Pau) Mon-Perdyu cho'qqisidan

quyiladi. 1967-yil 46 ming gektar maydonga ega milliy (Parc des Pyrénées occidentales) park ochilgan.

Q

quai des Orfèvres (*soʻzl.*) - *Kriminal politsiya* // Joylashgan yerining nomi bilan atalgan - Parijdagi Orfevr sohili boʻyi (q.police judiciaire). Bu yerda J.Simenonning romanlarida tasvirlangan Parij tarixi Muzeyi binosi joylashgan.

quai d'Orsay (*soʻzl.*) - *Tashqi ishlar vazirligi* // Parijdagi Orse sohilida joylashgan. Joylashgan yeri boʻyicha nomlangan.

quartier Latin ñ *Lotin kvartali* // Parijning eng qadimiy rayonlaridan biri. Sena daryosining soʻl qirgʻogʻida V va VI okruglarda joylashgan. XIII asrdan boshlab Universitet taʼlim markazi, 1788-yilgacha asosiy tili lotin tili boʻlgan. Markazi - Sorbonna Universiteti (q.Sorbonne) hisoblanadi. Bu yerda qadimgi oʻquv yurtlari: De Frans Kolleji (q.Collège de France), Fransiya Instituti (Institut de France) va boshqalar, shuningdek oʻnlab Ilmiy tekshirish institutlari joylashgan. Kvartalda tarix, madaniyat va meʼmorchilik boʻyicha yodgorliklar koʻp: qadimgi Uylar (q.Cluny), Panteon (q.Panthéon(le)), Cent-Eten-dyu –Mon cherkovi. Asosiy transport yoʻllari – Sen-Mishel va Sen-Jermen xiyobonlari. Bu yerda eni 2,5 m dan 7 m gacha boʻlgan “Rue du Chat qui pêche” koʻchasi joylashgan.

querelle des anciens et des modernes - *qadimgi va zamonaviy mualliflar bahsi*

R

«Radical» ñ *«Radikal»* // 1994-yil «Soʻl radikal harakati» (Mouvement des radicaux de la Gauche) oʻrniga kelgan siyosiy harakat. Odatda sotsialistik

partiya bilan saylovlarda umumiy nomzod ko'rsatib, hamkorlikda harakat qiladi. 1993-1995-yillarda partiyada munosib o'rinni taniqli tijoratchi Bernar Tapi egalladi. Uning mashhurligiga katta umid bog'langan edi. Uning nomi bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina moliyaviy mojarolardan keyin bu harakat Fransiya siyosiy hayotida 2-darajali rol o'ynay boshladi va Fransiyaning asosan mamlakatning janubi-g'arbi qo'llab quvvatladi.

Raison (culte de la) - *Aqlga sig'inish* // Buyuk fransuz revolyutsiyasi (q.Révolution française) vaqtida o'rnatilgan revolyutsion sig'inish. Ebertistlar (q.montagnards) tomonidan o'tkazilgan 1793-yil sentabrdan dextistianlash siyosati - cherkovlarni zo'rlab yopish va ruhoniylarga tazyiq o'tkazish-yangi respublika kalendari qabul qilishga (q.calendrier révolutionnaire) va Aqlga sig'inishni targ'ib qildi. Ebertistlar qamoqqa olingandan keyin Aqlga sig'inish Robesper taklifiga ko'ra Oliy mavjudotga sig'inish bilan almashtirildi (q.Être suprême (culte de l')).

Rassemblement pour la République (R.P.R) - *Respublikani qo'llab quvvatlash birlashmasi* // Neogollistik orientatsiya ko'p sonli va uyushgan harakati; o'ng siyosiy partiya. Jak Shirak tomonidan (q.Chirac (Jacques) 1976-yilda Gollning «Fransuz xalqi birlashuvi» (1947) partiyasi merosxo'ri sifatida tuzildi. Uning faoliyati asosida gollizm prinsipi (milliy mustaqillik, «Fransiya buyukligi», V Respublika siyosiy insitutlarini himoyalash) bo'lgan. 1978-1981-yillarda boshqaruv ittifoqida faol qatnashdi. 1986-yil RHB Fransiya demokratiyasi ittifoqi (q.Union pour la démocratie française) tarkibida parlament saylovlarida g'olib chiqdi, buning natijasida uning yo'lbo'shchisi Jak Shirak premer-ministr (q.«cohabitation») bo'ldi. 1993-yilgi parlament saylovlarida so'l partiya ustidan ulkan g'alaba qozongach, premerlik lavozimiga Eduard Balladyur (1929-yilda tug'ilgan) qo'yildi. 1995-yilgi Prezidentlik saylovlarida partiya birinchi bor ikki nafar nomzodini qo'ydi: Shirak va Balladyur. J.Shirak prezident bo'ldi. Ichki kelishmovchiliklar, a'zolarining tarqoqligi va Fransiya demokratiyasi ittifoqi bilan hamkorlikning susayishi R.H.B. ga 1997-yilgi muddatdan oldingi parlament

saylovlarida ko'pchilik ovoz olish imkonini bermadi va bu yangi "birga yashash"ga va premer ministr o'zgarishiga olib keldi. Partiya ichida turli yo'nalishlar saqlangan bo'lib, bu to'g'rida Sharl Paskua tuzgan «Fransiya ertaga» harakati guvohlik beradi.

rationalisme *m* (lotincha ratio - aql, fikr) - *ratsionalizm* // Insonlar tabiati va xulqini idrok qilishni tan olgan falsafiy oqim. XVII-XVIII asrlarda klassik ratsionalizmning yorqin namoyondasi Dekart (q.cartésianisme) bo'lgan, o'rta asr safsatasi va diniy dogmatizmga qarshi chiqqan.

réaliste (art) - *realistik san'at* // XIX asr ikkinchi yarmidan Fransiyada rivojlana boshlagan san'at yo'nalishi. "Realizm" ("realisme") atamasi Fransiyada rassom Gyustav Kurbening (1819-1877) "Realizm paviloni"da 1955-yilgi shaxsiy ko'rgazmasidan keyin paydo bo'ldi. O'z aksini barbizonliklar peyzajida (q.école de Barbizon), J.F.Mille (1814-1875) portretlarida va rassom, haykaltarosh O.Dome (1808-1879) ijodida namoyon qilgan. O.Rodenning (1840-1917) ko'pgina haykallari ham realistik maktabga yaqin. Rodenning ta'siri uning shogirdi va yordamchisi A.Burdel (1861-1929) asarlarida ko'rinib turibdi va realistik an'analarning fransuz portret haykaltaroshligida hozirgi kungacha saqlanishiga zamin yaratdi.

réaliste (littérature) - *adabiyotda realizm* // Fransiyada XIX asrning 2-yarmiga kelib, romantizm o'rniga paydo bo'ldi. Yangi adabiy uslub asoschilari-Stendal (1783-1842) va Merime (1803-1870) voqelikni obektiv tasvirlash uchun zarur bo'lgan aniq va tushunarli adabiy til yaratuvchilari. XIX asr fransuz realizmi cho'qqisi –Balzak (1799-1850) ijodi. U o'z asarlarida fransuz jamiyatining XIX asr birinchi yarmi tarixini aks ettirgan. Ko'plab buyuk fransuz yozuvchilarining ijodida realizm boshqa yo'nalishlar (romantizm, naturalizm) bilan birga qo'shib ketgan. Bunday yozuvchilarga Gyustav Flober (1821-1880), Alfons Dode (1840-1897), Gi de Mopassan (1850-1893) va boshqalarni misol qilish mumkin.

recteur *m* - rektor // O'quv okrugi boshlig'i (q.académie), vazirlar mahkamasi tavsiyasi bilan prezident tomonidan tayinlanadigan xalq ta'limi vazirligida yuqori martabali amaldor. Doktorlik darajasiga (q. doctorat) va universitetda o'qitish tajribasiga ega bo'lishi lozim. O'z okrugidagi maktabdan oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan barcha davlat o'quv maskanlariga javobgarlik qiladi.

référéndum *m* - referendum // Muhim siyosiy masalalar bo'yicha aholi umumxalq so'rovi. Konstitutsiyaning 11-moddasiga muvofiq, hukumat yoki ikki palata taklifiga ko'ra prezident referendumiga har qanday qonun loyihasini davlat hokimiyati tizimidagi o'zgarishlar, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar yoki ratifikatsiya talab qiladigan shartnomalarga taalluqli masalalarni olib chiqishi mumkin. Prezidentning murojaatiga saylovchilar tarafdor (oui) yoki qarshi (non) deb ovoz beradilar. Referendum instituti prezidentga parlamentga qaramay to'g'ridan - to'g'ri xalqqa murojaat etishga ruxsat beradi. V Respublika faoliyati davomida 9 ta referendum o'tkazilgan. Oxirgisi 2000-yil 24-sentabr prezidentlik mandatini 7 yildan 5 yilga tushirishni so'rash bo'yicha o'tkazildi. Prezidentlik boshqaruvini qisqartirish tarafdori bo'lib 7340 ta ovoz berildi.

Régence *f* - Regentlik (mamlakatni vaqtincha boshqarib turish) // 1715-yildan to 1723-yilgacha mamlakatni gersog Filipp Orleanskiy (1674-1723) boshqargan payt, balog'atga yetmagan qirol Lyudovik XV (1710-1774) ning tog'asi. Lyudovik XIV (q.Louis XIV) vafot qilganda uning evarasi va taxt merosxo'ri Lyudovik XV 5 yoshida edi. Mamlakatning iqtisodiy ahvoli inqirozga yuz tutgan, xalqaro obro'si tushib ketgan edi. Regent bo'lib tayinlangan Filipp Orleanskiy saroy ichida dushmanlik qilib yurgan guruhlarini o'ziga og'dirib oldi, ziddiyatlarga barham berdi, Lyudovik XIV tomonidan olib qo'yilgan tanqid qilish huquqini qaytardi, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan aristokratiya hisobiga vasiylik kengashini kengaytirdi, ma'lum diniy erkinlikka ruxsat qildi. Shunday bo'lsa ham, regentlik davri moliyaviy yo'qotishlar, absolyutizm pasayishi,

imtiyozli tabaqalar obro‘ - e‘tiborini yo‘qotish bilan xarakterlanadi. Oxir oqibatda 1789-yilgi Revolyutsiyaga (q.Révolution française) olib keldi.

régent, -e - *regent, vaqtincha boshqaruvchi* // Monarx davlatida monarxning (q.Régence) yoshi kichikligi, uzoq davom qiluvchi kasallik yoki vaqtincha biror yerga ketganlik holatlarida vaqtincha boshqaruvchi shaxs. Fransiya yoshi kichik qirollar: Karl VIII (1470-1498), Lyudovik XIII (1601-1643) va Lyudovik XIV (1638-1715) davrida ularning regentlari onalari: Anna Fransuzkaya (1461-1522), Maria Medichi (1610-1617) va Anna Avstriyskaya (1642-1660)lar bo‘lganlar.

régime Vichy - *Vishi rejimi* // 1940-yil iyuldan 1944-yil avgustgacha Fransiya o‘rnatilgan profashist kollaboratsionistik rejimi. (1940-yil 22-iyungi yarashuv sulhidan keyin (q.guerre mondiale Deuxième)). Vishi kurort shahri (Alli departamentidagi) nomi bilan atalgan. Bu yerda «erkin zona»da Peten (Ph.Pétain, 1856-1951) hukumati joylashgan. Fransiyaning taslim bo‘lishi III Respublika (q.République III) tugashini bildiradi. Vishi Konstitutsiyasiga ko‘ra prezident va premer ministr lavozimlari bekor qilindi, parlament yig‘ilishlari to‘xtatildi. „Respublika“ so‘zi «fransuz davlati» (État français) atamasi bilan almashtirildi, ijroiya va qonunchilik hokimiyati „davlat boshlig‘i“ F.Peten bilan vitse - premer Per Laval (P.Laval, 1883-1945) larga berildi. Vishi politsiyasi gestapo topshirig‘i bilan tintuv o‘tkazdi, hibsga oldi, otish uchun garovga olinganlar ro‘yxatini tayyorladi, qurshovlar uyushtirdi. Shunday qilib, Parijda 1942-yil 16-17-iyulda Vel d’Iv stadionida 13 mingga yaqin yahudiylarni to‘plashgan va konslagerlarga yo‘q qilib tashlash uchun jo‘natishgan. Hozirgi kungacha mamlakatda Vishi rejimi amaldorlari ustidan millatga qarshi jinoyatlari uchun sud jarayonlari bormoqda.

région *f* - *région* // Eng yirik ma‘muriy-hududiy birlik, bir necha departamentni o‘z ichiga oladi (q.département). 1982-yil 2-mart detsentralizatsiya qonuniga ko‘ra mahalliy o‘zini - o‘zi boshqaruv birligi bo‘ldi. Fransiya maydoni 22 regionga bo‘lingan, har bir regionni region kengashi boshqaradi (q.élections

régionales). Kengash raisi ijro etish hokimligini amalga oshiradi. Kengash faoliyati konsultativ organ – iqtisodiy va ijtimoiy masalalar Qo‘mitasi yordamida amalga oshiriladi. Davlat hokimiyati regionda prefektga taqdim etilgan. Prefekt mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini nazorat qiladi. 1982-yil 2-martdagi qonunga muvofiq prefekt vazifasining bir qismi regional kengashga (q.préfet) berilgan.

relief *m - relyef* // Fransiya yerining yuzi turlicha. Mamlakatning yarmi dengiz sathidan 200 metr pastda bo‘lgan pasttekisliklarda, qolgan qismi tepaliklar, yassi tog‘lar va tog‘lar bilan qoplangan. Relyef xarakteriga ko‘ra va Fransiya maydonining geologik tuzilishi bo‘yicha Fransiya maydonini 3 qismga bo‘lish mumkin: 1) baland, geologik ma’noda yosh tog‘lar – Fransiya alplari (q.Alpes), Pireneya (q.Pyrénées), Yura (q.Jura); 2) qadimgi, juda vayron bo‘lgan tog‘ massivlari va tepaliklari-Markaziy Fransuz va Armorikan massivlari (q.Massif central, Massif armoricain), Vogezi (Vosges), Ardenna (q.Ardenne); 3) pasttekisliklar va tekisliklar pasaygan yer qa’ri va cho‘kindi qatlamlaridan iborat - Shimoliy-Fransuz pasttekisligi, Garonna, Luara, Langedok kabi pasttekisliklar.

religion *f - din* // Rasmiy ravishda Fransiya aslzodalar jamiyati. 1905-yil 9-dekabrda qonunga muvofiq cherkov maktab va davlatdan ajratilgan, Respublika vijdon erkinligini kafolatlaydi. U “hech qanday dinni tan olmaydi, ta’minlamaydi, haq to‘lamaydi“. Davlat maktablarida Muqaddas diniy kitoblar o‘qitish ta’qiqlangan. Vijdon erkinligi prinsipiga amal qilish uchun maktab dars jadvalida maxsus bo‘sh vaqt ajratilgan va dindor ota-onalar farzandlarini katexizis (diniy aqidalarning savol-javob tariqasidagi qisqacha bayoni)ga o‘rgatishlari mumkin. Fransuzlarning ko‘pchiligi - katoliklar (180 % aholi). Ular orasida „an’anaviylar“ (83 %) va „amaliyotchilar“ (17 %)ga ajratiladi. Eng dindor tabaqaga boshqaruv zvenosi ishchilari (q.cadres) va erkin kasb vakillari (q.professions libérales)ni kiradi deb hisoblashadi. 18-24 yoshdagi ishchilar, xizmatchilar va yoshlar dinga kam e’tibor berishadi. 2 % fransuzlar - protestant, 2 % udaizm diniga sig‘inishadi. Asosan, Rossiyadan chiqqan - provoslavlar ham

bor. Soni jihatidan 2-o'ringda musulmon diniy tashkiloti (3 mln. kishi) - Yevropadagi eng kattasi hisoblanadi.

Renaissance *f* - *Renessans* (*soʻzma-soʻz. ikkinchi-tugʻilish*) yoki *Uygʻonish* // Gʻarbiy va Markaziy Yevropa davlatlarining (XV asr oxiri XVI asr) madaniy va gʻoyaviy rivojlanish davri, oʻrta asr feodal madaniyatidan yangi zamon madaniyatiga, yaʼni kapitalistik jamiyat rivojlanishiga oʻtish bosqichi. Italiyada antik madaniyatga qiziqish uygʻonishdan boshlandi, nomi ham shundan kelib chiqqan. Fransiya XV asr oxirida fransuz aʼyonlarining italyan urushi (*guerre transalpines*) paytidagi Italiyaga tashrifidan keyin paydo boʻldi. Uygʻonish sanʼatining alohida belgilari: oʻrta asr ideallaridan voz kechish, yunon-rim madaniy merosiga qiziqish, yangi insonparvar dunyoqarash, badiiy asarlar aristokrat antiklerikal xususiyati. Uygʻonish davri ideal sifatida faol, har tomonlama rivojlangan ijodiy shaxsni ilgari surdi. Bu davrning koʻp arboblari iqtidorli kishilar boʻlib, ularning talanti bir vaqtning oʻzida rassomchilik sanʼatida, meʼmorchilikda, haykaltaroshlikda, fan kabilarda namoyon boʻlgan. Bunga Leonardo da Vinchi (1452-1519) yorqin misol boʻla oladi. Umrining oxirgi 5 yilini Fransiya oʻtkazgan. Uygʻonish davri gʻoyalari adabiyotida ham (q.humanisme, «Pléiade»), meʼmorchilik, rassomchilik sanʼati va haykaltaroshlikda (q.art de la Renaissance) ham oʻz aksini topdi.

Renaissance carolingienne – «*karolinglar uygʻonishi*» // Hozirgi Germaniya va Fransiya hududidagi Buyuk Karl imperiyasi (q.Charles I le Grand) va Karolinglar qirollik dinastiyasida (VIII-IX asrlarda) madaniy yuksalish davri. Imperator saroyga taniqli olimlar, rassomlar, musiqachilarni taklif etdi. Katta cherkov va monastirlarda lotin tili, grammatika, ritorika, arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa kabi fanlarni oʻrgatadigan maktablar ochildi. Saroy qoshida ilmiy toʻgaraklar tashkil etilib, yoshlar teologik (din toʻgʻrisida) va falsafiy muammolarni muhokama qilishlari mumkin boʻldi. Antik mualliflarga qiziqish yangilandi. Yozuv mukammallashdi, lotin harfining («karoling minuskul») aniq kichik formalari ishlab chiqildi. Tasviriy sanʼat va meʼmorchilik gullab yashnadi.

Hashamatli ibodatxonalar qurilishi tiklandi (mas.: Eks-lya-Shapel cherkovi). Me'morchilikda roman uslubi (q.roman(art) paydo bo'lishidan darak bergan novatorlik yo'nalishlari paydo bo'ldi. San'atning yangi turi- muqaddas kitoblarni bezash (ko'p rangli illyustratsiyalar, bezaklar qo'yish, qollanmalarni bezash kabi) paydo bo'ldi. Toshni o'yish, metall quyish, o'yma naqsh va hk. lar rivojlandi.

repas *m pl* - taom ovqat (nonushta, tushlik, kechki ovqat) // Fransuzlar kuniga 3-4 marotaba ovqatlanadilar, biroq kaloriyasi kamroq ovqatlarni iste'mol qilishadi va ovqatlanishga ilgarigiga qaraganda kam vaqt sarflashadi. 1- nonushta (petit déjeuner, soat 7-8 larda) bir chashka qora qahva yoki bir chashka sutli qahva bilan bulochka, murabbo yoki asaldan iborat. Ko'pchilik qahva bilan kifoyalanadi. 2-nonushta (déjeuner , soat 12 da) tushlik tanaffusida korxona oshxonasida, kafe yoki restoranda bo'ladi. Odatda, asosan biron ovqat, qahva bilan desert (taniq taomlar) dan iborat. Ko'pchilik pishloqli sendvich yoki vetchina (croque-monsieur) va mineral suv bilan kifoyalanib qo'ya qolishadi. Oxirgi yillarda amerikacha „tezkor taomlar“ (fast food) odat tusiga kirdi. Soat 16 da -2- tushlik (goûter ou thé). Bolalar pecheniya bilan kakao, kattalar faqat non bilan choy iste'mol qiladilar. Soat 19-21 larda – oilaviy kechki ovqat (dîner yoki souper). Bu eng to'yimli taomlar: yaxna yeguliklar (hors-d'oeuvres), 1-ovqat (entrée), 2-go'shtli yoki baliqli taom (plat de Résistance), sabzavotlar, pishloq va desert. Chaqirilgan tushlik (kechki ovqat) boshqacha o'tadi: u aperitiv (aperitif, ishtaha ochuvchi: yong'oqlar, tuzli pechene, tost kabilar bilan vino bokali)dan boshlanadi, keyin gazak uchun (mayonez va pishloqli krevetka yoki krab) va asosiy taom (odatda, qovurilgan go'sht va ko'k loviyali kartoshka, sabzi, kichik shampinonlardan garnir), keyin- ko'k salat yaproqlari o'simlik yog'i va sirka (uksus) bilan pishloqning bir necha navlari alohida idishda, desert va qahva beriladi. Ovqat oldidan vino ichishadi, oxirida konyak, shampän vinosi, likyor – digestif (*soñma ñsoñ*. ovqat yaxshi hazm bo'lishi uchun spirtli ichimlik) ichiladi. Har bir taom oldingisi olib ketilgach beriladi.

République I - *Birirnchi respublika (1792-yil sentabr -1804-yil may)* //

1792-yil 10-avgustdagi parijliklar xalq qo'zg'oloni monarxiyani ag'darib tashladi. Birinchi Respublika Konvent (q.Convention) dekreti (1792-yil 21-sentabr) bilan, bu kunni "yangi era" boshlanishi deb e'lon qilinganidan so'ng ta'sis etildi. 1792-yil 23-sentabr Fransiya respublikasi „yagona va ajralmas“ deb e'lon qilindi. Siyosiy jihatdan uning o'rnatilishi umumiy saylov huquqini anglatga, ijtimoiy jihatdan - xalq turmushini yaxshilash uchun islohotlar, harbiy tomondan - respublikani intervensiyadan himoyalash umumiy safarbarlikni bildirar edi. 1793 – yil yangi Konstitutsiya – Russo g'oyalariga asoslangan ozodlik, tenglik va xalq mustaqilligi qabul qilindi. Rasmiy jihatdan Birinchi Respublika 1804-yil Napoleon imperiyasi (q. Empire (Premier) e'lon qilinguncha, amalda esa 1794-yil 27-iyul Termidorian to'ntarishigacha davom qildi.

République II - *Ikkinchi Respublika (1848- 1852)* //

25- fevral burjua-demokratik revolyutsiyasidan (q.révolution française de 1848) va Iyul monarxiyasi tugagandan keyin o'rnatilgan. Ikkinchi Respublika Konstitutsiyasi mehnat qilish huquqini, matbuot va yig'ilishlar erkinligini tikladi, siyosiy moddalar bo'yicha o'lim jazosini va koloniyalarda qulchilikni bekor qildi. Bu esa mamlakat iqtisodiy inqirozi tufayli Parijda yangi revolutsion chiqishlarni keltirdi (may-iyun 1848) va General Kavenyak tomonidan shafqatsiz bostirildi. Demokratik o'zgarishlar asta-sekin bekor qilindi. "Qizil xavf"dan qo'rqib, konservatorlar bilan xolislarni birlashtirgan Intizom partiyasi (parti de l'Ordre) prezidentlik saylovlarida Napoleon I ning jiyani - Lui Napoleon Bonapart (1808-1873) nomzodini ko'rsatdi. U 1848-yil dekabrda prezident bo'ldi. 1851-yil 2-dekabrda Lui Napoleon Bonapart davlat to'ntarishi qilib harbiy burjuaziya diktaturasini o'rnatdi. 1852-yil u Napoleon III (q. Empire (Second) nomi bilan imperator bo'ldi.

République III - *Uchinchi respublika (1870-1940)* //

Prussiya bilan bo'lgan urushdagi mag'lubiyati (q.guerre franco-allemande 1870-

1871) va Parij kommunasi agʻdarilgandan keyin (q.Commune) oʻrnatildi. 1871-yil 18-martdagi revolyutsiya Parijda grajdanlar urushiga aylandi. Tyer hukumati xalq qoʻzgʻolonini shafqatsiz bostirdi. III Respublika (1871-1875)ning birinchi yillarida uning rejimi mustahkam emas edi: Milliy Majlis (q.Assemblée nationale) deputatlari orasida monarxistlar koʻpchilikni tashkil etar edi. Monarxistlar va Respublikachilar orasidagi ayovsiz kurash respublikachilar gʻalabasi bilan tugadi. 1875-yilda qabul qilingan Konstitutsiya keyinroq matbuot erkinligi, yigʻilishlar, kasaba uyushmalari va hk.larga taalluqli boʻlgan liberal moddalar bilan toʻldirildi. Xalq taʼlimi islohoti oʻtkazildi: boshlangʻich taʼlim, umumiy, bepul va dunyoviy boʻldi, xotin-qizlar uchun oʻrta dunyoviy taʼlim joriy qilindi. 1905-yil cherkovni davlatdan ajratish toʻgʻrisida qonun qabul qilindi. III Respublika yillarida iqtisod asta-sekin rivojlandi, biroq moliyaviy oʻsish ham qayd etildi. III Respublika Fransiyaning fashistlar germaniyasiga taslim boʻlganidan keyin tugatildi (q. régime Vichy).

République IV - Toʻrtinchi respublika (1946-1958) // 1946-yil dekabrda vaqtincha hokimiyatni almashtirgan (q.Gouvernement provisoire de la République française) siyosiy rejim. IV Respublika Konstitutsiyasida Fransiya “boʻlinmas aristokratik, demokratik va sotsial respublika“ deb eʼlon qilindi. ”Fuqaro va inson huquqlari deklaratsiyasi“ 1789-y. (q.déclaration des droits de l’homme et du citoyen) huquqlari bilan bir qatorda yangi ijtimoiy huquqlar: mehnat, dam olish, ijtimoiy taʼminot, taʼlim olish, erkaklar va ayollar teng huquqliligi, mehnatkashlarning korxona boshqaruvida qatnashish huquqi, kasaba uyushma va siyosiy faoliyat, “qonun chegarasidagi” ish tashlash deklaratsiyasi eʼlon qilindi. Konstitutsiyaga muvofiq, davlat hokimiyati oliy organi ikki palatadan iborat: Milliy Majlis (q. Assemblée nationale) va Respublika Kengashi (Conseil de la République) boʻlgan parlament (q. Parlement). Qonun chiqarish alohida huquqi umumxalq ovoz berish yoʻli bilan saylovchi Milliy Majlisga tegishli boʻlib, Respublika Kengashi qonunni qabul qilishni surib qoʻyishi mumkin. Hukumat Milliy Majlis oldida masʼul: Respublika prezidenti parlament tomonidan saylanadi

va uning hamma axtlari hukumat tomonidan tasdiqlanishi lozim. IV Respublika konstitutsiyasining o'ziga xos hujjati - qonunchilik hokimiyati qirol hokimiyatidan ustun turadi. Bu eng demokratik Konstitutsiyalardan biri bo'lib, biroq u e'lon qilgan erkinliklar hamma vaqt ham rioya qilinmas edi. 1947-yil yanvarda IV Respublikaning birinchi prezidenti Vensan Oriol (1884-1966) saylandi. IV Respublika davrida hukumat koalitsiyasi ichida shafqatsiz kurash bo'lib, SSSRga qarshi sovuq urush va Fransiya koloniyalarida jadal harbiy harakatlar (q.guerre de l'indochine) olib borilar, mamlakatda ish tashlash harakati ko'tarilishi kuzatilgan. 1958-yil 13-may Aljirdagi harbiy qo'zg'olondan keyin kuchaygan chuqur ichki siyosiy inqiroz IV Respublikaning qulashiga olib keldi.

République V - *Beshinchi respublika* // Goll hukumati (q.Gaulle (Charles de) tomonidan tayyorlangan 1958-yilgi Konstitutsiya qabul qilingandan keyin (q.Constitution de 1958) Fransiya da amal qilgan siyosiy rejim. Hozirgi kunda ham amalda. 1954-1962-yillarda Aljirdagi kolonial janglar sababli chuqur siyosiy inqiroz - Fransiya jamiyatini 2 qarama-qarshi lager - Aljir mustaqilligi tarafdorlari va qarshilariga bo'lganligi tufayli vujudga keldi. Davlat nobarqarorligi va fuqarolar urushi xavfi bo'lganligi uchun prezident Rene Koti (1882-1862) 1958-yil 1-iyun hukumat rahbari etib general Sharl de Gollni tayinladi va u tezda yangi Konstitutsiya qabul qilinishni talab qildi. Respublikada "yarim prezidentlik" rejimi (régime semi-présidentiel) yaratilib unga ko'ra prezident keng vakolatlarda parlament oldida javobgar emas, balki premer-ministr mas'ul. Natijada ko'plab ichki va tashqi siyosiy masalalar hal qilindi, Aljirdagi urush tugadi, Fransiyaning dunyo miqyosidagi obro'si, uning diplomatik va harbiy mustaqilligi tiklandi. Yadro davlati bo'lgan mamlakat 1966-yil NATO dan chiqdi. Ijtimoiy-iqtisodiy sohada ham sezilarli siljishlar ro'y berdi. Shunga qaramay, ayrim iqtisodiy qiyinchiliklar va muammolar 1968-yil may voqealariga (q.mai 1968) va de Gollning 1969-yilgi iste'fosiga olib keldi. Goll dan keyin prezidentlik lavozimini 1969-1974-yillarda J.Pompidu (1911-1974), 1974-1981-yillarda Valeri Jiskar

d'Esteng (1926-yil tug'ilgan), 1981-1995- yillarda Fransua Mitteran (1916-1995) egallashgan. 1995-yil respublika prezidenti qilib Jak Shirak saylandi.

République française - *Fransiya respublikasi* // Yevropa g'arbidagi (maydoni 543965 km²) davlat. Aholisi 59 mln. kishi metropoliyada va 61,3 mln. kishi metropoliya va zamorsk departamentlari bilan birga, 93 % dan ko'prog'ini fransuzlar tashkil qiladi. Davlat tili – fransuz tili (q. langue française). 70 % dan ko'proq aholi shaharlarda yashaydi. Poytaxti - Parij (q.Paris). Respublika o'z ichiga metropoliya hududida (France métropolitaine), zamorsk departamentlari hududlarini (France d'autre-mer) qamrab olgan. Tuzilishiga ko'ra oltiburchak (Hexagone)ni eslatadi; bir qator sohil bo'yi orollari (ulardan eng kattasi Korsika (q.Corse) dan iborat. Buyuk Britaniya, Belgiya, Lyuksemburg, Germaniya, Shveytsariya, Italiya, Ispaniya va mitti Andorra davlatlari bilan chegaradosh. Mamlakatning Janubiy Sharqida Monako knyazligi joylashgan. Chegaraning umumiy uzunligi 5500 km bo'lib, 60 % qismi suvda joylashgan. Shimolda La-Mansh bo'g'ozi (q.Manche (la), Pa-de-Kale (q. Pas de Calais) va Shimoliy dengiz (q.Mer du Nord), G'arbda Atlantika Okeani, Biskay qo'ltig'i (q.golf de Gascogne), Janubda O'rta Yer dengizi (q. Méditerranée) bilan tutashgan.

Réseau Express Régional (RER) - *Regional tezkor tizim (tarmoq)* // Parij shahar elektropoyezdi, transportning qulay va tez turi shahar tashqarisi, aeroportlar bilan bog'laydi. Qurilishi 1969-yilda boshlangan va hozirgi kungacha davom qilmoqda. Umumiy uzunligi 102,7 km 3 liniyali 64 ta stansiya (19 tasi shahar chekkasida) dan iborat. Tarmoqlari ko'pincha oddiy metroga parallel bo'lsa-da, o'z stansiyalari va harakatlanuvchi sostavga ega. Shahar chekkasida metro va RER da kira haqi bir xil. Biroq Parij chekkalarida kira haqi ortib boradi.

résidence secondaire - *shahar tashqarisidagi uy* // Odatda fransuzlar dam olish kunlarini, bayram va ta'tillarini shahar tashqarisida o'tkazishadi. Bunday uylar soni (oila uchun) bo'yicha Fransiya dunyoda birinchi o'rinlardan birini egallaydi.

Résistance *f* - *Qarshilik* // Ikkinchi Jahon urushi davrida (Guerre mondiale (Deuxième) Fransiya va uning atrofida (q.“France libre”, “France combattante”) paydo bo‘lgan milliy antifashist qutqaruv harakati. «Qarshilik» so‘zi ilk bor de Gollning (q.Gaulle(Charles de) Fransuz xalqiga 1940-yil 18-iyunda Londondan, taslim bo‘lishning ertasi kungi radio murojaatida yangradi. Qarshilik mamlakatda talabalarning Triumfal ark yonidagi Parij 1940-yil 11-noyabr namoyishi - Birinchi Jahon urushining tugaganining bir yilligi (q.Guerre mondiale (première)dan boshlandi. 1941-yil tashkil qilingan Milliy front aholining turli qatlamlaridan va siyosiy guruhlaridan iborat bo‘lgan. Frontning tashkiliy Qo‘mitasini olim Frederik Jolio Kyuri (1900-1958) boshqardi. Mamlakatda “frantirerlar“ (franc-tireur, ozod mergan) va partizan «mak»lar (q.maquis) harakatlari yoyildi. Qarshilik kurashchilari razvedka, qo‘poruvchilik, zimdan qarshilik ko‘rsatish bilan shug‘ullandilar, yashirin gazeta va varaqalar chiqarishdi. 1942-yil noyabrda FKP bilan «Kurashayotgan Fransiya» o‘rtasida hamkorlikda kurash kelishuvi shartnomasi tuzildi. De Goll tashabbusi bilan 1943-yilning mayida Qarshilik Milliy kengashi - Fransiya hududida Qarshilikning asosiy boshqaruv organi tuzildi. Uni Jan Mulen (1899-1943) boshqardi, u halok bo‘lgach, Jorj Bido (1899-1983) rahbarlik qildi. 1943-yil 3-iyunda Aljirda Milliy qutqaruv Qo‘mitasi shakllandi. Qo‘mitada asosiy rolni general De Goll o‘ynadi. 1944-yil boshida Qarshilikning hamma jangovor tashkilotlari Fransiya ichki kuchlari bilan umumiy soni 500 ming kishi bo‘lgan yagona armiyaga birlashdilar. Antifashist kuchlarning jipslashuvi qurolli qo‘zg‘olonga tayyorlanishga - mamlakatni qutqarishda (q.Libération) muhim omil bo‘lgan qo‘zg‘olonga olib keldi. Fransuzlar bilan birga lagerlardan qochgan harbiy asirlar va rus emigrantlari ham kurashdilar. Ularning ko‘pchiligi fransuz va sovet jangovor ordenlari bilan taqdirlandilar.

Restauration - (*lot. Restauratio- tiklash*) *Restavratsiya* // Fransiya tarixidagi Napoleon I ning (aprel 1814) taxtdan voz kechgan davrida taxtga Burbonlar: Lyudovik XVIII (1814-1815, 1815-1824) va Karl X (1824-1830) qaytgan davr. Restavratsiya vaqtida mamlakatda “oq terror” hukm surdi.

Royalistlar bosqinchilari kim Revolyutsiya tarafida bo'lgan bo'lsa «hisob-kitob» qildilar. Burbonlar siyosati burjuaziya, dehqonlar va ishchilar noroziligiga olib keldi. Iqtisodiy yuksalishlardan keyin restavratsiyaning 1-yillarida pasayish bo'ldi. 1815-yil 20-noyabrdagi Parij tinchlik shartnomasiga muvofiq, mag'lub Fransiya 700 mln. frank miqdorida kontributsiyani to'lash va 5 yil davomida okkupatsion qo'shnlarni boqishi kerak edi. 1826-27- yillarga kelib mamlakatning moliyaviy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli yanada yomonlashdi. Shiddatli siyosiy inqiroz 1830-yilgi Revolyutsiyaga olib keldi (q. Révolution de juillet 1830).

Réunion (la) - *Reyunyon* // Fransiya zamorsk departamenti (q.départements d'outre-mer). Hind okeani Maskarensk orollari arxipelagida joylashgan shu nomli orol. Maydoni 2,5 ming km². Aholisi – 596700 kishi-reyunyonlar (q.Réunionnais) yoki kreollar, fransuz, hind, malagasiy, arab va afrikalik ko'chmanchilar avlodi. Iqtisodining asosi-qishloq xo'jaligi; shakarqamish, xushbo'y o'simliklar (geran, vanil) va tamaki yetishtiradi. Chorvachilik va baliqchilik, oziq-ovqat sanoati rivojlangan, sayyohlarni jalb etish infrastrukturasini yaratilgan. Eng jiddiy muammo - ishsizlik. Orol portugallar tomonidan XVI asr boshida kashf etilgan, 1638-yildan fransuz koloniyasi va 1793-yilgacha Burbon oroli deb nomlangan. 1946-yilda zamorsk departamenti bo'ldi. Mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv: Bosh va Regional kengashlar ; Fransiya nomidan Komissar boshqaradi. Parlamentda orolni 5 nafar deputat va 3 nafar Senatori taqdim qiladi. Tillari: rasmiy fransuz va kreol tillari.

Révolution de février 1848 - *1848-yil fevral Revolyutsiyasi* // Burjua demokratik revolyutsiya, uning asosiy sababi - mamlakatda iqtisodiy va moliyaviy inqiroz, hamda premer Gizoning (1787-1874) avtoritar - konservativ rejimi. Liberal oppozitsiya mayda burjuaziyaga saylov huquqi berilishini talab qildi, xalq monarxiyaga qarshi, respublika, demokratik erkinlik uchun chiqdi. Parijliklarning 22-24- fevral revolyutsion namoyishlari va Tyulleri saroyi qirollik qarorgohini bosib olganlari tufayli, qirol Lui-Filipp (1773-1850) taxtdan voz kechdi va Angliyaga qochdi. 25-fevralda respublika e'lon qilindi (q.République). 1848-yilgi

Revolyutsiya Yevropadagi revolutsion harakatlar rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi (Avstriya, Germaniya, Italiya, Polshada).

Révolution de juillet 1830 - 1830-yil iyul *Revolyutsiyasi* // « Uch buyuk kun » deb nom olgan Parijdagi 27-29- iyul kunlari bo'lgan qo'zg'olon (q.Glorieuses (les trois)) Karl X ni qulatdi (q.Réstauration). Qo'zg'olonga ultraroyalist Polinyak (1780-1847) boshchiligidagi yangi ministrlar kabineti tayinlangani sabab bo'ldi. U yangi palata deputatlarini tarqatib yuborish farmoni muallifi, saylov tizimining yirik yer egalari foydasiga o'zgartirilishi tarafdori, liberal matbuotini chegaralash tashabbuskori edi. Qurolli qo'zg'olonda ishchilar, hunarmandlar, talabalar, mayda burjua, jurnalistlar qatnashdi. 29-iyul kuni xalq qo'lga olingan Tyulleri saroyi ustidan 1789-1794-yillardagi Revolyutsiya trikolorini respublikani tiklash talabi bilan ko'tardi. Karl X taxtdan voz kechdi. Biroq deputatlar yirik burjuaziyadagi demokratik o'zgarishlardan qo'rqib, gertsog Lui Fillip Orleanskiyni « qirol o'rinbosari » deb e'lon qilindi (q.Monarchie de Juillet).

Révolution française - *Fransuz Revolyutsiyasi* // XVIII asr oxiriga kelib Fransiyada feodal-absolyut tizimiga to'la barham berildi, chunki bu tizim mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanishiga to'sqinlik qilar edi. Siyosiy huquqqa ega bo'lmagan uchinchi tabaqa (q.Tiers État) - ko'pchilik aholi va imtiyozli tabaqalar, ruhoniylar, dvoryanlar o'rtasida ziddiyatlar kuchaydi. Buyuk fransuz ma'rifatchilari (q.Lumières) insonlar ongida eski tuzumni tanqid qilib Revolyutsiyaga tayyorladilar. Revolyutsiya absolyut monarxiyani tabaqaga bo'lishni yakson qildi, feodal imtiyozlarni bekor qildi. U yerning ancha qismini dehqonlarga berdi, burjuaziya jamiyati asosini, davlat va huquq asosini barpo etdi, erkinlik, tenglik, birodarlik g'oyalarini ilgari surdi. Revolyutsiya yillarida birinchi fransuz Konstitutsiyasi yaratildi va I Respublika (q.République I) e'lon qilindi, Fransiya tarixida birinchi bor umumxalq saylov joriy qilindi, cherkov davlatdan ajratildi. Revolyutsiya millat shakllanishini va o'z-o'zini anglashni jadallashtirdi. Buyuk Fransuz revolyutsiyasi vaqtida milliy uch rangli bayroq

(q.drapeau tricolore), milliy gimn « Marseleza » (q.Marseillaise), hozirgi Fransiya milliy bayrami – 14 - iyul (q.Fête Nationale) fransuz respublikasining shiori- « Erkinlik, Tenglik, Birodarlik » (q.dévisé de la République française), respublika va ozodlik timsoli – Marianna (q.Marianne) paydo bo‘ldi. Revolyutsiya Fransiya va butun insoniyat taqidiriga katta ta’sir ko‘rsatdi. U o‘z taraqqiyotida ikkita bosqichdan o‘tdi: 1) respublika o‘rnatilguncha konstitutsion monarxiya davri, ya’ni 1789-yil 14-iyuldan 1792-yil 10-avgustgacha (q.Ancien régime; ordre privilégiés; Tiers État; États généraux; Assemblée nationale, Assemblée constituante; Déclaration des droits de l’homme et du citoyen; Assemblée législative; Club des jakobins; Bataille de Valmy, montagnards; girondins; Commune de Paris); 2) 1794-yilgacha I Respublika davri (q.République I); Convention; jakobins; Terreur; Comité de salut public; Comité de sûreté générale; guillotine; Vandée (guerre de); chouannerie; Raison (culte de la); Être suprême (culte de l’); calendrier républicain; sans-culottes).

Rhin *m* - *Reyn* // G‘arbiy Yevropadagi daryo. Shveytsariya, Fransiya, Germaniya va Niderlandiya davlatlari hududidan oqib o‘tadi. Uzunligi 1298 km, ulardan 190 km Fransiya - Germaniya chegarasida Shveytsariya Alp tog‘laridan boshlanib, Niderlandiya hududida Shimoliy dengizga quyadi. Fransiyadagi asosiy irmoqlari - Mozel va Il. Yuqori rivojlangan sanoat rayonlarini bog‘lovchi muhim transport magistrali. Kanallari uni Rona (q.Rhône) va Marna (Marne) bilan bog‘laydi. Reynda yirik xo‘jalik va madaniy markaz - Strasburg-Elzas (q. Alsace) regioni markazi va Yevropa ittifoqi poytaxti joylashgan.

Rhône *m* – *Rona* // Uzunligi 842 km. (522 km. Fransiya hududida) bo‘lgan Fransiya Shveytsariya hududidan oqib o‘tuvchi daryo. Shveytsariya Alplaridan boshlanib, Jeneva ko‘li orqali (lac de Genève, yoki lac de Léman) o‘tib, Sona (Saône) bilan qo‘shilgach, Lion yaqinida janubga buriladi, Rona pasttekisliklari bo‘ylab (q.Sillon rhodanien) Markaziy balandlik (q.Massif central) va Predalplar orasidan oqadi. O‘rta Yer dengizi Lion qo‘ltig‘iga quyadi. Arl sathida 2 ta tarmoq (Grand et Petit Rhône)ga bo‘linadi, Kamarg (q.Camargue) ni

o'z ichiga oladi. Asosiy irmoqlari : o'ngdan Sona, En, Ardes, Gar; so'ldan Izer, Drom, Dyurans. Rona - eng qudratli va sersuv fransuz daryosi ; uning suv sarflashi Sena (q.Seine)nikidan 3 barobar, Luara (q.Loire)dan 2 marta ko'p. Biroq do'ngliklar va qiyalik bo'ylab oqqani uchun dengiz qatnovi uchun juda ham yaroqli emas. Reyn, Mozel, Maas, Sena, Luara daryolari bilan kanallar orqali bog'langan. Deltani aylanib o'tish uchun Arldan Marselgacha kanal yotqizilgan. Anchagina gidroresurslar daryoda ko'p sonli GES lar qurilishiga zamin yaratdi. Ronada Lion va Avinyon joylashgan.

Rhône Alpes m - *Rona-Alplari* // Fransiya janubiy-sharqidagi ma'muriy région (q.région). 8 ta departamentdan iborat: En, Ardes, Drom, Izer, Luara, Ron, Savoyya, Yuqori Savoyya. Maydoni 43698 kv.km (metropoliyaning 8 % maydoni). Aholisi 1992-yil 31-dekabr hisobi bo'yicha 5 461080 kishi (mamlakat aholisining 9,5foizi). Ma'muriy markazi – Lion. Asosiy shaharlari : Sent-Eten, Grenobl, Villerban, Ansi, Shamberi, Markaziy massiv (q.Massiv central), Janubiy Yura va Shimoliy Alp orasida Sharqiy qismida joylashgan. Unga Luara (q.Loire), Rona (q.Rhône), Grezivodana va Savoy darasi vodiylari kiradi. Boy energoresurslarga ega: Luara va Dofin departamentlarida – ko'mir konlari, Alpda - gidroenergiya manbalari, Rona va uning irmoqlarida gidro va yadro elektrostansiyalar joylashgan. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida turli chorvachilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik (Drom, Ardes departamentida), vinochilik (Bojole, Kot-De-Ron rayonlarida), don mahsulotlari yetishtiriladi. Sanoatning yetakchi tarmoqlari: kimyo, to'qimachilik, elektroenergetika, elektrometallurgiya, mashinasozlik (mamlakatda 1-o'rinda turadi). Xizmat ko'rsatish sohasida sayyohlik, ayniqsa sportning qishki turlari bilan bog'liq turizm milliy ahamiyatga ega. 1992-yil fevralda Albervil shahrida Olimpiada o'yinlari bo'lib o'tdi. Régionda rivojlangan yo'l tarmoqlari (q.autoroute), yuqori tezlikli temiryo'l tarmog'i (q.TGV) mavjud. Madaniy merosi: ko'p sonli gall-rim davri yodgorliklari, romantik va gotik soborlar, qasrlar. Oshpazlik san'ati ham yaxshi rivojlangan. Grand-Shartrez monastiri likyori, Montelimar nuga (yong'oq holva)si, Lion

kolbasalari, pishloqning turli navlari (bofor, konte, rebloshon va hk.), Rona vodiysi vinosi dunyoga mashhur. Bu yerda: fizik A.M.Amper, to'quvchilik dastgohi kashfiyotchisi Jakar, aka-uka Mongolfer, kompozitor Berlioz, yozuvchilar Stendal va Sent Ekzyuperi va boshqa mashhur insonlar tavallud topganlar.

Richelieu (Armand Jean du Plessis) - *Rishele Arman Jan dyu Plessi* (1585-1642) // 1622-yildan - kardinal, 1624-yildan - qirollik kengashi boshlig'i, amalda Fransiya hukmdori, 1630-yildan Lyudovik XIII (1601-1643)ning birinchi vaziri, absolyutizm nazariyotchisi va homiysi. Uning siyosati asoslari «Siyosiy vasiyatnoma» (Testament politique) o'limidan keyin chop qilingan vasiyatida bayon qilingan. Raqib bilan kurashda Rishele « maqsad mablag 'ni himoya qiladi» prinsipidan kelib chiqqan. 1628-yilda uning boshchiligidagi qirol qo'shinlari gugenotlarni bosib oldi va ularning Laroshel shahar qal'asini qo'lga kiritdi. Gugenotlarga o'z diniga ibodat qilish erkinligi berildi, biroq ularning siyosiy va iqtisodiy ajralishi to'la bartaraf etildi. Rishele sanoat rivojlanishi, savdo-sotiq, hunarmandchilikni rag'batlantirdi; markaziy hokimiyatni barcha imkoniyatlardan foydalanib mustahkamladi; feodal g'alayonlari va xalq qo'zg'olonlarini shafqatsiz bostirdi, kolonial bosqinchilik siyosatini o'tkazib, Fransiya yerlarini Kanada, Karib dengizida, Afrikada kengaytirdi. Uning tashqi siyosati mamlakatni O'ttiz yillik urushga (Guerre de Trente Ans, 1618-1648) jalb qildi. Fan va madaniyatga katta e'tibor bergan Rishele ularni qattiq nazorat qilish lozim deb hisoblardi. U 1635-yilda Fransiya akademiyasini (q.Académie française) tashkil qildi va uning birinchi noziri bo'ldi, birinchi gazetani bunyod etdi. (Gazette de France), uning qo'l ostida saroy qurildi. Bu saroy keyinchalik Pale-Royal (q.Palais-Royal) deb nomlandi. Lyudovik XIII va Kardinal Rishele davri A.Dyumaning «Uch mushketyor» (« Les Trois Mousquetaires », 1844) romanida tasvirlangan.

rocaille *f* – *rokayl* // Barokko uslubining oxirgi bosqichi sifatidagi XVIII asr birinchi yarmida Fransiyada vujudga kelgan bezash uslubi. Keyinchalik boshqa Yevropa mamlakatlarida rokoko nomi bilan paydo bo'ldi. Renessans davrida (q.Renaissance) «rokayl» atamasi tosh va chig'anoqlardan yasalgan bezak

favvora, sun'iy tog' va bog'-park me'morchiligi grotlarini bezash uchun ishlatilgan. Lyudovik XV hukmronligi davrida mebel uslubini bildirgan. Keyinchalik XVIII asr san'ati hamma turiga tarqaldi. Naqshlarning jimjimadorligi, fayzliligi va bejirimligi, nafisligi bilan ajralib turadi. Shahar maydonlari ichki va tashqi nafis me'morchiligida, rassomlik san'ati va muhabbat mavzusidagi haykaltaroshlikda, aslzodalarga xos kamer musiqalarda aks etgan. Masalan, Matinon saroyi ichki pardozlari (q.Hôtel Matignon) va Subiz o'teli (hozirgi Parij Milliy arxivlar binosi) - me'mor J. Boffran, Nansidagi Stanislav maydoni bezalishi - me'mor E. Erede Kornii, F.Bushe va J.L.Fragonar kartinalari. Rokaylni musiqada aks ettirgan saroy musiqachilari va bastakorlari F.Kuperen va J. F. Ramo.

rococo m - rokoko // XVIII asr birinchi yarmida Yevropa san'ati uslubi. Nomi fransuzcha «rokayl» so'zidan kelib chiqqan - chig'anoq ko'rinishidagi bezak mavzusi (q. rocaille).

roman (art) - roman san'ati // G'arbiy Yevropa san'atida X-XII asrlardagi yo'nalish. Nomi XIX asrda paydo bo'ldi va bu yo'nalishda qadimgi Rim san'ati elementlari borligini ko'rsatadi. Ko'proq me'morchilikda, ayniqsa, biror narsaga sig'inish me'morchiligida ko'proq namoyon bo'ladi. Krepostnoy xarakterdagi berahm og'ir qurilmalar (monastir, qasr, cherkov) joylar ustidan hukmronlik qilardi. Tashqi tomondan bino baquvvat tayanchlar – kontrforslar (g'isht tirgovchlar) bilan tutib turiladi. Og'ir yarim silindrlik tosh gumbazlar massiv devorlari va ustunlarga tayangan. Roman cherkovi rejasi lotin krestini sharq- g'arb o'qida joylashtirgan. Unga xos: baland minoralar, kichik oynalar, yarim aylana arklar va peshtoqlar, haykal bezaklar, kolonnalar, pilyastralar mo'lligi, boy devor rasmlari. Cherkovlarni bezashda Iso payg'ambar, Apokalipsis, Tavrot kabi muqaddas kishilar hayotidagi syujetlari xizmat qildi. Roman uslubining ertangi davri (980-1080) va gullagan davri (1080-1150)ni ajratishadi. Fransiyaning turli hududlarida roman uslubi o'ziga xos xususiyatga ega. Eng ajoyib namunalari Burgundiyada,

Overn, Puatu, Langedok, Bretani va Normandiyada mavjud. Ular orasida Overnda Notr-Dam va Pyui-an-Veley soborlari, Tuluzada Sen-Sernen bazilikasi.

romantique (art) - *san'atda romantizm* // Yevropada XVIII asr oxirida paydo bo'ldi va XIX asr o'rtasida gullab-yashnadi. Rassomning voqelikdan qoniqmasligini, klassitsizm ratsional estetikasini inkor etish, ichki dunyoni anglashda his-tuyg'u, ruhiyat asosiy vositaligi va badiiy ijod asosi ekanligini namoyon qildi. Fransiya tasviriy san'atida romantizm shakllanishi klassitsizm bilan kurashda (Engr maktabi (1780-1867)) kechdi. Rassomlik va haykaltaroshlikda yaqqol namoyon bo'ldi. Fransuz romantik rassomchiligi birinchi yirik, mohir ustasi T.Jeriko (1791-1824). Fransuz rassomchiligida E.Delakrua (1798-1863) „Kechinmalar san'ati va kuchli tasavvur“ asari bilan rassomlar boshlig'i deb hisoblanadi. Haykaltaroshlikda romantizm David d'Anje (1788-1856), F. Ryud (1784-1855) ijodlarida aks etdi. Ular Parij Yulduzlar maydonidagi Triumfal ark uchun (q.Arc de triomphe de l'Étoile) «Marseleza» (1837) **go'Relyefini** bajargan; musiqada - Meyerber (1791-1864) operalarida, Sh.Guno (1818-1893) va J.Bize (1838-1875), bastakor G.Berliozning (1803-1869) simfonik asarlarida, L.Delib (1836-1891)ning baletlarida namoyon bo'lgan.

Romantique (littérature) - *adabiyotda romantizm* // XVIII-XIX asr adabiyotidagi romantik yo'nalish, klassitsizm va Ma'rifat (q.Lumières) ratsionalizmga qarama-qarshi bo'lgan. Taraqqiyotning bir necha bosqichlaridan o'tdi. 1- bosqich - XIX asr boshi - Shatobrian (1766-1848) va madam de Stal (1766-1817) ijodi; 2- bosqich – XIX asrning 20-30-yillari – shoirlar Sh. Node (1780-1844), A. de Lamartin (1790-1869), A. de Vini (1797-1863), A. de Myusse (1810-1857); 3- bosqich - XIX asr 30-40-yillari-V.Hyugo (1802-1885) va J. Sand (1804-1876) asarlari kiradi. Adabiy romantizm manifesti - V.Hyugoning „Kromvel“ dramasiga so'zboshi bo'ldi.

royaume franc - *frank qirolligi* // Merovinglar va Karolinglar dinastiyasi (q.Carolingiens) tomonidan boshqarilgan franklar davlati deyarli 400 yil (V asrdan

IX asr o'rtalarigacha) yashadi. Xlodvig (q.Clovis I) davrida Armorika va Reyn yoni viloyatlaridan boshqa butun Galliya kirgan. Xlodvig izdoshlari qirollikka hozirgi Italiya va Germaniya yerlarini ham qo'shib olishgan. Bu Yevropadagi Rim ag'darilgandan keyingi eng yirik davlat edi. Qirollikning poytaxti Parij bo'ldi. Mahalliy aholini bosib olgan franklar ularning yuksak madaniyati va tili oldida ojiz qolishdi. Germaniyaliklar o'z yozuviga ega emas edilar, shuning uchun lotin tilidan foydalana boshladilar. Xlodvig davrida lotin tilida „Salik haqiqatlari“ (Frank qonunlari to'plami) va boshqa hujjatlar yozilgan. Lotin tili obro'si, nufuzini Katolik cherkovi qo'llab quvvatladi. Asta-sekin mahalliy gall – rim xalqi lotin tili yangi muloqot tili asosiga aylandi. Tillarning bir-biriga chatishib ketishi yuz berdi. Natijada xalq lotin tili harbiy ishlar, uy-ro'zg'or, o'simlik va hayvonot dunyosini tasvirlashga taalluqli germanlar tili leksikasi bilan to'ldi, grammatik va fonetik qurilishi lotin tilidan ham farq qildi. Buyuk Karl hukmronligi davri (q.Renaissance carolingienne) madaniyatning sezilarli yuksalishi bilan farq qildi.

S

Saint - Barthélemy (la) - Varfolomey tuni // Muqaddas varfolamey bayramida 1572-yil 23-avgustdan 24 - avgustga o'tar kechasi Parijda katoliklar tomonidan gugenotlar (q.huguenots)ning qirg'in qilinishi. Diniy urushlarning uchinchisi (1569-1570) katolik va protestantlarning vaqtinchalik sulhi bilan tugagan edi. Sen-Jermen farmoniga ko'ra, 1570-yil Gugenotlar saroyiga qaytishlari mumkin bo'ldi, u yerda ularning sardori yosh qirol Karl IX (1550-1574)dan foydalanishlari mumkin edi. Bu hol esa gersog G.Giz boshchiligidagi katoliklarni tashvishlantirdi. Qirol singlisi Margarita Valua bilan Genrix Navarrskiyning to'ylari arafasida gugenotlarning yo'lboshchilaridan biri katoliklarning noroziligini keltirib chiqardi. Gugenotlar qirolga qarshi fitna uyushtirmoqda deb qirolni ishontirib, ona qirolicha Yekaterina Medichi va gersog Giz fitnachilarning adabini berib qo'yishga ruxsat olishdi. Genrix Navarrskiyning

to'yiga ko'plab dvoryan-gugenotlar kelganligidan foydalanib, katoliklar ommaviy qirg'inbarot uyushtirdilar va 30 000 kishining umriga zomin bo'ldilar. Provinsiyalardagi qirg'inlar 1572-yil oktabrgacha davom etdi va 20 000 kishi o'ldirildi, biroq, gugenotlar taslim bo'lishmadi va Diniy urushlar 1594-yilgacha davom etdi. Varfolomeyev tuni voqealari Prosper Merimening „Karl IX saltanatining yilnomasi” romanida va A.Dyumaning „Qirolicha Margo” romanlarida o'z aksini topgan.

Sainte - chapelle (la) - *Sent- Shapel ibodatxonasi* // Adolat saroyi (q.Palais de Justice). Me'moriy ansambli qismi. Muqaddas Lyudovik buyrug'iga binoan me'mor Per de Montrey tomonidan 1246-1248-yillarda xristian tabarruk narsalarini saqlash uchun qurilgan. Ikkita gotik ibodatxona (q.Gothique (art)) birining ustiga biri qurilgan. Yuqoridagisi qirol va katta amaldorlar uchun, pastkisi - xizmatkorlarga mo'ljallangan. Tavrot va Injil voqealari vitrajleri bilan tanilgan. Hozirgi kunda sayyohlar uchun ochiq.

Saint-Denis - *Sen-Deni* // Parijdan 17 km uzoqlikda, aholisi 90 000 kishiga yaqin uncha katta bo'lmagan shahar. Birinchi Parijlik yepiskop-jafokash Dionisiy (q.Montmartre) sharafiga nomlangan. Rivoyatga ko'ra, u shu yerga dafn qilingan. Keyinchalik bu yerda benediktinlar abbatligi o'rnashdi. V asrda Dionisiy qabrida cherkov qurishdi va bu yer ziyoratgohga aylandi. VII asrdan boshlab cherkov Fransuz qirollari maqbarasiga aylandi. 1122-yildan uning o'rnida ibodatxona (basilique Saint – Denis) Fransiya birinchi gotik sobori qurish boshlandi. XII-XV asrlarda bu yerda qirollik bayrog'i va xazinasini saqlangan. Buyuk Fransuz Revolyutsiyasigacha (q.Révolution française) qirollik maqbarasi bo'lib qoldi. Biroq 1793-yil Konvent (q.Convention) dekretiga binoan qabrlar ochilgan, qirollarning murdalari nomsiz qabrlarga dafn etilgan. 1806-yil Napoleon I ning buyrug'i bilan (q.Napoléon I) bazilika va maqbara me'mor Violle-de-Dyuk loyihasi bo'yicha qayta tiklangan. Qirollar sobiq sag'analari, ularning qarindoshlari va harbiy boshliqlar qabrlari o'rniga 79 ta yotgan haykallar (q.gisants) - Soborning diqqatga sazovar joylari hisoblanadi.

Sainte-Catherine *f* - *Muqaddas Yekaterina bayrami* // Bu muqaddas bayram Fransiyada turmushga chiqmagan 25 yashar qizlar (les Cathérinettes) homiysi sanaladi. Bayram kuni (25-noyabr) yoshlar bali uyushtiriladi, bunda turmush qurmagan qizlar sariq yoki yashil bosh kiyim (les coiffes de Sainte – Catherine) kiyadilar.

Sainte-Geneviève-des-Bois - *Sent-Jenevev ñ de-Bua* // Parij janubi shahar atrofidagi joy. 1927-yildan buyon bu yerda rus qabristoni mavjud bo‘lib, rus immigratsiyasi 3 to‘lqini vakillari dafn etilgan (yozuvchilar I. Bunin, D. Merejkovskiy, Z. Gippius, V. Nekrasov, A. Galich; rassomlar K.Korovin, V.Serebryakova; balet artistlari M. Kshesinskaya, O.Preobrajenskaya, S.Lifar, R.Nuriev va boshqalar). U yerda muqaddas Bibi Maryam cherkovi - A.Benuva (1870-1960) loyihasiga ko‘ra qurilgan.

Saint ñ Germain ñ des ñ Près (église de) - *Sen - Jerman- de- pre cherkovi* // Parijning eng qadimgi cherkovi (990–1014- yillarda qurilgan). Shu nomdagi kvartalda Sena daryosining so‘l sohilida joylashgan. Qayta qurilganligiga qaramay, o‘rta asr boshlaridagi roman va gotik uslubini saqlab qolgan. XIX asrda ta‘mirlangan va rassom I. Flandren (1809–1864) tomonidan bezatilgan. Cherkovda faylasuf Dekart (q.cartésianisme), yozuvchi N.Bualo (1636 –1711), olim J.Mabiyon (1632 -1707) kabi taniqli insonlar qabri joylashgan.

Saint ñ Germain löAuxerrois (église) - *Sen Jerman Lokserua cherkovi* // Qirollar oilasining sobiq ibodatxonasi. Luvrning ro‘parasida joylashgan. XII – XVI asrlarda qurilgan, XIX asrda ta‘mirlangan. Roman va gotik uslubini namoyon qiladi. Cherkovni bezatishda 1539-1544-yillarda me‘morlar P.Lesko (1515-1578) va D.Gujon (1510-1566) lar ishtirok etishgan. So‘l minorada 38 qo‘ng‘iroqli qo‘ng‘iroqxona bo‘lib, ular orasida “Mari” qo‘ng‘irog‘i Vorfolomeyev kechasi (q.Saint-Barthélemy) da qirg‘in boshlanganidan xabar bergan.

Saint Louis (île) - *Sen Lui oroli* // Parij markazida Senada Site oroli yonida joylashgan. Bu yerda XVII asr me'moriy ansambli bor. Qadimiy qasrlarda (Hôtel de Lauzun, Hôtel de Lambert) yozuvchilar va rassomlar: T.Gotiye, Sh. Bodler, O.Dome va boshqalar yashagan. Janubiy chekkasidan qirg'oq bilan Turnil ko'prigi (pont de Tournella) orqali bog'lanadi. Ko'priksida–Parij homiysi, shaharni Atilla boshchiligidagi gunnar bosqinidan himoya qilgan muqaddas Jenevyevga yodgorlik o'rnatilgan.

Saint ñ Pierre et Miquelon *m* - *Sen Pyer va Mikelon* // Fransiya hududiy birligi (collectivité territoriale), 9 ta kichik orollarda joylashgan, Atlantika okeani shimoli-g'arbiy qismidan (q.Atlantique océan) Nyufaunlend oroli janubigacha. Yer maydoni 246 km². Aholisi – 6700 kishi (1996-yilgacha), asosan fransiyaliklar. Ma'muriy markazi - Sen Pyer. An'anaviy mashg'uloti – baliq ovlash va baliqni qayta ishlash, kema qurilishi, kichik-kichik mashinasozlik korxonalari bor. Qishloq xo'jaligi ishlari uchun sharoiti noqulay bo'lsa ham Sen Pyer orolida sabzavot yetishtiriladi, Mikelon orolida esa chorva boqiladi. Ilk bor bu orollarga 1520-yilda portugaliyaliklar qadam qo'ygan. Uni XVI asrda Fransiya bosib olgan. Shundan keyin orollar bir necha marta Buyuk Britaniyaga o'tgan, 1814-yilgi Parij shartnomasiga ko'ra batamom Fransiya ga o'tdi. 1946-yil Zamorsk hududi maqomini oldi, 1976-yil zamorsk departamenti, 1985-yil Fransiya Respublikasi maydoni bo'lagi bo'ldi. Mahalliy o'zini - o'zi boshqarish organi Oliy kengash bo'lib 6 yilda bir marta saylanadi. Orollarda Fransiya hukumati vakili bo'lib respublika komissari (préfet) ish yuritadi. Parlamentda orollardan 1 nafar deputat va 1 nafar senator bor. Rasmiy tili- fransuz tili.

Saint ñ Sylvestre (la) - *Muqaddas Silvestr bayrami* // 31-dekabrda nishonlanadi. Oldinlari yangi yil kechasi «Kampirni quvamiz» (eski yilni) deya qo'shiq va raqslar kechasi uyushtirilgan. Hozirgi kunda odamlar Parijda Yelisey dalalari bo'ylab yarim kechadan tonggi soat 3 ga qadar yangi yil kirganini nishonlab, sayr qilishadi.

sans ñ culottes *m pl* - (*sans ñ siz, culottes* - *kalta ishtonlar*)

Aristokratlarga xos bo'lgan ipak chulki va kalta duxoba ishtonlardan farqli qo'pol matodan uzun shim kiyadigan revolyutsionerlarga shahardagi kambag'allikdan berilgan laqab. Sankyulotlarning 1793-yilgi 31-maydan 2-iyulgacha bo'lgan qo'zg'oloni jirondistlar (q.girondins) hukumatini ag'darib tashladi. Ularning shu yil 4-5-sentabrda chiqishlari Konventning (q.Convention) asosiy talablarini: kambag'allikning kuchayishi va Revolyutsiyon terrordan himoyalashni qabul qilishga majbur etdi.

scepticisme *m* - *Skeptisizm* // Haqiqat mezoni ishonchligiga shubhalanuvchi falsafiy nuqtai nazar. XVI asrda Skeptisizm Fransiyada erkin fikrlash insonparvarlik o'rta asr diniy va falsafiy aqidalari tanqidining sinonimi bo'ldi. Uning namoyondasi yozuvchi va faylasuf M. De Monten (M. E de Montaigne, 1533-1592), inson bilimi shubhali va qarama - qarshi deb o'ylagan. U o'zining "Tajribalar" (Essais 1570) asarida eskirgan g'oyalar va munosabatlar, zamonaviy jamiyat illatlariga qarshi chiqadi.

scrutin *m* - *ovoz berish, saylovlar* // Ovoz berish: ochiq (scrutin public) yoki yashirin (scrutin secret), bir (scrutin à un tour) yoki ikki turda (scrutin à deux tours), bir nomzod uchun (scrutin uninominal) (q.élection présidentielle, élection à l'Assemblée nationale, élection cantonales) yoki nomzodlar ro'yxati uchun (scrutin plurinominal ou scrutin de liste) (q.élection municipales, élection régionales, élection sénatoriales) bo'lishi mumkin.

scrutin majoritaire – *majoritar tizimi bo'yicha saylov (ovoz berish)* // Ko'p ovoz olgan nomzodni saylash (majorité absolu, majorité relative).

scrutin proportionnel - *mutanosiblik tizimi bo'yicha ovoz beriladigan saylovlar* // Saylovning bu turi ro'yxat bo'yicha saylashda qo'llaniladi: saylangan nomzodlar soni har bir ro'yxatda saylovchilar ovozigacha teng bo'ladi.

S.D.F *m - bomj* // Aniq turar joyi yo‘q shaxs. ”Sans domicile fix”dan qisqartma. Ko‘pgina hollarda ishsiz qolgan va kvartira haqini to‘lay olmay qolgan kishi.

Seine *f - Sena* // Fransiyadagi kattaligi bo‘yicha (uzunligi 776 km.) ikkinchi daryo, katta xo‘jalik ahamiyatiga ega. Landr platosidan Burgundiyada (q.Bourgogne) 475 m balandlikdan boshlanadi va La Manshga quyiladi (q.Manche(la)), keng estuariy hosil qiladi. Sokin oqadi, doimiy, suvi mo‘l, kema qatnovi uchun qulay. Asosiy irmoqlari o‘ngdan Ob, Marna, Uaza; so‘ldan: Yonna, Er. Kanallar tizimi Senani Somma, Reyn, Sona, Shelda, Luara daryolari bilan bog‘laydi. Sena yonida yirik sanoat shaharlari: Parij, Ruan, Estuariyada esa Gavr porti mavjud. Sena etagida Fransiyadagi eng yirik neftni qayta ishlash zavodi joylashgan.

Senat *m ñ Senat* // Fransiya parlamentining (q.Parlement) yuqori palatasi. IV Respublika davrida (1946 – 1958) - Respublika Kengashi (Conseil de la République) deb atalgan. 321 nafar Senatordan iborat (q.élection sénatoriales). Ichki tuzilishi Milliy Majlisga (q.Assemblée nationale) o‘xshaydi. Senat taklif qiladi, o‘rganadi, qonun loyihasini to‘g‘irlaydi va ovoz beradi, hukumat faoliyatini nazorat qiladi. Uning Konstitutsiyani ko‘rib chiqishda roziligi muhim, biroq hukumatga ishonchsizlik bildirish va tarqatish huquqiga ega emas. Prezident iste’fosi yoki o‘limi holatida Senat raisi davlat boshlig‘i vazifasini bajaradi. Senat hukumatning hududiy birlikni ta’minlashi, ya’ni region, department, kommunalar va ularning mamlakat siyosiy hayotidagi ishtirokini taminlashi lozim. Senat yig‘ilishi Lyuksemburg saroyida (q.Palais du Luxembourg) bo‘lib o‘tadi.

Serments de Strasbourg -*óStrasburg qasamyodiô*// Fransuz tili birinchi yozma yodgorligi, roman tilining Rim imperiyasi qulagandan keyin 400 yil davomidagi rivojlanishi guvohnomasi. U o‘z ichiga shartnomani (842- yil), Buyuk Karl (742 – 814) nevaralari Lyudovik Nemetskiy (804-876) va Karl Lisiy (823– 877)ning katta akalari Lotar (795 – 855) ga qarshi birga kurashi (u tojga talabgor

edi) to'g'risidagi shartnomani olgan. Solnomaga kiritilgan shartnoma matni yangi til - fransuz tili paydo bo'lganidan guvohlik beradi. 843-yildan boshlab imperiyani fransiyaliklar bilan bo'lib olgach, Fransiya ayrim davlat sifatida rivojlana boshladi.

service national - *Davlat harbiy xizmati* // Umumiy harbiy majburiyat, bu yerga alternativ xizmat ham kiradi. Amaliy harbiy xizmat (*service militaire*), mudofaa (*service de défense*), politsiya (*service dans la police nationale*) kabi xizmatlarni o'z ichiga oladi. 18 yoshdan – 50 yoshgacha bo'lgan hamma erkaklar uchun majburiy bo'lgan texnik yordam (*service de l'aide technique*), zamorsk departamentlari va hududlarida (q.*Départements d'outre-mer, territoires d'outre-mer*), hamkorlik (*service de la coopération*) va diniy ijtimoiy qarashlaridan kelib chiqib, harbiy majburiyatdan bo'yin tovlagan xizmat (*services des objecteurs de conscience*). 1997-yil 1-yanvardan boshlab 1979-yil 1-yanvardan keyin tug'ilganlar uchun majburiy. 2002-yilga kelib kasbiy armiya qilish ko'zda tutilgan.

Sillon rhodanien - *Rona egati* // Rona daryosi (q.*Rhône*) soyligi, Sena daryosi tekisliklari (*Saône*) va Lion pastidagi (*Lyon*) Ron yo'lagidan iborat.

Société nationale des chemins de fer français (S.N.C.F.) - *Fransiya temir yo'li milliy jamiyati* // 1937-yil davlat va xususiy mulk teng ishtirokida tuzilgan. 1982-yilda to'la milliylashtirilgan, boshqaruvda katta avtonomiyaga ega. Har yili u 780 million yo'lovchi va 140 million tonna yuk tashiydi. Temir yo'l zanjiri mamlakatda 34 600 km ni tashkil etadi. Unda barcha yukning 34 foizi olib o'tiladi. Yevropaning barcha yirik davlatlari bilan bog'laydigan yirik temir yo'l uzeli – Parij. 1981-yilda Parij bilan Lion orasida ilk yuqori tezlik – TJV (*TGV*) yo'nalishi o'rnatildi.

«Son et Lumière» -óTovush va Yorug'lik // Me'moriy yodgorlik (qasr, saroy, cherkov va hk.) fonida teatrlashtirilgan namoyish. Ular bilan bog'liq tarixiy voqealar, afsonalarni kechqurun namoyish qilinadi. Spektaklning asosiy ishtirokchilari tovush (aktyorlar ovozlari, tarixiy personajlar rolda musiqa bilan) va yorug'lik (yodgorlik, personajlar vaqti-vaqti bilan yoritilib turiladi, rang

o'zgaradi). Bunday namoyishlar Versalda (Versailles), Luara saroylarida (q. Châteaux de la Loire) va boshqa tarixiy joylarda beriladi.

Sorbonne *f - Sorbonna* // 1) Parijda 1253-1257-yillarda tashkil etilgan qirol Lyudovik IX ruhoniysi muqaddas Rober de Sorbon tomonidan tuzilgan kambag'allar uchun ilohiy kollej. Buyuk Fransuz revolyutsiyasi davrida (1790-yil) (q. Révolution française) tarqatib yuborilgan va binosi Universitetga berilgan. 2) 1808-yildan – Parij Universiteti yirik ta'lim markazi. 1972-yilda Sorbonna fakultetlari 13 ta Universitetga (Paris I – Paris XIII) o'zgartirildi. Ularning o'z ma'muriyati, byudjeti va bo'limlari bor. Eng qadimgi binolarda Parij o'quv okrugi va beshta Universitet (Paris I, Panthéon-Sorbonne; Paris II, droit-économie et sciences sociales; Paris III, Sorbonne – Nouvelle; Paris IV, Paris – Sorbonne; Paris V, René Descartes) joylashgan. "Sorbonna" nomi fransuz Universitet ta'limi ramzi bo'lib qoldi. 3. Universitet binosi Muqaddas Jeneveva tepaligida Lotin kvartalida (q. Quartier Latin), XIII asrda ilohiyot kollejiga qurilgan va 1626-1642-yillar kardinal Rishelyo buyrug'i bilan me'mor J. Lemerse (1585-1654) tomonidan qayta qurilgan. Buyuk fransuz Revolyutsiyasi vaqtida vayron bo'lgan binolar Napoleon I buyrug'iga ko'ra qayta tiklangan, 1885-1905-yillarda restavratsiya qilingan va me'mor P. Neno (1853 – 1934) tomonidan batamom qurib bitkazilgan. Barokko uslubida qurilgan cherkov binosi eng qadimiy bo'lib, unda kardinal Risheli bilan haykaltarosh F. Jirardon (1628-1715)ning maqbarasi joylashgan. Auditoriyalar, zallar, galereyalar sur'atlar bilan bezatilgan. Katta amfiteatrda esa Pyuvi de Shavann (1824 – 898) Muqaddas o'rmon (Bois sacré) surati solingan.

sports français - *Fransuz sport turlari* // Fransiyada futbol bilan velosiped sporti eng ommabop. Mohir velopoygachilar (q. Tour de France) minglab tomoshabinlarni to'playdilar. Fransiya futbol komandalari muxlislari ham kam emas. 1998-yil 12-iyul Fransiya terma jamoasi futbol bo'yicha jahon kubogini qo'lga kiritdi: Futbolchilar sharaflig legion ordeni (q. Ordre de la Légion d'honneur) bilan mukofotlandilar, tantanada butun mamlakatdan minglab kishilar to'plandilar. Ommaviyligi bo'yicha III o'rinda regbi (fransuzlar - ko'p karra Yevropa

chempioni bo'lishgan), keyin basketbol, voleybol, yengil atletika, suzish, tennis va boks turadi. Chang'i sporti, alpinizm va avtopoyga (q."24 heures du Mans", Formule 1) rivojlangan. Yangi sport turlari orasida: o'nqir-cho'nqir joyda velopoyga (vélo-terrain), serfing (planche à voile), puflab shishirilgan sollarda tosh do'ngliklardan o'tish (rafting), tog' etagidan parashyutda tushish (parapente), sog'lomlashtirish gimnastikasi (fitness) va boshqalar bor.

studio *m* - *studiya* // 1) Oshxona, mehmonxona va yotoqxona bo'lib xizmat qiladigan katta xona; 2) Kichik oshxonali bir xonali kvartira.

style Empire (empire – imperiya) - *ampir uslubi* // Napoleon (q.Napoléon I) davrida Fransiyada me'morchilik va bezak san'atida klassitsizm rivojlanishining oxirgi bosqichi. Uslubning takomillashuvida XVIII asrning 90-yillarida Napoleonning Italiyaga yurishlari va Antik Rim davlatining buyukligi va harbiy kuchini madh etgan merosi bilan tanishuv katta ro'l o'ynadi. Mahobatli yodgorlik qurilmalar, tantanali obidalar yangi imperiya talablariga juda mos edi. Parijda me'mor J.F.Shalgren (1739–1811) Napoleonning 1805-1806-yilgi g'alabasi sharafiga Yelisey dalalarida zafar darvozasini (q.Arc de triomphe de l'Étoile) qurdi. 1806-yil Karusel maydonida me'morlar Perse (1764-1838) va Fonten (1762 – 1853) yana bir zafar darvozasi – imperator Septiliy Severning antik Rim darvozasi kichik nusxasini qurishdi. 1806-1810-yillarda Vandom maydonida Rimdagi Trayana ustuniga taqlid qilib ustun (q.colonne Vendôme) qad ko'tardi. Me'mor A.T.Bronyar (1739 – 1813)ning Parij birja ishlari va me'mor B.Vinon (1762-1842) ning muqaddas Mariya Magdalina cherkovi (q.Madeleine)-ampir uslubida qurilgan eng yirik inshootlarga kiradi. O'sha vaqtda Burbon saroyi deputatlar palatasi (hozirgi milliy Majlis q.Asssemblée nationale) ga klassisizimni aks ettirib qurilayotgan edi. Haykaltaroshlik va rassomchilik saroyniki bo'ldi. Napoleonning shaxsiy rassomi imperatorni madh etuvchi tarixiy asarlar yozdi: "Bonaparte au mont Saint – Bernard", 1805-yil; "Le sacre de Napoléon I", 1805-1807-y.y. Bezash san'atida rim va misr san'ati motivlari; ornamentda - girlyandlar

va lavr gulchambarlari, rim qurol-aslahalari, imperator burgutlari, misr sfinks va yodgorliklaridan foydalanilgan.

style Louis XIV - *Lyudovik XIV uslubi* // Fransiya san'ati va me'morchiligida XVII asr 2-yarmi va XVIII asr boshida Lyudovik XIV (q.Louis XIV) hukmronligi davrida qirol saroyi mamlakat badiiy hayotini aks ettirar edi. Qirol saroyi mamlakat badiiy hayotida markaz bo'lgan, san'atning asosiy vazifasi absolut monarxiyani madh etgan davrda asosiy yo'nalish "yirik uslub" (grand style) bo'lib klassitsizm (q.art classique) monarxiyani buyuklik va yorug'lik gardishiga o'rashi kerak edi.

style Louis XV - *Lyudovik XV uslubi* // Fransiya san'atining XVIII asr o'rtalarida, absolut monarxiya inqirozi davridagi rivojlanishni aks ettiradi, Lyudovik XV (1710-1774, 1723-yildan boshqargan) davrida saroy san'ati hukmronligini yo'qotadi. Badiiy hayotda asosiy rol ni xususiy salonlar egallab, bu yerda akademik ko'rgazmalar tashkil etilgan. Tanqidiy maqolalarda yoritib borilgan. Rassomlar erkinlikka ega bo'lib, san'atning turli yo'nalishlarini rivojlantirishgan. "Rokayl" (q.rocaille) uslubi bilan birga realistik san'at rivojlangan va ilk bor J.B.Sharden (1699-1779) suratlarida, J.A.Gudon (1741-1828) haykallarida aks etgan. Lirik tasviriy san'atining eng yorqin namoyondasi A.Vatto (1684–1721) bo'lgan. Haykaltaroshlikda naturaga qarab ishlash kuchayadi. Masalan, J.B.Pigal (1714-1785), E.Falkone (1716-1791) asarlari chinni kashf qilingach, Fransiya badiiy ishlab chiqarishning yangi sohasi bilan boyidi. Muhim rol ni Sevr qirollik manufakturasi (Serves Hauts-de-Seine kantoni asosiy shahri) o'ynadi. U faqatgina chiroyli idishlar emas, balki turli tasvirlar guruhlar yaratgan va taniqli haykaltaroshlar modelini yaratishgan. 1767-yildan manufaktura badiiy rahbari E. Falkone bo'ldi.

style Louis XVI - *Lyudovik XVI uslubi* // Fransiya san'ati va me'morchiligi rivojlanishida XVIII asrning oxirgi choragida asosiy yo'nalish Lyudovik XVI hukmronligi (1754-1793, 1774-yildan taxtga o'tirgan) dan oldin

paydo bo'lgan. Jiddiy, oddiy, bosiq, antik san'atning simmetrik va to'g'ri formasi bilan xarakterlanadi. Klassitsizm (q.art classique) yana me'morchilik va tasviriy san'atda hukmronlik qiladi. Me'morchilikda order yana kompozitsiyaning asosiy elementi sifatida namoyon bo'ladi, binobarin asosiy hajmida oddiy va aniqlikni afzal ko'radi. Bino ichini pardoqlashda rokoko geometrik bezak bilan almashadi. XVIII asr birinchi yarmiga xos muntazam park o'rniga manzarali "angliya bog'lari" keldi va yangi qurilmalar: pavilion ko'rinishidagi kichik inshootlar, shiypochalar, hujralar, sun'iy g'orlar, xarobalar paydo bo'ldi. Masalan, Versal parki me'mor Yu.Rober (1733 -1808) Lenotr ijodini ko'chiradi (q.Versailles), me'mor J.A.Gabriel (1698 -1782) bo'lsa «Kichik Trianon» qurdi. Fuqarolar me'morchiligi Lyudovik XV davriga qaraganda faol rivojlandi. Me'mor V. Lui (1731- 1802) 1780 - yilda Bordodagi katta teatr qurilishini yakunladi, bir yildan keyin Pale Royal galereyasi - Parij hayoti markazini qurdi. Tasviriy san'atda, ayniqsa J.J.Russo (1712–1778) asarlarida tabiatga qiziqish kuchaydi. Peyzajchilar Q.J.Verne (1714–1789) va G. Rober (1733- 1808) suratlari salonlarni bezadi. Buyuk Fransuz revolyutsiyasidan oldin tasviriy san'atda yangi yo'nalish neoklassitsizm (q. néo-classicisme) paydo bo'ldi.

style Rive Gauche - óRiv Gosh uslubiô // Sena so'l sohilidagi kvartalda paydo bo'lgan qo'shiq (q.Chanson à texte).

suffrage universel - *umumiy saylov huquqi* // Ilk bor Fransiyada 1848-yil 5-martdagi dekret bo'yicha o'rnatilgan, unga ko'ra 21 yoshdan katta bo'lgan hamma erkaklar saylovda qatnashish huquqiga ega bo'lishgan. 1945-yildan boshlab bu huquqqa 21 yoshdan katta bo'lgan ayollar ham ega bo'ldilar. 1973-yildan boshlab saylash huquqiga Fransiya fuqaroligini olgan muhojirlar ham ega bo'lishdi. 1974-yildan boshlab yuqoridagi barcha shaxslar uchun yosh-18 yosh qilib belgilanadi. Bu huquqdan fuqarolar Milliy Majlisga (q.élection à l'Assemblée nationale), senatga (q.élection sénatoriale), prezidentlikka (q.élection présidentielle), regional (q. élections régionale), kantonantal (q.élection cantonale)

va Munisipial (q.élection municipale) saylovlarda, hamda referendumlarda (q.référendum) foydalanadilar.

Supermarché m - *supermarket* // Oziq-ovqat va savdo mollari bilan savdo qiluvchi maydoni 400 km² dan 2500 m² gacha bo'lgan o'z-o'ziga xizmat ko'rsatuvchi univermag. Mamlakatda 6000 ga yaqin shunday magazinlar bor.

surréalisme m - *syurrealism* // Fransiyada XX asr 20-yillarida adabiyot, tasviriy san'at, suratkashlik, kinomotografiya sohasida shakllangan modernistik yo'nalish. Atamani ilk bor 1917-yilda G.Appoliner qo'llagan. So'zma-so'z "sverxrealizm" ma'nosini beradi. Syurrealistlar burjua axloqini, odobini, madaniyatini inkor etib, o'z she'riy orzusi gallyutsinatsiyasiga qarama-qarshi qo'yadi. Syurrealistlar boshchisi va ular manifesti muallifi (1924) A.Breton (1896 – 1966) edi. Shoirlar L.Aragon (1897 – 1982), P.Elyuar (1895 – 1952), R.Desnos (1900 – 1945), rassomlar P.Pikasso (1881 – 1973), S.Dali (1904 – 1989), R.Magritt (1898 – 1967) – Parij maktabi (école de Paris) va boshqalar 20-30-yillarda syurrealizm oqimida ijod qilganlar. 30-yillar oxirida syurrealistlar guruhi tarqab ketdi, 40-yillarda syurrealizm markazi AQSH da joylashdi.

symbolisme m - *simvolizm* // Fransiyada XIX asr 60-70-yillarida vujudga kelgan she'riyat yo'nalishi. Keyinroq Yevropada tarqaldi va san'atning boshqa turlari: teatr, rassomchilik va musiqaga ta'sir etdi. Simvolizm asosida turli idealistik nazariyalar, jumladan, A. Bergson (1859-1941) intuitivizm g'oyalari yotadi. Moddiy narsalar nomoddiy tushunchalarning ramzi bo'lib, tafakkur, aql kuchsizligi va ong rivojlanishining ilk darajasi deb tasdiqlangan. Katta e'tibor she'riyat tiliga, uning obrazlilikiga, musiqaliligiga, maishiy ko'rinishlardan poklanishga qaratilgan. Sharl Bodler (1821–1867), nazariyotchi – S.Mallarme (1842–1898), simvolistlar yirik namoyondasi - P.Verlen (1844–1896) va A.Rembo (1854–1891)lar simvolistlar o'tmishdoshlari bo'lishgan. 1886-yilda "Figaro" gazetasida "Simvolizm maktabi manifesti" e'lon qilingan.

synthétisme (cloisonnisme) m - *Sintetizm yoki kluazonizm* // XIX asr 80-yillari oxirida Fransuz rassomchiligi, yozuv texnikasi va estetik yoʻnalishi. Ijodkorlari – P.Gogen (1848 – 1903) rahbarligidagi rassomlar guruhi Britaniyada (q.Bretagne) Pontavenda ishlashgan. Ularning birinchi koʻrgazmasi 1889-yilda Parijda Volpina kafesida boʻlib oʻtdi. P.Gogen, E.Bernar (1868 – 1941) asarlarida toʻla aks etgan. Badiiy uslubi asosida rassomning “dunyo obrazlari”ni yaratishga intilishi, seziluvchan va yuqori his qilinuvchi xislatlariga bir vaqtning oʻzida namoyon qilishi aks etgan. Sintetizm kabi guruhi va baʼzi simvolist – rassomlar ijodiga kuchli taʼsir qildi.

systeme döenseignement -taʼdim tizimi // Fransiya taʼlim tizimi buyuk Fransuz Revolyutsiyasi (q.Révolution française) davrida shakllangan nuqtai nazarga asoslangan. Uning negizida 1881-1889-yilgi, hamda IV va V respublika qonunlari (q.République IV; République V) yotadi. Tizim quyidagi negizga asoslangan: 1) Taʼlim erkinligi. Davlat xususiy va davlat oʻquv yurtlari qonuniyligini tan oladi. Xususiy maktablar, davlat bilan taʼlim dasturi boʻyicha rasmiy shartnomaga ega boʻlishadi va moliyaviy yordam olishadi. 2) Taʼlim bepulligi. Davlat maktablari va oʻquv yurtlarida oʻqish – bepul. Boshlangʻich va oʻrta maktablarda darsliklar davlat hisobidan beriladi. Kam taʼminlangan oila farzandlariga stipendiya beriladi. Universitet bakalavriga (q.baccalauréat) kirishda “yozilish huquqi”ga (q.droits d’inscription) pul toʻlashadi. Talabalarning “oʻqish huquqi”ga (droits de scholarité) pul toʻlashadi, biroq davlat xarajatlari bilan taqqoslanganda bu hisoblar katta emas. 3) Aristokratlarga xos nazokatlilik. Davlat maktablari din borasida betaraf. Elzasdagi yuqori va Quyi Reyn departamentlari Mozel va Lotaringiyadan boshqa yerdagi maktablarda diniy taʼlim-tarbiya berilmaydi. Majburiylik. Mamlakatda yashovchi 6 yoshdan 16 yoshgacha boʻlgan barcha bolalar uchun taʼlim majburiydir; 5) Ilmiy daraja va diplomlar taqdimi. Ilmiy daraja (q.baccalauréat, licence, maîtrise, doctorat) va diplomlar berishga faqat davlat haqli. Xususiy maktablar diplomlari ham davlat tomonidan tasdiqlangandagina qonuniy kuchga ega boʻladi.

T

tapisserie *f* - *devor gilami* // Oʻrta asrlarda saroy va qasr devorlarini maxsus dastgoh yordamida sherst va ipak ipdan toʻqilgan gilamlar bilan yopib qoʻyishgan. Sovuqdan saqlagan holda, gilamlar bino ichini bezashda ajoyib rol oʻynagan. Suratlar toʻplami odatda diniy yoki tarixiy mavzudagi boʻlgan. Gilam toʻqish sanʼati Fransiyada paydo boʻlgan. Anje shahridagi qasrlardan birida saqlanayotgan mashhur gilamchi usta Batay (1330-1336)ning ”Apokalipsis Anje”(”Apocalypse d’Angers”) deb nomlangan asari – bu sanʼatning ilk asarlari hisoblanadi.

taste-vin (tate-vin) *m* - *tasteven* // Sharobni taʼtib koʻrish idishi. Kumush, qiyshaytirilgan metall yoki sopoldan boʻlgan kichkina kuldonni eslatadi, u yerga vino yetishtiruvchi xumdan taʼtib koʻrish uchun vino quyadi. Burgundiyadagi (q.Bourgogne) ”Tasteven ritsarlari birdamligi” – Confrériedes chevaliers du taste-vin tashkiloti Fransiyada vino yetishtiruvchilar ramzi va koʻp sonli vino ishtiyoqmandlari va bilimdonlari nishoni (emblema) boʻldi.

taupe *f* (*maktab jargoni*) - *maktablarga, Oliy texnika maktablariga* (q.Grandes écoles) *oʻqishga kirish uchun tayyorlov kurslari* (q.classes préparatoires aux Grandes écoles)ning ikkinchi va uchinchi yil **taʼlimi**.

taupin *m* (*maktab jargoni*) - Oliy texnika maktablari (q.Grandes écoles)ga kirish uchun tayyorlov kurslarida (q.classes préparatoires aux Grandes écoles, C.P.G.E.)gi tinglovchi.

Terres Australes et Antarctiques françaises (T.A.A.F.) *f pl-* *Janubiy va Antraktida yerlari* // Kroze (Crozet) va Kergelen (Kerguelen) arxipelagi janubiy orollari, Yangi Amsterdam (Nouvelle – Amsterdam) va Sen Pol (Saint – Paul) shuningdek, Antraktidaning sharqiy sektori – Adel yerlari (terre – Adélie)ni oʻz ichiga olgan Fransiya zamorsk hududi (q.territoires d’outre– mer). Hind okeani

Madakaskar oroli janubrog'ida joylashgan Kroze arxipelagi; uning maydoni - 505 km². Hayvonot olami boy (ko'plab qushlar, dengiz hayvonlari); 1938-yilda bu yerda Milliy tabiat parki tashkil etilgan va meteostansiya (ob-havo stansiyasi) ishlay boshlagan. 1773-yil fransuz dengizchilari N.T.Marion-Dyufren (1729 – 1772) va J.M.Kroze (1728 – 1780)lar tomonidan kashf etilgan. Kergelen orollari Hind okeani janubida joylashgan. Uning faunasi ham Kroze arxipelagistikiga o'xshash orollar, 1772-yil fransuz kapitani I.J.Kergelen de Tremarek (1734–1797) tomonidan kashf etilgan. Orollar vulqonlar natijasida paydo bo'lgan. Yangi Amsterdam va yangi Sen-Pol orollari ham Hind okeani janubiy qismida joylashgan. Yangi Amsterdam orolida meteostansiya joylashgan bo'lib, yer iqlimini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Adeli yeri (maydoni - 432 ming km²) – Antraktida qismi, fransuz dengizchisi Dyumon – Dyurvil (1790-1842) tomonidan kashf etilib, uning rafiqasi nomi berilgan. Bu yerda Dyumon – Dyurvil va J.Sharko (1867 – 1936) nomidagi ilmiy bazada qutb tadqiqotlari o'tkaziladi. Antraktida va janubiy yerlar bosh ma'muriyat – Davlat sekretariyati zamorsk departamentlari (q.departements d'outre - mer) va zamorsk hududlariga bo'ysinuvchi ma'muriyat boshqaradi. Fransiya parlamentida vakillari yo'q.

Terreur *f - Terror* // Kontrevolutsion kuchlariga qarshi keng ko'lamli qatag'onlar bilan tavsiflanadigan Buyuk Fransuz revolyutsiyasi davri (q.Révolution française). 1792-yil 10-avgust monarxiya ag'darilgach, Parij Kommunasi (q.Commune de Paris)ning zo'rlashi bilan Favqulodda jinoiy tribunal (Tribunal Criminel extraordinaire) tuzildi. Jirondistlar hibsga olingach (1793yil 2-iyul q.Girondins), sankyulotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanuvchi yakobinchilar (q.Jacobins) hokimiyat tepasiga keldi. Revolutsion terrorsiyosati, ruhoniylar, kelgindilar, ofitserlar – umuman kim shubha uyg'otsa "Shubhalilar to'g'risidagi qonun" ("Loi des suspects", 1793-yil 17-sentabr) bo'yicha rasmiylashtirilgan. Terrorizm bosh organlari, Jamoat qutqaruv qo'mitasi va Jamoat xavfsizlik qo'mitasi (q.Comité de salut public, Comité de sûreté générale), shuningdek Parij revolutsion tribunali, deputatlar revolutsion qo'mitalari edi. Natijada 17000 ta

hukm etilganlar qatl etilgan. 25 000 tasi esa sudsiz va tekshiruvsiz halok bo'ldi. Qatag'onning birinchi to'liqini (1793-yil oktyabr) jallod kundasiga qirolicha Mariya Antuanettani va Jirondistlarni olib keldi. Yakobinlar diktaturasi davrida (1793 – 1794) terror bosqinchilik davlat rasmiy siyosati bo'ldi. Uning qurbonlar orasida taniqli shoir A. Shene va kimyogar A.L.Lavuadze bor.

territoires döütre ñ mer (T.O.M.) *m pl - zamorsk hududlari* // XX asr 50 - 60-yillarida Fransiya zamorsk hududi nomini olgan Fransiyaning sobiq koloniyalari. Ularga tinch okeanidagi orollar va arxipelaglar kiradi: Yangi Kaledoniya (q.Nouvelle – Caledonie), Fransiya polinizeyasi (q.Polynesie Française), Uollis va Futuna (q.Wallis-et- Futuna), Hind okeani janubi va Antarktidadagi janubiy va Antarktida yerlari (q.Terres Australes et Antarctiques françaises). Bu hududlar aholisi – Fransiyaning to'la huquqli fuqarolari hisoblanishadi, rasmiy tili – fransuz. Ular o'z vakillarini Fransiya parlamenti ikkala palatasiga ham saylashadi, mahalliy saylov organlari tomonidan boshqariladi. Fransiya hukumati bu hududda o'z vakili – Oliy komissar orqali ish ko'radi. Oxirgi yillarda zamorsk hududlari katta avtonomiya oldi.

TGV (train à grande vitesse) - *yuqori tezlikda yuradigan poyezd* // Uning tezligi soatiga 270-300 km/ s rekord, 482 km² km/s. Ilk liniyasi (Parij – Dijon – Lion) 1980-yil qurila boshlagan, qulayliklarga ega. TGV da Parijdan Lionga ikki soatda, Bordoga uch soatda, Marselga 4-5 soatda yetib borishi mumkin. TGV dan Fransiyadan tashqari, Germaniya, Ispaniya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Janubiy Koreya davlatlari foydalanadi. 90-yillarda TGV ning ikkinchi avlodi yaratildi va Fransiyaning boshqa davlatlar bilan bog'ladi. Hozirgi kunda TGV ning uchinchi avlodini yaratish ustida ish olib borilmoqda.

théâtre de löabsurde ñ bemaöni, *tuturiqsiz teatr* // XX asrning 50-60-yillarida G'arbiy Yevropa dramaturgiyasidagi oqim bo'lib, ekzistensializmga (q.existentialisme athe) asoslangan. Pessimizm, tarqoqlik, xavotirni namoyon etadi; bunday teatrda fitna yo'q, personajlar nutqi mantiqsiz. Bu antiqa turdagi

antidrama baribir tomoshabinni o'ziga jalb etar edi, chunki fojiaiviy, komik, hayotiy voqealar, dialoglar, so'z o'yinlari, bo'rttirma tasvirlar orqali mohirona tuzilgan edi. G. Bekket (1906 – 1989), E. Ionesko (1912 – 1993) va A.Adamov (1908-1970)lar Fransiyadagi bu oqimning mashhur namoyondalaridir.

Théâtre de la Ville- *De Iya Vil teatri* // Shatle maydonidagi (q.place du Chatelet) Shatle teatri ro'parasida (q.Théâtre du Chatelet) me'mor J.Dalit (1823 – 1881) tomonidan 1860 – 1862- yillarda qurilgan binoda joylashgan Munitsipal xalq teatri. 1862-yil musiqali teatr sifatida tuzilgan. 1898-1949-yillarda buyuk fransuz aktrisasi Sara Bernar (1844-1923) nomi bilan ataldi. U bu yerda ilk bor Hamlet rolini ijro etgan. 1968-yildan boshlab hozirgi nomi bilan ataladi.

Théâtre du boulevard - *Xiyobondagi teatr* // Joylashgan yeri (Parij katta xiyoboni (Grand boulevard))ga ko'ra nomlangan. Oddiy xalq uchun "yengil" repertuarga ega. XX asr boshlarida (q.Belle époque) juda mashhur bo'lgan. Mashhurligi uchun S.Gitri, J.Grane kabi aktyorlar fidoyilik qilishgan. Ikkinchi Jahon urushidan keyin ko'ngilochar spektakllar bilan bir qatorda burjuaziya axloqi to'g'risidagi satirik pyesalar ham qo'yila boshlandi. Uning repertuarida J.Anuya, F.Sagan, I.Jamiyaka pyesalari paydo bo'ldi.

Théâtre du Chatelet - Shatle teatri (q.place du Chatelet) De Iya Vil teatri ro'parasida (q.Théâtre de la Ville) joylashgan. Parijning eng katta sahna maydoni. Avvallari bu yerda melodrammalar va teatr ta'siridagi ariyalar qo'yilar edi. 1909-1912-yillarda bu teatrdan S.P.Diogilevning "rus mavsumi" (opera, balet) bo'lib o'tgan. Hozirgi kunda gastrol va konsertlar uyushtiriladi.

Théâtre du Soleil -ôquyosh teatriô// Rejissor Ariadna Mushkina (1939-yilda tug'ilgan) tomonidan 1964-yil tuzilgan teatr truppasi. «Fransuz revolyutsiyasi to'g'risida» (1789 va 1793-yil)gi asarni sahnalashtirgach, mashhur bo'ldi. Xalq teatri (q.Théâtre national populaire) demokratik an'analarini davom ettiradi, yapon va hind teatri prinsiplari va uslubini qo'llab, mumtoz va zamonaviy pyesalar qo'yadi.

Théâtre du Vieux ñ Colombier -ôEski kaptarxona teatriô// Parijning VI okrugida shu nomli ko‘chada joylashgan. Taniqli teatr islohotchisi J.Kopo (1879 – 1949) tomonidan 1913-yil tashkil etildi. Chiptalar juda arzon bo‘lib repertuari klassik va zamonaviy pyesalardan iborat bo‘lgan. Shuningdek, rus yozuvchilari asarlari ham sahnalashtirilgan. Mazkur teatr taniqli aktyorlari orasida Sh.Dyullen (1885 – 1949), L.Juye (1887 – 1951) 1920-yilda teatr qoshida Sh.Koko maktabi tashkil qilingan; uning shogirdlaridan biri J.L.Barro (q.Compagnie Renaud – Barrauld) bo‘lgan. 1972-yildan boshlab 1993-yilgacha teatr yopib tashlangan. 1993-yil yana qaytadan ochilgan.

Théâtre Français - *Fransuz teatri* // ”Komedi Fransez” (q.Comédie – Française) teatrining yana bir nomi.

Théâtre libre -ôOzod teatrô// Parijda 1858-1896-yillarda A.Antuan (1858 – 1943) adabiyotidagi tabiiy va realistik tendensiyalar ta’siridagi teatr maktabi asoschisi tomonidan tuzilgan. Uning eng yaxshi spektakllari Balzak, Mopassan va Zolya asarlari bo‘yicha qo‘yilgan. Jyul Renar (1864-1910) – tabiiy maktab psixologik yo‘nalishi namoyondasi (q.naturalisme) pyesalari muvaffaqiyat qozondi. Teatr birinchilardan bo‘lib fransuz tomoshabinlarini Tolstoy va Turgenev asarlari bilan tanishtirgan.

Théâtre national populaire (T. N. P.) - *Milliy xalq teatri* // 1920-yilda aktyor va teatr arbobi F.Jemes (1869 – 1933) tomonidan tashkil etilgan. 1937-1972-yillarda Shayo saroyida joylashgan. 1951-1963-yillarda J.Vilard boshqargan, 1972-1983-yillarda J.Vilson rahbarlik qilgan. Truppada yetuk aktyorlar Jerar Filet, Mariya Kazares, Daniel Saronolar faoliyat ko‘rsatgan. Demokratik insonparvar teatr novatorlik rejissurasi bilan mamlakat badiiy hayotida katta rol o‘ynaydi. 1973-yil teatr yopilgach, uning truppasining bir qismi Lion yaqinidagi Villerbann shahridagi teatrga o‘tdi va Yangi Milliy xalq teatri (q.Nouveau T.N.P.) ni tashkil etdi.

Tiers État - *Uchinchi tabaqa* // XV- XVIII asrlardagi Fransiyaning o'lp on aholisi – hunarmandlar, ishchilar va dehqonlarni anglatuvchi atama. Ular ruhoniylarga qaraganda hech qanday siyosiy huquqqa, imtiyozga ega bo'lishmagan (q.ordres privilégiés). Buyuk Fransuz Revolyutsiyasi davrida (q.Révolution Française) uchinchi tabaqa Fransuz millatining timsoli bo'ldi.

Tours de France- *Tur de Frans* // Fransiya yo'llarida har yili o'tkaziladigan an'anaviy velopoyga. 1903-yilda taniqli velopoygachi va jurnalist A.Degranj (1865 – 1904) tomonidan tashkil etilgan. Iyun-iyul oylarida bir necha bo'limlarda (har biri 50 dan 250 km gacha) bo'lib o'tadi. Bu xalqaro sport va mamlakat hayotida muhim voqea bo'lib, yirik tijorat tashkilotlari sanoat, savdo-sotiq va sayyohlik firmalari o'z ishlarini reklama qilib velopoygada hamkorlik qilishadi.

Tour Eiffel - *Eyfel minorasi* // Mars dalasi (q.Champ-de-Mars) shimoliy chekkasida 1889-yilgi Butunjahon ko'rgazmasiga atab muhandis A.G.Eyfel (1832 -1923) tomonidan barpo etilgan metall inshoot. Adabiyot va san'at sohasidagi yetuk arbobl ar minora Parij ko'rinishini buzadi deb qarshilik qilishgan. Shunga qaramay, 1887-yil 26-yanvar minora qurilishi boshlangan. 1889-yil 30-martda tantanali ochilgan. U 15000 detaldan iborat, og'irligi 75000 tonna, balandligi – 1957-yil telepochta o'rnatilgandan keyin 320 metr ga yetdi. Restoranlar, kiosklar va tomosha maydonlari 3 yarusli balandlikda 57, 115 va 226 metrlar uchinchi qavatda joylashgan. Hozirgi vaqtda ob-havoni kuzatish uchun va radio, teleko'rsatuvlar markazi bo'lib xizmat qiladi. Minora – Parij ramzi va sayyohlar tashrif buyuradigan joydir.

Toussaint f - *Avliyolar kuni* // (731-yildan buyon) 1-noyabrda nishonlanadigan katoliklar bayrami, dam olish kuni. XI asrda vafot etganlarni xotirlash kuni bilan qo'shilgan (tête des Trépassés), bungacha u 2-noyabrda nishonlangan. Mamlakatning hamma régionlarida shu kuni yaqinlari dafn etilgan qabristonlarni ziyorat etiladi. Parijda noma'lum soldat qabriga gul qo'yiladi.

Fransiyada motam ramzi – xrizantema guli, shuning uchun 1-noyabrda hamma yoqda xrizantema guli tuvaklarda sotiladi. Ularni qabrlarga qo'yishadi. Hozirgi kunda bu bayram diniy emas, balki an'anaviy bayram bo'lib qoldi. Bu bayram butun oila a'zolari to'planishi uchun va bir necha kunni jamul-jam bo'lib o'tkazish uchun yaxshi sabab.

Traité de Maastricht ou traité sur l'Union européenne - Maastricht shartnomasi E.U.D. a'zolari 12 davlat o'rtasidagi shartnoma, 1991-yil 10-11-dekabrda Maastrichtda tuzilgan, 1992-yil 7-fevralda imzolangan va hamma mamalakatlardan tasdiqlangan. Yagona Yevropa akti (Acte unique européenne, 1986) asosiy mazmunini rivojlantirishni ko'rib chiqdi va yagona ichki bozorni yaratish, pul iqtisodiy ittifoqi tuzish (Union économique et monétaire, U.E.M.), yagona tashqi siyosat va xavfsizlik tizimi (Union politique et de défense) barpo etishni maqsad qilib qo'ydi. Yagona Yevropa valyutasiga o'tish (q.euro) 1998-yil 1-yanvardan belgilandi. Shartnomada Yevroparlament huquqlari (Parlement Européen) kengaytirildi, jumladan E.U. budjetini tasdiqlash va Yevrokomissiya a'zolarini tayinlash (Commission Européenne) huquqi berildi. Shuningdek, mamlakatlarning ichki va ijtimoiy siyosatdagi (turmush tarzini yaxshilash, ishsizlikka qarshi kurash, atrof - muhitni muhofaza qilish va hk.) hamkorligi, odil sud, E.U. mamlakatning har qanday fuqarosiga Yevropa fuqaroligi berilishi va huquqlari himoyasi ko'rib chiqildi.

tramontane f - *tramontana* // O'rtayer dengizi sohillarida (q.Méditerranée), Rona (q.Rhône) bilan Pirineya (q.Pyrénées) orasida, Langedok va Russilonda (q.Languedoc-Roussillon) esuvchi sovuq shimoliy shamol.

tribunal d'instance - *fuqarolik sudi* // Jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida munozarali savollarni ko'rib chiqadi (vasiylik, ijara, fuqarolik ishlari va boshqalar).

tronc commun - *umumiy ta'lim dasturi* // Boshlang'ich maktab (q.école primaire) va kollej (q.collège), qisman litseyning turli seksiyalariga mos keluvchi (q.lycée) majburiy ta'lim sikli. Kollejdagi majburiy fanlar orasida: fransuz tili,

matematika, xorijiy til, rivojlanayotgan fanlar (disciplines d'éveiles): tarix, geografiya, fuqaro tarbiyasi; eksperimental fanlar: fizika, kimyo, biologiya; tasviriy san'at yoki musiqa; jismoniy tarbiya va mehnat ta'limi fanlari mavjud.

troubadour *m* - (provanscha trobar – topmoq, she'r to'qimoq) *trubadur* // O'z asarlarini shevadagi «ok» (q.langue d'oc) tilida yozgan XII- XIII asrlar Janubiy Fransiya lirik shoir – xonandasi. Trubadurlar san'ati purtuaz ideallari (q.littérature courtoise, lirisme courtoise) ta'siri ostida bo'lib, Provans (Provence), Langedok (Languedoc) va Overn (Auvergne) feodallari qasrida (château féodal) tarqalgan. Trubadurlar qo'shiqlarini viala, arfa yoki sitra jo'rligida o'zlari ijro etishgan yoki jonglyorlarga (q.jongleur) kuylattirishgan. Trubadurlardan eng taniqlilari Gilom IX (Guillaume IX, duc d'Aquitaine, 1071-1127), Bertran-de Ventadur (Bertrand de Ventadour, 1150-1200), Jofre Ryudel (Joufre Rudel) va boshqalar. XIX asr boshlarida trubadurlar she'riyatiga yana qiziqish uyg'ondi (q.Félibrige).

trouvère *m* - (lot – trovare- poema yozmoq) *truver* // XII-XIII asr Shimoliy Fransiyada lirik shoir, xonanda. Odatda she'r va musiqa muallifi. Truverlar she'riyati “oyl” tilida (q.langue d'oil) yozilgan. Luaradan (q.Loire) Shimolga tarqalgan, Trubadurlar she'riyati (q.troubadour) ta'sirida bo'lgan, biroq oshkora va mulohazaliroq bo'lgan. Taniqli Truverlar orasida: Tibo Shampanskiy (1201-1253), Mariya Fransuzkaya (XII asr), Kreten de Trua (1135-1190) va boshqalar bor.

truffe *f* - *tryufel* // Yer ostida o'sadigan xushbo'y hidli yirik qora qo'ziqorin. Fransuz oshxonasining delikatesi (tansiq taomi) hisoblanadi. Eng yaxshi tryufellar Perigoreda (Dordou departamentida) o'sadi.

U

Union européenne - *Yevropa ittifoqi* (E.U) // Maastricht shartnomasi asosida tuzilgan (q.Traité de Maastricht) Yevropaning 15 ta davlati siyosiy va valyuta – iqtisodiy ittifoqi. Yevropa iqtisodiy hamkorligi – (E.U.H) (Communauté économique européenne, CEE) o‘rniga keldi. E.U.H 1951-yilda Fransiya va GFR tashabbusi bilan iqtisodiy, siyosiy va Yevropa xalq mamlakatlarining madaniy infraktsiyasi maqsadida tuzilgan va 1992-yilgacha faoliyat yuritgan. EU tuzilishiga quyidagilar bog‘liq: Yevropa pul tizimining qabul qilinishi (1979-yil); Yagona Yevropa akti imzolanishi (1986-yil); Fuqarolarning kapitallar, tovarlar va xizmatlar umumiy ichki bozorda erkin almashinishi maqsadida Yevropa banki rekonstruktsiyasi tuzilishi, Sharqiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishi (1990yil), EUH ichida erkinlik to‘g‘risidagi Shengen shartnomasi imzolanishi (1990- yil). Kelajakda EU yangi mamlakatlar a‘zo bo‘lishi hisobiga kengayishi mumkin.

Union française - *Fransiya ittifoqi* // Bu nom fransuz Konstitusiyasida 1946-yilgi (q.République IV) mamlakatlar birlashuviga ”Fransiyaning o‘zi” (metropoliya) va ”Zamorsk Fransiyasi ” (la France d’outre – mer), ya’ni sobiq mustamlakalar kirganligi tufayli berilgan. ”Zamorsk Fransiyasi” mamlakatlari 4 guruhga bo‘lingan: 1) zamorsk departamenti maqomini olgan (q.départements d’outre-mer) sobiq eski mustamlakalar – Martinitika (q.Martinique), Gvadelupa (q.Guadeloupe), Gviana (q.Guyane) va Reyunon (q.Réunion); 2) boshqa sobiq mustamlakalar zamorsk hududlari (q.territoires d’outre-mer) maqomini olishgan; 3) Aljir alohida huquq olgan; 4) Fransiya rahnamoligidagi sobiq hududlar (Togo, Kamerun) uyushgan hududga aylandi (territoires associés), sobiq protektorat hudud (Vetnam, Laos, Kambodja, Tunis, Marokko)lari esa uyushgan davlatlar bo‘ldi. Bular boshida Respublika Prezidenti, «Fransiya ittifoqi» Oliy Kengashi (Haut Conseil de l’Union) va Assambleya (Asssemblée) turadi. Ularga teng miqdorda metropoliya va «zamorsk Fransiyasi» vakillari kiradi. 1958-yilda ittifoq ”Fransuz hamkorligi”ga o‘zgartirilgan (q.Communaute).

Union pour la démocratie française (U.D.F.) - *F.D.I- Fransiya demokratik ittifoqi* // 1998-yil noyabrgacha liberal-iqtisodiy harakatlar yo‘nalishi va partiyalar konfederatsiyasini o‘zida aks ettirgan. 1978-yilda V.Jiskar d’Esen(1926-y. da tug‘ilgan) tashabbusi bilan 1974-yilgi prezidentlik saylovida uning nomzodini qo‘llab-quvvatlaganlar partiyasidan tuzilgan. F.D.U.ga Respublika partiyasi, Sotsial demokratlar Markazi, radikal partiya (Parti radical), sotsial - demokratik partiya, Fransiya demokratiyasi uchun kurashuvchi xalq partiyasi kabi va boshqa siyosiy uyushmalar kiradi. Maqsadi - o‘ng va markaziy partiyalarni so‘l va go‘llistlar birlashmasiga qarshi birlashtirish va respublikani qo‘llab quvvatlash. Yevroqurilishning yangi ustunliklaridan biri. 1998-yil yagona partiyaga aylandi va o‘z safida bir qancha tashkilotlarni birlashtirdi: Demokratik kuchni, Fransuz demokratiyasi uchun xalq partiyasi, radikallar partiyasi, respublika mustaqil va liberal birlashmalar shuningdek, ittifoqlarga bevosita kirganlar.

unité de formation et recherche (U.F.R.) - *o‘quv ilmiy bo‘limi* // Universitet, kasb tayyorgarlik va ilmiy tadqiqotlar tizimi birliklari. O‘quv ilmiy birlashmasi o‘rnini bosdi (unité d’enseignement et de recherche). Talabalarni, o‘qituvchilarni, ilmiy xodimlar va ma‘muriy, texnik xodimlarni birlashtiradi. Uning maqsadi: o‘quv rejalarini amalga oshirish. Kengash (40nafar a‘zoga ega) tomonidan boshqariladi va dekan ham shu kengashda saylanadi (q. doyen).

unité de valeur (U.V.) - *ta‘lim olganlikni tasdiqlovchi sertifikat* // Birinchi va ikkinchi sikl ta‘limi (q.enseignement supérieuer) aniq o‘quv fanlarini o‘rganish (majburiy va ixtiyoriy), imtihonlar topshirish va ularning har biri U.V. bilan tasdiqlanadi. Birinchi siklni tugatganda talaba 20 U.V. ga ega bo‘lishi lozim.

Université *f - Universitet* // 1. O‘rta asrlardagi o‘quv yurti. Yevropa davlatlarida sobiq Rim imperiyasi hududlarida ta‘limni butxona qoshidagi maktablarda va Monastirlarda olishgan. XII – XIII asrlarda ayrim maktablar Universitetlarga birlashtirilgan (lotin. *universitas* – majmua) – avtonom o‘quv yurtlari, soliq to‘lashdan ozod qilingan. 1215-yilda Parij Universiteti (1150- yilda

tashkil etilgan) bunday huquqni qo‘lga kiritdi. Universitetda 4 ta: teologiya, kanon huquqi, tibbiyot va erkin san‘at fakultetlari bo‘lgan. U uchta bakalavr, licensiat, doktor (baccalauréat, licence, doctorat) ilmiy daraja berishga haqli. Keyinchalik butun Fransiyada shunday huquqli Universitetlar paydo bo‘la boshladi: Tuluzada (1229), Monpeleda (1289), Orlean (1306), Grenoblda (1339) va hk. Universitetga rektor, fakultetga dekan rahbarlik qilgan. Ikkovi ham talabalar va o‘qituvchilar tomonidan saylangan. O‘quv rejalari va dasturlari, o‘qituvchilarni tayinlash – hammasi katolik cherkovi tomonidan belgilangan. XVIII asrga kelib bunday ta’lim reaksiya, jaholatparast bo‘lib qoldi. Buyuk Fransuz revolyutsiyasida (q.Révolution française) Universitetlar yopib tashlandi. 2) Fransuz maktablari, litseylari, (o‘rta ta’lim yurtlari) va fakultetlar (o‘qituvchilar, huquqshunoslar, vrachlar tayyorlovchi) birlashuvi. 1808-yil Universitetlar Napoleon I dekreti bilan qonuniylashtirilgan, ta’lim tizimi markazlashtirilgan va davlatga bo‘ysundirilgan. 1896-yildan boshlab davlat oliy o‘quv yurtlarida kadrlar tayyorlash bilan birga pedagogik, ilmiy, ma’muriy va moliyaviy muxtorlikka ega ilmiy ishlar o‘tkaziladi. Hududiy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini jalb qilib demokratik asosda boshqariladi (q.conseil d’administratsion, conseil scientifique, conseil des études et de la vie universitaire). Hozirgi vaqtda mamlakatda 74 ta Universitet va Universitet markazlari mavjud bo‘lib, ular 800 ta tayyorlov va tadqiqot bo‘limlarini birlashtiradi (q.Unités de formation et de recherche). Bakalavr darajasi egalari Universitetga imtihonsiz qabul qilinadi. Faqat biroz pul to‘lashadi (q.droits d’inscription). Universitetda ta’lim 3 ta davr bo‘yicha tashkil qilinadi. Birinchi davr oxirida, ya’ni 1 yildan keyin Universitetning umumiy diplomi beriladi (q.diplôme d’études universitaires générales). Ikkinchi davr tugallanishi bilan, ikki yoki uch yildan keyin litsensiyat unvoni beriladi (q.licence) yoki uch yillik ta’limdan keyin, Magistr unvoni beriladi. Uchinchi davrga faqat magistrlar qabul qilinadi. Bu magistrlar ilmiy tadqiqot ishlarida o‘zlarini ijobiy tomondan ko‘rsatgan bo‘lishlari kerak. Ushbu davr oxirida chuqurlashtirilgan ta’lim to‘g‘risidagi diplom beriladi (q.diplôme d’études (approfondies) yoki oliy maxsus

ta'lim to'g'risidagi diplom beriladi (q.diplôme d'études supérieures spécialisées). Ushbu diplomlar doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash huquqini beradi (q.doctorat).

université du temps libre -*bo'sh vaqt Universiteti* (q.Université du troisième âge).

université du troisième âge - *nafaqa yoshidagi shaxslar universiteti* // Keksa odamlarni dunyo madaniy merosi va yangi ilmiy-texnik kashfiyotlar bilan tushuntirish o'quv-ma'rifat tashkiloti. Uning vazifasiga faol turmush tarzini targ'ib qilish va nafaqadagilarni jamiyat hayotiga jalb qilish kiradi. Davlat tomonidan dotatsiya (yordam puli) oladi, o'qituvchilar ko'pincha jamoat ishlarida ham ishlashadi. Birinchi shunday Universitet 1973-yil Tuluzada tashkil qilingan. Hozirgi vaqtda "bo'sh vaqt Universitetlari"ga aylanyapti (Universités du temps libre). Bu Universitetlar o'zining 30 dan 75 yoshgacha bo'lgan tinglovchilari uchun xorijiy tillar kursi, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish, muzeylarga sayohatlar, Universitet professorlarining obzorli ma'ruzalarini uyushtiradi. Bunday Universitetga har bir hohlovchi kishi yiliga 350 – 1500 frank to'lab kiradi. 80 ta shunday Universitetlarning 7 tasi Parijda joylashgan.

urbanisme m 1) Shaharlarni obodonlashtirish, Ikkinchi Imperiya davrida (q.Empire (Second)) aholi sonining ortishi va ko'cha harakati muammosi paydo bo'lganligi uchun Parijni obodonlashtirish ehtiyoji tug'ildi. Shaharni qayta rejalashtirayotib, Sena departamenti prefekti baron Osmani (1809 – 1891) iqtisodiy, siyosiy va go'zallik maqsadlariga e'tibor berdi. Eski kvartallar 1789-yilda barrikadalar qurilgan va politsiya bilan jang qilgan kvartallar buzib tashlandi, parijlik ishchilar shahar atrofiga joylashdilar. Ular o'rniga keng ko'chalar yotqizildi, bog' va xiyobonlar barpo etildi. 20 ta ma'muriy okrugga bo'lingan Parij zamonaviy ko'rinishni ola boshladi. 2. *Urbanizm* // Shaharlar qurilishi. Atama XX asr boshida paydo bo'ldi. Zamonaviy shahar qurilishi yaratuvchilaridan biri

fransuz rassomi, me'mor va me'morchilik nazariyotchisi Le Korbyuze (1887–1965) zamonaviy me'morchilikni rivojlantirish yo'nalishini aniqlay olgan.

V

Val-de-Loire *m* - *Val ñ de ñ Luar* // Parij basseynidan (q.Bassin parisien), Luara (q.Loire) dan oqib o'tayotib katta yoy (Luara vodiysi) hosil qiladi va tepasida Orlean shahri joylashgan. U yerda Luara mashhur qal'asi joylashgan (q.châteaux de la Loire).

Valois (les) - *Valua* // Kapetinglar avlodining (q.Capetiens) orqa taraflama dramaturg qirollari dinstiyasi (1328-2589). Dinastiyaning birinchi qiroli Filipp VI (1293 – 1350) bo'ldi. 1498-yilda taxtga Orlean Valua shajarasi (Valois-Orlean) o'tirdi. Bu shajarada birgina qiroli – Lyudovik XII (1462 – 1515) bo'lib, uning merosxo'ri bo'lmagan. 1515-yildan Fransiya angulema Valua shajarasi (Valois-Angoulême) boshqargan. 1589-yil ularning o'rnini burbonlar egallashgan (q.Bourbons). Valua dinastiyasining eng yorqin vakili Fransisk I bo'lgan, u 32 yil hukmronlik qilgan (1515-yildan boshlab). Uning davrida Fransiya absolyut monarxiyaga asoslangan yagona davlatga aylangan. Qirol tili ya'ni fransuz tili lotin tilini va mahalliy shevalarni muloqotdan siqib chiqarib, butun mamlakat hududida rasmiy tilga aylandi. Fransisk I zamonasida madaniyat va san'at gullab yashnagan (q.Renaissance) davr bo'ldi. Luara hududlarida qirollar hashamatli saroylar qura boshlashdi (q.châteaux de la Loire). U o'z saroyiga Leonardo da Vinchi kabi yetuk rassomlarni taklif qildi, fan, adabiyot, san'at va me'morchilik gullab yashnashi uchun homiylik qildi (q.humanisme, Collège de France). Fransisk I vafotidan keyin mamlakatni uning o'g'li Genrix II (1549 – 1559) va uning uchta nevarasi: Fransisk II (1559 – 1560), Karl IX (1560 – 1574) va Genrix III (1574 – 1589) lar boshqardi (q.guerres de religion).

Vendée (guerre de) *f - Vandey isyoni* // Buyuk Fransuz Revolyutsiyasi davrida (q.Révolution française) Vandey, Men-i-Luara departamentlarida, Puatu bilan Anju chegarasida bo‘lib o‘tgan dvoryanlar va ruhoniylar boshchilik qilgan dehqonlar harakati. G‘alayonga iqtisodiy qiyinchiliklar (ochlik, kambag‘allik), hukumatning dinga qarshi siyosati, 1793-yil 24-fevraldagi konvent dekreti (q.Convention) sabab bo‘ldi. 1793-yil mart oyida Vandey isyonkorlari (”oqlar”) 40000 kishilik armiya tuzdilar va respublikachilar (”havoranglar”) ustidan bir qator g‘alabalarga erishdilar, biroq 1793-yil 29-iyun Nant yonida u yo‘q qilindi. Povstanchilarning ilk g‘alabasiga konvent uyushtirilgan terror (q.Terreur) bilan javob berdi va maxsus G‘arbiy armiya tuzdi. Bu armiya 1793-yil oxiriga kelib g‘alayonni ayovsiz bostirdi, isyonga qayta urinishlar keyinroq ham 1795-1796 yillarda, 1815 va 1832 - yillarda ham bo‘ldi. Vandey voqealari V.Hyugoning ”93-yil” romanida aks ettirilgan.

Vercingetorix ñ *Versingetoriks, ya’ni jangchilar qiroli* // Gall qabilalaridan birining (Arvernlar) boshlig‘i. Eramizdan avvalgi 53–yilda u rimliklarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradi. Eramizdan avvalgi 52-yilda Sezar Versingetoriks otryadlarini Aleziyada (Dijondan shimolga) o‘rab oldi. 40 kunlik qurshovdan keyin odamlarni ochlikdan qutqarish uchun Versinjetoriks taslim bo‘lishga qaror qildi va asir olinib, zanjirband qilindi. 6 yildan keyin Rimda Sezar triumfi uyushtirilganda uning aravasi g‘ildiraklarida boshqa asirlar qatorida Versinjetoriks ham olib o‘tilgan.

Versailles - *Versal* // XVII – XVIII asr klassik uslubdagi (q.art classique) yirik saroy – park ansambli, bunga: saroy, (château de Versailles) Katta va Kichik Trianon (Grand et Petit Trianon), basseyn va haykallari bo‘lgan muntazam park (jardins de Versailles)lar kiradi. Parijdan 22 km uzoqlikda joylashgan. 1682 – 1789-yillarda fransuz qirollari qarorgohi bo‘lgan. Qurilish ishlari Lyudovik XIII (1601–1643) davrida me’morlar S.De Bross (1571 – 1626), F.Lerua va A.Lenotr (1613–1700) loyihalariga ko‘ra boshlangan. Lyudovik XIV (1638 – 1715) davrida

keng quloq yoygan qurilishga qiroq shaxsan o'zi boshchilik qildi va ansamblni o'z qarorgohiga aylantirdi. 50 yil davomida bu yerda o'nlab me'morlar, rassomlar, haykaltaroshlar ishlagan, ular orasida L.Levo (1612 -1670), J.Arduen Mansar (1646-1708), A.J.Gabriel (1698–1782)lar bo'lgan. 100 ga maydonga ega park-manzara me'mori Lenotr tomonidan rejalashtirilgan va fransuz parkining klassik namunasi hisoblanadi (jardin à la française). 1837-yildan boshlab Versal qirollik qarorgohidan milliy muzeyga aylantirildi. Ansambl bilan ko'plab tarixiy voqealar bog'liq: bu yerda 1789-yil 26-avgustda Ta'sis Majlisi (q.Assemblée constituante) "Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi"ni (q.déclaration des droits de l'homme et du citoyen) qabul qilgan, 1919-yil 28-iyul bu yerda Versal tinchlik shartnomasi (q.guerre mondiale première) imzolangan. Hozirgi kunda uning muzey va parklarini millionlab sayyohlar tomosha qilishadi. Ular uchun teatrlashtirilgan "Ovoz va yorug'lik" (q."Son et Lumière") tomoshalari namoyish qilinadi, "Katta suv" (Grandes Eaux) bayramlari tashkil etiladi va bunda 607 favvoraning hammasi ishlaydi.

Verts (les) -ôYashillarô // Atrof-muhit himoyachilari. "Yashillar" partiyasi 1894-yil har qanday Sanoat va maishiy ifloslanish va yadro energiyasi ishlatilishiga qarshi kurash maqsadida tuzildi. Maqsadi – "siyosiy ekologiya" (oshkoralik, ishsizlikka va xalq kambag'alchiligiga qarshi kurash kabi) prinsipga tayangan jamiyat tuzish. 1980–1990-yillarda "yashillar" siyosiy kuchga kirdi. 1992-yilda "Ekologiya avlodi" (q.Génération Écologie) bilan birga hududiy saylovlarda yuqori natijaga erishdilar (14,6 % ovoz). 1995-yilgi prezidentlikka saylovlarda "yashillar" nomzodi Dominik Voyke 3,3 % ovoz to'pladi. U so'llar va eng so'llar bilan ittifoq tuzish harakati yangi mo'ljali taklif qildi.

vêtement *m* – *kiyim-kechaklar* // Fransuzlar kiyimi oddiy va orasta, ko'pchilik oddiy, kamtarona kiyinishgan, g'ayrioddiylik ba'zan uchrab turgan. Tog'li hududlarda va basklar mamlakatida erkaklar beret kiyishgan. Ayollar kiyimi turli-tumanligi bilan farq qiladi va hamisha Parij kutyuresi va modalar uyi (q.haute couture) talablariga javob beradi. Yuqori moda bilan bir qatorda tayyor kiyimlar

sektori (q.pret-a-porter) rivojlandi, shuningdek arzon kiyim-kechak ishlab chiqarish kengaydi. Kiyimlar aniq ijtimoiy tabaqaga mansublik ramzi bo'lgan va bo'layapti. Yuqori moda betakror mahsulotlari qo'lda tikiladi va ularni faqatgina millionerlar bilan kinoyulduzlar sotib ola bilishgan. Pret-a-porter mahsulotlari ko'proq o'rtahol kishilarga to'g'ri keladi. Kam ta'minlangan aholi esa kiyim-kechakni Tati tipidagi arzon magazinlardan xarid qilishgan. Uning bichimi zamonaviy modaga javob beradi, biroq matolar va tikilish sifati tayyor kiyimlar bilan solishtirganda ancha farq qiladi. Yoshlar kiyimlari turli-tumanligi bilan farq qiladi (q.BCBG, baba, branché).

ô24 heures du Mansô -ô*Le Manda 24 soatô* // Markaziy regionda (q.Centre-Val de Loire) Le Man shahri yopiq halqa trassasida avtopoyga. 1923-yildan beri o'tkazib kelinmoqda. G'olib 24 soat ichida aylanib o'tgan soni va poyganing oxirgi soatidagi oraliqqa qarab belgilanadi.

vins français - *fransuz sharobi* // Uzum yetishtirish - fransuz iqtisodi va taraqqiyotining ajralmas qismi. Fransiya – dunyodagi eng yirik vino ishlab chiqaruvchilardan biri (q.appellations d'origine contrôlée). Yevroittifoq ko'rsatmasiga muvofiq Fransiya tansiq vinolar (q.grands crus) ishlab chiqarishni ko'paytiradi va oddiylarini qisqartiradi.

Vosges *f pl – Vogez* // - Germaniyadagi Shvartsvald (Forêt-Noire) ning davomi-Fransiya shimoliy-sharqidagi tog' massivi. Qadimiy tog'lar (eng baland cho'qqisi le Grand Ballon 1424 m), uzunligi Fransiya hududi 125 km, Yuqori Reyn pasttekisligini Lotaring yassi tog'liklaridan ajratib turadi. Tog' cho'qqisi dumaloq shaklda (q.Ballon), deyarli bir xil balandlikda, o'ziga xos manzara kasb etadi. Ko'pgina gidroenergetika resurslari va mineral manbalarga ega.

vote *m - ovoz berish* // Saylov okrugi (q.circonscription électorale) yashash joyi ro'yxatiga kiritilgan, 18 yoshdan katta bo'lgan kommuna saylovchilari (q.commune) va Fransiyaning barcha fuqarolari ovoz berish huquqiga egadirlar.

vote de la loi - *qonun qabul qilish* // 1958-yilgi Konstitutsiyaga (q.Constitution de 1958) muvofiq, qonunning har qanday loyihasi (q.proposition de loi) Milliy Majlis ikkala palatasida ham (q.Assemblée nationale) birma bir ko‘rib chiqilishi kerak. Qarama qarshilikni bartaraf etish uchun premer-ministriga teng huquqli komissiya chaqirish huquqi berilgan. Agar kelishmovchilik bartaraf etilmasa, hukumat Milliy Majlisdan qo‘shimcha ko‘rib chiqishlardan keyin qat’iy qarorni talab qilishi mumkin.

W

Wallis ñ et ñ Futuna (îles) - *Uollis va Futuna* // Tinch okeani g‘arbiy qismlarida joylashgan Fransiya zamorsk hududi (q.territoires d’outre–mer). Uollis, Futuna va Alof orollari guruhini o‘z ichiga oladi. Yer maydoni - 274 km². Ma’muriy markazi – Mata-Utu Uvea orolida, Uollis orollari guruhida. Aholisi – 13 000 kishi (1991-y.) asosan – polinizeylar. Davlat tili – fransuz, aholisi polinizey tilida so‘zlashadi. Pul birligi – F.K.P. franki. Aholining asosiy mashg‘ulotlari chorvachilik, kokos, banan, ananas yetishtirish, **kopra** ishlab chiqarish va hk. Futuna orollari 1616-yil gollandiyaliklar tomonidan, Uollis orollari – ingliz dengizchisi S.Uollis tomonidan 1767 - yilda kashf etilgan. 1886-1887-yillarda ikkala orol ham Fransiya protektoratiga tushdi. 1961-yildan zamorsk hududi hisoblanadi va Fransiya hukumati tayinlagan Bosh ma’mur tomonidan boshqariladi. Fransiya parlamentiga orollarning bir nafar deputati va bir nafar Senatori tavsiya etilgan.

Z

Zones à urbaniser par priorité (Z.U.P.) - *Shahar qurilishi birinchi zonasi* // Yirik shaharlar (Lion, Marsel va boshqalar) atrofi qatorida joylashgan. Bunday zonalarining aholisi 100 ming kishi bo‘lib, yashash joylari betondan, oyna

va metallardan qurilgan bir xil to'g'ri burchakli uylardir. Kam ta'minlanganlar va immigranlar yashamaydi.

Lugʻat maqolalarida uchraydigan qisqartmalar

AOC - **appellations d'origine contrôlée** ñ (soʻzma-soʻz) nazorat ostida tayyorlangan vino nomi

A.S. - **assistant(e) social(e)**, m f - ijtimoiy savollar boʻyicha yordamchi

BCBG - „bon chic bon genre“dan soʻzma-soʻz tarj. m „chiroyli kiyim- yaxshi muomala“

Bn - **Bibliothèque nationale** - Milliy kutubxona

BNF-Bibliothèque Nationale de France - Fransiya Milliy Kutubxonasi

B.E.P. - **brevet d'études professionnelles** - Kasb taʼlimi toʻgʻrisida guvohnoma

B.T. - **brevet de technicien** - Texnik guvohnomasi

B.T.S. - **brevet de technicien supérieur** - Oliy malakali texnik guvohnomasi

C.F.A. - **Centre de formation des apprentis** - kasb-hunar bilim yurti

C.I.E.P. - **Centre international d'études pédagogiques** - Xalqaro pedagoglar markazi

C.N.R.S. - **Centre national de la recherche scientifique** - Ilmiy tadqiqotlar markazi

C.N.E.S. - **Centre national d'études spatiales** – Kosmik tadqiqotlar milliy markazi

C.S.G. - **Centre spatial guyanais** - Gviyan kosmik markazi

C.A.P.E.S. - **certificat d'aptitude au professorat de l'enseignement du second degré** - Oʻrta maktab oʻqituvchisi diplomi

C.A.P.E.T. - **certificat d'aptitude au professorat de l'enseignement technique** - Texnika fanlari oʻqituvchisi diplomi

C.A.P. - **certificat d'aptitude professionnelle** - Professional tayyorgarlik toʻgʻrisidagi attestat

C.P.G.E. - **classes préparatoires aux Grandes écoles** - Oliy maktablarga kirish chun tayyorlov kurslari

C.R.S. - **Compagnies républicaines de sécurité** - Respublika xavfsizlik otryadlari

D.O.M. - départements döoutre-mer - *zamorsk departamentlari*

D.E.A - diplôme döétudes approfondies - *chuqurlashtirilgan taðim diplomi*

D.E.S.S. - diplôme döétudes supérieures spécialisées - *oliy maxsus taðim diplomi*

D.E.U.G. - diplôme döétudes universitaires générales - *umumiy universitet taðimi diplomi*

D.E.U.S.T. - diplôme döétudes universitaires scientifiques et techniques - *Ilmiy-texnik maðumot toðgðrisidagi diplom*

D.U.T. - diplôme universitaire de technologie - *universitet texnologiyasi diplomi*

E.H.E.C. - École des hautes études commerciales - *Oliy tijorat maktabi*

E.H.E.S.S. - École des hautes études en sciences sociales - *Ijtimoiy fanlar oliy maktabi*

E.N.A. - École nationale döadministration – *boshqaruv milliy maktabi*

E.N.P.C. - École nationale des ponts et chaussées - *Yoðlar va koðpriklar qurish milliy maktabi*

E.N.S.A.M. - École nationale supérieure döArts et métiers - *Sanðat va hunarmandchilik oliy milliy maktabi*

E.N.S.B.A. - École nationale supérieure des beaux arts - *Tasviriy sanðat oliy maktabi*

E.N.S.M.P. - École nationale supérieure des mines de Paris - *Parij oliy milliy kon qidiruv maktabi*

E.N.S. - École normale supérieure - *Oliy pedagogika maktabi*

G. E. - Génération Ecologie - *ekologiya avlodi*

G.P.R.F. - gouvernement provisoire de la République française - *Fransiya respublikasi vaqtincha hukumati*

H.L.M. - habitations à loyer modéré - *arzon-garov turar-joy*

I.E.P. - Institut döétudes politiques de Paris ñ *Politehnika tadqiqotlari Parij instituti*

I.N.S.E.E. - Institut national de la statistique des études économiques - *Statistika va iqtisodiy tadqiqotlar davlat instituti*

I.N.L.C.O. - Institut national des langues et civilisations orientales - *Sharq tillari va rivojlanishi davlat instituti*

I.U.F.M..- Instituts universitaires de formation des maitres - *Oʻqituvchilarni tayyorlash universitet institutlari*

I.U.T. - Institut universitaire de technologie - *universitet texnologiya institutlari*

J.O..- Journal officiel de la République française - *Fransiya Respublikasi rasmiy axborotnomasi*

LP - lycée professionnel - *kasb-hunar litseylari*

M.J.C. - maison des jeunes et de la culture - *Yoshlar va madaniyat uyi*

P.C.F.- Parti communiste français - *Fransiya kommunistik partiyasi*

P. S. - Parti socialiste - *Sotsialistik partiya*

P. D. G. - Président directeur général - *Firma prezidenti* - korxona bosh direktori

P.J. - police judiciaire - *kriminal politsiya*

P.T.T..-Postes, Télégraphes, Téléphones Postes et télécommunications - *pochta, telegraf, telefon*

P.A.C.A. - Provence Alpes - Côte d'Azur - *Provans - Alp* - *Moviy Qirgʻoq*

R. P. R. - Rassemblement pour la République - *Respublikani qoʻllab quvvatlash birlashmasi*

RER - Réseau Express Régional - *Regional tezkor tizim (tarmoq)*

S.D.F.M. - "Sans domicile fixe" - *bomj* - Aniq turar joyi yoʻq shaxs

S. N. C. F. - Société nationale des chemins de fer français - *Fransiya temir yoʻli milliy jamiyati*

T.A.A.F. - Terres Australes et Antarctiques françaises - *Janubiy va Antraktida yerlari*

T.O.M. - territoires d'outre mer - *zamorsk hududlari*

TGV - (train à grande vitesse) - *yuqori tezlikda yuradigan poyezd*

T.N.P. - Théâtre national populaire - *Milliy xalq teatri*

E.U. - Union européenne - *Yevropa ittifoqi*

U.D.F. - Union pour la démocratie française - *F. D. I- Fransiya demokratik ittifoqi*

U.F.R. - unité de formation et recherche - *oʻquv ilmiy boʻlimi*

U.V. - unité de valeur - *taʼlim olganlikni tasdiqlovchi sertifikat*

Z.U.P.- Zones à urbaniser par priorité - *Shahar qurilishi birinchi zonasi*

ILOVALAR (ANNEXES)

TABLEAU CHRONOLOGIQUE DES SOUVERAINS ET CHEFS D'ÉTAT DE LA FRANCE

Mérovingiens

Chlodion (ou Clodion).....	v. 428-v. 447
Mérovée.....	v. 447-v. 457
Childéric Ier.....	v. 457-481 ou 482
Clovis.....	481 ou 482-511

Premier partage (511)

Austrasie

Thierry Ier.....	511-v. 534
Théodebert Ier ou Thibert.....	534-547/ 548
Théodebald ou Thibaud.....	547/ 548-555

Orléans

Clodomir.....	511-524
---------------	---------

Paris

Childebert Ier.....	511-558
---------------------	---------

Neustrie.

Clotaire Ier.....	511-561
-------------------	---------

(Seul roi de 558 à 561)

Deuxième partage (561)

Paris

Caribert.....561-567

Orléans et Bourgogne

Gontran.....561-592

Neustrie

Chilpéric Ier.....561-584

Clotaire II.....584-629

(Seul roi de 613 à 629)

Dagobert Ier..... 629 -v. 638

(Seul roi de 629 à 634)

Austrasie

Sigebert Ier.....561-575

Childebert II.....575-595

Thibert ou Théodebert II.....595-612

Sigebert II.....613

Bourgogne

Thierry II..... 595/596-613

Austrasie

Sigebert III.....634-656

Childéric II.....662-675

Dagobert II.....676-679

Neustrie et Bourgogne

Clovis II.....	639-657
Clotaire III.....	657-673
Thierry III.....	673-690 ou 691
Clovis III.....	675
Clovis IV.....	691-695
Childebert III.....	695-711
Dagobert III.....	711-715
Chilpéric II, désigné par les Neustriens.....	715-721
Clotaire IV, désigné par Charles Martel.....	718-719
Thierry IV.....	721-737
Interrègne.....	737-743
Childéric III.....	743-751

Carolingiens

Pépin le Bref.....	751-768
Charlemagne (avec Carloman jusqu'en 771).....	768-814
Louis Ier le Pieux ou le Débonnaire.....	814-840
Charles II le Chauve.....	843-877
Louis II le Bègue.....	877-879

Louis III et Carloman.....	879-882
Carloman seul.....	882-884
Charles le Gros.....	884-887
Eudes (famille capétienne).....	888-898
Charles III le Simple.....	893-923

(Il partagea le trône avec Eudes de 893 à 898)

Robert Ier (famille capétienne):

opposé à Charles le Simple.	922-923
Raoul.....	923-936
Louis IV d'Outremer.....	936-954
Lothaire.....	954-986
Louis V.....	986- 987

Capétiens directs

Hugues Capet.....	987-996
Robert II le Pieux.....	996-1031
Henri Ier.....	1031-1060
Philippe Ier.....	1060-1108
Louis VI le Gros.....	1108-1137
Louis VII le Jeune.....	1137-1180
Philippe II Auguste.....	1180-1223
Louis VIII.....	1223-1226
Louis IX (Saint Louis).....	1226-1270
Philippe III le Hardi.....	1270-1285
Philippe IV le Bel.....	1285-1314
Louis X le Hutin.....	1314-1316
Jean Ier (posthume).....	1316
Philippe V le Long.....	1316-1322
Charles IV le Bel.....	1322-1328

Valois

**Valois directs (issus de Charles de Valois,
frère de Philippe le Bel)**

Philippe VI de Valois.....	1328-1350
Jean II le Bon.....	1350-1364
Charles V le Sage.....	1364-1380
Charles VI.....	1380-1422
Charles VII.....	1422-1461
Louis XI.....	1461-1483
Charles VIII.....	1483-1498

Valois-Orléans

**(issus du 1er fils de Louis d'Orléans,
frère de Charles VI).**

Louis XII.....	1498-1515
----------------	-----------

Valois-Angoulême

(issus du 3e fils de Louis d'Orléans)

François Ier.....	1515-1547
Henri II.....	1547-1559
François II.....	1559-1560
Charles IX.....	1560-1574
Henri III.....	1574-1589

Bourbons

**(issus de Robert, comte de Clermont,
6e fils de Saint Louis)**

Henri IV.....	1589-1610
Louis XIII.....	1610-1643
Louis XIV.....	1643-1715
Louis XV.....	1715-1774
Louis XVI.....	1774-1792

I^{re} République

Convention.....	1792-1795
Directoire.....	1795-1799
Consulat.....	1799-1804

Premier Empire

Napoléon Ier, empereur.....	1804-1814
Les Cents-Jours.....	1815

Restauration

(Bourbons)

Louis XVII.....	1814-1824
Charles X.....	1824-1830

Monarchie de Juillet

(Bourbons-Orléans)

Louis-Philippe Ier.....	1830-1848
-------------------------	-----------

II^e République

Louis Napoléon Bonaparte.....	1848-1852
-------------------------------	-----------

Second Empire

Napoléon III, empereur.....	1852-1870
-----------------------------	-----------

III^e République

A. Thiers.....	1871-1873
Mac-Mahon.....	1873-1879

Jules Grévy.....	1879-1887
Sadi-Carnot.....	1887-1894
Casimir-Perier.....	1894-1895
Félix Faure.....	1895-1899
Emile Loubet.....	1899-1906
Armand Fallières.....	1906-1913
Raymond Poincaré.....	1913-1920
Paul Deschanel (févr.-sept.).....	1920
Alexandre Millerand.....	1920-1924
Gaston Doumergue.....	1924-1931
Paul Doumer.....	1931-1932
Albert Lebrun.....	1932-1940

Etat français

Philippe Pétain.....	1940-1944
----------------------	-----------

Gouvernement provisoire de la République

Charles de Gaulle.....	1944-1946
Félix Gouin, Georges Bidault, Léon Blum.....	1946-1947

IV^e République

Vincent Auriol.....	1947-1954
René Coty.....	1954-1959

V^e République

Charles de Gaulle.....	1959-1969
Georges Pompidou.....	1969-1974
Valéry Giscard d'Estaing.....	1974-1981

François Mitterrand..... 1981-1995
 Jacques Chirac..... 1995-2007
 Nicolas Sarkozy.....2007-2012
 François Hollande.....depuis le 15 mai 2012

LES PAYS DE L'UNION EUROPEENNE

Pays	Superficie	Pays	Superficie
Allemagne	357 000 km ²	Irlande	70 000 km ²
Autriche	84 000 km ²	Italie	301 000 km ²
Belgique	30 000 km ²	Luxembourg	2 500 km ²
Danemark	43 000 km ²	Pays-Bas	42 000 km ²
Espagne	505 000 km ²	Portugal	92 000 km ²
Finlande	338 000 km ²	Grande-Bretagne	244 000 km ²
France	551 000 km ²	Suède	450 000 km ²
Grèce	132 000 km ²		

LES GRANDES DATES DE LA CONSTRUCTION EUROPEENNE

- 1950 - Le plan Schuman propose aux pays européens de créer une communauté pacifique d'intérêts communs (Robert Schuman est alors ministre des Affaires étrangères de France).
- 1951 - Le traité de Paris institue la Communauté européenne du charbon et de l'acier (CECA). Six pays en sont membres: l'Allemagne fédérale, la Belgique, la France, l'Italie, le Luxembourg, les Pays-Bas.
- 1957 - Les traités de Rome, entrés en vigueur en 1958, instituent deux communautés supplémentaires: la Communauté économique européenne (CEE, dite Marché commun) et la Communauté européenne de l'énergie atomique (CEEa, dite Euratom).
- 1962 - La Politique agricole commune est acceptée dans ses principes et le Fonds européen d'orientation et de garantie agricole est créé.
- 1963 - Le traité de l'amitié franco - allemande est signé.
- 1965 - Fusion institutionnelle des trois Communautés européennes CECA, CEE et Euratom.
- 1973 - Les six deviennent neuf avec l'adhésion du Danemark, de l'Irlande et du Royaume –Uni.
- 1979 - Le système monétaire européen et l' ECU (Européen Currency Unit) entrent en vigueur. Première élection du Parlement européen au suffrage universel.
- 1981 - Les neuf deviennent dix avec l'adhésion de la Grèce (traité d'adhésion de la Grèce en 1979).
- 1985 - Les accords de Schengen prévoient la libre circulation, entre neuf pays de la Communauté, des ressortissants de la CEE, ainsi que le renforcement du contrôle aux frontières extérieures de l'Europe.
- 1986 - Les dix deviennent douze, avec l'adhésion de l'Espagne et du Portugal (traité d'adhésion en 1985). L'Acte unique européen est signé par les

«Douze» (il entre en vigueur le 1^{er} juillet 1987): l'espace européen doit être, au 1^{er} janvier 1993, un marché intérieur sans frontière; les personnes y circuleront librement.

1992 - Le traité sur l'Union européenne, dit «traité de Maastricht» est signé.

1993 - Le traité de Maastricht entre en vigueur. La Communauté économique européenne (CEE) devient la Communauté européenne (CE). Les frontières intracommunautaires sont supprimées (réalisation de l'Acte unique européen).

1995 - Les douzes deviennent quinze, avec l'adhésion de l'Autriche, de la Finlande et de la Suède.

1995 - Les accords de Schengen entrent partiellement en vigueur.

1999 - La monnaie unique – Euro- entre en vigueur.

MUNDARIJA

A.....	18
B.....	33
C.....	43
D.....	76
E.....	82
F.....	96
G.....	105
H.....	120
I.....	124
J.....	129
L.....	132
M.....	141
N.....	155
O.....	160
P.....	162
Q.....	181
R.....	182
S.....	199
T.....	209
U.....	216
V.....	219
W.....	223
Z.....	224
Lugʻat maqolalarida uchraydigan qisqartmalar.....	225
Ilovalar (Annexes).....	228
Les grandes dates de la construction Européenne.....	234

**O'LKASHUNOSLIK TERMINLARINING
FRANSUZCHA-O'ZBEKCHA
IZOHLI LUG'ATI**

Fransuz tilida erkin so'zlashish, muloqot qilish uchun bu tilning grammatik, fonetik va leksik jihatlari bilish bilan bir qatorda, Fransiya madaniyatini keng o'rganish zarur: uning tarixi, geografiyasi, davlat tizimi, siyosiy hayoti, san'ati, adabiyoti, fransuz xalqining kundalik turmush tarzi, ularning bayramlari, odat va an'analari bilan chuqur tanishish lozim bo'ladi.

Shuning uchun xorijiy tilni o'rganishning birinchi qadamlaridanoq, o'quvchilar bir vaqtning o'zida zarur bo'lgan o'lkashunoslik ma'lumotlariga ham ega bo'lganlari maqsadga muvofiq.

- Tabiiy shart-sharoitlari.
- Aholisi.
- Dini.
- Tili (davlat tili va shevalari).
- Davlat ramzlari.
- Ma'muriy, boshqaruv bo'limlari.
- Ma'muriy hududlar va okruglar.
- Davlat tizimi.
- Ijtimoiy-siyosiy hayoti.
- Davlat va siyosiy arboblari.
- Fransiya tarixidagi muhim davrlar.
- Iqtisodiyoti (22 ta regionga tavsif-nomalar).
- Ta'lim tizimi.
- Bayramlari, an'analari, fransuz xalqining turmush tarzi.
- Sport o'yinlari va musobaqalar.
- San'at sohasidagi asosiy yo'nalishlari (rassomchilik, haykaltaroshlik, me'morchilik, musiqa, teatr va boshqalar).
- E'tiborga loyiq joylari.

**DICTIONNAIRE RAISONNÉ
FRANÇAIS-OUZBEK
DE LA CIVILISATION FRANÇAISE**

Pour converser librement en français il faut apprendre profondément la culture de la France et aussi la grammaire, la phonétique et le lexique de cette langue. Il est nécessaire de connaître son histoire, sa géographie, son régime d'Etat, sa vie politique, son art, sa littérature, le mode de vie quotidienne du peuple français, ses fêtes, ses coutumes et ses traditions.

C'est pourquoi premièrement, les élèves doivent avoir des renseignements ethnographiques.

- Les conditions naturelles
- La population
- La religion
- La langue (langue d'Etat et les dialectes)
- Les attributs d'Etat
- Les divisions administratives et directives
- Les districts et territoires administratifs
- Le régime d'Etat
- La vie sociopolitique
- Les hommes d'Etat et politiques
- Les époques importantes de l'histoire de la France
- L'économie (caractéristique aux 22 régions)
- Le système éducatif
- Les fêtes, les traditions, le mode de vie du peuple français
- Les jeux sportifs et compétitions
- Les directions principales dans le domaine d'art (peinture, sculpture, architecture, musique, théâtre)
- Les curiosités



© „O'qituvchi“ NMIU
100206, Toshkent sh., Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi, 1, Tel.: (+99871) 224-04-12,
info@oqituvchi.uz, www.oqituvchi.uz

ISBN 978-9943-02-940-8



9 789943 029408